


758
N. SANAYEV

AUDIT

*Kasb-hunar kollejlari
uchun o'quv qo'llanma*



TQSHKENT — 2004

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMINI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

N. SANAYEV

AUDIT

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma



TOSHKENT — 2004

C- 30
65.052

Taqrizchilar:

Toshkent moliya instituti dotsenti, i.f.n. *I. Ochilov*,
Samarqand agrotadbirkorlik kollejining oliy toifadagi
o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi *N.Sanaqulov*

Mazkur o'quv dasturi malakali buxgalterlar tayyorlaydigan kollejlarda va boshqa o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan.

Samarqand qishloq xo'jaligi instituti, «Buxgalteriya hisobi, moliya va audit» kafedrasida yig'ilishining qarori va Iqtisodiyot fakulteti uslubiy hay'atining 02.03.2003- yil hamda institut olimlar kengashining qarori, Samarqand agrotadbirkorlik kolleji uslubiy kengashining 3- sonli 3- mart 2003- yil qarori asosida chop etishga tavsiya qilingan.

BBK 65.052

S 37165212-083 -2004
M 365(04)-2004

© «Bilim» nashriyoti, 2004-y.
© O'MKHTM, 2004- y.

KIRISH

Mamlakatimiz siyosiy mustaqillikni qo'lg'a kiritgandan keyingi 12 yil davomida iqtisodiy mustaqillik sari evolyutsion yo'l bilan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tub iqtisodiy islohotlar asosida o'tmoqda.

Bunda eng asosiy masala bozor iqtisodiyotining obyektiv qonun va kategoriyalari talablaridan kelib chiqqan holda jahon mamlakatlaridagi hisob, audit ishlarining integratsiyalashuviga erishish asosida chet el investitsiyalari uchun zarur huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish borasida huquqiy baza yaratilmoqda. Shuningdek, jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ulardan ijodiy foydalanilmoqda. Bu borada mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilanib, iqtisodiyotni va xo'jalik subyektlari iqtisodiyotini erkinlashtirishda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, milliy valutamizni konvertatsiya qilish, xo'jalik subyektlarining to'g'ridan to'g'ri chet el kompaniyalari bilan iqtisodiy aloqalarga kirishi uchun ham keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, hukumatimizning qishloq xo'jaligida lizing munosabatlarini joriy qilish to'g'risidagi qarori bu sohadagi muhim ish hisoblanadi.

Tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida buxgalteriya hisobi va iqtisodiy auditning nazariy, tashkiliy va amaliy jihatlari bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda ko'rib chiqilishi lozim. Uning nazariy, amaliy, huquqiy jihatlari bilan birgalikda iqtisodiy auditni amalga oshiradigan auditorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlarida tekshiruvlarni tartibga solish, iqtisodiy erkinlikni ta'minlash

ham tub iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi ekanligi ko'zga tashlanmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida bugungi kunda xalq xo'jaligi boshqaruv organlarining turlariga, funksional vazifalariga qarab auditlar: davlat organlari va mulkdorlik jihatlaridan nodavlat xo'jalik subyektlari auditiga bo'linadi. Bunday audit turlarining kelib chiqishiga sabab, birinchidan, turlicha mulk shakllarining vujudga kelishi bo'lsa, ikkinchidan, respublikamizning chet el kompaniyalari, investorlar bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lishi, uchinchidan, mamlakatimizning jahonga yuz tutishi munosabati bilan rivojlangan davlatlarning audit tajribalarini hamda respublikamizda ham, yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, auditorlik faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish muammolari vujudga kelmoqda.

Tabiiyki, bular o'z navbatida, bugungi kun talabiga javob beradigan auditorlik auditini, faoliyatini uyushtirishni taqozo qilmoqda.

Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan 1992- yil 9- dekabrda «Auditorlik faoliyatini rivojlantirish borasida», nihoyat 2000- yil 26- mayda «Auditorlik faoliyati to'g'risida» qonun qabul qilindi. Qonunlarning hayotga tadbiiq qilinishi borasida Respublika Vazirlar Mahkamasining 1993, 1994 va nihoyat 2000- yilning 22- sentabrida 365- sonli qarori hamda unga ilovalar sifatida bir necha Nizomlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnoma hujjatlar sifatida qaralishi lozim.

Qabul qilingan qarorlar kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashni isloh qilish tadbirlariga, dasturlariga daxldorligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham auditorlik to'g'risida darslik va amaliy o'quv qo'llanmalar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ammo kollej talabalari uchun hozircha mukammal darsliklar, xususan, keyingi me'yoriy hujjatlar asosida o'quv qo'llanmalar yaratilmagan.

Ma'lumki, hozirgi iqtisodiy rivojlanish davrida auditor deb nom olgan kishi qonuniy professional malakali xodim sifatida quyidagi kafolatlarga egadir:

1. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan mijozga (klijentga) buxgalteriya hisobi va hisobotlardagi axborot

ma'lumotlarining to'g'riligi, bugun va kelajakda faoliyat ko'rsatishi uchun mulk egasiga o'z xulosa hamda takliflari bilan kafolat berishi lozim.

2. Auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan xo'jalik subyekti bilan uning tijorat sirlarini saqlagan holda, audit tekshiruvi o'tkazilgan korxonada bilan o'zaro iqtisodiy aloqaga kiruvchi boshqa xo'jalik subyektlariga ham, mazkur korxonaning iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, to'lov qobiliyatini o'z xulosasi bilan kafolatlaydi.

3. Xo'jalik subyekti sifatida faoliyatni davom ettirishi mumkinligi haqida davlat, bank va audit hamda moliyaviy boshqaruv organlariga o'z auditorlik xulosasi bilan kafolat beradi.

4. Mamlakatimizdagi to'rtinchi hokimiyat hisoblangan matbuot organlari uchun audit tekshiruvi o'tkazilgan korxonadan berilgan auditorlik xulosasi bilan balans va moliyaviy ahvoli to'g'risidagi tegishli e'lonlar ham kafolat hisoblanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yangi tahrirdagi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq auditorlarga juda katta mas'uliyat yuklatilgan. Bunday mas'uliyatni bajarish uchun auditor o'ta malakali, buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish, soliqsiz boshqa to'lovlar uchun hamda moliyaviy tahlil singari shu sohaga daxldor fanlar to'g'risida ma'lum darajadagi bilimlarga ega bo'lishi zarur.

O'quvchilarga taqdim qilinayotgan ushbu darslik uchinchi marta qayta nashrga tayyorlandi. Qayta nashr jarayonida ijtimoiy hayotimizdagi audit sohasiga tegishli me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan yangi yo'nalishlar, bu sohada erishilgan yutuqlar hisobga olindi. Darslikda audit, auditorlik faoliyatining umumiy jihatlari, jumladan, agrosanoat majmui tarmoq korxonalariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

«Audit» fani oldin o'rganilgan umumiy iqtisodiy nazariya, texnologik hisob-kitob, moliya va iqtisod fanlarining davomiy yakunidir. U bo'lajak mutaxassisning bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik operatsiyalarining imkoniyati, oqibati va javobgarligi borasidagi malakasini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda, bu fan korxonani ta'sis etishda va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan hisobot, moliya, tahlilning uslubiy tomonlarini o'rgatishni ham o'z ichiga

oladi. Xususan, korxonalar rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, foydalanilmayotgan rezervlarni qidirib topish, ularni ishlab chiqarishga jalb etish, korxonaning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, xo'jalik faoliyati sirini saqlash kabi uslubiy tomonlari ana shular jumlasidandir. Bulardan tashqari mazkur fan korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish, mavjud barcha resurslardan foydalanish, samaradorlikka erishish yo'llarini aniqlash, tadbirkor va ishbilarmonlar faoliyatiga baho berish kabi masalalar yechimini ham o'rgatadi. Shunga qo'shimcha ravishda, xususiylashtirish, qiymatbaho qog'ozlar bozorining vujudga kelishi, korxonalar qonuniy statusining yaratilishi, korxonadagi barcha faoliyatlar mazmunining to'la o'zgarishi, ularning moliyaviy mablag'lar aylanma darajasini aniq belgilab olish, korxonalar tugatilgan sharoitda balansni, to'lov qobiliyatini tahlil qilish, ular yuzasidan bir necha yechimlarni topish va ular ichidan eng maqbulini tanlab olishdek masalalarni qamrab oladi. Umuman olganda, menejerlar va marketologlar oldida turgan muammolar yechimini o'rganishda bu kurs qo'l keladi. Chunki, mulkka nisbatan egalik hissining paydo bo'lishi ham audit faoliyatini bilishni talab qiladi hamda yuqori tashkilotlarga beriladigan hisobotlarni audit tekshiruvidan o'tkazish majburiyat tusiga kiradi. Shu jihatdan audit xizmatiga katta zaruriyat paydo bo'ladi.

Darslikda audit fanining nazariy va amaliy jihatlari, auditorlar uchun uni o'tkazish uslublari ko'rsatib beriladi.

Audit kursi bozor munosabatlari sharoitida investorlar (sarmoyadorlar) uchun korxonaning moliyaviy ahvolini hisobot qilish va uning realligini, hisobotlarning tekshirish uslublarini, to'lov qobiliyatini aniqlash, korxonalar tugatilishi, rentabellik darajasi, mablag'larning aylanma miqdori, joriy aktivlar to'g'risida axborot beruvchi vosita rolini o'ynashi mumkin.

Bozor munosabatlari jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni yechish, menejerlar faoliyatini yuqori saviyaga ko'tarish uchun ham mazkur fanni chuqur o'rganish zaruriyati tug'ilmoqda. Ayniqsa, ichki va tashqi auditlarning maqsad va vazifasini belgilash, auditorlar xulosasiga muvofiq xo'jalikning butun faoliyatini yanada takomillashtirish borasida ham «audit» kursi iqtisodchi mutaxassislariga qo'l keladi.

Tijoratga asoslangan va mustaqil audit tekshiruvining tashkil qilinishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida, mustaqil respublikamiz fuqarolarining turmush darajasini ko'tarishga qaratilgandir.

Hozirgacha bu sohada kadrlar tayyorlash milliy dasturiga mos ravishda darsliklar yaratilmagan. Mamlakatimizda auditorlik faoliyati va auditorlarni tayyorlashga, ularga zarur shart-sharoitlarni yaratish, qolaversa, hayotdagi tezkorlik asosida yuz berayotgan o'zgarishlar ham jahon auditorlik faoliyati me'yoriy hujjatlariga integratsiyalash jabhalarini qamrab olgan qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida yangi darslik yaratilishini taqozo qilmoqda. Ushbu darslik respublikamizda e'lon qilingan maxsus adabiyotlarni, ilmiy maqolalarni ma'lum darajada o'z ichiga oladi. Albatta, ushbu ish audit haqida tayyorlangan dastlabki ikkinchi darslik bo'lganligi sababli, unda ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Ular haqida fikr-mulohazalar berilsa, mualliflar xursand bo'lur edi.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan iqtisodiy tizim, shu jumladan, buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro andozalar talabi darajasida tashkil qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Shu sababli ham yangidan tashkil qilingan mulkchilikning nodavlat shakliga asoslangan agrosanoat majmuiga kiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlaydigan xo'jaliklarda auditni tashkil qilish va o'tkazishni hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Respublikamizdagi mavjud xo'jalik subyektlari qonunlar va me'yoriy hujjatlarda belgilangan tartibda auditorlik tekshiruvlaridan o'tkaziladi. Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish auditorlik firmalarining auditorlari tomonidan o'tkaziladi. Xo'sh, auditor kim? Bugungi kunda auditor O'zbekiston Respublikasi qonunlarini chuqur o'zlashtirgan, iqtisodiyot nazariyasi, buxgalteriya hisobi, moliya, pul muomalalari, soliq siyosati, iqtisodiy tahlil, statistika, ishlab chiqarish texnologiyasi va xo'jalik huquqi fanlarini chuqur egallagan kishidir. Auditor mutaxassislarining oldiga qo'yilgan quyidagi talablarni: 1) axloq-odob; 2) maxsus bilim; 3) ishchanlik; 4) obyektivlik (xolislik); 5) mustaqil fikrga ega bo'lish kabilarni ko'rsatish mumkin.

Agrosanoat majmuiga kiruvchi xo'jaliklar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kooperativ (shirkat xo'jaliklari), fermer, dehqon xo'jaliklari 1998- yildan boshlab oila pudrati asosida, o'zlarining pay ulushlari bilan xo'jalikning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etadigan davrda xo'jaliklarda auditni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham xo'jalikning moliyaviy faoliyatiga, moliyaviy hisobotiga auditor tomonidan baho berilishi ayni muddaodir.

Hozircha Agrosanoat majmui (ASM)ga kiruvchi xo'jaliklar ta'minot, xizmat ko'rsatuvchi, xaridor tashkilot va korxonalar bilan shartnomalar asosida ishlaydi. Ma'lumki, xo'jaliklar, korxonalar o'rtasida ta'minotchi, ish bajaruvchi, xaridor tashkilotlar bilan shartnoma tuzishda asosiy hujjat bo'lib xo'jalikning moliyaviy hisobot ma'lumotlari xizmat qiladi. Moliyaviy hisobot ma'lumotlarining haqiqiyligi va to'g'riligini faqat auditorlik xulosalari tasdiqlaydi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ilgari iqtisodiy tizim o'rniga jahon andozalariga mos demokratik-huquqiy davlatni barpo etish modeli tanlab olindi. Shuning uchun ham o'tish davrida huquqiy asoslarni shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, davlat mulkiga asoslangan mulkchilik shaklini isloh qilish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyot negizini yaratish masalasi ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilindi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Avval boshdanoq biz o'zimiz uchun muhim saboq chiqarib oldik — zarur huquqiy omilni shakllantirmasdan turib, tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini, islohotlar ortga chekinmasligining kafolatini amalda yaratib bo'lmaydi».¹

Mamlakatimizda turli mulk shakllariga asoslangan 10 shakldan ortiq xo'jalik subyektlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

¹ I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T., «O'zbekiston», 1995, 29- bet.

Respublikamizda turli xil mulk shakllarining vujudga kelishi natijasida endilikda oldingi davlat korxonalari va xo'jaliklari o'rniga hissadorlik (aksionerlik) jamiyatlari, shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklari, tadbirkorlar shaklidagi turli xil xo'jalik yurituvchi xo'jalik subyektlari egallamoqda. Ko'p ukladli mulkka asoslangan xo'jaliklarning vujudga kelishi ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tegishli qonunlar asosida amalga oshirishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida asosiy masala xalq xo'jaligini tubdan, yangi asosda isloh qilish deb belgilandi.

Hukumatimizning Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy sharoitlari, tegishli qonun va qarorlar asosida ko'p ukladli iqtisodiyotni va raqobat muhitini shakllantirishning tashkiliy shart-sharoitlarini vujudga keltirish deb belgilanganligi sababli, bu sohada o'z samarasini yo'qotgan, foydalanish darajasi past bo'lgan davlat mulkini xususiylashtirish, ya'ni davlat mulkini o'zining haqiqiy egalari bo'lgan korxonalar va xo'jalikdagi ishlayotgan xodimlarga hissa shaklida bo'lib berish, bozor iqtisodiyotiga o'tishning shartlaridan biri qilib tanlandi.

Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida endilikda zavod, fabrika, kolxoz, sovxoz o'rnida minglab kichik korxonalar, firmalar, fermer, dehqon xo'jaliklari, shirkat, jamoa xo'jaliklari, hissadorlik jamiyatlari, ijara korxonalari, qo'shma korxonalar tashkil qilindi.

Bunday xo'jalik subyektlarining vujudga kelishi xalq xo'jaligini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi bilan bir qatorda, yangidan tashkil qilingan xo'jalik subyektlariga ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, huquqiy asoslari va mulkni himoya qilish kabilar asosan davlat tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilsa, xo'jalikning strukturasi, boshqarish tizimi, xo'jalik tashkil qilishdagi moliyaviy manbalar, ta'minot, ishlab chiqarish, realizatsiya jarayonlari, xo'jaliklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik korxonalarining olgan daromad va xarajatlarini rejalashtirish, shuningdek, taqsimlash jamoa a'zolari — hissadorlar ixtiyori bilan tuzilgan Nizom asosida qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Har qanday xo'jalik subyekti hisoblangan korxonalar

Bugungi kunda xo'jalik subyektlaridagi dastlabki buxgalteriya hisobi va hisoboti jahondagi me'yorlarga integratsiyalashmoqda. Jumladan, 1995- yil 27- yanvarda qabul qilingan «Mahsulot (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi, moliyaviy natijalarining shakllanish tarkibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq xo'jalik subyektlarida to'rt faoliyat bo'yicha: 1) asosiy; 2) davr xarajatlari va daromadlari; 3) moliyaviy; 4) favqulodda faoliyatlar bo'yicha daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari olinishi ko'rsatilishi lozimdir. Auditorlar ushbu Nizomga muvofiq xulosa va takliflarini tuzishlari lozim.

Sohibqiron Amir Temur davlatni boshqarishda hisob va auditdan keng foydalangan. «Temur tuzuklari»da yozilishicha, «Tiyul (in'om) qilib berilgan har bir mamlakatga ikkitadan vazir tayinlansinlar. Biri viloyatdan yig'ilgan mollarni yozib, raiyat ahvolini tekshirib turishni, mol-mulk egasi fuqaroga jabr-zulm yetkazib, ularning holini xarob etmasin. U viloyatdan yig'ilgan butun mol ashyolarni kirim daftariga yozishi lozim. Ikkinchi vazir esa xarj etilgan qismini chiqim daftariga yozsin va (yig'ilgan mollardan) sipohlarning maoshiga taqsim qilinsin. Qaysi amirga tuyul berilar ekan, uni uch yilgacha o'z holiga qo'ysinlar. Uch yil o'tgandan so'ng uni tekshirib ko'rsinlar. Agar mamlakat obod, raiyat rozi ekan, shu holicha qoldirilsinlar. Agar ahvol bunga xilof ravishda bo'lsa, ul viloyatda xolis (davlat)ga o'tkazib, uch yilgacha o'sha jigardorga ulifa berilmasin».¹

O'rta Osiyo respublikalarida, xususan, Buyuk Ipak yo'li o'tgan mamlakatlarda ham audit qadimdan qo'llanilgan. Ayniqsa, savdogarlar o'rtasida olingan daromadni taqsimlashda xolis kishidan foydalanilgan. Shartnomaga muvofiq daromadlarning taqsimlanishini xolis kishi guvohligida bo'lib olganlar.

Bu darslikda kollej talabalari qalbida tabiat va jamiyat munosabatlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkiy munosabatlar, mulkdorlar sinfini vujudga kiltirilayotganligi, tovar, xizmat va bajarilgan ishlarning bozordagi raqobatlar ko'rinishidan iborat bo'lib qolishini tushungani holda, mentalitet

¹ Temur tuzuklari. T.: 1991, 77-bet

qarashi sifatidagi fukrlardan iborat ekanligini tushunish tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik, ular barham topishiga qaratilgan fan deb qaramasdan, tabiat hamda jamiyatlarning obyektiv rivojlanishi qonuniyatlarining tarkibiy qismi bo'lib qolishiga yo'naltirilgan fan deb qaralishiga da'vat qilunadi.

Audit tekshiruvining vujudga kelishi asosan mulkchilikning rivojlanishi, shuningdek, korxonalar va xo'jalik subyektlarining iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lganligi sababli, O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 320 dan ortiq auditorlik firmalari tashkil qilingan. 1996—1997- yillarda mulkchilikning nodavlat shaklidagi xo'jalik subyektlarining ko'pchiligi audit tekshiruvidan ixtiyoriy ravishda o'tgan. Mulkgalari xo'jalikni boshqarishda iqtisodiy munosabatlarni bozor talabidan kelib chiqib zamonaviy xo'jalik boshqarish usullaridan foydalanishning afzalligini to'g'ri tushunmoqdalar. Chunki, auditor oldingi revizor (auditor) emas, balki xo'jalik subyektlari tomonidan yollangan, xo'jalikning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlab, ularni qonunga mos tegishli normativ hujjatlar asosida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish, daromad va xarajatlarning samarali, xo'jalik uchun eng qulay, to'g'ri variantlarini tanlashda yordam beradigan tashkilot vakilidir.

1- MAVZU: O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATI, RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI, AUDIT FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

O‘zbekiston Respublikasi aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashga asoslangan bosqichma-bosqich, o‘ziga xos iqtisodiyot yo‘liga o‘tgan. Bunda ilg‘or mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish va ayni paytda, ushbu faoliyatni tarixiy shart-sharoitlar bilan uyg‘unlashgan holda tashkil qilish talab etiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida mamlakat iqtisodiyotida yangi muammolar yuzaga keladi. Respublikamizdagi bozor iqtisodiyotiga o‘tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo‘nalishlarining belgilanishi, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirish mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan holda bir qancha yangi malakali mutaxassislarga, nazariy va amaliy kurslarga, fanlarga ehtiyoj tug‘diradi. Shulardan eng muhimi — audit fani va auditorlik kasbidir. Ushbu sohada G‘arb mamlakatlarida katta tajriba to‘plangan. U dastlab Buyuk Britaniyada paydo bo‘lgan.

Mazkur fan tarixiga nazar tashlasak, u XVIII asrda vujudga kelganligining guvohi bo‘lamiz. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy axborotlarni tasdiqlash, korxonalarining moliyaviy ahvoli, balansini mustaqil audit qilishni ta‘minlash korxonalar hisoboti va real haqiqatga mosligini kafolat berish zaruriyati vujudga keladi.

Iqtisodiy jihatdan murakkab yangi sharoitda korxonalar faoliyatini, tijorat sirini saqlagan holda, auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish, korxonaga haqidagi axborotlardan foydalanuvchilar uchun, ularning obyektiv mustaqil bo‘lishini ta‘minlaydigan auditorlik tekshiruvini zaruriyat qilib qo‘yadi. Bu esa, bizning respublikamizdagi xalq xo‘jalik tarmoqlarining

boshlang'ich bo'g'ini — xo'jalik subyektlari uchun yangilik hisoblanadi. Bozor qonunlari qat'iy bo'lib, u tovar ishlab chiqaruv ishlar o'rtasidagi raqobatga asoslanganligi sababli, to'rtinchi hokimiyat, ya'ni matbuot unga obyektiv ma'lumotlar beruvchi auditorlik xizmati ehtiyojini vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan, reklama vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Auditorlik faoliyatining vujudga kelishi, birinchi navbatda, ishbilarmonlar, investorlar, aksiyadorlik jamiyatlari a'zolari-ning ehtiyoji uchun zarurdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish haqida, shunga bog'liq buxgalteriya hisoboti borasidagi ma'lumotlardan foydalanuvchilar uchun mustaqil auditorlik faoliyati juda ham muhim. Shu bois mazkur faoliyat auditorlar oldiga muhim talablarni qo'yadi. Jumladan, ulardan malakali, tajribali, insofli, to'g'ri so'z bo'lishlikni talab qiladi.

Auditorlik faoliyati shu davrgacha quyidagi muhim uch bosqichni bosib o'tganligini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir: 1) tasdiqlovchi audit; 2) sistemali mo'ljalga oluvchi audit (sistemali taxminiy yaxshi natijalarga erishishga undovchi auditorlik faoliyati); 3) tavakkal, taxminiy yaxshi, kelgusida iqtisodiy samarani ta'minlashga qaratilgan audit. Bular haqida keyingi sahifalarda qisqacha tavsifnoma beriladi.

Audit tekshiruvining zarurligi quyidagi 4 ta asosiy iqtisodiy shart-sharoitga bog'liq deb hisoblaymiz:

1) bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan o'z ish yakunlari bo'yicha noobyektiv axborotlarning taqdim qilinishi mumkinligi;

2) korxonaning kundalik xo'jalik yuritish jarayonida vujudga keladigan muammolar yechimining yo'nalishi shu axborotlarga asoslanishi;

3) ko'rsatilgan axborot ma'lumotlarining aniq, ishonchli ekanligini biladigan mutaxassislariga bo'lgan talabning keskin oshishi;

4) ko'p holatlarda qonunga va boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlarga muvofiq axborotlar sifatini, shuningdek, ulardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligini ham ta'kidlash mumkin.

Shunday qilib, auditorlik faoliyati — bu tadbirkorlikka asoslangan mustaqil ekspert mutaxassislar xizmati hisoblanadi.

U korxonalar faoliyatini yaxshilash uchun dastlabki zarurat bo'lib, korxonalar tomonidan moliyalashtirilib, buyurtma beriladigan xizmat faoliyatidir.

Bugungi kunda auditorlik faoliyati dunyodagi ko'pgina mamlakatlarda yuqori saviyaga ko'tarilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda 4,2 ming auditorlik firmalari dunyoning 147 mamlakatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Auditorlik firmalarining ko'pchiligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi milliy transatsiya qo'mita fikriga ko'ra, bir necha davlatlarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Jumladan, auditorlik firmasi «Eks-zid» 179 ta mamlakatda, «Prays-Uaterxauz» — 110, «Artur-Andersen» 100 dan ortiq mamlakatda faoliyat ko'rsatmoqda.

Sobiq Ittifoq respublikalari ichida O'zbekistonda birinchilar qatorida auditorlik faoliyati to'g'risidagi normativ aktlar majmui vujudga keltirildi:

1. «Auditorlik faoliyati haqida»gi qonun 1992- yil 9- dekabrda qabul qilindi. Mazkur qonun V bo'lim va 16 moddadan iborat.

2. «Auditorlik faoliyatini kuchga kiritish haqida» O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992- yil dekabrda qaror qabul qildi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1993- yil 3- mayda «Korxonalarda moliyaviy audit va uni xo'jaliklar hayotiga joriy qilishda auditorlik moliya auditining shakllari» haqida 198- sonli qaror qabul qildi. Mazkur qaror 5 ta banddan iborat bo'lib, auditorlikning qonunga muvofiq tashkil qilinishi, auditorlik faoliyatini shartnoma asosida pullik shaklda vujudga keltirish va boshqa masalalarni qamrab oladi. Unda barcha korxonalar auditorlik faoliyati bilan qamrab olinishi, shuningdek, auditorlik haqida vaqtinchalik Nizomning tasdiqlanishi ko'rsatilgan.

4. «Auditorlik firmasi va Auditorlik haqida vaqtinchalik Nizom» ishlab chiqilgan. U VIII bo'lim va 22 ta banddan iborat holda tasdiqlangan (№ 198, 1993- yil, 3- may).

5. «Auditorlarga haq to'lash to'g'risida»gi Nizom 1993- yil 3- mayda tasdiqlangan. U VII qism va 34 banddan iborat.

6. «Auditorlar va auditorlik firmalarini davlat qaydnomasidan o'tkazish haqida»gi qaror 3 banddan iborat bo'lib,

Vazirlar Mahkamasining 283- sonli qarori bilan 1993- yil 17- mayda tasdiqlangan.

7. «Auditorlik va auditorlik firmalarini davlat qaydnomasidan o'tkazish to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan. U 7 banddan iborat bo'lib, Vazirlar Mahkamasining 1993- yil 17- maydagi 293- sonli qarori bilan tasdiqlangan.

8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan (41-son, 1993- yil, 10- iyun) «O'zbekiston hududida auditorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga maxsus litsenziya berish tartibi haqidagi Nizom» 10 ta banddan iborat bo'lib, unga maxsus litsenziya namunasi ham ilova qilingan.

9. «Tekshirishlarni tartibga solish va audit qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida» Farmon («Xalq so'zi» gazetasi, 1996- yil 9- avgust).

10. Bank tizimida auditorlik faoliyatini tashkil qilish amaliyotini ham misol keltirish mumkin.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan normativ aktlarning ayrimlari to'g'risida alohida to'xtalib o'tishni lozim ko'ramiz.

«Auditorlik faoliyati haqida»gi qonunning I bo'limi «Umumiy ahvol» deb atalib, 1- moddasida «Audit» tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, auditorlik faoliyatining turlari ham yoritiladi. 2- moddasida auditorlik faoliyatiga litsenziya berish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanish tartibi ko'rsatilgan. 6- moddasida esa auditorlik xulosasi, unda buxgalteriya prinsiplariga rioya qilish va tasdiqlash qoidasi, 7- moddasida uning respublika hududida qanday tartibga solinishi ko'rsatilgan.

II bo'limning 8- moddasida auditor va auditor firmasining huquqlari belgilab berilgan. Shuningdek, xo'jalik subyekti sifatida shartnomalar tuzishni tekshirish uslubi va shakllarini mustaqil tanlash, tekshirish davrida tegishli kishilardan tushuntirish olish huquqlari ko'rsatilgan. Bundan tashqari korxonalar litsenziyasini bekor qilish haqida sud organlariga shikoyat qilish tartibi ham izohlangan. 9- moddada auditorning majburiyatlari, rahbarlarga qonun va normativ aktlarning tuzilishi haqida axborot berish, korxonalar sirini saqlash, o'z faoliyatini sababsiz to'xtatmaslik, yig'ilish chaqirishni talab

qilish kabi harakat qoidalari ko'rsatilgan. 10- moddada esa auditni tayinlash va chaqirib olish tartibi to'g'risida gap yuritilgan. 11- moddada auditorga zarur ish shart-sharoitlari yaratilishi ko'rsatilgan. 12- moddada esa uning javobgarlik masalasi aniq belgilab berilgan.

III bo'limning 2-moddasida auditorlarga haq to'lash tartibi, 13- moddada auditorlik tashkilotlarining ixtiyoriylik asosida tashkil qilinishi, ularga haq auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan mijoz tomonidan kelishilgan baholarda to'lanishi qayd etilgan.

IV bo'limning 2- modda 15- bandida moliyaviy hisobot ma'lumotlarini matbuotda e'lon qilish, 16- moddada esa uni e'lon qilish tartibi ko'rsatilgan.

V bo'lim «Maxsus holatlar», deb atalib, uning 17- moddasi auditorlik faoliyatini taqiqlashga va 18- moddasi nizolar yechimini hal etishga qaratilgan.

Auditorlik firmalari va auditorlarning funksional faoliyatlari yuqorida ko'rsatilgan qonun va normativ aktlarda aniq belgilab berilganligini ko'rib o'tdik. Shunday bo'lsa-da, ularning faoliyat turlariga to'xtalish lozim deb hisoblaymiz.

Auditorlik faoliyati haqidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarga sharhlar

Mustaqil Hamdo'stlik mamlakatlari ichida birinchi bo'lib bizning respublikamizda auditorlik faoliyatiga tegishli huquqiy-me'yoriy bazalar yaratildi.

Respublikamizda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi ilk qonun 1992- yil 9- dekabrda qabul qilingan edi. Ammo bugungi kunga kelib bu qonun shiddat bilan tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera olmay qoldi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'tgan davr ichida to'plangan tajribalarni va auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi kamchiliklarni e'tiborga olib, 2000- yil 26- mayda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunni yangi tahrirda qabul qildi. Yangi qabul qilingan qonun 29 moddadan iborat bo'lib, auditorlik faoliyatiga ko'plab yangiliklarni olib kirdi. Jumladan, mazkur

302-3

qonunda birinchi marta auditor yordamchisi, auditor malaka sertifikatini, majburiy auditorlik tekshiruvi, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi kabi yangi tushunchalarga huquqiy tavsif berilgan. Bundan tashqari yangi tahrirdagi qonunda auditorlik hisoboti, auditorlik xulosasi ham davr talabiga mos ravishda yetarli darajada keng yoritib berilgan.

Qonunda auditorlik faoliyati tushunchasiga auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq kasbiy xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati deb ta'rif berilgan. Auditorlik tashkiloti esa Qonunning 5- moddasiga muvofiq auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan mustaqil yuridik shaxs bo'lib, auditorlik tashkiloti Ustav kapitalining kamida 51 foizi bir yoki bir necha auditorga tegishli bo'lishi lozim, ya'ni respublikamizdagi auditorlik tashkilotlari xususiy mulk shaklidagi tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatishi birinchi marta qonunda mustahkamlab berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 22- sentabrdagi 365- sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi qarori bilan auditorlik tashkilotlarining Ustav kapitalining eng kam miqdori eng kam oylik ish haqining 1200 baravari miqdorida bo'lishi lozimligi belgilab qo'yildi. Me'yoriy hujjatlar tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirilib borilmoqda, 2002- yil 12- dekabr kunidagi Oliy Majlis sessiyasida qonunning 8- moddasiga takomillashtirish bo'yicha o'zgarishlar kiritildi.

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning Ustav kapitali ta'sischi yoki ta'sischilardan tushgan mablag' hisobiga tashkil qilinadi va shu Ustav kapitali asosida subyektning mol-mulki shakllantiriladi. Auditorlik tashkilotlarining Ustav kapital miqdorining respublika hukumati tomonidan bunday katta miqdorda belgilanishining boisi auditorlik tashkilotlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobotlarining haqqoniyligini tasdiqlab, xulosalar berishida mas'uliyatini oshirish va auditorlik tashkilotlari bergan noto'g'ri xulosalardan foydalanuvchilarga yetkazilgan zararlarning auditorlik tashkiloti mol-mulki hisobidan qoplanishini ta'minlashdir.

Respublikadagi vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, shuningdek, boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan auditorlik tashkilotlari tuzilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, mazkur qonun bilan auditorlik tashkilotlarining faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi, mustaqil auditorlik tekshiruvini amalga oshirishga to'sqinlik qilish maqsadida auditorlik tashkilotiga yoki auditorlarga istalgan shakllarda ta'sir o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi ham huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan.

Yangi tahrirdagi qonunda auditorlik tashkilotining shtat birligi ikki auditor kam bo'lmasligi, auditorlik tashkilotining rahbari faqat auditor bo'lishi, tashkilotning qonuniy hujjatlarida nazarda tutilgan Ustav kapitali bo'lishi, auditorlik tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi, Respublika Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziyasi bo'lishi, o'zining fuqarolik javobgarligi xususidagi sug'urta polisi mavjud bo'lishi to'g'risidagi shartlar ham qo'yilgan bo'lib, bu shartlar auditorlik tashkilotining yuridik shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishni boshlashining asoslari hisoblanadi.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqish, tekshiruv o'tkazayotganda xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni to'liq olish, ushbu hujjatlarda hisobga olingan mol-mulkning amalda mavjudligini va majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirish, tekshiruv davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha moddiy javobgar shaxslardan og'zaki va yozma tushuntirishlar, tekshiruv uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlar olish, xo'jalik yurituvchi subyekt dan uchinchi shaxslar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan axborotlarni olish, ishonchli auditorlik xulosasi tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, auditorlik o'tkazishda ishtirok etishga auditorlar va boshqa mutaxassislarni belgilangan tartiblarda jalb etish huquqlariga egadir.

Shu bilan birga, auditorlik tashkiloti faqat auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish, bu faoliyatni amalga oshirayotganida qonun hujjatlari talablariga rioya qilish, buyurtmachining talabiga binoan litsenziyasini, auditorning tekshiruvini amalga oshirish jarayonida olingan axborotlarning maxfiylikiga rioya qilish, auditorlik hisobotida moliyaviy-xo'jalik ishlarining qonuniyligi buzilishi faktlarini hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarini aks ettirish majburiyatlariga ham ega. Agar xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari subyektga zarar yetkazganligi faktlari aniqlansa, auditor bu haqda xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyatiga yoki mulkdoriga ma'lum qilishi hamda bu to'g'risida auditorlik hisobotiga tegishli qaydni kiritishi, zarur hollarda auditorlik tekshiruvi natijalarini ma'lum qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarda qatnashchilarning yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishi shart.

Auditor sifatida faoliyat ko'rsatishni boshlash uchun ham aniq shartlar qo'yilgan. Jumladan, faqat auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsgina auditor bo'la oladi. Bundan tashqari auditor auditorlik tekshiruvi o'tkazishga jalb qilinishi uchun biron-bir auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo'lishi yoki auditorlik tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnoma tuzgan bo'lishi lozim. Auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi yoki boshqa xatti-harakatlari bilan auditorlik tashkilotiga zarar yetkazganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti oldida javobgar bo'ladi.

Auditor malaka sertifikatiga ega bo'lmagan jismoniy shaxs yangi qonunga muvofiq auditor yordamchisi hisoblanadi va u auditorlik hisobotiga, auditorlik xulosasiga, auditorning ekspert xulosasiga, auditorlik tekshiruvi o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa rasmiy hujjatlarga imzo chekish huquqiga ega bo'lmaydi. U auditorning topshirig'iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etib, auditorga yordam qiladi. Tekshiruvni amalga oshirishda olingan ma'lumotlarni oshkor etmaslik majburiyati auditorning yordamchisiga nisbatan ham tatbiq qilinadi. Auditorning yordamchisi zarur ma'lumotlarni va takliflarini o'z imzosi bilan auditorga taqdim qiladi.

Yangi tahrirdagi Qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000- yil 13- oktabrda 977- raqam bilan ro'yxatga olingan «Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, auditor malaka sertifikati jismoniy shaxsga, basharti u auditorlik tashkiloti shtatida bo'lsa yoki u bilan auditorlik tashkiloti fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzgan bo'lsa, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish huquqini berishi ko'rsatilgan bo'lib, mazkur Nizomda auditor malaka sertifikatini berish, sertifikatning amal qilishini to'xtatish va bekor qilish tartiblari belgilangan. Auditor malaka sertifikati olish uchun da'vogar auditorlarning respublika jamoat tashkiloti bilan kelishilgan holda qabul qilingan maxsus o'quv dasturi asosida o'qigan bo'lishi, belgilangan tartiblarda Respublika Moliya vazirligiga Nizomda ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qilgan holda sertifikat olish uchun imtihonlar topshirish uchun ariza bilan murojaat qilishi lozim. Auditor malaka sertifikati 5 yil muddatga beriladi.

Qonunda birinchi marta auditorlik tekshiruvining mohiyati ko'rsatib berildi, ya'ni auditorlik tekshiruvini, moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning to'g'riligi, va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirish qonuniy ekanligi alohida ta'kidlab qo'yildi.

Auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o'tkaziladi. Qonunda har yili bir marta majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ham aniq ko'rsatilgan bo'lib, bular jumlasiga aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar, mablag'larining hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida ko'rsatilgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish budjetdan tashqari fondlar, ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar kiradi.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo'jalik yurituvchi subyekt bo'ladi va u auditorlik tashkilotini tanlashda mustaqil mulk egasi yoki qatnashchilar, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bilan kelishib ish ko'radi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan respublikaning ushbu sohadagi amaliyotida birinchi marta qonuniy tarzda jarimalar belgilandi. Qonunning 10- moddasiga muvofiq, majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish xo'jalik yurituvchi subyektdan eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima undirishga va uning rahbarini qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Ushbu qonun asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000- yil 22-sentabrda qabul qilgan «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi 365- sonli qarori bilan «Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazilishida bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirish tartibi to'g'risida»gi Nizomni ham tasdiqladi. Ushbu Nizomga ko'ra hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha yillik moliyaviy hisobot auditorlik tekshiruvidan o'tkazilmasligi va auditorlik xulosasi mavjud emasligi xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazilishidan bo'yin tovlashi deb e'tirof etiladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt auditorlik tekshiruvini tamom bo'lgandan keyin, 15 kun mobaynida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim qiladi. Nizomda undiriladigan jarimaning tabaqalashtirilgan tartibi ham belgilangan, jumladan, eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha bir yillik yalpi tushumga ega bo'lgan subyektga eng kam oylik ish haqining 100 baravari miqdorida, eng kam oylik ish haqining 500 baravaridan 15 ming baravarigacha bo'lgan bir yillik yalpi tushumga ega bo'lgan subyektga eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorida, eng kam oylik ish haqining 15 ming baravaridan yuqori bir yillik yalpi tushumga ega bo'lgan subyektga eng kam oylik ish haqining 500 baravari miqdorida jarima solinadi.

Auditorlik hisobotlari va xulosalarining haqqoniy va birlamchi hujjatlarga muvofiq bo'lishi xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisobotlaridan foydalanuvchilar uchun, shuningdek, davlat boshqaruv va audit organlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham qasddan soxta auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzilganligi auditorlik faoliyati bilan shug'ullanishi huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishni tugatishga va aybdor shaxslarning qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishiga olib kelishi ham qonunda qat'iy belgilangan.

Bundan tashqari auditorlik tekshiruvining haqqoniy o'tkazilishini ta'minlash maqsadida qonunda tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari bilan yaqin qarindosh bo'lgan, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektida mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlari bo'lgan shaxslarga aynan shu xo'jalik yurituvchi subyektida auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiqlanishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, shuningdek, xo'jalik boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning xodimiga ham auditorlik tekshiruvini o'tkazish taqiqlanishi, bir-biriga nisbatan mulkdor, qatnashchi, aksiyador, kreditor, sug'urtalovchi bo'lgan hollarda auditorlik tashkiloti yoki auditorlik shu xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazishi, auditorlik tekshiruvini o'z ichiga olgan davrda professional xizmatlar ko'rsatib kelgan xo'jalik subyektida ham aynan shu auditorlik tashkiloti va auditorlik tekshiruvini o'tkazishi man qilinishi alohida ta'kidlangan.

Auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya faqat auditorlik tashkilotlariga beriladi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 22- sentabrdagi 365- sonli qarori bilan tasdiqlangan «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq litsenziyalar Respublika Moliya vazirligi tomonidan beriladi va litsenziya olish uchun da'vogar mazkur vazirlikka ta'sis hujjatlarning notarial tasdiq-

langan nusxalarini, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomani, kamida ikki auditorning malaka sertifikatlarining tasdiqlangan nusxalarini, soliq to'lovchi sifatida auditorlik tashkilotiga identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi soliq organining ma'lumotnomasini, arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bankning to'lov hujjatini ilova qilgan holda arizani taqdim qilish lozim. Ariza 15 kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya qayd etilgan sanadan boshlab 5 yil muddatga beriladi.

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan yangi tahrirdagi qonun va Vazirlar Mahkamasining qarori, shu qaror bilan tasdiqlangan Nizomlarda litsenziyaning amal qilishini tugatish, litsenziyani bekor qilish, auditor malaka sertifikatining amal qilishini tugatish, malaka sertifikatini bekor qilish asoslari ham batafsil sanab o'tilgan.

Har bir qabul qilingan qonun va huquqiy-me'yoriy hujjat ma'lum bir sohaning rivojlanishi va taraqqiyoti uchun xizmat qilishi hamda sohani mumkin qadar to'liq tartibga solishi shart. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda auditorlik faoliyati borasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Qonun, Vazirlar Mahkamasining qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan Nizomlar respublika iqtisodiyotining asosi bo'lgan xalq xo'jaligining tarmoqlari va ularning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan xo'jalik yurituvchi subyektlarnig bozor iqtisodiyoti, raqobatlar kurashi sharoitida barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Fikrimizcha, bu qonun va qonunosti hujjatlarini hayotga tatbiq qilishda ko'pgina tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Jumladan:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga baho berishda mol-mulkning saqlanishida tabiiy kamayish me'yorlarini ishlab chiqish.

2. Mahsulotlarni qayta ishlash, ishlab chiqarishda ilmiy va amaliy asoslangan me'yorlarni tavsiya qilish.

3. Xomashyolardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish me'yorlarini yaratish.

4. Qishloq xo'jaligida qiymat qonuni talablaridan kelib chiqqan holda asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlar tannaxsini hisoblash uslublarini ishlab chiqish.

5. Me'yoriy va jamiyat, iqtisodiyot tan olgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va auditorlarga tavsiya qilish kabilar.

Biz sanab o'tgan bu masalalar hayotda va iqtisodiyotda o'z yechimini kutayotganligiga qaramay, yuqorida zikr etib o'tilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar bugungi kun talabi bilan yaratilgan, keng joriy qilinishi lozim bo'lgan qoidalar, tartiblar, huquq va majburiyatlar majmuidir.

Bu me'yoriy hujjatlar respublikamizda audit fanini rivojlantirishga, jahon audit fani prinsiplariga integratsiyalashuvi jarayoniga qo'shilgan hissa bo'lib xizmat qiladi.

2- MAVZU: AUDITNING UMUMIY QOIDALARI

Jahon auditorlik faoliyatlari bo'yicha standartlarga sharhlar

Auditorlik faoliyatida me'yoriy hujjatlar sifatida audit tekshiruvining jahon standartlari (andozalari)ni ishlash borasida ham ma'lum darajada urinishlar bo'lganligini qayd qilish lozim bo'ladi.

1948- yilda Amerika qasamiyotchi buxgalterlar instituti tomonidan «Umumlashtirilgan audit standartlari» ishlab chiqildi. Shuningdek, auditorlar instituti tomonidan «Ichki auditorlarning majburiyatlari» e'lon qilindi.

1976- yilda ma'lumotga elektron ishlov berish auditlar assotsiatsiyasi tashkil qilinib, 1987- yilda «Axborot tizimi bo'yicha umumiy qabul qilingan audit standartlari» ishlab chiqildi.

Dunyoning ko'pchilik davlatlarida milliy uzatuv auditor-konsultant firma vakolatxonalari mavjud bo'lib, ularning barchasi xalqaro auditorlik me'yorlari (MNA—ular 29 ta) va ularga mos keladigan ishlar me'yorlari (MNASR—to'rtta)dan keng foydalanadilar. Butun dunyoda auditorlar faoliyatida umumiy standartlar ishlanishiga Amerika qasamiyotchi buxgalterlar instituti (AICPA) katta ta'sir va tashabbus ko'rsatib keladi. Maskur standartlar 3 ga bo'linadi: umumiy, audit obyektlari ish standartlari va xulosa standartlari. Shu bo'yicha auditorning 3 ta standartlari umumiy qoida sifatida qo'llanilib kelinadi, jumladan: auditorlik tekshiruvni amalga oshiruvchi kishilar malakali va texnik uslubiy tayyor bo'lishi shart; auditor tekshiruv jarayonida albatta mustaqil va obyektiv bo'lishi; audit tekshiruvda va xulosa yozishda auditor malaka aniqligini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi zarur. Auditorning «umumiy etika» kodekslari mavjud bo'lib, ular ma'lum qoida va tushuntirishlar, me'yor sifatida modda-modda qilib

me'yorlashtirilgan: «Mustaqil bo'lish» (№ 101), «Audit standartlari» (№ 202), «Bank belgilagan limitdan oshmasligi lozim uslubiy standartlar» (№ 203), «Mijoz haqida konfidensial axborotlar» (№ 301), «To'lov va rag'batlantirishlar» (№ 302), «Diskreditorlik harakatlari» (№ 501), «Reklama va boshqa shakldagi harakatlar» (№ 502), «Komission yig'inlar» (№ 503), «Noo'rin harakatlar (№ 504)» va nihoyat, «Harakat shakllari va faoliyat turlarining nomlari» (№ 505).

Audit tekshiruvining rivojlantirilishi O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida bo'lib, bugungi kunda 11 ta audit standartlari ishlab chiqildi, ularning ham me'yoriy hujjatlar jumlasiga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Audit standartlari: O'zbekiston respublikasining milliy audit standarti «Auditni rejalashtirish», «Mijozlarning faoliyati (biznes) bilan tanishish», «Auditor ishlarining sifatini nazorat», «Auditni hujjatlashtirish», «Auditorlik tavakkalchiligi va muhimlik», «Moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichlarga mazmun axborotlari», «Auditorning analitik jarayonlari», «Auditor tanlovlari», «Auditor tomonidan ekspertlarning ishlaridan foydalanish» kabilardir. Bu standartlarning tartib raqami bilan tushmasligiga sabab respublikamizda xalqaro audit standartlarining tajribalar asosida boshqa shart-sharoitlar hisobga olinib, raqamlari tushmagan standartlar ishlab chiqilishi ko'zda tutiladi.

Respublikamiz aholini ijtimoiy himoyalash hamda iqtisodiyotni bosqichma-bosqich erkinlashtirish asosida bozor iqtisodiyotiga o'tmoqda. Bugungi iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tish, barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun unga bog'liq barcha omillarni to'g'ri baholash, iqtisodiy auditning yangi shakllarining chuqur tahliliy uslublarini joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bunday sharoitda auditorlik faoliyatini xalqaro nazariy huquqiy va amaliy talablar darajasiga ko'tarish muhim hisoblanadi. Bu, albatta, juda murakkab masala. U quyidagi muammo va masalalarni o'z ichiga oladi: audit nazariyasi va faoliyatini tashkil qilish; uning uslubiy tomonlari, uni tashkil qilish bilan bog'liq muammolar.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'z-o'zini moliyalashga, o'z xarajatlarini o'z daromadlari bilan

qoplashga asoslanadi. Audit fani predmeti haqida yaxshiroq tasavvurga ega bo'lish uchun uni o'rganish obyektlarining ikki jihatiga e'tibor qilish darkor: 1) xalq xo'jaligining boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan korxonalar; 2) audit tekshiruvini o'tkazish jarayoniga qarab xo'jalik jarayonlari, mablag'lar va ularning manbalari tekshiruvdan o'tkaziladi. Bundan tashqari korxonalarning yuridik kuchga ega bo'lgan normativ hujjatlari, texnologik ishlari, xo'jalikni yuritish ishlari, shartnoma munosabatlari, reja tuzilishi, shuningdek, uning tarkibiy qismlari ham audit obyektlarini tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik faoliyati asosidagi tovar ishlab chiqaruvchilar raqobat kurashida mag'lubiyatga uchramay, barqaror faoliyat ko'rsatib, mulkdor bo'ladilar.

Audit fanining muammolari

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ga mos ravishda oliy o'quv yurtlarida «Audit» fani o'qitilmoqda. Ammo bu bizning tizimimizda yangi fan hisoblanadi, shu munosabat bilan uni o'rgatish, auditorlarni tayyorlashda hayot tomonidan yangi-yangi o'z yechimini kutayotgan ko'plab muammolar paydo bo'lmoqda, jumladan, fanning o'rganish obyektlari va predmetlari, metodlari kabilar.

Bozor iqtisodiyotiga amal qilayotgan mamlakatda audit fani o'rganiladi. Buning uchun o'rganilishi lozim bo'lgan audit fani qamrab olgan obyektlar to'g'risida ma'lum fikrga ega bo'lish zarur. Shu nuqtayi nazardan obyektlarni jamiyat ijtimoiy tuzilishi va iqtisodiy rivojlanishini hisobga olib, quyidagi jarayonlarni obyekt deb hisoblash mumkin:

1. Tayyorlov jarayoni, ya'ni tabiiy resurslardan insonlarning o'z ehtiyojlariga moslashtirib olishlari. Bunda keyingi obyekt ishlab chiqarish jarayonini barpo etish uchun sharoit yaratib oladi.

2. Ishlab chiqarish jarayoni. Bu jarayonda ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari: mehnat vositalari va predmetlarining qo'shiluvi, harakatga kirish jarayoni tushuniladi. Buning natijasida hayot ehtiyojini qondiradigan biron-bir

mahsulot (oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazo) ishlab chiqariladi.

3. Taqsimot jarayoni. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ma'lum bir qoidalarga muvofiq taqsimlanadi. Masalan, paxtag'alla, sholiga davlat buyurtmasi bo'ladi. Buni, albatta, yetkazib berish kerak. Chunki hozirgi o'tish sharoitida, ayniqsa, paxta muhim strategik ahamiyatga ega.

4. Ayirboshlash jarayoni. Bunda tovarlar, tovarlarga yoki uning qiymatiga tenglashtirilgan ekvivalentlarga almashtiriladi. Chunki biron-bir mahsulotni ishlab chiqaruvchining hayot faoliyati uchun faqat yetishtirgan mahsulotning o'ziga kifoya qilmaydi.

5. Sotish jarayoni.

6. Iste'mol jarayonlari to'g'risida ham shularni davom ettirish mumkin.

Agarda mulkka egalik qilish nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, audit tekshiruvining obyektlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Yuridik shaxslar.

2. Jismoniy shaxslar.

Xo'jalikning subyektlari doirasida audit tekshiruvining obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Xo'jalik mablag'larida ularning tarkibiy qismlari.

2. Ta'sis kunidan boshlab xo'jalik mablag'larining vujudga kelishi va ularning joylanishi bo'yicha mulkiy munosabatlar.

3. Xo'jalik jarayonlari va texnologiya intizomiga rioya qilishning ahvoli.

4. Moliyaviy natijalar va hisob-kitoblarning ahvoli.

5. Korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlarining tahlili va ularning optimalligini ko'rib chiqish.

6. Xalqaro va ayrim olingan bir mamlakatga yoki korxonada doirasida xo'jalik qurilishi, xo'jalik yuritish to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarning hayotiy o'rnini belgilash va ularning so'zsiz bajarilishini ta'minlash ahvoli.

Ushbu keltirilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, audit tekshiruvi shu sanab o'tilgan obyektlarni qamrab olib o'tkaziladi. Davr taraqqiy etishi bilan bu obyektlar qisqarishi yoki ularning safiga yangilari qo'shilishi mumkin. Albatta,

bu ishlab chiqarish jarayoni, xo'jalik yuritish shakllari va hokazolarga bog'liq bo'ladi.

Audit fani predmeti haqida yaxshiroq tasavvurga ega bo'lish uchun, uni o'rganish obyektlarining ikki muhim jihatiga alohida e'tibor berish kerak:

1. Xalq xo'jaligining bosh bo'g'ini hisoblangan turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar. Bu degani turli mulk shakllaridagi korxonalarni bir xil usul, bir xil yo'nalish, tekshiruv bilan audit tekshiruvini amalga oshirib bo'lmaydi.

2. Audit tekshiruvini o'tkazish jarayoniga qarab, xo'jalik jarayonlari, mablag'lar va ularning manbalari. Bundan tashqari korxonalarining yuridik kuchga ega bo'lgan normativ aktlari, texnologik va xo'jalik yuritish ishlari, shartnoma munosabatlari, reja tuzilishi, shuningdek, uning tarkibiy qismlari ham audit tekshiruvining obyektini tashkil qiladi.

Audit fanining predmeti xalqaro bozor munosabatlaridagi obyektiv rivojlanish qonunlariga ayrim olingan bir mamlakatda yoki tarmoqlarda, yoki tarmoqlar doirasidagi korxonalarda, yoki korxonalar doirasida ishlab chiqarish bo'linmalarida xo'jalik qurilish, xo'jalik yuritish to'g'risidagi qonunlarning bajarilishini tekshirish, ular yuzasidan ma'lum xulosa va takliflarni berishdan iboratdir. Ana shu ishlar amalga oshgan taqdirda korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va samara olishiga keng imkoniyatlar tug'iladi.

Tor ma'noda audit tekshiruvining predmeti yuridik va jismoniy shaxslarning xo'jalik iqtisodiy ishlab chiqarish hamda samara olish yuzasidan ularning faoliyatiga baho berishdan iboratdir.

Auditorlik faoliyati, bir tomondan (mijozlar manfaati yuzasidan), hududlar tarmoqlar va tarmoqlar doirasidagi avanslangan kapitalning kengaygan takror ishlab chiqarish jarayonida aylanishining iqtisodiy tahliliga samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan esa, tovar ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy holati to'g'risida ishonchli obyektiv ma'lumotlarni o'rganishga xulosa chiqarib, tavsiyalar berishga qaratilgan.

Audit fanining predmeti maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi, jumladan, mavjud resurslardan unumli foydalanish

hamda korxonalar tarmoq faoliyatlarining samaradorligini oshirish asosida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Audit fanining predmeti tovar-pul munosabatlari hukmron bo'lgan bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qilinadigan xo'jalik yuritish mexanizmi bo'yicha normativ aktlarga amal qilinish jihatidan xulosa berishdan iborat. Ya'ni shu normativ aktlar bozor iqtisodiyoti sharoitini to'liq hisobga olgan holda tuziladi va yuritilishi nazarda tutiladi. Ana shularni yuritayotgan mutaxassislar ishni to'g'ri amalga oshirayaptimi yoki shu jarayonda qanday kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar? Fan predmetining mohiyati ana shu jihatlar bilan ham bog'liqdir. Auditorlar, avvalo, o'z faoliyatlarini audit tekshiruvining obyektiv xo'jalik subyektlari doirasida amalga oshiradi. Xo'jalik subyektlari turli mulk shakliga asoslangan ijara aksionerlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar hissadorlik korxonalaridan iborat. (Hozirgi sharoitda ana shular samara bermoqda.)

Bir so'z bilan aytilganda, fanning predmeti fanning tahlilini va ular yuzasidan korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan yozma xulosa demakdir.

Auditorlik fanining predmetini o'rganishda uning metodologiyasi mavjud. Ushbu metodologiya, avvalo, tabiat va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishini o'rganuvchi fan sifatida dialektik materializm tamoyillariga asoslanadi. Bu degani mavjud moddiy boyliklar va ularni boshqaruvchi shaxslarning konkretligini inobatga oladi. Ya'ni moddiy boyliklarga bir necha kishi javob bermaydi, unga mas'ul kishilar aniq tayinlangan bo'ladi.

Auditorlik iqtisodiy nazariya fanining abstraksiya metodidan foydalanish asosida o'rganiladi. Abstraksiya — fikr-mulohazani mavhumlashtirish degan ma'noni anglatadi.

Bulardan tashqari audit fanining o'ziga xos o'rganish uslublari mavjuddir. Jumladan, tahlil, nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash, tekshiruvchining haqiqiy va hujjatli tekshiruvdan, laboratoriya tahlillaridan hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni guruhlash asosida tahlil jadvallaridan foydalanish, hisoblash uslubi va audit tekshiruv jarayonida hisoblash mashinalaridan foydalanish. Audit tekshiruvchida faqat hujjatli tekshiruvdan tashqari, haqiqiy (inventarizatsiya) tekshirishdan ham foydalanish kerak. Audit fanining nazariy jihatlarini e'tiborga oladi-

gan bo'lsak, fanning predmetini o'rganishda audit metodologiyasi va auditorlik mezonlarini bilish muhimdir. Bunda audit tekshiruvining maqsadi hamda auditorlik mezonlarining asosiy tamoyillarini bilish zarur.

Buxgalteriya hisob-kitobi va moliyaviy hisobotlarga oid ma'lumotlarning aniqlik darajasini o'rganish, uning hayot voqealariga qanchalik mos kelishini taqqoslash lozim. Audit tekshiruvi o'tkazishni inventarizatsiya va normativ aktlarning xo'jalik operatsiyalariga mos kelishini tekshirishdan boshlash, tahlil fanlarining uslublaridan foydalanish mumkin.

Bugungi kunda respublikamizning agrosanoat majmuida respublika «Agrotahlil» kompaniyasi va 112 viloyatda uning filiallari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularda 450 dan ortiq auditorlar muvaffaqiyat bilan soha xususiyatlarini hisobga olib ishlamoqdalar. Ular bozor iqtisodiyotining raqobatlar kurashida, fikrimizcha, ma'lum darajada iqtisodiy samara olish imkoniyatlarini yaratmoqdalar. Bu davrda agrosanoat majmui korxonalariga 402,3 ming so'mlik samara olish imkoniyatini yaratdilar.

Albatta, bu bilan bog'liq ayrim muammolar kelib chiqmoqda, jumladan, mulklardan samarasiz foydalanish, ba'zi hollarda uchrab turadigan o'g'irlik, qo'shib yozish, har xil tartibda yo'qotuvlarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini yuridik, jismoniy shaxslar mas'ulligi nuqtayi nazaridan baholash. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida, zarur omillar yuzasidan, auditorlik firmalarining statistik tahlil ma'lumotlarini hisobot shaklida tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda korxonalar nomi, hisobot davri mablag'lari va manbalari turkumlanish asosida qiymat birliklarida tashkil qilinishi to'g'ri bo'ladi.

Bu esa, auditorlik faoliyatini takomillashtirish, istiqbolli metodologik ishlanmalarni ishlash uchun zarur bo'ladi. Bu, o'z navbatida, auditorlik faoliyatlariga baho berish imkoniyatini yaratadi. Audit fanining obyektini ikki guruhga bo'lib, ular haqida so'z yuritish lozim.

1. Avvalo, xalq xo'jaligi tizimidagi obyektlarni belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Chunki auditor dunyoqarashi keng bo'lishi, bozor iqtisodiyotining bizga bog'liq bo'lmagan qonun va kategoriyalarini bilishi, Vatan oldidagi burchini aniq

va to'g'ri anglamog'i lozim. Shu jihatdan auditor quyidagilarni bilishi kerak deb hisoblaymiz: 1) tarmoq korxonalarining salmog'i (bozor va ishlab chiqarishdagi o'rni); 2) davlat budjeti bilan tarmoqlar, korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy, o'zaro munosabatlar. Masalan, «Soliq kodeksi» va boshqa normativ hujjatlarni e'tiborga olish; 3) tovar ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishning davlat va xalqaro standartlarga mos kelishini o'rganish; 4) ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish (masalan, agrosanoat integratsiyasi jarayonida); 5) tarmoqlararo iqtisodiy munosabatlarni o'rganish; 6) xalq xo'jaligida tovarlar taqsimoti, almashuvi, realizatsiyasi hamda iste'mol jarayonlarini o'rganish ularning sotilishi asosida ekanligini his qilish (ishlab chiqarish iste'moli, shaxsiy iste'mol).

2. Yuridik subyektlar doirasida audit obyektlarini bilish ham muhim vazifa hisoblanadi. Chunki, korxonalar xalq xo'jaligining boshlang'ich tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning moliyaviy natijalaridan mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi mustahkamlanadi. Auditorlik ishining asosiy qismi ham shunday boshlanadi hamda to'planadi.

Yuridik subyektlarda quyidagi audit fani obyektlarini sanab o'tish to'g'ri bo'ladi:

- 1) bozor iqtisodiyoti jarayonida ta'sis normativ hujjatlari;
- 2) korxonada mavjud bo'lgan resurslar va ulardan kamxarjli foydalanish;
- 3) korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari;
- 4) moliyaviy natija va moliyaviy ahvol;
- 5) korxonalarining gorizontaal va vertikal iqtisodiy munosabatlari va hokazolar.

Demak, korxonalar (turlaridan qat'iy nazar) subyekt hisoblansa, uning doirasida buxgalteriya hisobini yuritish, audit tekshiruvining subyekt doirasidagi obyektlari sanaladi.

Audit fani ham bevosita bir qancha fanlar bilan bog'liq. Ular quyidagilar: buxgalteriya hisobi, tarmoqlar iqtisodi, tarmoqlar moliyasi, iqtisod nazariyasi va statistika.

1. Subyekt sifatida korxonalar faoliyatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish.

2. Auditorlik firmalar xodimlarini uslubiy ko'rgazmalar, normativ hujjatlar bilan ta'minlash, malakalarini oshirish va

qayta tayyorlash, xo'jalik subyektlariga maslahat xizmati ko'rsatish.

Firmalarni tashkil etish ixtiyoriy bo'lib, tegishli huquq organlaridan, O'zbekiston Moliya vazirligining boshqarmalari tomonidan litsenziya olish faoliyatlarini boshqarish.

2000- yilning 22- sentabridagi 365- sonli qarorga muvofiq, bu vazifani boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Ro'yxatdan o'tkazish esa O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Respublika miqyosida nodavlat tashkilot sifatida respublika auditor palatasi tashkil qilinganligini qayd qilish lozim. Ammo uning funksional vazifa va takliflari huquqiy hamda me'yoriy hujjatlar asosida aniqlangan emas.

Auditorlik firmalari, yakka tartibdagi auditor nomidagi, o'zlarining ustavlari asosida mustaqil holda xo'jalik subyektlari bilan to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnoma asosida ishni tashkil qiladilar va yuridik shaxs hisoblanadilar.

Albatta, audit fani boshqa fanlar, jumladan, buxgalteriya hisobi, moliya, texnologiya va yuridik fanlar bilan chambarchas bog'liqligini ko'zda tutish lozim bo'ladi.

3- MAVZU: AUDITORNING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

«Audit» soʻzi lotin tilidan olingan boʻlib, oʻzbek tiliga tarjima qilinadigan boʻlsa, «Eshitaman» degan maʼnoni bildiradi. Yuqorida auditorlik faoliyati, auditor, auditorlik tekshiruv, umuman, uning tarixiy zaruriyat sifatida kelib chiqishi toʻgʻrisida bilib oldik. Shuni alohida qayd qilish lozimki, ijtimoiy hayotda «audit» falsafiy, iqtisodiy tushuncha (kategoriya) shaklida boʻlib, u bugungi kunda alohida olingan fan darajasiga koʻtarilganligini eʼtirof etish lozim boʻladi.

Audit — alohida tushuncha yoki fan sifatida qabul qilinib, uning mohiyati va mazmuni bor. Audit tekshiruvining mohiyati — bozor iqtisodiyoti sharoitida uning obyektiv iqtisodiy taraqqiyot qonunlari, kategoriyalari, xalqaro hamjamiyatda tan olingan hamda ayrim olingan bir konkret mamlakatda amal qilayotgan meʼyoriy hujjatlarning talablariga mos tekshiruv obyektida uning barcha faoliyatlari raqamlar yordamida ifodalangan, maxsus tizim asosida qanchalik amal qilinishini tekshirish asosida xulosa va takliflar berishdan iboratdir. Audit tushunchasini umumiy deb, siyosiy demokratik va iqtisodiy rivojlanish yoki tarmoqlar, xoʻjalik subyektlarining ahvoli, rivojlanishi toʻgʻrisida ham fikrlash asosida foydalanish mumkin.

Auditor—jismoniy shaxs. U buxgalteriya va unga bogʻliq fanlar tarmoq texnologiya sohasidagi malakali mutaxassis boʻlib, mustaqil fikrlash, tekshiruv yuzasidan obyektiv xulosa hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishga takliflar bera oladigan, oʻz manfaatini jamiyat manfaatidan yuqori qoʻymaydigan xodim tushunilishi maqsadga muvofiqdir. Professor Y.M.Itkin auditorlarni «korxonalar vrachi» deb baholaydi. Ushbu fikrda jon bor, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar raqobatlar kurashida

«kasallanadi, inqirozga uchraydi». Ana shu vaqtda ularning barqaror rivojlanishi uchun audit xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Auditorlik faoliyati — auditor kasb qonuniy statusiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsning auditorlik tekshiruvini o'tkazilishi hamda konsaltang maslahat berishga qaratilgan tadbirkorlik harakatidir. Auditorlik faoliyatida audit tekshiruv yoki audit konsaltang tushunchalari ham foyda bo'ladi. Bular haqida darslik ilovalarida ko'rsatiladi. Ammo, shuni alohida qayd qilish lozimki, konsaltang xizmati auditor ishtirokisiz yoki auditor ishtirokida bo'lishi mumkin.

Auditorlik faoliyati ishtirok etuvchilar munosabatlari jihatidan o'rganiladigan bo'lsa: 1) ikkala yuridik shaxs, ya'ni auditorlik tekshiruv yoki konsaltang xizmatiga buyurtmachi, boshqa tomondan esa uni shartnoma asosida ma'lum xizmat haqi hisobiga bajaruvchi korxonalar o'rtasidagi; 2) auditor bilan auditorlik firmasi o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlardan tashkil topadi. Bunda auditor tekshiruv va konsaltang xizmat ko'rsatishda yuridik shaxs auditorlik firma vakili sifatida tekshirilayotgan obyektida ish tutadi. Agarda auditorlik faoliyatida ishtirok etayotgan yuridik va jismoniy shaxslar nuqtayi nazaridan qaralgan bo'lsa, unda audit tekshiruv obyekti va subyekti tushunchalarini farqlash lozim.

Auditor tekshiruv obyektida tarmoq yoki xo'jalik operatsiyalari olinishi mumkin. Auditorlik tekshiruvning subyektlari deganda shu obyekt doirasida mansabdor yoki hisobdor mutasaddi xodimlar yoki ayrim xodim ham bo'lishi mumkin.

Audit faniga tegishli adabiyotlarga murojaat qilinganda fanni o'rganuvchilar quyidagi tushunchalarga: audit tekshiruvining turlari, audit tekshiruvining tiplari kabilarga duch keladilar.

Albatta, savol tug'iladi: qaysi bir tushuncha mazmun jihatdan katta: audit tekshiruvining turlari tushunchasimi yoki audit tip tushunchasimi? Tip tushunchasi tur tushunchasi doirasida tushunilsa, bizningcha to'g'ri bo'ladi.

Audit turlarini audit tekshirishlar, ularning qo'llanilayotgan uslublari, audit tekshiruvining tarixiy rivojlanish belgilariga qarab turkumlash mumkinligini ko'rsatib o'tmoqchimiz. Audit tekshiruvini amalga oshiruvchilar nuq-

tayi nazaridan ichki va tashqi auditga bo‘linadi. Korxonada shtat birligi ro‘yxatida turuvchi xodim tomonidan audit tekshiruvini o‘tkazilishi ichki audit deb ataladi. Tashqi audit esa, korxonada xati va shartnoma asosida boshqa yuridik shaxs, ya‘ni auditorlik firmasi xodimi — auditor yoki auditorlar guruhi tomonidan o‘tkaziladi.

Audit tekshiruvlari tarixiy bosib o‘tgan yo‘liga qarab uchga, ya‘ni: 1) tasdiqlovchi audit; 2) sistema tizimiga solingan audit; 3) tavakkalchilik, istiqbolga undovchi auditlarga bo‘linadi.

Bugun bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi bosqichida, respublikamizda tasdiqlovchi audit keng qo‘llanilmoqda. Bu muhim masala, xo‘jalik subyektlarining Respublikamiz Moliya vazirligi tasdiqlagan hisobot-axborot ma‘lumotlarni tasdiqlash bilan ishlatilib kelinmoqda.

Sistema tizimiga solingan audit esa, jahon auditorlar tajribasi, audit a‘zolari (standartlari) asosida ma‘lum tartib, texnologiyaga rioya qilib tekshirish o‘tkazishdir.

Tavakkalchilikka asoslangan, istiqbolli audit esa, auditor tomonidan barcha turdagi tahlillar asosida o‘tkazilib, korxonaning bozor iqtisodiyoti sharoitida barqaror rivojlanishiga tegishli ko‘p variantligidan eng ishonchli bo‘lgan takliflar qabul qilinadi.

Audit tekshiruvini o‘tkazish manbalardan foydalanishga qarab haqiqiy va hujjatli audit tekshiruviga bo‘linishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda audit tekshiruvining tiplari haqida ham qator fikrlar mavjud. Jumladan: 1) operatsion audit; 2) mos kelish yoki mos kelmaslik auditi; 3) moliyaviy audit. Operatsion audit xo‘jalik subyektida amalga oshirilayotgan xo‘jalik operatsiyalarning mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning samaradorligi jihatidan tekshirish va xulosa berishdir.

Mos kelish auditi — bu buxgalteriya hisobi, ish yuritish, texnologiya, axborotlarda amal qilayotgan qonun, qoida, standart, texnologiyalarga taqqoslaganda mos kelishi jihatidan o‘rganib chiqishdir. Bu asosan audit tekshiruvining tekshiruv maqsadidan kelib chiqadi. Mos kelmasa, xulosa yozilmaydi. Moliyaviy audit — bu moliyaviy hisobotlarning axborot ma‘lumotlari haqida xulosa va takliflar berishdan iborat. Bu asosan mijoz, hokimiyatlar, mulkdorlarga kafolat berishi nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Auditor to'g'risidagi tushuncha haqida oldingi mavzulardan ma'lum bo'lganligi sababli auditorlarning turlari va tiplari haqida fikr yuritishimiz mumkin. Audit tekshiruvining turlari ham tashqi va ichki audit bo'lishi mumkin.

Auditor malaka kasbiga qarab buxgalter-auditor, soliqchi auditor (soliq inspektori), moliyachi, texnologik-mutaxassis auditorlar va boshqa audit organlaridagi xo'jalik subyektlarining turli sohalarini tekshiruvchi mutaxassislar bo'lishi mumkin. Yangi tahrirdagi qonunga muvofiq, buxgalter-auditorlar rahbarlik qilgan auditorlik tekshiruv xulosasiga, boshqa kasbdagi mutaxassis auditor, tekshiruvning maqsadiga qarab, yordamchi auditor bo'lishi ko'rsatib qo'yilgan. Auditorlarning tiplari degan tushuncha haqida to'xtaydigan bo'lsak, unda quyidagilarni tip deb atashimizga to'g'ri keladi:

1. Bosh auditorlik xizmatining xodimlari, hisob xodimlari.
2. Soliq va soliqsiz to'lovlar bo'yicha inspektorlari.

Audit tekshiruvini o'tkazishda xalqaro auditorlik mezonlari

O'tkazilayotgan audit tekshiruvlari samarali bo'lishi uchun ma'lum bir mezonlar mavjud. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

AUDIT TEKSHIRUVINING UMUMIY TARTIBDA QABUL QILINGAN STANDARTLARI

1. Yetarli tayyorgarlik va tajriba	1. Auditni to'g'ri rejalashtirish	1. Hisobotlarning buxgalteriya prinsiplariga mos kelishi va tasdiqlanishi
2. Mustaqil yo'nalishga ega bo'lish	2. Ichki audit tekshiruvini tushunish darajasi	2. Barcha hisobotdagi masalalarning aniqligi
3. Zarur mutaxassislik malakasiga e'tibor	3. O'zida huquqiy vakolatning mavjudligi	3. Axborotlarning yetarli darajada yechilishi
		4. Moliyaviy hisobotlar haqida to'la xulosa

Audit tekshiruvining to'g'ri tashkil etilishi, rejalashtirish va boshqa ko'rsatkichlarning buxgalteriya prinsiplariga mos kelishi maqsadni to'g'ri belgilab olishni taqozo qiladi. Audit tekshiruvining umumiy maqsadini belgilashda quyidagi bosqichlarga e'tibor berish lozim:

1. Moliyaviy hisobot.
2. Moliyaviy hisobotlarning elementlari.
3. Boshqaruv organlari tomonidan taqsimlangan elementlar.
4. Auditning asosiy maqsad va elementlari.
5. Audit tekshiruvining aniq maqsadi va elementlari.

Audit tekshiruvining umumiy maqsadini belgilashda auditorning javobgarligini, etikasini va mijozning javobgarligini e'tiborga olish kerak bo'ladi.

AUDITOR BILAN MIJOZ O'RTASIDAGI YOZMA MAJBURIYATLAR SHAKLI

Bajariladigan vazifalar	Kim bajaradi	Qachon
1. Audit obyektlari		
2. Auditorning javobgarligi		
3. Mijoz tomonidan zarur ma'lumotlarning berilishi		
4. Normativ hujjatlarni o'rganish		
5. Audit xulosa		
6. Xatolarni aniqlash		
7. Tavakkalchilik		
8. Auditorning sir saqlashi		
9. Yozma axborotlarni berish		
10. Yozma majburiyatlarning mijoz tomonidan tasdiqlanishi		
11. Boshqa qo'shimcha ishlar		

Bu auditor bilan mijoz javobgarligini ifodalovchi hujjatlaridir. Ammo shuni qayd qilish kerakki, agar mijoz bilan auditor

o'rtasida tushunmovchilik, noaniqliklar paydo bo'lsa, o'zaro kelishib, u qayta tuzilishi lozim.

Umumiy auditor tekshiruvlarini rejalashtirish, auditorlar moliya hisobotlari uchun 2 hafta muddat beriladi.

Rejalashtirishda asosan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- 1) mijoz faoliyati to'g'risida ma'lumot yig'ish;
- 2) ichki audit tekshiruvining baholanishi va tavakkalchiligi;
- 3) auditorlik tekshiruvining mohiyatini chuqur ochib berish, moliyaviy ishlab chiqarish.

Auditorning ikki xil yozma rejasi bo'lishi lozim:

- 1) taxminiy ish hajmi;
- 2) taxminiy ish rejasi.

Axborotlarni yig'ishda e'tibor qilinadigan omillar:

- 1) axborotlar ma'lumotlari;
- 2) bino va asosiy uchastkalarni ko'rish;
- 3) tashqi va ichki hisobotlarning matbuotda e'lon qilinishi.

Ayniqsa, ichki va tashqi audit bo'yicha umumiy savollar, mulkchilik, aksiya faoliyatining asosiy strategiyasi, direktor kengashi va boshqaruv, xo'jalik operatsiyalari, moliya, marketing masalalariga keng o'rin beriladi.

Korxonada faoliyatining sharti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Korxonada faoliyatini chuqur tushunish, boshqaruv xodimlarining yolg'on axborot berishdagi tavakkalchiligini o'rganish.

2. Korxonada faoliyatiga tahliliy tarzda baho berish, joriy moliyaviy holat tahlili.

3. Korxonada hisob siyosatini tushuntirish.

4. Moddiy tovar boylik, iqtisodiy hodisaning mohiyatini baholash (audit ayrim ijtimoiy hodisalarning chetlanish darajasi va moliya ko'rsatkichlarining tavsifini berishi mumkin).

Tashqi va ichki auditga ta'sir qiluvchi omillar. Tashqi omillar: 1) makroiqtisodiyot omillari: asosiy faoliyat (o'sish, pasayish); xalqaro savdo, tarif va to'siqlar; soliqqa tortishning o'zgarishi; tashqi audit tizimi; davlat siyosatining o'zgarishi; barqarorlik, kompaniyaning foiz stavkalari; iste'molchi xaridorning tugatilishi, qimmatbaho qog'ozlarning ta'siri; 2) tarmoq omillari: tartibga solish sohasi (kutilgan qonun, ekologiya va boshqalar): iqtisodiy shart-sharoitlar (tarmoq qisqarishi, raqobat, bozorning tovarga to'lishi); 3) mehnat omili: mehnat sharoitlari, ishsizlik darajasi, malaka.

Ichki omillar: ularning umumiy tomonlari (korxonalar tarixi, biznes tarkibi, ishlab chiqarish faoliyat turlari, biznesning tez rivojlanishi, turli xil kelishmovchiliklar, rahbarning korxonalar haqidagi, rivojlanish tendensiyasi borasidagi fikrlari, rahbarning g'amxo'rliqi, auditdan kutilgan natijalar); mulkchilik (o'z kapitali, aksiyalar va ularning kursi); korxonaning asosiy faoliyat strategiyasi (sotib olish rejasi, ishlab chiqarishdagi o'zgarish, kapital sarflar, rejalashtiriladigan bozor, soliq).

Boshqaruv kengashlarida: mustaqillik darajasi, kengash faoliyati, xodimlarni o'zi bajara olmaydigan ishlarga majburlash kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik operatsiyalari (asosiy mahsulotlardan foydalanuvchi mijozlar) mahsulot ishlab chiqarish bosqichi va uslublari, ishlab chiqarish quvvatining joylanishi, audit darajasi, tannarx omillari, mol yetkazib beruvchilardan kredit olish, ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarish davrini o'z ichiga oladi va alohida o'rganiladi.

Shuningdek:

— moliya (pul kelish manbalari, investitsiya, foyda, bank operatsiyalari lizingidan foydalanish, to'lovlar kafolati);

— marketing (asosiy xaridor va bozor, sotuvchi, xaridor, moliyaviy ahvol, mijoz raqobatchilari, bozor barqarorligi, reklama, tavakkalchilik);

— xodimlar (tanlash, ish haqi, qo'nimsizlik, oldinga siljish) masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Audit tekshiruvining moddiy mohiyatini baholash:

1. Induktiv yondashuv, har bir ko'rsatkich va keyinchalik umumiylikka borish.

2. Deduktiv yondashuv, avvalo umumiy xatolar aniqlanib, keyinchalik xususiylikka o'tish.

Auditorlik tavakkalchilikning ikki uslubi mavjud: 1) baholash; 2) miqdorlardan foydalanish;

$$Ap = Chr \cdot Kr \cdot Pr,$$

Ar — auditor tavakkalchiligi;

Chr — aniq tavakkal, ichki hisob, audit;

Kr — ichki auditor auditining samarasizligi;

Pr — testlashtirishning samarasizligi.

Ichki audit tizimini baholash quyidagilar asosida bo'ladi: hisob tizimining samaradorligi, haqiqiy va hujjatli audit.

Shartnomalar o'zining tarkibiy qismi jihatidan, odatda, yetti qismdan iborat bo'ladi: 1) shartnomaning predmeti; 2) tomonlarnig huquq va majburiyatlari; 3) shartnomaning bekor qilinishida tomonlarning javobgarligi; 4) ishning topshirilishi; 5) shartnoma bo'yicha hisob-kitoblarning amalga oshirilish tartibi; 6) qo'shimcha shartlar, 7) shartnoma tuzuvchilarning manzilgohi va tasdig'i (shartnoma ilova qilinadi).

Auditorning mijoz oldidagi yozma majburiyatlari

Shartnoma qo'shimcha hujjat bo'lib, auditorning murojaat qilgan korxonaga ma'muriyatiga tekshirish o'tkazish yuzasidan yozma rozilik xatidir. Bu hujjat auditor tomonidan mijozga yuboriladi va mijoz tomonidan tasdiqlanadi.

Xatda korxonadagi buxgalteriya hisobining amaldagi normativ aktlarga mosligi, obyektivligi, aniqligi va ishonchililigining mazmun jihatidan audit test savollariga javob berishi ko'rsatiladi:

1) audit qamrab oladigan obyektlar va uning hajmlari (buxgalteriya, moliyaviy hisobotlari, mazmuni, bajarish muddati);

2) mijoz tomonidan beriladigan ma'lumotlar uchun javobgarlik;

3) audit tekshiruvining chegaralari (qonun va boshqa normativ hujjatlar asosida);

4) auditor xulosasi va hisobotining turlari, umumlashtirish tartibi;

5) ichki auditdagi xatolar, kamchiliklarning tavakkalchilik yo'llari bilan aniqlanmay qolishi;

6) auditni o'tkazishda buxgalteriya hisobi va boshqa jihatlardan ma'lumotlar olishga imkoniyat berilishi;

7) auditorning korxonaga tijorat sirini saqlash majburiyatlari va boshqalar (reja, yozma axborot, audit tekshiruvini o'tkazish muddatini tasdiqlash).

Audit tekshiruv strategiyasida ma'lumotlarni elektron mashinalarda ishlashga katta e'tibor beriladi.

Shuningdek, ishchi ekspertlardan foydalanish ham ko'zda tutiladi (masalan, asosiy vositalarni baholash).

Auditorlik dasturlash auditini o'tkazishda katta rol o'ynaydi.

I. Dasturlash quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

1) auditorlarning ish grafigi;

ichki audit tizimining asosiy omillari

Sohalar	Audit richaglarining asosiy savollari
Sotish, qarzdorlar va pulning kelishi	Tovarlarni jo'natish ehtimoli; Schot-fakturasiz jo'natish Pul to'lama ham jo'natish Schot-fakturadagi xato va kamchiliklar Schotlarda qayd qilmasdan sotish Noto'g'ri yozuvlar (mijoz yoki kredit qarzdorlar bilan) Bankka topshirmasdan pul olish Umumiy sotish hajmining ko'payishi
Xarid kreditorlari va to'lov	Sanksiyalanmagan tartibda sotish Noto'g'ri hisoblash Registrlarda yozuvlarsiz paydo bo'lgan debetor qarzlari qarzsiz ham bo'lishi mumkinmi? To'lovlar (bajarish mumkinmi?) Buxgalteriya provodkalarining noto'g'riligi Asosiy vositalarni sotish va olish ehtimoli
Ish haqi va pul mablag'larining kirimi	Naqd pulni o'zlashtirish mumkinmi? Bajarilmagan ishlarga haq to'lashning mumkinligi Mukofot va rag'batlantirishning qonunsizligi Soliqlarning noto'g'ri to'lanishi Noto'g'ri ijtimoiy sug'urta To'lovlarni noto'g'ri amalga oshiruv hollari To'lov vedomostlari yoki vedomostlar to'lovlari Boshqa xatolar
Ishlab chiqarish zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish	Moddiy tovar qiymatliklarining yo'qolishi O'g'irlik va yo'qotuvlarni noto'g'ri hujjatlashtirish Tugallanmagan ishlarni ko'rsatish Ishlab chiqarish sarflari ustidan yetarli audit bo'lmasligi
Boshqaruv va hisob-kitoblar	Jurnallardagi noto'g'ri yozuvlar Yordamchi kitob, daftarlardagi noto'g'ri yozuvlar Buxgalteriya registrlaridagi xatolar Boshqaruvchilar auditi

2) auditni bajarishda amalga oshiriladigan ishlarning aniq belgilanishi (bajariladigan har bir ish yoziladi);

3) audit bo'yicha ishning auditi (sharik, assistent, yordamchi, menejer, katta va kichik xodim audit qilinadi);

4) tekshiruv operatsiyalari testi;

5) analitik jarayon tartibidagi ishlar.

II. Auditor tanlovi:

1) oldingi tajribaga asoslanib baholash;

2) statistik metodlar asosida ehtimollik uslublaridan foydalanish.

III. Auditor ish sifati ustidan o'rnatiladigan auditning ikki yo'nalishi:

1) auditor tekshiruvi ustidan audit;

2) umumiy sifat auditlari.

IV. Auditorlik axborotlari va ularning tasdiqlanishi:

V. Auditni hujjatlashtirishda auditorning ish papkasi bo'lishi lozim. Uni ko'pincha «dosye» deyiladi, u joriy hamda maxsus bo'ladi.

VI. Audit tekshiruvining uslublari: haqiqiy audit, tasdiqlash, hujjatli tekshiruv, so'rov, yuzlashtirish, tergov kabilar.

VII. Analitik ishlar, koeffitsiyent taqqoslashlar, balanslash metodi, regressiv tahlil.

VIII. Korxonalar harakatini baholash.

4- MAVZU: AUDITORLIK XIZMATINI TASHKIL QILISH

Auditni rejalashtirish xalqaro standart bo'yicha amalga oshiriladi. Agarda audit uchun assistent bo'lishi zarur ekanligini hisobga olsak, audit uchun ham ishning rejali bo'lishi talab qilinadi. Rejalashtirish quyidagi uchta sababga ko'ra amalga oshiriladi:

1) ma'lumki, sifatli audit uchun auditor yetarli ma'lumotlarga, audit maqsadga erishishi huquqiy majburiyatlarni maksimum qilishi, yaxshi malakaga ega bo'lishi kerak;

2) audit bunday tekshirishlarni o'tkazish uchun ma'lum vaqt sarflanishini aniqlab, raqobatda bankrot bo'lmasligi, yaxshi tasavvurga ega bo'lishi zarur;

3) mijozlar bilan belgilangan tartibda aloqada bo'lishini ta'minlash, intizom yoki shartnomalar buzilishi yuzasidan da'vo bildirishi uchun ham rejalashtirish lozim.

Tajribalar rejalashtirish besh xil bo'lishini ko'rsatib kelmoqda:

1. Taxminiy rejalashtirish.

2. Umumiy zarur axborotlarni yig'ish.

3. Mijozning yuridik majburiyatlari ko'lamini haqida axborot yig'ish.

4. Mizojdagi ichki audit tizimi va uning tavakkalchiligiga baho berish.

5. Mijoz biznesi va ichki audit sohasidagi tavakkalchiligini baholash.

Bu masalaning boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Taxminiy reja quyidagilarni o'z ichiga oladi: auditni boshlash yoki uni mijozga doimiy yetkazishni tavsiya qilish, mijozning audit uchun buyurtma berishini asoslash (sababini aniqlash), uni bajaruvchi xodimlarni belgilash, auditor majburiyatlarini aniqlash va yozma majburiyatlarni belgilash:

1) mijozdan auditni boshlash uchun rozilik olish yoki bo'lmasa, hisobotni audit davom ettirish. Bu sohada raqobatda bo'lishi, mijozlar bilan aloqasi, yuridik va malaka javobgarligi, gonorar, auditorning tavsifi va boshqalar (ko'proq buxgalter kasbi). Bunga yangi mijozni o'rganish oldingi o'ringa ko'chadi, avvalo, firma haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, uning qo'llanilishi haqida taklif bera olish va hokazo:

2) sir saqlash. Korxonalaridagi texnologiya va tijorat sir-larini maxfiy tutish.

Eski mijozlar bilan har yili yoki doimiy holda hisobotlarni audit qilishni davom ettirishning zarurligi:

1. Mijozning (auditorning) o'zini tuta bilishi haqidagi talablarning asoslanishi, bunda ikki omil katta ahamiyatga egadir: 1) moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar ehtimoli; 2) undan foydalanishning ahvoliga nisbatan munosabati.

2. Audit uchun xodim tanlash. Audit tekshiruvining samarali bo'lishi va zarur standartlarga javob berishi xodim tanlashga bog'liqdir. U tegishli malakaga ega bo'lishi kerak.

3. Auditor tomonidan yozma majburiyat tuzilishi lozim. Bu — mijoz bilan tuziladigan shartnoma sanaladi. Uning shartlari yozma ma'lum qilinadi. Mazkur masala mijoz bilan auditor o'rtasidagi bitim demakdir.

Mijozning faoliyat tarmog'i, biznesi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish lozim, jumladan, umumiy ma'lumotlarni olishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1) mijozning qaysi tarmoqqa mansubligi va biznes-rejasi, interperivati, adabiyotlar xususiyatlari, jamg'armalari, mar-keting masalalari va hokazo;

2) mijoz joylashgan binolarni qurish (savollar topish, javob olish);

3) kompaniyaning siyosatini ko'rib chiqish (kredit, moliya, ichki audit tizimlarga ega bo'lishi haqida);

4) identifikatsiya: o'zaro bog'liq tomonlar (korxonalar, organ va tashkilotlar aloqasi);

5) xodimlarga talab va uning qondirilishi.

Auditorlik axborotlari va ularni tasdiqlash

Auditor tomonidan korxonada faoliyati haqida, xatolar, uning rahbari, xodimlari to'g'risida axborot yig'ish auditorlik tekshiruvini boshlangunga qadar amalga oshiriladi. Shu axborotlarning katta qismi hujjatlar bo'lib, bu ulardan olingan nusxalardir. Shu boisdan, ular auditor uchun tasdiqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Auditorlik tasdiqlash — bu yig'ilgan axborotlar auditor tekshiruvini yakunlashning qonuniy asosi hisoblanadi.

Auditorlik tasdiqlash ikki xil bo'lishi mumkin:

- 1) relevant va yetarli darajada tasdiqlash;
- 2) relevant tasdiqlash — bu biron-bir muammo-ning yechimidagi o'ta qimmatli axborot hisoblanadi. Yetarli darajada tasdiqlash esa, har bir konkret holatda, voqealarni baholash uchun asos bo'lishi mumkin. Bundan tashqari auditorning axborotlar olish jihatidan tasdig'i mavjud bo'lib, u ichki, tashqi va aralash bo'lishi mumkin.

Auditor axborotlarni yig'ish davrida quyidagi tadbirlardan foydalanib bo'ladi:

- 1) mijozning hisob-kitoblarini arifmetik tekshirish;
- 2) kuzatish yoki chuqur inventarizatsiyada qatnashish;
- 3) xo'jalik operatsiyalarining schotlarda aks ettirilishining realligi, ularning uchinchi tomondan tasdiqlanishi;
- 4) og'zaki so'rash, natija bo'yicha yozma taqdimnoma olish;
- 5) hujjatlarni tekshirish;
- 6) tahliliy ishlarni amalga oshirish tadbirlari, ya'ni barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarning bog'lanish darajasini o'rganish (masalan, hisobotdagi ko'rsatkichlar, balans, moddalarning bog'lanib tasdiqlanishi).

Auditorlik tekshirish uslublari

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishning asosiy uslublariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) haqiqiy tekshirish; 2) tekshirish yakunlarini hujjatlar bilan tasdiqlash; 3) kuzatish; 4) so'rov; 5) mexanik jihatdan aniqligini tekshirish; 6) tahliliy testlarni belgilash va bajarish; 7) axborotlarni uzluksiz

elementar bo'yicha qarab chiqish; 8) izlanish; 9) maxsus tekshirish (ma'lum mutaxassislarning ishtirokida tekshirish); 10) yuzlashtirib tekshirish.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda tashkiliy jihatdan ham uslublar bo'lishi mumkin: 1) aralash tekshirish; 2) tanlab tekshirish; 3) analitik tekshirish; 4) kombinatsiyalashgan tekshirish. Analitik tekshiruv to'g'risida shuni alohida qayd qilish lozimki, bu tushuncha halqaro auditorlik andozalarida ishlatilsa-da, u iqtisodiy tahlilni bayon qilish va rivojlanish tendensiyasini belgilashdan iborat.

Analitik tadbirda quyidagi uslublardan foydalaniladi: 1) foizli taqqoslash; 2) koeffitsiyentli tahlil; 3) balansli uslub; 4) regressivli tahlil.

Ayrim hollarda auditorlik tekshiruv davri davomida korxonalar bankrot bo'lib qolish hollari ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham auditor korxonaning yashash qobiliyatini alohida o'rganishi lozim. Bunda korxonadagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori, sifati, sotilishi, foydalanishlik darajasi, mehnat unumdorligi, tugatilish balansi, xullas olganda — xarajat — foyda — hajm dinamik tahlil qilinishi lozim. Bunda bankrotlik sabablarini o'rganish alohida o'rin tutadi.

Baholashda quyidagi savollarga javob topish zarur:

1. Korxonaning moliya ahvoli qay holatda?
2. Bankrotlik holati aniqmi?
3. Bankrotlik holati yuz bersa, undan chiqish imkoniyati bormi?
4. Bu masalalarni auditorlik xulosasida qanday aks ettirish mumkin?

Bunday sharoitda aktiv va passiv auditorlik tekshiruvlari bo'lishi mumkin.

Auditor moliya va boshqa hisobotlarni tekshirganda, ularda aks ettirilgan ko'rsatkichlar haqiqatga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bu masalada mas'uliyat to'la auditorga yuklatiladi. Auditorlar uni aniqlagach esa, mas'ul xodim va korxonalar rahbari javobgar hisoblanadi. Bu tushunchalarning mohiyatini tushunish ham katta ahamiyatga ega.

Qalbakilik — bu hisob va hisobotlardagi ma'lumotlar korxonaning mas'ul kishilari, rahbari tomonidan ataylab

o'zgartirib ko'rsatilishi, buxgalteriya hisobini yuritish qonun-qoidalariga rioya etilmay amalga oshirilishi, xo'jalik operatsiyalari o'z vaqtida aks ettirilmasligi, hisob registrlaridagi ularning o'zgartirilishi yoki balansdagi aktivlarning noto'g'ri baholanishi demakdir.

Xo'jalik operatsiyalarini bilmasdan hujjatlarda, schotlarda, buxgalteriya registrlarida arifmetik, texnik guruhlash jihatidan noto'g'ri ko'rsatilsa, bu xato sanaladi. Bunday holat moliya va boshqa hisobotlarda ham bo'lishi mumkin.

Qalbakilikni quyidagicha turkumlash mumkin: 1) amaldagi qonunchilikdan chetlanish; 2) hisobni tashkil qilishda, metodologiyasida normativ hujjatlardan chetlanish; 3) korxonada mulkini baholashda, korxonada hisob siyosatida noto'g'ri ish yuritish; 4) xarajat va daromadlarni noto'g'ri aks ettirish; 5) ishlab chiqarish xarajatlarini, foyda yoki zararlarni javobgarlik jihatidan joy-joyiga olib bormaslik, boshqa manbalar bilan qoplash; 6) sintetik va analitik schot ma'lumotlari haqiqiy qoldiqlarining real bo'lmashligi va hokazo.

Bunda hisob manipulyatsiyasi degan tushuncha mavjud. Unga ko'ra hisob ma'lumotlarini korrekcirovka qilish yoki ularni noto'g'ri aks ettirish demakdir. (Buxgalteriya operatsiyalarini yo'qotish («storono» qilish) yo'li bilan xo'jalik operatsiya va summalarni yo'qotish).

Buxgalteriya hujjatlari va yozuvlarni qalbakilashtirish — bu buxgalteriya hujjatlarini noto'g'ri tuzib, noto'g'ri ma'lumotlar berish demakdir.

Hisobda bir xil bo'lmagan yozuvlarga yo'l qo'yish — moliyaviy va boshqa hisobotlarda, hisob tizimidagi, axborotlardagi ko'rsatkichlarda ijtimoiy hodisa, ko'rsatkichlarni to'la ko'rsatmaslik, degani.

Odatdan tashqari xo'jalik operatsiyasi — ma'lum darajada bir martalik yoki hisob-kitoblardagi xo'jalik operatsiyalari ortiqcha yoki juda oshirib ko'rsatilishidir. Bunda auditor qalbakilik va xatolarni aniqlagach, korxonada rahbari va mas'ul xodimlardan ularning sabablarini aniqlashi lozim. So'ngra esa ularning faraz nuqtayi nazaridan yoki hisob-kitob yo'li bilan moliya hisobotlariga ta'sirini aniqlashi, xulosa oqibatini aks ettirishi kerak. Qalbakilik aniqlansa, bu to'g'rida auditor

korxonada rahbariga va auditorlik tashkilotiga ma'lum qilishi lozim.

Qalbakilikka olib keluvchi hodisa yoki shart-shartnomalarni quyidagicha turkumlash mumkin: 1) boshqaruv apparatining to'la bo'lmasligi, vakolatga (kasbga) ega emasligi (xodimlar yetishmasligi, audit bo'lmasligi); 2) korxonada faoliyati doirasida odatdan tashqari holat yuz berishi (krizis, bankrot), hisobot tuzishda buxgalteriyada tig'izlik vujudga kelishi; 3) odatdan tashqari operatsiyalar (odatdan tashqari shartnomalar bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarining hujjatda ko'rsatilgan xizmat va ishlarga mos kelmasligi); 4) zarur auditorlik isbotlovchi muammolarini olish nuqtayi nazaridan (bir xil yozuvlarda ish yuritmaslik, odatdan tashqari registrlarda tuzatishlar, xo'jalik operatsiyalarining tasdiqlovchi hujjatlarining bo'lmasligi va hokazo).

Qalbakilikni aniqlash uchun auditor quyidagi ishlarni bajarishi lozim: 1) qalbakilik maqsadini; 2) rahbar va xodimlarning ma'naviy jihatdan prinsiplarini; 3) rahbarning qalbakichilikka munosabati; 4) qalbakichilikning ayrim belgilarini aniqlash; 5) tanlab yoki to'liq tekshirish.

Xatolar ham turkumlanadi:

1. hisob-kitobni yuritishdagi to'lovlar: a) hisobning bo'lmasligi; b) bilmasdan xatoga yo'l qo'yish;

2. takrorlanuvchi xatolar: a) buxgalteriya hisobini bilmasdan amalga oshirish; b) soliq to'lovlarini tushunmay to'lash.

Korxonada audit tekshiruvini o'tkazishda tahliliy jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) maqsad qo'yish; 2) testni rejalashtirish; 3) test o'tkazish; 4) natijalar tahlili va xulosa chiqarish.

Maqsadning ichida biznes-reja bilan tanishish.

Korxonaning yashovchanlik qobiliyatiga baho berish, uzoq muddatli kapital bilan o'z kapitali nisbatining paydo bo'lish normasi.

Moliyaviy hisobotdagi taxminan ehtimollik xatosini topish; «odatdan tashqari tebranish».

Auditor test detallari (elementlari sonining kamayishi, schotdagi qoida vaqtini tanlash; muhim vaqtni tanlash, sug'urta to'lovi, oldingi tur).

Maqsadni aniqlash: umumiy va aniq reja. Testni rejalashtirish: 1) odatdan tashqari tebranishni aniqlash; 2) vaqtni tanlash; 3) mos keladigan auditni tanlash. Mijoz va tarmoq ma'lumotlarini taqqoslash.

Masalan	Mijoz		Tarmoq	
Tovar aylanmasi	19.X...	19.X...	19.X... —	19.X...
Korxonalar yalpi salmog'i, foiz	3,4	3,5	3,9	3,4
	26,3	26,4	27,3	26,2

Mijoz ma'lumotlarini joriy va o'tgan davrga taqqoslash: 1) balansni taqqoslash; 2) o'tgan va joriy balans moddalarini taqqoslash; 3) nisbiy ko'rsatkich hisobini o'rganish.

Mijozning moliyaviy natijalarini taqqoslash.

Audit tekshiruvining umumiy maqsadi

Audit tekshiruvining umumiy maqsadi deganda, eng avvalo, moliyaviy hisobotning obyektivligi, moliyaviy ahvolding to'liq aks etishi, korxonalar faoliyatida baho, pul mablag'lari harakatining prinsiplariga amal qilinishi nuqtayi nazaridan o'rganilishi tushuniladi.

Auditor o'z tekshirishlarini quyidagicha amalga oshirishi lozim, uning bosqichlari:

Moliyaviy hisobot.

Moliyaviy hisobotning elementlari.

Boshqaruvning tasdiqlangan elementlari.

Audit asosiy maqsadining elementlari.

Audit aniq maqsadining elementlari.

Moliyaviy hisobotning ahamiyati. Auditor uning to'g'ri bo'lishi uchun javobgar hisoblanadi, hisobotdan foydalanuvchilarni xabardor qilishi lozim. Bunda eng muhimi — ma'muriyat javobgarligi alohida o'rinni egallaydi. Keyingi yillarda bozor iqtisodiyotida ishlayotgan firmaning auditor firmalar bilan aloqasi (1-xatboshi), uning javobgarligi

ko'rsatiladi, ko'rsatkichlar olinadi. Amaliy mashg'ulotlarda firma ma'muriyatining javobgarligi alohida ko'rsatilishi lozim.

Auditorning javobgarligi. Hisobotlarda ikki xildagi noaniqlik bor: 1) xato; 2) me'yordan, andozadan farqi, moliyaviy hisobdan farqi; aktivlarning noto'g'ri saqlanishi va boshqalar (masalan, naqd pulni daromad qilmaslik).

Mulkning o'zlashtirilishi: qonunsiz harakatlar. Qonunsiz harakatga olib keluvchi ma'lumotlarni yig'ish, sabablarini aniqlash. Agar qonunsiz harakat kelib chiqsa: 1) ma'muriyat bilan maslahatlashish; 2) huquqshunos bilan maslahatlashish; 3) qo'shimcha materiallar yig'ish zarur.

Auditorlar uchun ikki tushuncha: 1) jiddiylik; 2) tavakkalchilik muhim. Ular audit tekshiruvi o'tkazish davomida ikki bosqichli bo'lib, rejalashtirishda katta ahamiyatga ega. Ularning audit fikr-xulosasini tushuntirish, bunda jummlalar andoza bo'lmagan holda quyidagicha hal etiladi.

Taxminiy rejalashtirish

Umumiy ma'lumot yig'ish. Mijozning huquqiy majburiyatlari haqida axborot yig'ish. Auditda jiddiylik, tavakkalchilik, biznes tavakkalchiligi va audit tavakkalchiligiga baho berish. Ichki xo'jalik audit tizimi bilan tanishish va audit tavakkalchiligiga baho berish.

Audit tekshiruvining umumiy rejasini ishlash va audit dasturi.

Yuqorida ko'rsatilgan moliya hisobotlarini jiddiylik nuqtayi nazaridan to'g'ri deb ko'raylik. Ammo bu hisobotlardan foydalanuvchilarga kafolat bermaydi, buning uchun esa tavakkalchilik zarur hisoblanadi. Boshqa jihatdan, moliyaviy hisobot undan foydalanuvchilar uchun jiddiy moliyaviy axborotdir. Ammo, bitta auditorning bu haqdagi xulosasini mutlaq to'g'ri deb bo'lmaydi.

Jiddiylik malakali auditorning xulosasida to'liq aks etmaganda taxminlar tug'iladi. Ayniqsa, gap undagi jiddiy xatolar haqida borganda. Auditor bu xato va tuzatishni mijozga ko'rsatishi lozim. Shu sababli auditor jiddiylik

mezonidan keng foydalanishni bilishi lozim. Jiddiylik mezonidan foydalanishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish lozim.

1- qadam. Jiddiylik haqida taxminiy mulohaza. Testlarni rejalashtirish.

2- qadam. Jiddiylikning segmentlari haqida taxminiy mulohazaning qo'llanilishi.

3- qadam. Segmentlardagi xatolarga umumiy baho berish.

4- qadam. Xatolarning yig'ma bahosi.

5- qadam. Yig'indi baho bilan jiddiylikdagi taxminiy bahoni taqqoslash.

Audit va amaliyotda jiddiylikni qo'llash malaka jihatidan katta qiyinchiliklarga uchraydi. Ayniqsa, hisobotdan foydalanuvchilarning bu yuzasidan bir qarorga kelishi qiyin ish hisoblanadi.

Audit jarayonining boshlanishida auditor hisobotidagi jiddiylikni ko'rish zarurligini belgilab oladi. Bunda son jihatidan belgilab olish katta ahamiyatga ega, u auditorning taxminiy mulohazasi deb belgilanadi.

Jiddiylik haqidagi taxminiy mulohazani tuzish.

Segmentga nisbatan jiddiylik taxminiy mulohazasining muhokamasi. Segmentdagi umumiy xatolarni baholash; yig'indi xatolar bahosi.

Yig'indi baho bilan jiddiylikning taxminiy bahosini taqqoslash; jiddiylikka ta'sir qiluvchi omillar: 1) jiddiylik — mutlaq emas, balki nisbiy miqdordir; bunda xatolar miqdori firmaning yirik yoki kichikligiga qaraladi; 2) jiddiylikni baholash uchun bazis — rejaning zarurligi; soliq olguncha sof foyda yechimi uchun zarur vositadir. Aylanma mablag'lar, mulkka nisbatan qisqa muddatli to'lov majburiyatlari; mulk egalaringning hissasi.

Jiddiylikka ta'sir qiluvchi sifat omillari: 1) ma'muriyat va boshqa xodimlarning ishonchli va tartibli bo'lishi; 2) bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma majburiyatlarining bajarilishi; 3) xatoning foyda o'sishi yoki pasayishi tendensiyasi kundalik ko'rsatkichi 3 foiz, 1 foiz bo'lsa, jiddiy hisoblanadi.

Jiddiylik mezonlariga misollar:

1) moliyaviy hisobotdagi kamchiliklar — 5—10 foiz;

2) aniqlangan bazaga nisbatan — 5—10 foiz; bunda:
 a) foyda hisobotida — 5—10 foiz (soliq olinguncha); b) balans aylanma mablagʻ, qisqa muddatli majburiyatlar va umumiy mulk qiymati — 3—6 foiz.

Meʼyor mezonlari:

Koʻrsatkichlar	Jiddiylik haqida taxminiy mulohaza			
	minimum		maksimum	
	foiz	soʻmlarda	foiz	soʻmlarda
Soliq olguncha boʻlgan foyda	5	19000	10	37000
Aylanma mablagʻlar	5	128000	10	255000
Barcha aktivlar	3	92000	6	184000
Joriy majburiyatlar	5	44000	10	88000

Audit tekshiruvining segmentlanishi (boʻgʻinlari).

Auditor balansining har bir boʻlim va moddalari alohida rejalashtirib oʻrganiladi. Segment oʻrniga siklli yondashish muhim hisoblanadi. Debitor qarzlilar va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

moliya jurnaliga moliyaviy hisobotlar axborotining koʻchirilishi

Xoʻjalik operatsiyasi	Jurnallar	Buxgalteriya registrlarini aniqlash balansi va moliyaviy hisobot
Sotish	Sotish jurnali	Bosh daftar va yordamchi kitoblilar
Pul olish hujjatlari	Pul tushish jurnali	
Tovar va xizmatlarni olish	Daromad jurnali	Bosh daftardagi sinov balansi
Pul toʻlovlari boʻyicha majburiyatlar	sotib olish	
Pul toʻlovlari boʻyicha majburiyatlar	Pul toʻlash jurnali	Moliyaviy hisobot
Ish haqi berish hujjati	Ish haqi toʻlash	
Kotirovka va	Aylanma vedomosti	
buxgalteriya provodkasi		

Davr (sikl). Bosh daftar va jurnallar (alohida olingan).
Masalan:

1. Naqd pul kirimi.

2. Daromad va moliyaviy investitsiya davriy tovar va xizmatlar tushumi.

3. Tovar-moddiy boyliklar operatsiyalaridan tushumlar.

Bu davrlarning o'zaro bog'liqlik darajasi operatsiyalarning bog'liqligini tahlil qilishni taqozo qiladi.

Auditorlar segmentlar bo'yicha ham jiddiylikni taxminiy mulohaza qiladilar. Bunda foydaga nisbatan va zaruriy aylanma mablag'larga nisbatan olinishi mumkin; balans moddalarini tekshirish osonlashadi.

Tanlovni tuzishda tavakkalchilik. Tavakkalchilik. Moliyaviy hisobotlarni audit qilish bilan ikki narsa (ikki tavakkalchilik): 1) auditor tavakkalchiligi; 2) biznes uchun tavakkalchilik mavjuddir.

Auditor tavakkalchiligida moliyaviy hisobot to'g'ri deb qabul qilinadi; biznes tavakkalchiligida — xo'jalik samaradorligi ko'rsatkichlarini anglash lozim bo'ladi.

Audit tekshiruvining maqsadini belgilab olish

Segmentlash va sikllar bo'yicha tahlillar audit tekshiruvining maqsadini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Ma'muriyat buxgalteriya yozuvlari va moliyaviy hisoboti 5 turkumni o'z ichiga oladi: 1) mavjudlik va paydo qilish; 2) tamomlanishi; 3) huquq va vazifalari; 4) joylanishi va uning baholanishi; 5) ko'rsatish va ochib tashlash.

Balans davrda aktivlarning mavjudligi, daromad, xarajat, foyda. Tamomlanishning tasdiqlanishi va to'liqligining tasdiqlanishi.

Balans passivning aktivni to'liq xarakterlashi. Baholash va taqsimot aktiv, passiv, korxonaga kapitali daromadi, xarajatlari va boshqalar.

Ma'lumotlarni aks ettirishni tasdiqlash: balansda foyda taqsimoti va moliyaviy hisobot olib borilishi uzoq muddatli kreditlar, qisqa muddatli kreditlar, ularning qaytarilishi.

Foyda, uning taqsimlanishi.

Audit tekshiruvining umumiy va konkret maqsadi.

Mijoz buyurtmalariga qarab, auditor moliyaviy hisobotni ma'muriyat to'g'ri tasdiqlaganini belgilaydi. Auditorning maqsadi yuqoridagilarni chuqur o'rganish uchun qanday materiallarni olish zarurligini hal etishi lozim. Asosiy maqsad balans moddalarining tahlili asosida xulosa yozish bo'lsa, har bir balans schotlariga baho berish lozim.

Umumlashtirish darajasiga katta e'tibor berish zarur. Balansdagi summalarning kiritilishi. Ishlab chiqarish tugallangan xo'jalik operatsiyalarining summalari kiritilishini ko'zda tutadi. Kiritilgan summalarning haqli kiritilishi.

Baholash summalarini kiritishning to'g'riligi. Korrespondensiya va summalarning to'g'ri tuzilishi. Xo'jalik operatsiyalarining chegaralanishi, balansga moslashish. Arifmetik jihatdan to'g'ri tuzilishi. To'liq schot ma'lumotlarining kiritilishi va balansda ko'rsatilishi.

Qisqacha: ma'muriyat tasdig'i maqsadda ko'zda tutilganidan ko'p.

Auditorning maqsadga erishishi.

Bu borada auditor faoliyati 4 fazani o'z ichiga oladi. Jumladan:

1- faza. Auditorning yondashuv yo'nalishlari.

2- faza. Xo'jalik operatsiyalarining audit, test qilinishini tekshirish.

3- faza. Balans moddalarining tekshirilishi.

4- faza. Audit tekshiruvining tugallanishi va xulosa yozish.

1- fazada zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish; mijozning biznes axboroti. Ichki xo'jalik auditi, uni baholash, tavakkalchilik; 2- fazada xo'jalik operatsiyalarini tekshirishda testdan foydalanish, asosan, xo'jalik operatsiyalarini tekshirish; 3- faza tajribali buxgalterlar uchun tushunarli; 4- fazada audit tekshiruvining umumiy xulosaga kelishi, eng muhimi, moliya hisobotining obyektivligi, malakali xulosaga kelishi mumkinligi yoritiladi.

Auditorlik tekshiruvining yakunlari, ma'lumki, auditor tekshirish yakuni bo'yicha tuzilgan xulosalar bilan tamomlanadi. Auditor xulosasi audit tekshiruvi o'tkazilayotgan kor-

xona moliya hisobotining obyektivligi va ishonchliligidan guvohlik beruvchi hujjatdir.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazilgach, auditor quyidagicha xulosalarni yozishi mumkin: 1. Qoniqarli xulosa. 2. Shartli qoniqarli xulosa. 3. Qoniqarsiz xulosa. 4. Auditor xulosa berishdan bosh tortishi mumkin.

Qoniqarli auditor xulosasi quyidagi muammolarni o'z ichiga olishi mumkin. Auditor bunday xulosasida moliya hisobotlaridagi axborotlar talabga javob berishi, unda ko'rsatilgan foyda va zararlar, pul mablag'larining harakati amaldagi buxgalteriya hisobi bo'yicha qonun va normativ hujjatlardagi talablarga javob berishi ko'rsatiladi: 1) moliyaviy hisobot halol va buxgalteriya hisobining ishonchli obyektiv ma'lumotlariga asoslanadi; 2) korxonadagi hisob siyosati to'g'ri tanlangan, buxgalteriya hisobi unga qo'yilgan talablarga mosdir; 3) soliq bo'yicha majburiyatlar o'z vaqtida, to'liq hisoblangan; 4) moliyaviy hisobotga yozilgan tushuntirishlar to'g'ri; 5) ichki audit xo'jalik operatsiyalari va ular samaradorligining ishonchliligi tasdiqlangan; 6) moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlar korxonaga haqidagi auditorning ma'lumotlariga zid emas, deb ko'rsatilishi lozim.

Ma'lumki, auditorlik andozasi va audit xulosa andozalari mavjud. Albatta, xulosa andozalarini yana bir bor takrorlash maqsadga muvofiqdir:

1. Xulosa korxonada tugallangan moliya hisobotlari xulosasida buxgalteriya prinsiplariga rioya qilingan holda yoritilganmi?

2. Hisobot davrida oldingi hisobotda ko'rilgandagi ketma-ketlikka rioya qilinganmi?

3. Xulosada moliya hisobotida talab qilinmaydigan fikr va mulohazalar mavjudmi?

4) Umuman, hisobot to'g'risida fikr bayon qilinadi. Shunday qilib, auditorning xulosasi tushuntirishsiz xulosa yoki tushuntirish xati bo'lgan xulosalarga bo'linadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xulosalarning 90 foizi tushuntirish yozilmagan auditor xulosalariga

to'g'ri keladi. Albatta, bunday xulosalarda quyidagi besh prinsipga amal qilish lozim: 1) barcha zarur hisobot formalari balans, foyda va zararlar hisobotini o'z ichiga olishi lozim. Jamg'arishga qo'yilgan foyda, va nihoyat, pul mablag'larining harakat hisobotlari moliyaviy hisobotga kiritilgan bo'lishi shart; 2) auditor o'z xulosasini yozishda uch umumiy prinsip: mutaxassislik, mustaqillik, kasb tekshiruviga rioya qilishi zarur; 3) auditor xulosasida obyekt haqida uch andoza (rejali bo'lishi, ichki xo'jalik auditori, yetarli axborotga egalik) bo'lishi kerak; 4) moliyaviy hisobot umuman moliyaviy hisobot prinsiplariga mos kelishi lozim; 5) barcha shartnomalar tijorat sirini ochib tashlamasligi lozim (tushuntirish xatlari talab qiladigan fikrlar ko'zda tutiladi).

Auditor xulosasining matnida quyidagilar bo'lishi lozim:

1. Hisobotning nomi.
2. Adresi—manzilgohi.
3. Kirish abzatsi.
4. Soha abzatsi (sarfi, jumlasini).
5. Fikr abzatsi.
6. Buxgalteriya formasi.
7. Xulosa sanasi.

Auditor xulosasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. «Mustaqil auditorning xulosasi» deb yozilishi lozim.
2. Kimga berilayotgani keltiriladi.
3. Kirish qismida: 1) buxgalteriya formasi audit o'tkazgani; 2) audit qamrab olgan hisobotlar; 3) auditorning fikri beriladi.
4. Auditor topshirish jarayonida qilingan ishlarning ishonchlilik darajasi ko'rsatiladi, katta kamchiliklar yo'qotiladi.
5. Auditorning xulosalari yoziladi. Ishonchli kafolat.
6. Firmaning standart (mezon)ga mos kelishi.
7. Muddati ko'rsatilishi shart.

Ba'zi hollarda moliyaviy hisobotlarda ayrim kamchiliklar mavjud bo'lsa, o'zgartirilgan qo'shimcha fikrlar bilan ham xulosa qilinishi mumkin. Ular quyidagilardir:

1. Unchalik katta bo'lmagan noaniqlar mavjudligi.

2. Kirish qismida: a) buxgalteriya formasi audit o'tkazgani; b) audit qamrab olgan hisobotlar; d) auditorning fikri beriladi.

3. Auditor topishirish jarayonida qilingan ishlarining ishonchlilik darajasi ko'rsatiladi, katta kamchiliklar yo'qotiladi.

4. Auditorning xulosalari yoziladi. Ishonchli kafolat.

5. Firmaning standart (mezon)ga mos kelishi.

6. Muddati ko'rsatilishi shart.

7. Unchalik katta bo'lmagan noaniqlar mavjudligi.

8. Hisobdagi ketma-ketlik va mantiq buzilganligi.

9. Umumiy buxgalteriya prinsiplaridan uzoqlashish.

10. Alohida vaziyatlar.

11. auditor xulosasining boshqa auditor xulosasiga tegishli bo'lishi kabilar.

Auditor quyidagi uch holatda o'z xulosasini ko'rsatib o'tishi lozim:

1) auditorning tekshirish obyektlarini qamrab olish sohasining cheklanganligi;

2) moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya prinsiplariga mos kelmagan holda tuzilgan bo'lishi mumkin;

3) auditor mustaqil bo'lmagan bo'lsa.

Yuqoridagi uch shartning bo'lishi auditor uchun tushuntirish talab qilmaydigan xulosadan tushuntirish talab qiladigan xulosaga kelishini taqozo qiladi:


1) salbiy xulosa chiqarish;

2) o'z fikr va mulohazalarini bayon qilolmaslik;

3) xulosa tushuntirishlari bilan bo'lishi mumkin;

4) audit — tekshirish o'tkazilmagan audit va, nihoyat, tushuntirish mulohazalarisiz xulosa bo'lishi mumkin.

Buxgalteriya hisobotlarini audit tekshiruvidan o'tkazishda ma'lum tartib-qoidalarga rioya qilinadi. Odatda, bunday holatlarda, umumiylikdan xususiylikka qarab tekshirishni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Biz buni quyidagi chizmada bayon qilamiz:



Auditorlik tekshiruvi ko'rsatilgan soha o'z bosqichlariga egadir:

1) auditorning korxonaga bilan tanishuv bosqichi, bunda korxonaning iqtisodchi xodimlari, hisobotlar, ta'sis hujjatlari, buxgalteriya hisobining ahvoli va korxonaga faoliyatining yo'nalishlari o'rganiladi;

2) auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun shartnoma tuzish (majburiyat-rozilik xati ham kiradi);

3) auditorlik tekshiruvi rejasi va dasturini tuzish;

4) ta'sis hujjatlarini o'rganish, ya'ni qayd qilingan baho, mulk formasi, ta'sischi, ustav kapitali, boshqaruv apparati va faoliyatining tugatilishi;

5) boshqa hujjatlarni o'rganish, bayonnoma, ichki tartib va ish yuritish kabilar;

6) korxonada hisobotlarning ahvolini o'rganish;

7) hisobotlar ko'rsatkichlarining audit tekshiruvi, reja va dasturlarga o'zgartirishlar kiritish.

Buxgalteriya hisobini audit tekshiruidan o'tkazish, ya'ni: xarajatlarni to'g'ri obyektlarga olib borish, daromadlarni kelish sohalari bo'yicha ko'rsatish, ish haqi, nafaqalarni to'g'ri hisoblash, foyda va zararlarni ko'rsatish, soliqlarni o'z vaqtida to'lash va boshqalar. Ayniqsa, budget organlari, boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarning ahvolini o'rganish kabilar. Auditor o'z xulosasida buxgalteriya hisobining barcha sohalariga e'tiborni kuchaytirish lozim, ayniqsa, ularni moliya hisobot ko'rsatkichlarga bog'liqligiga e'tibor beradi.

Auditorlik teshiruvi, umuman olganda, barcha hisobot formalarini o'rganishdan boshlanadi. Bunda, avvalo, manzilgoh nomi yozilishiga qarash zarur, so'ngra korxonada faoliyatining nizomda ko'rsatilgan faoliyatga mosligiga alohida e'tibor beriladi.

Shundan so'ng, hisobotlarning to'g'ri to'ldirilishiga diqqat qilinadi. Auditor schotlarda ko'rsatilgan iqtisodiy, hisob ko'rsatkichlarining buxgalteriya hisobida aniq aks etishi va hisobotdagi forma ko'rsatkichlariga mos kelishi o'rganiladi.

Operatsiyaviy audit

Sizlarga ma'lumki, audit tekshiruvining quyidagi uchta turi: operatsiyaviy audit, talabga mos audit va moliyaviy hisobotlar auditi mavjud.

Operatsiyaviy audit korxonadagi mavjud har bir mablag'lar harakati va funksional xo'jalik tizimining samaradorligi hamda faoliyatini tekshiradi, baholaydi. Mazkur audit tekshiruvining tugallanishida menejerlar va operatsiyaviy audit to'g'risida tavsiyanoma yoziladi. Sizlarga ma'lumki, operatsiyaviy samaradorlik xo'jalik yuritishning ko'pchilik sohalarini xarakterlab beradi. Shu sababli bir xil turdagi operatsiyaviy auditni o'tkazish ham, tavsiyanoma yozish ham mumkin emas. Operatsiyaviy auditni tashkil qilishda auditor korxonada rahbari

tomonidan xo'jalik masalalari bo'yicha chiqargan qarorlari, yangi sotib olingan korxonalar mulki, hujjatlar aylanmasi hamda iqtisodiy axborotlarning samaradorligini baholashi lozim. Eng muhimi, auditor operatsiyaviy auditda faqatgina buxgalteriya hujjat va registrlari bilangina cheklanib qolmaydi. Bunday sharoitda auditorlar korxonaning tashkiliy tarkibi, xo'jalik operatsiyalarini hisobga olishda, tahlil qilishda personal kompyuterlardan foydalanish, ishlab chiqarish uslublari, marketing ishlarini malakali o'rganish lozim.

Operatsiyaviy audit yakunlari haqida auditorning xulosasini yozish va foydalanuvchilarga yetkazish boshqa turdagi audit haqidagi xulosalarga nisbatan keskin farqlanadi. Korxonalarda yuz berayotgan xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini aniqlash ko'p mehnat, vaqt talab qilgani holda, ularning samaradorlik darajasini baholash ham biroz murakkab hisoblanadi, ko'p hollarda umumiy tartibda qabul qilingan buxgalteriya va audit xulosalarini yozish tamoyillariga mos kelmeydi. Masalan, respublikamizda g'alla mustaqilligi uchun kurash ketayotgan bir paytda texnologik jarayonga rioya qilish yoki paxtani qayta ishlayotgan paxta zavodlariga texnologik jarayonlarni misol qilib keltirish mumkin. Operatsiyaviy auditni har bir korxonada individual tartibda olib borilishi yaxshi natija berishi aniqlangan. Operatsiyaviy audit ko'proq auditorlikning maslahat berish faoliyatiga o'xshab ketadi. Bozor munosabatlari sharoitida operatsiyaviy audit tekshiruvining ahamiyati yanada yuqori talab darajasiga ko'tarilishi zarur. Shunday qilib, operatsiyaviy audit korxonalar umumiy unumdorlik, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikning tahlili hamda baholash xususiyati bilan belgilanadi.

Operatsiyaviy audit tushunchasi to'g'risida ko'pgina auditorlar turli ta'sir qiluvchi omillar haqida bahslar olib bormoqdalar, jumladan, xo'jalik faoliyatini ilmiy asosda tahlil qilish asosida uni «boshqaruv auditi», «xo'jalik faoliyati auditi» kabilarga tenglashtiradilar.

Fikrimizcha, operatsiyaviy audit keng ma'noga ega bo'lib, uning vazifasi xo'jalik tizimining ichki xo'jalik auditini o'z ichiga olgan holda unumdorlik va iqtisodiy samaradorlikni tekshirish, aniqlangan hamda foydalanilmayotgan zaxira

haqida tavsiyalar berishdan iboratdir. Shuning uchun ham korxonada ichidagi audit operatsiyaviy audit tekshiruvining bir elementi hisoblanadi. Bunda korxonadagi audit tekshiruvining maqsadi, uning yuqori unumdorlik va iqtisodiy samaradorlikka erishishni ta'minlashga asosiy e'tibor berilishi lozim.

Albatta, iqtisodiy samaradorlik bilan umumiy samaradorlik to'g'risidagi fikrlar ham operatsiyaviy audit e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Ayniqsa, xodimlar malakasi darajasining korxonada tayyorlanayotgan mahsulot sifatiga ta'siri masalasi muhimdir. Demak, operatsiyaviy audit tekshiruvining ahamiyati haqida gap yuritar ekanmiz, bozor munosabatlari sharoitida, obrazli qilib aytganda, uni «korxonaning kasaliga» tashxis qo'yish va uni davolashning yo'lini ko'rsatishi mumkin. Bozor iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlarining talabiga muvofiq, raqobatbardosh korxonaga bo'lish uchun undan ahamiyatliroq narsa yo'q.

Operatsiyaviy audit tekshiruvining moliyaviy auditdan farqlarini yaxshi bilish lozim. Bugungi kungacha auditlar to'g'risidagi fikrlarga ko'ra, moliyaviy hisobotning auditi bilan operatsiyaviy audit o'rtasida quyidagi uchta farq borligi belgilangan:

1) audit tekshiruvining tayinlanishi, moliyaviy auditda buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini to'liq aks ettirishini tekshirsa, operatsiyaviy audit xo'jalik operatsiyalarining unumdorligi va samaradorlik muammolariga qaratilgan. Moliyaviy audit o'tgan davrga nisbatan bo'lsa, operatsiyaviy audit amalga oshirilayotganda istiqbolga ham tavsiyalar beradi;

2) xulosalar taqdim qilish borasidagi farq shundan iboratki, moliyaviy hisobotlar ko'proq hisobotdan foydalanuvchilarga, bank, aksionerlarga mo'ljallangan bo'lsa, operatsiyaviy auditdagi xulosalar, avvalo, korxonaga ma'muriyati uchun zarur hisoblanadi. Mazkur audit jarayonidagi unumdorlik va samaradorlik bo'yicha tahlil oldingi xulosalarni, anchagina fikrlarni o'zgartirib yuboradi;

3) operatsiyaviy audit nomoliyaviy sohalaridan keng foydalanilishi bilan ham farqlanadi. Bu audit shakli xo'jalik sohasining juda ko'p qirralarini qamrab oladi. Masalan, reklama, xodimlar malakasini oshirish va boshqalar; qishloq xo'jaligida

esa agrotexnik, zooveterinariya tadbirlarini misol qilib olish mumkin. Moliyaviy audit ko'p sohalarda cheklangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida unumdorlik va samaradorlik.

Unumdorlik tushunchasi asosan korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishni ko'zda tutadi. Samaradorlik esa yuqoridagi qo'yilgan maqsadga erishishda foydalaniladigan resurslardan unumli foydalanishni ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, unumdorlikka ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning nuqsonli bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka, samaradorlikda esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ketadigan moddiy resurslar (quvvatlarning) sarflanish darajasining minimal bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Operatsiyaviy auditda unumdorlik mezonlarini aniqlab olish lozim. Bunda operatsiyaviy unumdorlik tushunchasini bilib olish muhimdir.

Operatsiyaviy auditda unumdorlik tushunchasi korxonaga erishgan unumdorlikdan tashqari, mamlakat miqyosida unumdorlikni iste'mol etish nuqtayi nazaridan ehtiyojlarning qondirilishini qamrab oladi. Masalan, viloyat bo'yicha qayta ishlash korxonalari asbob-uskunalaridan uzluksiz oqilona foydalanish, baxtsiz hodisalarning ro'y bermaganligi, ehtiyot qism va boshqa resurslardan foydalanishning ahvoli o'rganiladi. Qishloq xo'jalik sohasida esa, traktor va mashinalar, transport vositalaridan foydalanish ahvolining darajasini ko'rsatib o'tish mumkin.

Operatsiyaviy audit jarayonida unumdorlikning pasayishiga yo'l qo'yilmagan holda, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga erishish lozim bo'ladi. Aniq bir mahsulotni ishlab chiqarishda resurslardan foydalanish ahvoli o'rganiladi, ularga variantli material sarfi hisoblab chiqilib, tavsiya qilinadi. Masalan, Samarqand qishloq xo'jalik instituti olimlari «Nadejda» beda urug'ini sinovdan o'tkazdi, bir gektar yerdan 15—20 sentnergacha beda urug'i olindi. Ayni paytda «Amir Temur» nomli arpadan 110 sentner, «Istiqlol» nomli bug'doydan esa 80—90 sentner hosildorlikka erishildi. Umuman olganda, operatsiyaviy auditda unumdorlik mezonlarini belgilab olish juda murakkab jarayondir.

Operatsiyaviy audit va ichki xo'jalik auditining uyg'unlashuvi va bog'liqligi.

Operatsiyaviy audit haqidagi masalani oldingi ma'ruza mavzularida ko'rib chiqqan edik. Shu bois bu haqda to'xtalmaymiz.

Ichki xo'jalik audit tekshiruvining maqsadi ham unumdorlik va samaradorlik bo'lganligi sizlarga ma'lum. Mazkur audit quyidagi 5 ta muammoni o'z ichiga oladi:

1) korxonada rahbar va mutaxassislarini ishonchli axborot, ma'lumotlar bilan ta'minlash;

2) korxonadagi aktivlar (ya'ni mablag'lar)ning to'la saqlanishi va hujjatlashtirilishi;

3) korxonada xo'jalik faoliyatining samaradorligini ta'minlash;

4) korxonada hisob prinsiplarining to'la saqlanishini ta'minlash;

5) chet el korrupsiyasiga qarshi normativ hujjatlarning bajarilishini ta'minlash.

Ko'rsatib o'tilgan masalalar operatsiyaviy audit tekshiruvining elementi hisoblanadi, chunki ichki xo'jalik auditining maqsadi unumdorlik va samaradorlikdir (yaxshiroq tushunarli bo'lishi uchun tashqi va ichki audit haqida gap yuritish lozim).

Operatsiyaviy audit tekshiruvining moliyaviy hisobot va ichki xo'jalik auditlaridan quyidagi ikki farqi borligi ma'lum: 1) ichki xo'jalik auditining testlashtirilishi va uni baholash; 2) audit tekshiruvining hajmi jihatidan katta bo'lishi nuqtayi nazaridan misol keltirish mumkin.

Ma'lumki, auditor firmalar moliyaviy hisobotlarni audit qilishda hamda xulosalarni yozishda operatsiyaviy audit haqida ko'p hollarda og'zaki tavsiyalar aytiladi. Bu esa unda shu xususda ma'lum mas'uliyatsizlikni bildiradi. Ayniqsa, biznes-rejaning bajarilishini auditor tekshirishini misol keltirsa bo'ladi. Bunda mijozlarning operatsiyaviy auditda metodik ko'rgazmalar bilan ta'minlanishini misol keltirish mumkin.

Operatsiyaviy auditni bajarishda sifati jihatidan mustaqillik va kompetentligini ko'rsatib o'tish lozim (Bu masala audit tekshiruvining mohiyati mavzusida yoritilgan). Auditorning barcha mustaqil huquqlarini kafolatlash lozim, chunki bunday sharoitda obyektiv tavsiyalar berish mumkin. Shunday qilib,

ichki xo'jalik auditorlari va hukumat auditorlari mustaqilligi ta'minlanishi zarur. Bunda ichki audit haqida nizomga muvofiq, quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tish lozim: 1) ichki xo'jalik auditor o'zining auditorlik faoliyatini bajarishda mustaqillik zarur; 2) ichki xo'jalik auditini tashkil qilish maqomi bo'yicha samaradorlikni aniqlash va tavsiya berishi lozim; 3) ichki xo'jalik auditida ularning o'zi o'tkazgan audit natijasiga ishonish lozimligi bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi.

Operatsiyaviy auditning maxsus mezonini tanlash qiyin masaladir. Ayniqsa, korxonada unumdorligi va samaradorligi mezonini.

Mazkur tanlashni amalga oshirish korxonaning bir faoliyatini audit natijasidagi tavsiyalar bo'yicha yuqori unumdorligi va samaradorligini yuzaga keltirish omili hisoblanadi. Masalan, qayta ishlash korxonalaridagi asbob-uskunalar serdaromad qishloq xo'jalik korxonalarida ekin maydonidan har bir gektar hisobiga ko'proq foyda olinadi. Bunda muhandis va mutaxassislar bilan mazkur tadbirlarning sinchiklab o'rganilishi, ekspert tekshiruvini kabilar lozim bo'ladi.

Mezonni aniqlashda uning manbai asosiy omil hisoblanadi, ya'ni qaysi manbalar hisobiga yutuqqa erishilishi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: Auditni amalga oshirish jarayonida korxonada mujassamlangan xarakteristika. Tekshiriladigan davrdagi «yaxshilik» yoki «yomonlik» oldingi, taqqoslanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarga asoslanadi. Taqqoslovchi unumdorlikning har bir xo'jalik operatsiyasida ko'rinishi; muhandis va mutaxassislar standartlariga mos kelishi. Muhokama qilinishi va kelishilishi.

Mazkur auditni o'tkazishning boshqa barcha audit tekshirishlarni o'tkazish kabi 3 bosqichi mavjuddir:

1. Operatsiyaviy audit tekshiruvining rejalashtirilishi.

Mazkur audit tekshirishni o'tkazishda u ko'p qirrali bo'lishi bilan moliya auditidan keskin farqlanadi. Bunga tarmoqlarning ixtisoslanishini misol keltirish mumkin. So'ngra, tuzilgan shartnomaga muvofiq, audit tekshirishini o'tkazadigan xodimlarni belgilash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, operatsiyaviy auditda barcha boshqa audit tekshirishlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflanadi.

2. Ma'lumotlarni yig'ish va baholash.

Bunda boshqa audit tekshirishlaridagi singari guvochnomalar yetti turini sanab o'tish o'rinlidir:

a) haqiqiy audit (sizga ma'lumki, material, aktivlar o'rganiladi);

b) tasdiqlash; bu masala haqida yozma javob olish;

d) hujjatlashtirish; bunda axborotning realligi haqida mijozni ishontira bilish, ichki va tashqi hujjatlashtirishni ham e'tiborga olish (shartnomalar, ularning turlari);

e) kuzatish, korxonada ishlab chiqarish bo'limlari faoliyatini kuzatish;

f) mijozni so'rash, auditor bergan savollarga yozma yoki og'zaki javob berish;

g) arifmetik aniqlik; tanlangan audit tekshirish jarayonida arifmetik aniqlik zarur;

h) analitik tadbirlar; masalan: sof daromad, yalpi daromad va ularning nisbiy ko'rsatkichlari.

3. Operatsiyaviy auditning xulosasi va uning realizatsiya qilinishi.

Moliyaviy hisobot audit tekshiruvining xulosasini yozish va realizatsiya qilish bo'yicha ikki asosiy farq mavjud.

— operatsiyaviy auditda xulosa faqat korxonada ma'muriyatiga yuboriladi, nusxasi audit tekshirish guruhida qoladi;

— operatsiyaviy audit ko'p qirrali bo'lib, xulosa yozishda audit tekshirish o'tkazilgan sohalar aniqlagan omillar va tavsiyalar keng yoritiladi.

Audit tekshiruvi davrida tekshirilayotgan korxonaning kelajakdagi quvvati, o'tgan davr faoliyatlaridan kelib chiqqan to'lov majburiyatlari, kreditorlik to'lovlarini bilib olish lozim. Bu sohada yuristlar ham baho berishi zarur.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida quyidagi noaniqliklar bo'yicha bahsli masalalar yuz berishi mumkin: 1) tugallanmagan sud jarayonidagi xo'jalik mablag'lari bo'yicha; 2) soliq organlari bilan soliq to'lovi bo'yicha; 3) mahsulotlarning sifati kafolati bo'yicha; 4) foydalanilmagan akkreditiv summalar bo'yicha; 5) muddati to'lmagan veksellar hisobi bo'yicha; 6) uchinchi tomon bilan kafolatlangan to'lov majburiyatlari bo'yicha.

Bu masalalarni test savollariga kiritish uchun quyidagi tadbirlarni auditorlar amalga oshirishlari lozim:

1) korxonalar rahbaridan so'rov olish, nima sababdan ular hisobotlarga kiritilmaganligi, ularning ochilishi;

2) soliq organlarining hisobotlar sharhi, bunda soliq to'lovchining to'lovga e'tirozining vujudga kelishi;

3) yuristlar xizmatiga haq to'lash;

4) boshqa ishchi hujjatlar sharhi, to'lov quvvatlari va uchinchi yuridik shaxslar tomonidan tasdiqlanishi;

5) akreditivlar, balansda foydalanilganlar to'g'risida axborot olish.

Auditorlik tekshiruvi natijalarini baholash masalasi ham murakkab hisoblanadi. Bunda auditor bajariladigan ishlar dasturlariga javob berishi, aniqlangan xato va kamchiliklar dastur doirasida bo'lishi lozim.

Bu bosqichda auditor tomonidan (korxonalar rahbari nomidan qo'yilgan savollarga javob) xatoning tayyorlanishi ham zarur. Bunday xato mijoz tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Aniqlangan kamchilik va xatolar qiymat bilan baholanishi lozim. Shundan so'ng hisobotlarda umumiy xatolarni belgilab olish kerak. Audit tekshiruvining oxirida auditorlik ishchi hujjatlarni ko'rib chiqish lozim, qilingan ishlarni auditorlik andozalariga mos kelishini ham bilib olish kerak.

Shundan so'ng, audit tekshiruvida barcha hisobotlarni tekshirib, quyidagilarni bajarish lozim:

1. Auditorning bilimi bo'yicha moliyaviy hisobotlar, moliyaviy ahvol, moliyaviy natijalar bir-biri bilan uyg'unlashishini ko'rib chiqadi.

2. Moliyaviy hisobotdagi axborotlarning to'g'riligi va turkumlanishini alohida o'rganadi.

3. Tuzilgan moliyaviy hisobotlar amaldagi normativ aktlarning talablariga javob berishni ko'rib chiqadi.

4. Auditor boshqa auditorlarning moliyaviy hisobotga yoki boshqa masalalarga moslab yozgan auditorlik xulosalaridan xulosa chiqara oladimi yoki yo'qmi tekshirib ko'radi.

Ma'lumki, auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan korxonada tuzilgan balansdagi asosiy ko'rsatkichlarning, jumladan: debitorlik, kreditorlik qarzlari, asosiy vositalar, tovar-moddiy

boyliklarning o'zgarishini, dinamikasini o'rganish kerak. Shu ma'noda auditor tekshiruvi jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) balans tuzilishida hisob registrlarining ma'lumotlarini tekshirish, ularning bir-biriga mos kelishini chuqur o'rganish; 2) tekshirish davrida aniqlangan dalillarni korxonahabari bilan muhokama qilish; 3) korxonahabari va bosh buxgalteridan balans tuzilgandan so'ng tushuntirish xati olish.

Auditor tomonidan tekshirilgan balans va hisobotlar shu kungacha korxonaning barcha faoliyat natijalarini to'liq aks ettirgan bo'lishi shart.

Bu haqda auditor ma'lumotnomasi yoki shu qilingan ishlarga sharh yozishi lozim, u esa korxonahabari bilan muhokama qilinadi, mazkur masala bo'yicha auditor bayonnoma so'rashi mumkin.

Auditor yuqorida aytilgan bir necha turdagi jarayonlarga baho berishi lozim.

Auditor barcha qo'shimcha ishlardan so'ng balans moddalariga baho beradi (bankrotlikni e'lon qilish, to'lanmagan schotlar, sud jarayonida to'langan summalar; asosiy va aylanma mablag'larning baholanishi, joriy baholar va boshqalar).

Investitsiyalar (jalb qilingan mablag'lar) hozirgi bahodan past bahoda sotilishi mumkin.

Ikkinchi turdagi jarayonlarga: bozorda korxonahabari qimmatbaho qog'ozlari bahosining tushishi vaqtinchalik investitsiyalar qayta solinishi, obligatsiya va aksiya chiqarilishi, sug'urta qilinmagan moddiy materiallarning sarflanishi, yong'in natijasidagi sarflarni hisobga oladi. Shundan so'ng auditor hisobot yozishga kirishadi.

Auditor bu masalalar bo'yicha quyidagilarga mas'uldir: 1) balans tuzilgandan so'ng moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishi uchun; 2) balans tuzilgandan so'nggi xo'jalik jarayonlariga audit uchun; 3) auditorlik xulosalarini o'zgartirish tushunchalariga mos ekanligining tadbirlari uchun.

Umuman olganda, auditor, sobiq Ittifoq davrida auditni ma'muriy boshqaruvchi auditorlardan farqli o'laroq, dunyoqarashi, vatanga sadoqati, imonli bo'lishi, kasbga dog' tushirmasligi kabi xislatlari jihatidan o'z vazifasini bir pog'ona yuqori saviyada bajaruvchi kasb egasi bo'lishi lozim.

Auditor hisobotining tarkibi va shakli

O'tkazilgan auditorlik tekshiruvining yakunlari bo'yicha auditor hisobotdan kelib chiqib auditorlik hisobotini va xulosasini tuzadi.

Auditorlik hisoboti quyidagi uch qismdan iborat bo'lishi mumkin: 1) kirish; 2) analitik tahlil; 3) xulosalar.

Kirish qismi: auditorlik firmasi uchun alohida yoki auditorning o'ziga alohida tuziladi. Unda auditorning barcha rekvizitlari (nomi yoki familiyasi, litsenziya, uning muddati, kim tomonidan berilgani va boshqalar), oxirida auditorlik hisobotini oluvchi ko'rsatiladi.

Analitik tahlil qismida quyidagi elementlar aniq qilib ko'rsatiladi: 1) audit tekshiruvidan o'tkazilgan moliya axboroti. Bunda hisobot berilgan davr, uning turlari, agarda audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida cheklashlar bo'lsa, ularda auditor bilan mijozning mas'ulliklari alohida ko'rsatiladi; 2) auditni bayon qilish. Bunda normativ hujjatlarga rioya qilinishi, buxgalteriya hisobida xo'jalik operatsiyalarining mos kelishi, hisobning ekspertizasi, qonun va normativ aktlardagi yo'riqlarning buzilishi, ular yuzasidan zararlar ko'rsatiladi. Agarda boshqa auditorning xulosasidan foydalanilgan bo'lsa, u ham ko'rsatiladi; 3) xulosa qilish. Bu qismda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga alohida e'tibor beriladi. Uning har bir beti auditor yoki auditor firmaning muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. U aniq, mantiqiy, qisqa yozilishi zarur. Uning natijalari matbuotda e'lon qilinishi lozim. Auditor moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarga to'la ishonmasa, kamchiliklar borligini bilsa, auditorning korxonani tekshirish yakunlari bo'yicha shartli auditorlik xulosasi beriladi.

Bunday xulosa auditorda moliyaviy hisobotlar zarur darajada bo'lmasa, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari to'liq bo'lmagan taqdirda beriladi.

Bunday holatda quyidagilar auditor noroziligiga sabab bo'lishi mumkin:

1) korxonah rahbarining auditor bilan hisobotdagi ba'zi dalillar bo'yicha ayrihik fikrlar hosil bo'lishida;

2) buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining obyektlarini baholashda (masalan: amortizatsiya hisoblanmalari);

3) xo'jalik operatsiyalariga nisbatan noto'g'ri, buxgalteriya provodkasi, ya'ni schotlarda yo'naltirilishi tuzilgan hollar bo'lishi;

4) qonun va normativ hujjatlardagi nizolar;

5) moliya axborotlarining ishonchsizligiga olib keluvchi korxonalar hisob siyosati bo'lganda.

Mazkur masalalar bo'yicha auditorlik xulosasida «shu sababli» degan so'zlar fikrga qo'shilmaganligini ko'rsatadi yoki «tekshiruvdan tashqari» degan ibora bilan moliyaviy hisobotga xulosa beriladi.

Auditor moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlar ishonchsiz, noaniq bo'lganda, buxgalteriya hisobi qonun va normativ hujjatlarga mos kelmaganda, undan foydalanuvchilarni chalakliklarga olib kelishini ko'zda tutib, qoniqarsiz auditorlik xulosasini yozadi.

Auditor qay holatda xulosa yozishdan bosh tortadi?

Agarda korxonalar moliyaviy hisobotida mahsulot hajmi, moliyaviy ahvolga ko'p miqdorda zarar yetkazsa, auditor xulosa yozishdan bosh tortganligini yozma bayon qiladi. Mazkur holatda, xato va kamchiliklar tuzatilsa, shartli qoniqarli xulosa berilishi mumkin.

Auditor audit tekshiruvi o'tkazilayotgan korxonalar rahbariga xulosa va axborot ham yozib beradi. Unda: 1) buxgalteriya hisobida, korxonalar hisob siyosati audit sistemasidagi kamchiliklar ko'rsatiladi; 2) bu kamchiliklarning ochilish hollari yoritiladi; 3) aniqlangan kamchiliklarni tugatish tavsiyalari yoziladi.

Shu bois, bu tavsiyalarni amalga oshirishda auditorlik firmasining xizmati bo'lishi ham yozib qo'yiladi. Mazkur xat auditor hisoboti bo'lib, uni audit tekshiruvi bosqichlarida ham yozilishi mumkin. Unga korxonalar rahbari javob berishi lozim.

Auditorlik andozalariga qarab, auditorlar balans va hisobot tuzganidan so'ng, ayrim tushunchalar va aniqliklarni yozishlari mumkin. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) auditorlik hisobotini tuzish vaqti, ya'ni auditorlik tekshiruvi davrida barcha axborotlarni yig'ish, tekshirish tugagandan so'ng hisoblanadi; 2) hisobotga imzo chekish vaqti, ya'ni

mijoz bilan suhbat qilib yozilgandan so'ng; 3) moliyaviy hisobotning chiqishi, ya'ni barcha hisobot formalari to'ldirilgach, uning ko'rsatkichlari bir-biri bilan bog'lanib bo'lgach; 4) hisobotlarning tuzilishiga ta'sir qiluvchi omillar, ya'ni xo'jalik operatsiyalarining o'zgarishi haqidagi hujjatlarning o'zgarishi va boshqalar; 5) katta kamchiliklar, ya'ni ilgari tuzilgan hisobotlarni o'zgartirish yuzasidan ma'lum qarorlarni qabul qilish zarurati tug'ilganda.

Audit tekshiruvining natijalari bo'yicha auditor maxsus xulosa yozishi mumkin, bunday moliyaviy ma'lumotlar maxsus maqsadlar uchun tayyorlanadi, jumladan: 1) moliyaviy hisobotning alohida tarkibiy qismi uchun xulosa; 2) alohida maqsadlar uchun hisob ma'lumotlariga asoslanib moliyaviy hisobotlar haqidagi xulosa; 3) foydadan soliq to'lash haqida hisobot haqidagi xulosa; 4) debitor va kreditor qarzlari, ularning realligi to'g'risidagi hisobot haqidagi xulosa; 5) yig'ma hisobotlar haqidagi xulosa.

Albatta, auditor bunday xulosalarni yozganda, ularning har birini tasdiqlovchi manbalarni ko'rsatishi va ularga asoslanganligini alohida yozib qo'yishi lozim bo'ladi.

5- MAVZU: AUDITOR XULQ-ATVORI, AXLOQ-ODOB TAMOYILLARI

Jamoatchilik ishonchini qozonish, o'z xizmatlari darajasini yuqori saviyada tutib turishga har qanday kasb uchun etika kodeksi zarur. Auditorlarning mijozlari, shuningdek, moliyaviy hisobdan foydalanuvchi uchinchi yuridik shaxslarning audit tekshiruviga sifatiga ishonishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar zaminida, milliy g'urur, milliy iftixor, milliy g'oya hamda o'zligimizni anglash, bilish nuqtayi nazaridan auditorlarning etik prinsiplariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi natijasida, auditor degan kasb egasida his-tuyg'ular boshqacha bo'lishi muqarrar. Shu sababli yaqinda qabul qilingan «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi qonunning ikkinchi moddasida aniqlik kiritilgandir.

O'zligimizni anglash nuqtayi nazaridan qaralsa, auditor kasb malakasini chuqur bilishi, imonli, insofli, sabrli bo'lishi, buyurilgan va bajargan ishga mas'ullik bilan yondashib, qadriyatlarimizni o'zida mujassamlashtirishini hayotning o'zi taqozo qilmoqda. Shu bilan birgalikda, jahon miqyosida auditorlik etikasining vujudga kelishi va rivojlantirilishiga AICPA (Amerika qasamyod qiluvchi buxgalterlar instituti), GAAS (dunyoda amal qilayotgan auditorlar standarti) va SEC (qimmatbaho qog'oz va birja operatsiyalarining baho komiteti)lar katta ta'sir ko'rsatib keladi.

AICPAning «Kasbiy etika asoslari» auditorlarning ish faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Mazkur kodeks to'rt qismdan iborat: konsepsiya, o'zini tutish qoidalari, tushuntirishlar va etik me'yorlar (normalar).

Kasbiy etika konsepsiyasi auditorlarda mujassamlashuvi lozim bo'lgan bir necha xususiyatlar (sifatlar), ya'ni etik prinsiplar tahlilidan iborat. Ular quyidagilar:

1. Mustaqillik, halollik va obyektivlik. Mustaqillik prinsipiga ko'ra, auditor o'z faoliyatida mijoz, u yoki bu bank egasi yoki boshqa shaxs manfaatlariga qarab ish tutmasligi lozim. Mustaqillik (ya'ni audit faoliyatida boshqa biror shaxsga bog'liq bo'lmaslik) auditorning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Auditor faqatgina o'z xizmat vazifasini bajarishi davomida audit predmetiga nisbatan mustaqillikni saqlashigina emas, balki moliyaviy hisobdan foydalanuvchilar ham auditorning mustaqilligiga ishonishlari muhimdir. Ushbu ikki maqsad haqiqiy va tashqi mustaqillik deb ataladi.

Halollik va obyektivlik prinsipiga ko'ra, auditor dalil (ma'lumot)larni qasddan buzib ko'rsatmasligi, boshqalar fikrini o'zining fikriga bo'ysundirmasligi lozim.

2. Audit sohasida chuqur huquqiy va iqtisodiy bilim malakasiga va yuqori texnik mahoratga ega bo'lish. Bu prinsipiga ko'ra, auditor o'z faoliyati davomida quyidagi standartlarga muvofiq ish yuritishi zarur: 1) kasbiy chuqur malakalilik. Auditor buyurtmalarni kasbiy malakalilik bilan bajarishiga ishongan taqdirdagina qabul qilishi lozim; 2) topshiriqni bajarish davomida auditor zarur kasbiy sinchkovlikni namoyon qilishi lozim; 3) auditor topshiriqning bajarilishini zaruriy tarzda rejalashtirish va audit qilishi zarur; 4) auditor bajarayotgan topshiriq bo'yicha xulosa va tavsiyalarni qonuniy va ilmiy asoslash uchun yetarlicha ma'lumotlar (dalillar) to'plashi kerak.

3. Mijozlar oldidagi majburiyat. Auditor o'zining mijozlari bilan sofdil va ochiq bo'lishi hamda ularga mumkin qadar yaxshiroq xizmat ko'rsatishi zarur.

4. Kasbdoshlari oldidagi majburiyat. Auditor uyushma kasb vakillari bilan xushmuomala, mehribon bo'lishi, hamkorlik uchun sharoit yaratishi lozim.

5. Boshqa majburiyatlar. Auditor o'z kasbi ustivorligini (prestij) yuqori ko'tarishi va bu kasb egalari qobiliyatlarini jamiyat manfaatlariga uchun xizmat qilishga imkon beradigan darajada tutishi zarur.

O'zini tutish qoidalari. ATSRAning «Kasbiy etika kodeksi»dagi mazkur qismga har bir auditor bajarishi albatta zarur bo'lgan, aniq belgilab berilgan qoidalar kiritilgan. Jumladan, ular quyidagilar: mustaqillik, halollik va obyektivlik; umumiy standartlar; audit standartlari; buxgalteriya hisobi prinsiplari; boshqa texnik standartlar (andozalar); mijozlarning konferensiya ma'lumotlari: ish uchun mukofotlash; reklama va ta'sir etishning boshqa usullari; birgalikda olib borib bo'lmaydigan mashg'ulotlar.

Etik me'yorlar — u yoki bu konkret holat bo'yicha tushuntirishlar (Arens, Lobbek kitobi bo'yicha ijroiya komitet tushuntirishlari, bu yerda AICPA nazarda tutiladi).

Auditorning umumiy huquqiy javobgarligi

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, turli halqaro normativ hujjatlarning kirib kelishi demokratik jarayonning xususiyatlaridan biridir.

Jamiyat iqtisodiyoti uchun audit tekshiruvining ham o'ziga xos o'rni bor. Moliyaviy holatning puxta bo'lishi uchun auditorlarning jamiyat oldidagi majburiyatlari, ayniqsa, ularning huquqiy javobgarligi alohida ahamiyatga ega. Auditorning noto'g'ri xulosaga kelishi, xulosalarining haqiqiy vaziyatni aks ettirmasligi uning huquqiy javobgarligini yuzaga keltiradi. Chunki auditor boshqa shaxslar singari korxonaga faoliyatining normal holati uchun javobgardir.

Har bir xo'jalik subyekti, ya'ni korxonaga o'z moliyaviy ahvolidan normal kechishi uchun auditor yollashi yoki bu vazifa malakali buxgalterga yuklanishi mumkin. Shu sababli faoliyat yuritayotgan auditor muayyan majburiyatlarga ham ega bo'ladiki, bu majburiyatlar uning huquqiy javobgarligini yuzaga keltiradi.

Davlatning joriy qonunlariga zid ish yuritgan, belgilangan qoidalarga muvofiq faoliyat yuritmagan auditor yoki auditorlik firmasi moddiy, ma'muriy jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bu javobgarlik manfaatdor taraflar talabi bilan turli organlar tomonidan qo'llaniladi.

Dunyo amaliyotida auditorning sudgacha va sud orqali javobgarligi ko'proq uchraydi. Bizning davlatimizda ham bu tur va holatdagi javobgarlik mavjud bo'lib, u amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadi.

Auditorning sudgacha bo'lgan javobgarligi mehnat va ma'muriy huquq normalaridan kelib chiqadi. Bunga audit bilan mijoz o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish yoki audit tomonidan tergovchi, sud, prokuror talabi bilan tekshirish o'tkazilayotganda, qonunbuzarlik faktlari yashirilganda unga ma'muriy chora ko'rish (jarima solish) holatlarini misol keltirish mumkin. Bu haqda 1996- yil 1- apreldan amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100- moddasi va 1995- yil 1- apreldan kuchga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy huquqbuzarlik kodeksining 179- moddasida aytib o'tilgan. Ayni paytda, mehnat va ma'muriy javobgarlik taraflarning sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi.

Endi sudga murojaat qilish masalasiga kelsak, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida biror taraf, ko'pincha mijoz manfaatdorlik nuqtayi nazaridan bu huquqdan foydalanishi mumkin.

Auditorning huquqiy javobgarligini uning tadbirkor tavakkalchiligi oqibatida ko'rilgan zarar bilan aralashmaslik lozim. Tadbirkor tavakkalchiligi oqibatida korxonaning ko'rgan zarari uchun auditor javobgar bo'lmaydi. Ammo mijozlar, ba'zida kelib chiqqan, korxonaga zararini auditorlik faoliyati oqibati, deb noto'g'ri o'ylaydilar. Bunday oqibat zarar uchun tadbirkorning o'zi ko'proq aybdor.

Shu bilan birga dunyo amaliyotidagi ko'pgina qonunlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunda auditorga va auditorlik firmasiga auditorlik tekshiruvlarini sifatli o'tkazish, o'zi tekshirayotgan xo'jalik subyekti rahbariyatiga tekshiruv chog'ida aniqlangan buxgalteriya hisob-kitobini yuritish hamda moliyaviy hisobot hujjatlarini tayyorlashga doir huquqiy buzilishlar yozib qo'yilgan. Shu bilan birga auditor konfidensiallik, ya'ni sir saqlash qoidalariga ham rioya etishi lozim. U mijozga yetkazadigan bunday ma'lumotlarni faqat sudning talabi bilangina oshkor etishi mumkin.

Auditorlar ehtimol tutilgan javobgarlikning oldini olish uchun quyidagi holatlardan kelib chiqib, faoliyat yuritishlari mumkin. Avvalo, ular halol mijozlar bilan ish olib borishlari, kasbiy talablarga amal qilishlari, mustaqil bo'lishlari, huquqiy maslahat xizmatidan o'rinli foydalanishlari lozim. Auditor o'z faoliyatida muhim masalalar chiqib qolsa, albatta tajribali advokatga murojaat qilishi lozim. Chunki ba'zida ehtiyotsizlik tufayli jinoyatga sherik bo'lib qolish holatlari ham uchrab turadi.

Qonunlarda auditorning jinoiy javobgarligi ham ko'rsatilgan. Bordi-yu, auditor qasddan yolg'on moliyaviy hisobot berib, boshqa shaxsni aldasa, jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bunda konkret auditor faoliyatiga qarab, uning ishtiroki darajasi yoki o'zganing mulkini talon-taroj qilish holatiga qarab jinoiy qonun-qoidalar qo'llaniladi.

Amerikalik E. A. Arnes va J. Lobbekning «Audit» nomli darsligida (Moskva, 1995- yil) auditorning huquqiy javobgarligi keng ochib berilgan. Unda muhim bir xulosaga kelingan, ya'ni mualliflar: auditor har qanday moliyaviy hisobotdagi xatoliklari uchun javobgar qilmaslik kerak. U moliyaviy mutlaq aniq ma'lumot kafolatini bera olmaydi. Bordi-yu, auditor mutlaq kafolat berganda edi, jamiyatning unga (auditorga) ketgan xarajati u keltirgan foydani qoplay olmas edi, deyishadi.

Quyida ularning ayrim jihatlarini yoritishga harakat qilamiz.

Auditor javobgarligiga ta'sir etuvchi huquqiy prinsiplar

Auditda javobgarlik turlari quyidagilarga bo'linadi: 1) mijozlarga nisbatan javobgarlik; 2) uchinchi shaxs oldidagi fuqarolik javobgarligi; 3) jinoiy javobgarlik. Bu turlarga nisbatan bir necha huquqiy prinsiplar qo'llaniladi: prinsip — aql bilan ish qilish, boshqa (begona) kishilar qilmishi uchun javobgarlik prinsipi; zarur imtiyozli axborot (privilegirovannaya informatsiya) yo'qligi prinsipi.

Prinsip — aql bilan ish qilish. Auditor amal qilishi lozim bo'lgan sinchkovlik mezonini ko'pincha prinsip — aql bilan ish qilish deb ataladi.

Boshqa kishilar qilmishi uchun javobgarlik prinsipi

Auditorlik firmasi sheriklari (partnyor) har qanday ishda bir sherikka qarshi fuqarolik hukmi bo'yicha birgalikda javobgarlikni oladilar. Sheriklar, shuningdek, agentlik munosabatlari doirasida xizmatlaridan foydalangan uchinchi shaxs uchun ham javobgar bo'lishlari mumkin. Bular: auditorlik firmasi xizmatchilari, boshqa auditorlik firmalari, boshqa mutaxassislar bo'lishi mumkin.

Zarur axborot yo'qligi prinsipi (prinsip otsutstviya privilegiovannoy informatsii). Umumiy qoidalarga muvofiq, auditor sudga u yoki bu axborotni berishdan bosh tortishi mumkin emas. Mijoz bilan auditor o'rtasidagi mustahkam aloqalar ham suddan yashirilishi mumkin emas.

Mijozlar oldidagi javobgarlik

Ko'p hollarda auditorlarni mijozlar oldidagi o'z vazifalarini yetarli sinchkovlik bilan bajarmaganliklari uchun javobgarlikka tortadilar. Bu sud ishlari ko'pincha auditor topa olmagan isrof qilingan mablag'ga (rastratlarga) tegishli bo'ladi. Mijoz buni auditor ishga yetarlicha ahamiyat bermaganligi uchun sodir bo'lgan deb ta'kidlaydi.

Auditorlik firmasi auditni himoya qilishda (mijoz bilan audirlashuvida) auditni himoya qilishning quyidagi uch usulidan birortasini yoki kombinatsiyalaridan foydalanadi. Bu usullar quyidagilar: 1) mijozga bunday xizmat ko'rsatish majburiyatining yo'qligi; 2) xizmat ko'rsatish davomida e'tiborsizlik qilinmagani; 3) ikki tomonlama e'tiborsizlik qilinmagani.

Umumiy huquqlarga muvofiq uchinchi shaxs oldidagi javobgarlik

Uchinchi shaxs adashtiradigan (haqiqiy bo'lmagan) moliyaviy hisobotga ishonib ish ko'rish natijasida, zarar ko'rgan hollarda, auditorlik firmasi uchinchi shaxs oldida javobgar bo'lishi mumkin. Bunday shaxslar hissadorlar, bank egalari,

boshqa kreditorlar bo'lishi mumkin. Mazkur sudlashuvning tipik bir ko'rinishi: bank to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan korxonadan unga berilgan kreditni qaytarib olmaydi. Bank kredit berishda uni xato fikrga olib kelgan moliyaviy audit hisobotiga ishonganligini ta'kidlaydi.

Audit tekshiruvining huquqiy javobgarligi yangi tahrirdagi «Auditorning faoliyati to'g'risida»gi qonunning 2- moddasida aniq ko'rsatilgandir. Bunda auditorlarni himoya qilishning ikki turi mavjud: ishni bajarish davomida ehtiyotsizlik qilinmaganligini isbotlash va kontrakt munosabatlar yo'qligini isbotlash.

Jinoiy javobgarlik

Auditorni AQSH da federal qonunlar bo'yicha ham, shtatlar qonunlari bo'yicha ham jinoyatchilikda ayblash mumkin. Bu qonunlarga muvofiq, jinoyat belgisi — bilib turib noobyektiv moliyaviy hisobot yordamida boshqa shaxsni aldash bo'lib hisoblanadi. Lekin mazkur masalada auditorlik sudlov ishlari juda kam uchraydi.

Auditorlar tomonidan individual tarzda qo'llaniladigan harakatlar

Auditorlar mumkin bo'lgan javobgarlik holatlarini kamaytirish uchun u yoki bu harakatni qilishi mumkin. Mazkur harakatlarning ba'zilari quyidagilar:

1. Faqat sofdil mijozlar bilan ishlash. Mijozning o'z xaridorlari, buyurtmachilari, xizmatchilari, davlat korxonalari bilan munosabatida yetarlicha halollik bo'lmasa, sudlashuv ehtimoli ko'p bo'ladi. Auditorlik firmasi o'z mijozlari sofdilligi uslublarini ishlab chiqishi va sofdil bo'lmagan mijozlar bilan ishlashdan bosh tortishi.

2. Auditorlik tekshiruvini tajribasiz yosh mutaxassislar o'tkazayotganda ularning ishini tajribali auditorlar kuzatib borishi.

3. Kasbiy standartlarga (andozalarga) qat'iy rioya qilish.

4. Mustaqilliq saqlanishi.
5. Mijozning biznesini tushunish.
6. Audit tekshiruvining yuqori sifatini ushlab turish.
7. Ishni to'g'ri hujjatlashtirish.
8. Kontrakt va vakillik xatini olish.
9. Mijoz bilan konfidensial (maxfiy) munosabatlarni saqlab turish.

10. Adekvat (mos) sug'urta himoyasini ta'minlash.

11. Malakali huquqiy konsultatsiyalardan foydalanish.

Shu jihatlardan kelib chiqib, chuqurroq qaraladigan bo'lsa, auditor samaradorlik bayrog'i ostida katta tarbiyachi, ma'naviyat egasi bo'lishi lozim.

Bugungi kunda audit nazozatning tarkibiy qismi ekanligini tan olgan holda unga ma'lum darajada to'xtash zarur.

Iqtisodiy auditning predmeti va metodi. Auditning predmeti va obyektlari

Davlatning xo'jalik masalalari bo'yicha qabul qilgan har bir qarori ishlab chiqarish, taqsimot, tovarlar almashuvi va ijtimoiy iste'molni o'z ichiga oladi.

Auditni ijtimoiy ishlab chiqarish fondlarining aylanishidan kuzatish maqsadga muvofiqdir. Bunda ishlab chiqarish hal qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida auditning predmetini mehnat, mehnat qurollari, mehnat predmetlari tashkil qiladi. Auditda bu resurslardan unumli foydalanish nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Bunda hozirgi kunda keng tarqalgan normativli rejalashtirish prinsipi tekshirildi. Tekshirishda asosiy e'tibor texnologik jarayonga, ya'ni qishloq xo'jalik ishlarining belgilangan hajmda va muddatlarda bajarilishi, normativlarning to'g'ri qo'llanilishi, oylik maosh miqdorining to'g'ri belgilanishi, xomashyo va tayyor mahsulotlarning saqlanishi, mahsulot sifatining yuqori bo'lishi, mehnatni baholashning to'g'ri qo'llanilishiga qaratiladi.

Taqsimot bosqichida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanish, avvalo, davlat buyurtmasining bajarilishi, korxonalar o'rtasidagi shartnomalarga rioya qilish kabilar,

yangidan yaratilgan qiymatning taqsimlanishi, ishlab chiqarish iste'moli, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta hamda boshqa masalalar chuqur o'rganiladi.

Auditning almashuv jarayonida muomala jarayoni o'rganiladi, tovar-pul munosabatlarining amalga oshirilishi, korxonalarining to'lov intizomiga rioya qilishi, mahsulotlarni sotish va olishda baholarning to'g'ri bo'lishi, korxonalar, tashkilotlar shartnomalar yuzasidan kelib chiqadigan pul, hisob-kitoblarning qonuniy amalga oshirilishi kabilar tekshiriladi. Va nihoyat, iste'mol bosqichida ijtimoiy ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol o'rganiladi. Bunda ishlab chiqarish fondlarining yangilanishi, korxonalar va unda ishlaydigan xodimlarning iste'molga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi, darajasi o'rganiladi.

Shunday qilib, jamiyatda auditning predmetini, hukumatimizning xo'jalik masalalari bo'yicha qabul qilgan qarorlari asosida, kengaygan takror ishlab chiqarish jarayonida, mulkdan maqsadga muvofiq va qonuniy foydalanishni aniqlash tashkil qiladi. Auditning obyektini sifatida mulkdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi. Uning keng ma'nodagi obyektlariga korxonalarining mablag'lari, xo'jalik jarayonlari xo'jalik-moliya faoliyati, ishlab chiqarish bo'linmalari, ya'ni korxonalardan tortib to xalq xo'jaligining hamma bo'g'inlari kiradi.

Auditning metodlari

Auditning o'rganish metodi boshqa fanlar singari dialektik materializm metodi hisoblanadi. Chunki o'rganiladigan mulk doimo uzluksiz harakatda, audit esa, undan maqsadga muvofiq va qonuniy ravishda foydalanishni o'rganadi. Shu bilan birga audit o'z predmetini o'rganishning xususiyatidan kelib chiqadigan xususiy metod va usullardan foydalandi. Yuqorida auditning tekshirish manbalaridan foydalanish bo'yicha hujjatli va haqiqiy auditga bo'linishini aytdik. Hujjatli auditda tekshirish manbai sifatida hujjatlardan foydalaniladi. Haqiqiy auditda obyekt natijada kuzatiladi, ya'ni manba bo'lib xo'jalik mablag'lari, ishlab chiqarish muomala jarayon-

lari hisoblanadi. Shu bilan birga haqiqiy auditni o'tkazishda inventarizatsiya, laboratoriya tahlili, ekspert komissiyasining baholashi va yuzlashtirib so'rash kabi usullardan keng foydalanish mumkin.

Inventarizatsiya — bu xo'jalik mablag'larini yoki audit qilinishi lozim bo'lgan obyektlarni joyiga borib birma-bir ko'rishdir. Bunda mulkning saqlanishi o'rganilib qolmasdan, uning ishga yaroqlilik holati ham o'rganildi. Bunga yosh chorva mollarni har oyda sanab, tarozida o'lchashni yaqqol misol qilish mumkin.

Inventarizatsiya natijalari dalolatnoma yoki ro'yxatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Laboratoriya tahlili — audit qamrab olgan obyektlarning sifat ko'rsatchiklarini tekshirishga qaratilgandir. Bunda tekshiriladigan obyektlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari o'rganiladi. Bunga tayyorlov tashkilotlariga topshirilayotgan sutning sifatini aniqlash yaqqol misol bo'la oladi yoki bo'l-masa, paxtaning namligi va iflosligi, tolaning pishiqligi laboratoriyalarda aniqlanadi. Bu auditning yakuni ma'lumotnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Ekspert komissiyasining baholashi — auditning muhim sohasi bo'lib, ayrim hollarda auditorlik ishlarida malakali turli kasb mutaxassislari xulosasi zarur bo'lib qoladi. Bunday holatda ekspert komissiyasining xulosasidan foydalaniladi. Masalan, parrandaqilik fabrikasida parrandalar yuqumli kasalliklar bilan o'lganda ekspertga yuboriladi. Yoki ayrim loyiha hujjatlari bino va inshootlar qurilishidan oldin ekspert tekshirishiga beriladi. Bu esa auditda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyasining real xarakterini aniqlash imkoniyatini beradi. Bunday auditning yakuni ekspert komissiyasining yozma xulosasi bilan rasmiylashtiriladi.

Yuzlashuv-so'rash auditning muhim o'rganish usuli bo'lib, bunda auditorlar ayrim xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirayotgan vaqtda, ba'zi hisobdor yoki mansabdor shaxslarning o'g'irlik, o'zlashtirish faktlarini aniqlash uchun ularni yuzlashtirib so'raydi. Bunday audit yakuni tushuntirish xati bilan rasmiylashtiriladi. Bunga xazinada kamomad aniqlanganda pulning qanday joylarga sarflanganligini so'rash kabilar yaqqol

misol bo'la oladi. Auditning bu usuli sud-tergov organlari tomonidan keng foydalanilib kelinmoqda.

Hujjatli auditda hujjatlarni diqqat bilan o'qish, so'ngra unda ko'rsatilgan hajm ko'rsatkichlarining realligiga, qonuniyligiga, maqsadga muvofiqqligiga e'tibor berish kerak. Hujjatlarni mantiq jihatdan tekshirilganda amalga oshmagan xo'jalik operatsiyalarini ko'rsatuvchi hujjatlar ham uchrashi mumkin. Masalan, bajarilgan ishlarni hisobga olishda bir kishi bir tonna paxta terdi, deb ko'rsatilishi mumkin, vaholanki, imkoniyat jihatidan bunday bo'lmaydi.

Bundan tashqari, uchragan hujjatlarda amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyasi qonunga mos yoki mos emasligini tekshirish lozim. Hujjatlarni arifmetik tomondan tekshirish, bu esa ma'lum xo'jalik operatsiyasining sodir bo'lganligi, avvalo, dastlabki hujjatda o'z aksini topadi. Hujjatlarda xo'jalik operatsiyasi son jihatidan aks ettiriladi. Shuning uchun bu operatsiyalar o'rganilganda arifmetik tekshirilishi lozim. Bunda taksirovka va jamlashishga e'tibor beriladi. Masalan, xazinadagi hujjatlar tekshirilganda ish haqi tarqatilgan qayd-nomalari jamlab tekshirilishi lozim.

Hujjatlarni bir-biriga taqqoslab o'tkaziladigan auditda xo'jalik operatsiyasida ko'rsatilgan obyektiv hajmi, shu operatsiyaga bog'liq boshqa bir hujjatda aks ettirilsa, ikkala hujjatdagi miqdorlar taqqoslanadi. Masalan, yig'ib olingan bug'doy hosilining miqdori kombaynchining reyestirida ko'rsatilsa, shu hajmdagi bug'doy tashilganligi to'g'risida transport vositalarining yo'l varaqalarida ham ko'rsatiladi. Qo'lda terilgan urug'lik paxta, mehnatga haq to'lash va paxtani daromadga olish hujjatlarida ko'rsatilib, ular bir-biriga taqqoslanib tekshirilishi lozim. Yoki kiringa olingan mahsulotlarning hujjatlari, chiqim hujjatlar bilan taqqoslanishi natijasida qoldig'i aniqlanishi mumkin.

Audit o'tkazishda so'roq xatining ham ahamiyati katta. Audit o'tkazayotganda, ma'lum tekshirilayotgan korxonaning ishlab chiqarish va muomala jarayonida boshqa tashkilot va korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarda bo'lishini tekshirishga to'g'ri keladi. Masalan, bir korxonada, savdo tashkilotlaridan moddiy qiymatliklar olgan bo'lsa, aloqada bo'lgan tashkilotda uning boshlang'ich va dastlabki hujjatlarida qanday aks etgan-

ligiga, kim tomonidan olinganligiga ishonch hosil qilish uchun, so'roq xati yozish yo'li bilan aniqlab, ma'lum xulosaga kelish mumkin.

Iqtisodiy tahlil — bu auditni amalga oshirishning muhim usullaridan bo'lib, undan keng foydalanish lozim. Bunda iqtisodiy tahlil ma'lumotlari asosida tuzilgan jadval va grafiklar asosida, audit o'tkazilayotgan xo'jalikda ishlab chiqarish samaradorligining qay ahvolda ekanligini yoki ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilayotgan texnologik ishlarning yakuni qanday moliyaviy natijalarga olib kelinayotganligini bilish, foydalanilmayotgan rezervlarni ishga solish imkoniyatini beradi. Masalan, paxtachilikda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning bajarilishini agrotexnik muddatlarga taqqoslab, paxta hosildorligiga qanday ta'sir ko'rsatganligini bilish mumkin.

Agar g'o'za o'z vaqtida, ya'ni belgilangan agrotexnika muddatlarida yagana qilinsa, muddatida o'tkazilmagan maydonlarga nisbatan yuqori hosil beradi. Xuddi shunday tartibda sug'orish, oziqlantirish hamda boshqa ekinlarning texnologik jarayonlarini ham tekshirish mumkin.

Shunday qilib, auditning yuqoridagi usullarini qo'llash bilan xalq xo'jaligining ishlab chiqarish sohasida erishiladigan yutuqlarga samarali hissa qo'shish mumkin.

Audit o'tkazishda boshqa fanlardan foydalanish

Hozirgi kunda audit alohida fan sifatida «Korxonalar va xo'jaliklarning xo'jalik-moliya faoliyatini audit tekshirish» kursida o'rganilib kelinmoqda. Bu fan hisob-kitob ixtisosi fanlari jumlasiga kirib, ishlab chiqarish munosabatlarini o'rganadi. Shuning uchun u iqtisodiy nazariya, buxgalteriya asoslari fanlari bilan uzviy bog'langandir. Auditning predmetini o'rganish ko'p jihatdan iqtisod, rejalashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish texnologiyasi kabi fanlarni bilishni talab qiladi. Chunki bu fanlarni bilmasdan turib, malakali, kelgusida yaxshi samara beradigan audit ishlarini o'tkazish qiyin.

Bu hisob va hisobot fanlari ixtisosiga kirganligi sababli, auditorlar buxgalteriya hisobi, korxonalar faoliyatini tahlil qilish va statistika fanlarini mukammal bilishi lozim. Aks holda audit sifatsiz bo'ladi. Chunki audit qilinadigan masalalar bu fanlar bilan uzviy bog'langandir.

Audit o'tkazishda fan-texnika yutuqlaridan keng foydalanish kerak, jumladan, elektron hisoblash mashinalari va iqtisodiy-matematik usullardan foydalanishni bilish, bajariladigan ishlarning qiyinchiliksiz va yanglishmay olib borilishini ta'minlaydi.

Audit mulkdan qonuniy va maqsadga muvofiq foydalanishni tekshirib turgani uchun yuridik fanlardan mehnat huquqi, yerdan foydalanish huquqi, moliya huquqlari fanlarini ham bilish zarur. Chunki auditorlar audit va audit o'tkazish natijasida, korxonaning butun xo'jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatiga baho beradilar, shu bilan birga mansabdor va moddiy javobgar shaxslarning korxonaga keltirilgan moddiy zarar nuqtayi nazaridan qonun oldida javobgarligini belgilaydilar. Shunday qilib, auditda boshqa aloqador fan yutuqlaridan foydalanish uning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Audit — iqtisodiy tekshiruvning tarkibiy qismi

«Audit» va «tekshiruv» so'zlari, birinchidan, umumiy hamda abstrakt tushuncha bo'lsa, ikkinchidan, xususiy va konkret tushunchalar hisoblanadi. Audit ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan bog'langan, tekshiruv esa ma'lum doirada va davrda tartibga solishning konkret formasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Audit so'zi rus tiliga, lotinchadan — reviso — peresmotr, o'zbek tilida esa «qayta ko'rish», «audit» so'zlari esa bu fanda audit tekshiruvi o'tkazish ma'nosini bildiradi. Audit o'tkazishda tekshiruv korxonalar, tashkilot va muassasalarda ishlab chiqarish, ta'minot va muamola jarayonini qayta qurishni bildirsa, oqibat natijada, bu xo'jalik operatsiyalarining amaldagi qonunlarga mos holda qonuniyligiga rioya qilinishi hamda iqtisodiy samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan tekshirish ma'nosini bildiradi.

Audit xalq xo'jaligining dastlabki bo'g'ini hisoblangan korxonalar, tashkilot va muassasalarda yoki xo'jalikni boshqarish organlarida ilgari sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini, maqsadga muvofiqligini joyida audit apparati tomonidan qo'llaniladigan hamma usullarini ishlatib o'tkaziladi. O'tkaziladigan bu auditlar yordamida davlatning audit funksiyasi sistematik ravishda ancha to'liq amalga oshiriladi.

Uzluksiz o'tkaziladigan audit yordamida mulkning saqlanishi va undan unumli foydalanish, uning ko'paytirilishi ta'minlanib, xalqning oddiy hamda madaniy turmush darajasining ko'tarilishiga hissa qo'shiladi. Audit har bir foydali tashabbuslarni uyg'unlashtiradi, auditorlik ishlariga keng mehnatkashlar ommasini jalb qilish imkoniyatini beradi. Bu masalada jamoa xo'jaliklari, korxonalarda faoliyat ko'rsatayotgan audit apparatining tajribasida keng isbotlanmoqda. O'tkazilgan audit natijalari tekshirilgan korxonalar jamoasiga oshkora ravishda e'lon qilinib, muhokama qilinishi zarur. Korxonalar, tashkilot va muassasalarda o'tkaziladigan audit amaldagi qonunlarga ko'ra, umumiy hamda davriylik xarakteriga ega bo'lib, belgilangan muddatlarda, xalq xo'jaligining hamma bo'g'inlarida qat'iy va uzluksiz tartibda o'tkazilib turiladi.

Xalq xo'jaligining hamma bo'g'inlarida bunday audit tekshiruvining qonuniy asosda doimiy o'tkazilib turilishi barcha joyda auditning ta'sirchanligini oshiradi. Audit tekshiruvini o'tkazishda fan-texnika yutuqlaridan keng foydalaniladi, bu esa davlatning audit funksiyasining ilmiy darajasini oshirish imkonini beradi.

Audit tekshirishning boshqa usullaridan farqli o'laroq huquqiy holatga ega bo'lib, uning natijalari huquqiy normativ hujjat hisoblangan dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Shuning uchun sud-tergov organlari faqat audit materiallarini, dalolatnomalarini protsessual jarayonda tasdiqlovchi yagona vosita sifatida qabul qiladilar va undagi omillarga muvofiq jinoyat tarkibini anglaydilar.

Amaldagi qonunlarga muvofiq, xalq xo'jaligining xo'jalik hisobidagi hamma bo'g'inlarida yilda bir marta (ularning idora qaramog'idan qat'iy nazar) va budjet korxonalar, tashki-

lotlarida ikki yilda bir marta audit o'tkaziladi. Audit davomida, ularning hamma: ishlab chiqarish, xo'jalik-moliya faoliyatlari har tomonlama chuqur o'rganiladi, nihoyat, ishlab chiqarish bo'linmalari, korxonalar, hisobdor hamda mansabdor shaxslar ishiga baho beriladi. Shuning uchun ham audit maxsus nazorat organlari tomonidan malakali mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi.

Audit tekshiruvini o'tkazish turlari

Audit nazorat sistemasida o'z umumiy va xususiy belgilariga ega, shunga muvofiq audit tekshiruvini o'tkazishning bir necha turlari mavjuddir.

Audit quyidagi belgilarga: audit o'tkazuvchi organlariga, o'tkazish muddatlariga, audit qilishda foydalaniladigan manbalariga, rejaliligi, qamrab oladigan masalalari va obyektlariga, ularda qatnashadigan mutaxassislar ishtirokiga, nihoyat, uni o'tkazish xarakteriga qarab ushbu turlarga bo'linadi.

Auditni o'tkazish organlariga qarab, xo'jaliklar buysonadigan idoralar tomonidan o'tkaziladigan (idora auditi) va xo'jaliklar moliyaviy jihatidan bo'ysunmaydigan davlat muassasalari tomonidan o'tkaziladigan auditlarga (tashqi audit) bo'lish mumkin.

Idora auditiga korxonalar, tashkilot va birlashmagan xo'jalik-moliya faoliyati jihatidan bo'ysunadigan muassasalarning audit xodimlari tomonidan o'tkaziladigan auditlar kiradi. Agrosanoat audit auditorlik firmalari bo'limlarining xodimlari tomonidan korxonalar xo'jalik-moliya faoliyati yuzasidan yiliga bir marta audit o'tkazib turiladi. Shuningdek, bunday auditlarga xo'jalikning o'z audit xodimi tomonidan ishlab chiqarish, xo'jalik moliya faoliyati ustidan o'tkazadigan tekshirishlari ham kiradi.

Qaramog'iga kirmaydigan davlat muassasalari tomonidan qilinadigan auditlar davlat organlarining audit xodimlari korxonalar, tashkilot va birlashmalarning qaysi tarmoq vazirligiga yoki komitetiga qarashidan qat'iy nazar audit o'tkazadilar. Masalan, Respublika Ichki ishlar vazirligining joylardagi organlari mehnatkashlarning mulkini talon-taroj qilish to'g'ri-

sidagi xabariga muvofiq, korxonaning ishlab chiqarish, moliya faoliyatlarini audit qilishlari mumkin.

Auditlar xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lish vaqtlarida o'tkazilishiga qarab, oldindan o'tkaziladigan, joriy va keyingi auditlarga bo'linadi. Ushbu audit turlariga yuqoridagi «auditni amalga oshiruvchi organlar, uning turlari va shakllari» mavzusida tushuntirish berilgan. Shuningdek, ushbu mavzuda hujjatli va haqiqiy audit shakllariga ham xarakteristika berib o'tilgan. Audit rejali yoki rejasiz o'tkazilishiga qarab, rejali va rejasiz auditlarga bo'linadi.

Rejali audit korxonalar, tashkilot va birlashmalarda ularning ishlab chiqarish, xo'jalik, moliya faoliyatini, ular bo'ysunadigan yuqori rahbarlik qiluvchi organlari tomonidan rejalashtirilib o'tkaziladi. Masalan, har bir korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik, moliya faoliyatini yiliga audit qilish auditorlik firmalari tomonidan shartnomalar asosida rejalashtiriladi. Bunday auditlar ko'p hollarda yuqori tashkilot audit xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

Rejasiz o'tkaziladigan audit, bu ko'pgina hollarda yuqori tashkilot buyrug'i va topshirig'iga muvofiq yoki mehnatkashlarning axborotlariga asosan, yoxud baxtsiz hodisalar yuz berganda o'tkaziladigan auditlar hisoblanadi. Masalan, omborda yoki fermada yong'indan so'ng o'tkaziladigan audit va boshqalar.

Auditlar tekshiriladigan obyektlari, qamrab olinishiga qarab, yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan auditlarga bo'linadi.

Yoppasiga o'tkaziladigan auditda tekshirilayotgan obyektlarning harakatini ko'rsatuvchi hujjatlar va mulklar bir boshidan to oxirigacha birma-bir tekshirishdan o'tkaziladi. Bunga xazina operatsiyalarining auditi yaqqol misol bo'la oladi. Bunday auditlar korxonalar mulkining saqlanishini ta'minlashda juda katta ahamiyatga egadir.

Tanlab o'tkaziladigan auditlarda moliya-xo'jalik faoliyati tekshiriladigan korxonaning ayrim obyektlari tanlab audit qilinadi. Bunga korxonalarda mehnat haqining berilishini tekshirish, ma'lum bir qism ishchilar yoki korxonalar xizmatchilarining ish haqi olgan yoki olmaganligini so'rash yo'li bilan audit tekshiruvchi o'tkazish yaqqol misol bo'la oladi.

O'tkaziladigan audit, tekshirilayotgan korxonada faoliyati masalalarini qamrab olishiga qarab, to'la, qisman va tematik auditlarga bo'linadi.

To'la audit o'tkazilayotgan korxonaning butun moliya-xo'jalik faoliyati to'la tekshirilib, uning ishi haqida umumiy holatni ochib bersa, ikkinchi tomondan, korxonada mulkning saqlanishi va undan unumli foydalanish kabi masalalarni to'liq tekshirib, xulosa beradi. Bunday auditlar rejali va rejasiz ham bo'lishi mumkin. Bu audit juda katta mehnat talab qiladi. Bunga korxonalarining hamma tarmoqlari, ishlab chiqarish bo'limlarini audit qiladigan auditlar misol bo'la oladi. Qisman audit tekshirilayotgan korxonada xo'jalik faoliyatining ayrim tomonlarini tekshirish bilan cheklanadigan auditlarni o'z ichiga oladi. Bunga korxonada mulkning talon-taroj qilinishi axborotiga muvofiq qoramolchilik fermasining bir yillik faoliyati bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazish misol bo'la oladi.

Tematik auditlarda ayrim bir masala olinib, shu masala yuzasidan bir-biri bilan to'la bog'liq hamma korxonalar faoliyati bir vaqtda tekshiriladi. Masalan, mineral o'g'itdan foydalanish bo'yicha tematik audit o'tkaziladigan bo'lsa, korxonalar va «Kimyo-birlashma» korxonalarining faoliyati bir vaqtda tekshirilishi mumkin. Bunday auditlar xalq xo'jaligi miqyosida katta samara berishi mumkin.

Auditlar uni o'tkazishda zarur mutaxassislarining ishtirok etishiga qarab, kompleks ravishda o'tkaziladigan va kompleks bo'lmagan auditlarga bo'linadi.

Kompleks o'tkaziladigan auditlar turli ixtisosdagi mutaxassislarining ishtirokida o'tkaziladi. Agarda korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik, moliya faoliyati yuzasidan audit o'tkazilayotgan bo'lsa, chorvachilik tarmog'ini tekshirishda zootexnik, veterinariya vrachi, o'simlikchilik tarmoqlarini o'rganishda agronom, qurilishda qurilish muhandisi, me'mor, bulardan tashqari, iqtisodchi, moliya va hisob-kitob xodimlari qatnashishi mumkin. Bunday tekshirish kompleks audit bo'lib, xo'jalik tarmoq va butun ishlab chiqarish, xo'jalik, moliya faoliyati yuzasidan obyektiv xarakteristika beradi, auditning samaradorligini yuqori saviyaga ko'taradi.

Kompleks bo'lgan auditlar asosan hisob-kitob va moliya ixtisosiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan o'tkaziladi. Bunday auditlar asosan tekshiriladigan korxonalarining moliyaviy natija va holatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, undan ko'proq, davlat budjeti hisobiga yashaydigan muassasalar faoliyatini tekshirishda foydalaniladi.

Auditlar o'tkazilish xarakteriga qarab, aralash (skvoz) va kombinatsiyalashgan auditlarga bo'linadi.

Aralash audit tekshiriladigan korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, dastlabki yuqori tashkilotning faoliyatini qo'shib tekshirish bilan xarakterlanadi. Bunday auditlar asosan respublika, viloyat, tuman miqyosidagi tarmoq birlashmalari faoliyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, moddiy fond, resurslardan samarali foydalanishni, ulardagi foydalanilmayotgan zaxiralarni ishlab chiqarish jarayoniga, masalan, paxtachilik uchun hozirgi kunda plyonka ishlab chiqaruvchi korxonalar va ularning yuqori tashkilotlari faoliyatini o'rganish yaqqol misol bo'la oladi.

Kombinatsiyalashgan auditlarga auditorlik xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazishning hamma turlaridan foydalanib o'tkaziladigan auditlar kiradi. Xo'jalik faoliyati audit qilina yotgan bo'lsa, unda agrosanoat auditorlik xodimlari (idora auditi), turli kasbdagi mutaxassislar (kompleks audit) qatnashishi mumkin.

Kompleks audit tekshiruvi o'tkazish rolini oshirish yo'llari

Hozirgi davrda, hamma turdagi o'tkaziladigan auditlar ichida, audit talablari kompleks o'tkaziladigan auditda o'z ifodasini topmoqda. Shuning uchun, «Korxonalar (birlashma) haqida»gi qonunda auditlarni kompleks o'tkazish masalasi qo'yilgani bejiz emas. Chunki barcha mutaxassislar ishtirokida o'tkazilayotgan auditlarda ishlab chiqarish, ta'minot va realizatsiya jarayonlari keng ravishda tahlil qilinadi hamda korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik, moliya faoliyati haqida obyektiv ma'lumotlar olinadi.

Kompleks audit texnolog-mutaxassislar qatnashishini, qishloq xo'jaligida texnologik intizom va agrozootexnik qoidalari qanday amalga oshirilayotganligini, almashlab ekishning joriy qilinishini, yerdan unumli foydalanishning ahvolini obyektiv va to'la ko'rsatadi. Mexanik-muhandislarining ishtirok etishi esa, faol ishlab chiqarish vositalari hisoblangan traktor va qishloq xo'jalik mashinalarining saqlanishini, ulardan unumli foydalanishning holatini to'la ochib beradi.

Moliyachi va yurist ixtisosiga ega bo'lgan xodimlarning tekshiruvda ishtirok etishi esa, sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarning qonuniyligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi to'g'risida obyektiv ma'lumotlarni beradi, bundan tashqari, tekshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish to'g'risida takliflarning kelib chiqishi, ularning turmushga keng tatbiq qilinishi imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, kompleks auditlarning o'tkazilishi tekshirilayotgan xo'jalikda sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yanada yuqori saviyaga ko'tarish yo'li bilan auditda yaxshi natijalarga erishishga olib keladi. Bunday audit, hozir mamlakatimizda yangi xo'jalik hisobi usuli amalga oshirilayotgan, keng ko'lamda islohotlar olib borilayotgan bir paytda, xalqning moddiy va madaniy turmush darajasining yaxshilanishiga yordam beradi.

6- MAVZU: KORXONALARDA ICHKI VA TASHQI AUDIT XIZMATLARI

Audit tekshiruvining mohiyati olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Jumladan, E.L.Arnes, J.Lobbek audit tekshiruvining mohiyati to'g'risida so'z yuritib, uni quyidagicha ta'riflaydilar: «Audit — murakkab jarayon bo'lib, ma'lum vakolatga, mustaqil auditorlik kasb malakasiga ega bo'lgan kishi tomonidan amalga oshiriladi va xo'jalik tizimidagi raqamlar ifodasiga tushadigan axborot yig'adi, baho beradi, mamlakatdagi tartib-qoidalarga asoslanib, o'z xulosasini yozib beradi».

Shu bilan birga, mualliflar raqamlar yordamida ifodalanadigan mezon ko'rsatkichlarini ham ko'rsatib o'tadilar. Jumladan, xo'jalik tizimi va tekshirish davrini, ma'lumotlarni to'plash va baholash, auditorlarning mustaqilligi, audit tekshiruvining natijalarini ma'lum qilish. Bular audit tekshiruvining maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Rossiyalik olimlar A.D.Sheremet va Suyetslar audit tekshiruvining mohiyatini Rossiya Federatsiyasining auditorlik qonunlaridan kelib chiqib tahlil qiladilar. Unda audit ishbilarmonlik faoliyat ko'rsatilgan bo'lib, buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish andozalarga mos ekanligi, shuningdek, audit — bu subyektlar moliyaviy ahvolini, balansning aktiv va passiv tomonlarini tekshirib, xulosa yozib berish va baholash kabi ishlar ekanligini qayd etadi. Bizningcha, E. L. Arnes va J. Lobbeklarning fikri haqiqatga yaqin ko'rinadi. Ko'pchilik olimlar ta'kidlaganidek, audit — bu korxonalarining faoliyatidagi «kasalliklar»ga tashxis qo'yish va uni tugatish yuzasidan «retsept» (taklif) berishdan iborat bo'lishi kerak. Auditorlik xulosasi va undagi takliflar avvalo korxonaga egalariga, uning to'g'risidagi axborotlardan foydalanuvchilarga hamda boshqa organlarga kerak bo'ladi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishning ma'lum qoida va tartibi mavjud. Jumladan, xo'jalik subyektlari tomonidan auditorlarerkin tanlanishi, auditor bilan mijoz o'rtasidagi munosabatlar shartnomaga asoslanishi, auditorning mijozga xulosa yozishga rozi bo'lmasligi, auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi auditor bilan tekshirilayotgan korxonalarahbarlari shaxsiy munosabat asosida ish yuritmasligi lozim.

Auditorlik tekshiruvida obyektiv va ishonchli axborot vositalaridan foydalanuvchilarni moliyaviy hisobotlar bilan ta'minlash muhim shart hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti davrida korxonalar mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar sanaladi. Shu bois buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan ma'lumotlar, moliyaviy natijalar, to'lov qobiliyati ko'pchilik yuridik shaxslar va xodimlarni qiziqtirishi tabiiy. Bunday ma'lumotlar, ayniqsa, sherikchilik asosida ishlaydigan korxonalar uchun ko'proq zarur bo'ladi. Bu xil ko'rsatkich tavsifnomalar quyida keng ifoda etilgan.

Bizga ma'lumki, bu tavsifnoma ma'lumotlari, birinchi navbatda, korxonalarahbarlari, mutaxassislariga foydalanish uchun beriladi. Bozor iqtisodiyoti davrida ular o'zaro sherikchilik asosida ishlaydigan auditor va auditorlik firmalari, moliyaviy maslahat masalalari bilan birjalar, dillerlar, yuridik tashkilotlar, xo'jalik faoliyatini tartibga solib turuvchi organlar, axborot-matbuot agentliklari, savdo-ishlab chiqaruvchi agentliklar, kasaba uyushmalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va jamoatchilik uchun ham zarurdir. Ko'rsatib o'tilgan munosabat auditorlik metodologiyasi jihatidan audit tekshiruvining umumiy maqsad va vazifalarini alohida belgilab olinishini taqozo qiladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, audit texnologiyasi bo'yicha har bir audit tekshiruvini, maslahatchi ishi uchun alohida-alohida maqsad va vazifalar belgilanishi lozim. Bu mavzuda biz yuqorida ko'rsatilgandek, maqsad va vazifalarni belgilab olamiz va tushunchalar beramiz.

Auditorlik faoliyatining samarali bo'lishi, birinchi navbatda, auditor va auditorlik firmalari uchun, qolaversa, raqobatchilik sharoitida mijozlar uchun hamda jamiyat va davlat boshqaruv organlari uchun rivojlanish garovidir.

Audit tekshiruvining maqsadi — mamlakatdagi qonunchilik, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar asosida hamda shartnomalar doirasida ma'lum bir iqtisodiy, xo'jalik muammolarini yechishga qaratilgan. Albatta, audit bilan auditorlik faoliyatining maqsadi bir xil emasligini payqab olish qiyin emas.

Auditorlik faoliyatining maqsad tushunchasi boshqacha bo'lib, u xo'jalik subyektlarining buxgalteriya hisobi, hisobotning ishonchli bo'lishini, amalga oshirilayotgan xo'jalik, moliya operatsiyalarining normativ hujjatlarga mos kelishini tekshirishdan iborat.

Moliya hisobotlari quyidagi maqsadlarda tekshiriladi:

— moliya hisobotdagi ma'lumot ko'rsatkichlarini tasdiqlash va undagi mavjud kamchiliklarni ochib tashlash;

— buxgalteriya hisobi va hisobotlari davridagi xarajat, daromad va moliyaviy natijalarning aniq, obyektiv aks ettirilishini ko'rsatib berish;

— xo'jalik subyektida buxgalteriya hisobining mavjud qonun va normativ hujjatlarga mos ravishda yuritilishi, hisobotlar tuzilishini audit qilish, korxonaga tegishli kapital aktivlariga, to'lov majburiyatlariga metodologik baho berish;

— qarzga olingan mablag'lardan samarali foydalanish, ishga solinmayotgan zaxiralarni aniqlash.

Ko'rsatib o'tilgan maqsadlarni amalga oshirishda auditorlar vazifalarini belgilab olish ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, xo'jalik subyektini hisobotida barcha aktiv va passivlarning to'k aks ettirilishi masalasi o'z aksini topishi lozim:

— hisobot tuzishda barcha hujjatlardan foydalanish (qishloq xo'jalik korxonalarida tannarx hisoblash uslublari asosida qilinganligi);

— korxonaning hisob raqamidagi mulklarni baholash uslublarning qanchalik to'g'riligini tekshirish.

Bunda auditor soliq va soliqsiz to'lovlar uchun korxonaning foydasining soliqqa tortiladigan bazasi to'g'ri aniqlanganini alohida tekshirishi, shuningdek, quyidagi masalalarni aniqlashtirishi lozim:

— xo‘jalik subyektida ustav kapitalini to‘ldirish bo‘yicha qarorlarning to‘la bajarilishini;

— sintetik va analitik hisob balansidagi aktiv hamda passivlar birligini;

— debitor va kreditor qarzlarning to‘la aks ettirilishini.

Auditorlar debitorlik va kreditorlik qarzlarni muddatli hamda muddati o‘tgan qarzlar, mamlakat ichidagi va tashqarisidagi debitorlik hamda kreditorlik qarzlari nuqtayi nazaridan ko‘rishlari lozim.

Auditor o‘z xulosasini yozishga tayyorgarlik paytida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qiladi:

— xo‘jalik operatsiyalarining korxonada hisob siyosatiga muvofiq aks ettirilishini, mulklarni baholashning to‘g‘ri tashkil qilinganligini;

— hisobotda daromad va xarajatlar qamrab olinganligi;

— joriy yil xarajatlarning davrlar va iqtisodiy mazmundan kelib cheklanganligi;

— analitik hisob aylanma qaydnomalari har oyning birinchi sanasida tuzilganligi.

Auditor xulosa yozishda alohida e‘tibor berish lozim bo‘lgan masalalar:

— hisobotning foydalanishga yaroqliligi (moddiy-tovar umumiy qiymatining korxonada ehtiyojidan kelib chiqishi);

— hisobotning asosli ekanligi (moddiy-tovar qiymatining hisobot va balansda to‘la aks ettirilishi);

— hisobotning tugallanganligi (moddiy-tovar qiymati zaxiralarining to‘g‘ri hisoblanganligi balansda ko‘rsatilganligi, balansga o‘zgartirishlar kiritilganligi);

— hisobotni baholash, moddiy-tovar qiymati qoldig‘ining summa va miqdor jihatidan balansga mos kelishi;

— hisobotda xo‘jalik mablag‘larining to‘g‘ri turkumlanganligi (moddiy-tovar qiymatliklarining schotlarda to‘g‘ri aks ettirilishi);

— hisobotda taqsimot ishlarining to‘g‘ri bajarilganligi (moddiy-tovar qiymatining sotib olinishi yoki sotilishi davrlar bo‘yicha hisobotda to‘g‘ri taqsimlab ko‘rsatilganligi);

— hisobot tuzishda belgilangan tartib va qoidaga rioya qilinganligi (moddiy-tovar qiymatlari yig‘indisining bosh daftardagi summaga mos kelishi);

— hisobotda barcha masalalarning to‘liq berilganligi (moddiy-tovar qiymatining metodik jihatdan to‘g‘ri baholanishi va hisobotlarda aks ettirilishi).

Auditorlar audit tekshiruvi jarayonida xo‘jalik subyektlariga nazariy va amaliy masalalarni yechish bo‘yicha quyidagicha yordam ko‘rsatishi zarur:

— xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligini, buxgalteriya hisobotlarining to‘g‘ri yuritilganligini tekshirish;

— buxgalteriya hisobini tashkil qilishga;

— bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining to‘g‘ri tuzilishiga;

— soliq va soliqsiz to‘lovlarning rejalashtirilishi va hisoblanishiga amaliy yordam berish;

— hisob va audit moliyalashtirishning dolzarb masalalari bo‘yicha maslahat xizmati ko‘rsatadi;

— xo‘jalik faoliyatini tahlil etish va baholash;

— ta‘sis hujjatlarining malakali asosda tuzilishiga ko‘maklashish;

— kelajakda xo‘jalik yuritishda ishonchli sheriklarni topish;

— axborot ma‘lumotlarini mijozlarga o‘z vaqtida yetkazish va hokazo.

Audit tekshiruvini o‘tkazishda uni amalga oshirish bosqichlarini bilish katta ahamiyatga ega.

Avvalo, audit tekshiruvi bo‘yicha ish hajmini, ya‘ni ko‘lamini belgilab olish zarur. Bunda auditor faoliyati haqidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, mijozlar bilan tuzilgan shartnoma shartlari e‘tiborga olinadi. Mazkur ish buxgalteriya hisobi, ichki xo‘jalik auditi, korxonaning xo‘jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatini o‘z ichiga oladi va tekshirish obyektlari haqida yetarlicha ma‘lumotlar olib o‘rganish, xulosa yozish muddatini belgilash bilan rejalashtiriladi.

Ikkinchi bosqich audit ishlari rejasini tuzish hisoblanadi. Ya‘ni taxminiy tahlillar asosida qilinadigan ishlarni baholash, bu ishga jalb qilinadigan mutaxassislar ro‘yxatini tuzish, tekshiruvni bajarish muddatini aniqlash zarur. Ammo shuni alohida qayd qilish lozimki, ishga mutaxassis jalb qilinsa ham auditorning mas‘uliyati to‘la saqlanib qolinadi.

Uchinchi bosqich korxonadagi buxgalteriya hisobi tizimi va ichki xo'jalik auditini baholashdan iborat. Asosiy e'tibor xatolarning bo'lmasligiga, moliya hisobotlaridagi ma'lumotlarning ishonchliligiga qaratiladi.

To'rtinchi bosqich barcha ma'lumotlarni to'plash, auditorlik tekshiruv yakunlarini tasdiqlashdan iborat.

Beshinchi bosqichda tasdiqlangan ma'lumotlarni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish lozim. Nihoyat oxirgi bosqich, bu auditorlik tekshiruvi yakuni bo'yicha xulosa yozish va hisobot tuzishdan iborat. Bunda auditor xulosasining amaldagi qonunchilik va tartibga soluvchi normativ hujjatlarga mosligi bayon etiladi yoki xulosa yozmaslikka qonuniy asos ko'rsatiladi.

Audit tekshiruvini o'tkazishda bajariladigan ishlar hajmini belgilab olish masalasi muhim hisoblandi. Masalan, agarda moliyaviy hisobotni audit tekshiruvidan o'tkazish maqsad qilib olingan bo'lsa, moliya hisobotidagi barcha mablag'lar, ularning manbalari, debitor, kreditor qarzarlar, moliyaviy natijalar, daromad va aylanma mablag'larni (eng kamida 5 foizi, iqtisodiy nisbiy ko'rsatkichlarning kamida 3—5 yillik ma'lumotlari) tekshirish ishlari belgilab olinadi. Bunda korxonaning avanslangan kapitali, qimmatbaho qog'ozlarning dividend summalari bo'yicha barcha zarur ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish nazarda tutiladi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda audit tekshiruvining turlarini farqlay bilish zarur. Audit turlariga quyidagilarni sanab o'tish lozim:

- a) ichki audit tekshiruvi;
- b) tashqi audit tekshiruvi.

Ichki xo'jalik audit funksional amalga oshirilishiga qarab boshqaruv yoki ishlab chiqarish auditiga bo'linadi. Bundan tashqari, xo'jalik faoliyati audit, normativ hujjatlar talabiga mos keluvchi audit, moliyaviy va maxsus audit, majburiy audit va tashabbus bilan amalga oshiriladigan auditlarni sanab o'tish mumkin.

Majburiy audit davlat boshqaruv organlari buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, dastlabki va kelishilgan auditlar mavjud. Dastlabki audit mijoz bilan kelishilgan holda o'tkaziladi, qayta o'tkaziladigan auditlar ham bo'ladi.

Audit tekshiruvining rivojlanish bosqichlarining quyidagi xillari mavjud:

a) tasdiqlovchi audit;

b) tizimli-mo'ljallangan audit, ya'ni ichki auditning samaradorligini aniqlashga qaratilgan tekshiruv;

d) tavakkalchilikka asoslangan audit, ya'ni audit tekshiruvi.

Tavakkalchilikka asoslangan audit tekshiruvi quyidagicha:

1. Buxgalteriya hisob-kitob xizmati auditorlari (asosan eng katta boshqaruv auditorlari).

2. Soliq inspektorlari, davlat budjeti bo'yicha tekshiruvni amalga oshiruvchi malakali mutaxassislar.

3. Ichki xo'jalik auditorlari.

4. Qasamyod qilgan buxgalterlar (ular auditorlik firmalari tomonidan moliya hisobotlarini tekshirib, audit qiladi).

Audit mazmunan quyidagi yo'nalishlarga ega:

— bank auditi;

— ijtimoiy sug'urta auditi;

— birja auditi;

— budjetdan tashqari jamg'armalar auditi;

— investitsiya muammolari auditi.

Auditorlik andozalari audit talablariga muvofiq tashkil topgan sifati ko'rsatkichlarga javob beradi.

Fikrimizcha, tashqi va ichki auditlar farqini kengligicha yozish ma'quldir (jadvalga qaralsin).

Audit andozalarining asosiy tamoyillari quyidagicha:

— auditorlik tekshiruvining sifatli bo'lishini ta'minlash;

— auditorlik faoliyatiga ilmiy-tadqiqotchilik natijalarini joriy qilish;

— auditorlik ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga auditorlik tekshiruv jarayonlarini tushuntirish;

— auditorlik kasbini ommalashtirish;

— mijozlar bilan malaka asosida muzokaralar olib borish;

— auditorlik tekshiruv jarayonlarida elementar aloqasini ta'minlash va hokazo.

Xalqaro auditorlik andozalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— moliyaviy hisobot tekshirish hajmi va maqsadlarini belgilash;

— audit o'tkazish bo'yicha rozilik xatlarini olish.

Audit o'tkazishning asosiy tamoyillarida ishga mas'uliyat bilan qarash, obyektiv, mustaqil bo'lish, vakolatlilik, korxonada sirini oshkor qilmaslik, zarur malakaga ega bo'lish, auditorlar tekshiruv natijalaridan foydalanish, ularni rejalashtirish, hujjatlashtirish, auditor uchun ma'lumotlar olishning hisob tizimini, ichki xo'jalik auditini tekshirish va xulosa yozish;

— auditni rejalashtirish;

— boshqa auditorlar ish natijalaridan foydalanish;

— korxonadagi buxgalteriya hisobi tizimlari va ichki xo'jalik auditini baholash;

— audit tekshiruvi sifatini audit qilish;

— audit tekshiruv ma'lumotlarini olish;

— hujjatlashtirish;

— ichki xo'jalik auditorlar tekshiruv ishlaridan foydalanish va uni baholash;

— xatolarni va qo'shib yozishni aniqlash;

— tahliliy tekshiruv;

— auditorlik xulosa va hisobotlarini tuzish va hokazo.

Ularning umumiy soni 29 ta.

Ichki xo'jalik auditorlik standartlari:

— rozilik bo'yicha audit maqsadini belgilash;

— biznes-reja va ishlarga sharh berish;

— korxonadagi biznes tavakkalchilikni baholash;

— ichki auditni baholash, uning strategik yo'nalishlarini belgilash;

— auditorlik tekshiruv strategiyasini belgilash;

— ichki xo'jalik auditorlik xizmatining samaradorligini belgilash.

1. Umumiy qoidalar. 2. Asosiy tushuncha va ularning belgilari. 3. Standart mohiyati; 4. Amaliy ilovalar.

Audit davlat iqtisodiy hayotidagi asosiy boshqaruv funksiyasi hisoblanadi. Ammo barcha darslik va qo'llanmalarda audit tekshirish nazorat o'rnini bosmasligi alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga nazorat audit tekshiruvining umumiy tomonlari hamda ular o'rtasidagi farqlar to'la ko'rsatib berilgan.

ICHKI VA TASHQI AUDITLARNING TAVSIF JIHATIDAN FARQLANISHI

Omillar	Ichki xo'jalik auditi	Tashqi audit
Qo'yilgan vazifalar	Tekshiruvning hajmi, maqsadi korxonaga boshqaruvi tomonidan qo'yiladi	Mijoz bilan auditor o'rtasidagi shartnomaga muvofiq belgilanadi
Audit tekshiruv obyektlari	Ayrim funksional vazifalarni yechish, ular yuzasidan tekshiruv va tadbirlarning axborot tizimini belgilab olish	Asosan hisob va hisobot tizimlari qay darajada ekanligini ko'rish
Maqsad	Korxonaga rahbari tomonidan belgilanadi	Audit haqidagi qonun va boshqa normativ-texnik hujjatlar talabiga muvofiq belgilanadi
Foydalanish qurollari (manbalari)	Auditor tomonidan tanlab olinadi	Umumiy qabul qilingan auditorlik andozalari bilan belgilanadi
Faoliyat turlari	Bajarish faoliyati	Ishbilarmonlik faoliyati
Ishning uyushtirilishi	Korxonaga rahbari tomonidan qo'yilgan topshiriq bajariladi	Qabul qilingan andoza va qoidalar asosida auditor tomonidan belgilab olinadi
Munosabatlar	Rahbar tomonidan uyushtiriladi	Teng sheriklik asosida mustaqil belgilanadi
Subyekt	Korxonada ishlaydigan moddiy, mansabdor shaxs	Maxsus malakaga ega bo'lgan vakolatli ish-bilarmon
Malaka	Korxonaga rahbari tomonidan uning qarashiga muvofiq aniqlanadi	Davlat organlari tomonidan tartibga solinadi
Haq to'lash	Shtat jadvali bo'yicha	Shartnoma bo'yicha
Javobgarlik	Rahbar oldida o'z mansab majburiyatlarini bajarish	Qonun va normativ hujjatlarga muvofiq mijoz oldidagi majburiyati
Uslublar	Audit o'tkazish texnologiyasi asosida bo'ladi, faqat aniqlik darajasi bo'yicha farqlanadi	Boshqa yuridik shaxslar bilan bog'lab tekshirish
Hisobotlar	Rahbarga hisobot beradi	Axborot agentliklarida e'lon qilish, mijozga o'z xulosasini yetkazish

7- MAVZU: KORXONALARDA MODDIY BOYLIKLAR VA PUL MABLAG'LARINING AUDIT XIZMATLARI

Audit qilish tartiblari hamda auditorlarning vazifalari

Har bir korxonada ishlab chiqarish uchun zarur tovar-moddiy boyliklar zaxiralarini tashkil qiladi va uni rejali ravishda to'ldirib boradi. Korxonalarda ishlab chiqarish hajmining o'sib borishi bilan ishlab chiqarish zaxiralarining saqlanishini ratsional tashkil etish va ulardan unumli foydalanishni to'la ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarning amalga oshirilishini har bir xo'jalikda zarur audit ishlarini omilkorlik bilan tashkil qilish bilan erishish mumkin.

Ularni muvaffaqiyatli hal etishning yana bir yo'li tovar-moddiy boyliklar auditini ma'lum bir ketma-ketlik tartibida amalga oshirishdir. To'liq hujjatli auditda ishni ombor xo'jaligining tashkil etilishi, tovar-moddiy boyliklarning saqlanishi va ularning hisobga olinishini o'rganishdan boshlash, keyin xo'jalikka kelib tushuvchi hamma tovar-moddiy boyliklar va tayyor mahsulotlarning kirim qilinishini ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishini tekshirishdan iboratdir.

Shundan so'ng tovar-moddiy boyliklarning xo'jalik hisobidan alohida yo'nalishlar bo'yicha to'liq, o'z vaqtida va to'g'ri tejab-tergab sarflanishi o'rganiladi. Audit ishlari tovar-moddiy boyliklar zaxiralarini tashkil qilishda mavjud normativlarga, ularning saqlanishida alohida amaldagi qo'llanmalarga rioya qilinishini, xo'jalikda mavjud bo'lgan ortiqcha tovar-moddiy boyliklarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobi, buxgalteriya, statistika hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslash bilan tugallanadi.

Ombor xo'jaligi tashkil etilishining va tovar-moddiy boyliklarning saqlanishini tekshirish

Tovar-moddiy boyliklarning saqlanishini ta'minlashda va ulardan ratsional foydalanishga erishishda ombor xo'jaligining to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tovar-moddiy boyliklar auditida, birinchi navbatda, ombor xo'jaligining tashkil etilishiga alohida e'tibor beriladi. Bu ishda xalq auditi guruh va postlari hamda boshqa jamoat tashkilotlari auditorilarga katta yordam ko'rsatadilar. Ular yig'im-terim kompaniyasi oldidan ombor xo'jaliklarining tayyorgarligini ferma binolarining chorva qishloviga tayyorgarligini va boshqa obyektlarga reydlar uyushtirib, tekshirishdan o'tkazadilar. Bahorgi ekish oldidan urug' va ko'chatlar, mineral o'g'itlar, zaharli kimyoviy moddalarning borligi, ularning saqlanishi, transport vositalarining, o'lchov asboblarning tayyorligi tekshiriladi.

Hosil yig'im-terimi oldidan esa, omborlarning mahsulotni saqlash uchun qabul qilishga tayyorligi, xirmonlar, don quritish maydonchalari, ayvonchalar holati, o'lchov asboblari, tarozi, idish materiallarining yetarli miqdorda mavjudligini va yig'im-terim davrida zarur bo'lgan boshqa obyektlarni tekshirish lozim. Chorva qishlovi oldidan esa yem-xashak va boshqa ozuqalarning yetariligi, saqlanishi hamda chorvachilik binolarining holati tekshirishdan o'tkaziladi.

Shu asosda xo'jalik bosh buxgalteriga alohida audit funksiyalari yuklatilganidir. Yuqorida qayd qilib o'tilgan tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish va saqlashga tayyorgarlik ishlari, moddiy javobgarlik ishlariga kerakli shaxslarni tayinlash, ular bilan yo'l-yo'riqlar o'tkazish bevosita bosh buxgalter ishtirokida amalga oshiriladi.

Ombor xo'jaligini audit qilish ombor binosini va undagi zarur asbob-uskunalarni haqiqiy holida ko'rib chiqish bilan boshlanadi.

Bunda auditorlar ombor binosining texnik holatini (ombor binosining devor, pollari holatini, derazalarda to'siq panjuralari, stellaj, tokcha va boshqa zarur inventarlar borligini), kerakli o'lchov asboblari, tarozilar, hisob-jadvallar hamda

ehtiyot eshiklar va ombor atrofi maydonchalari mavjudligini ko'rib chiqadilar.

Tovar-moddiy boyliklarning saqlanish holatini tekshirishda alohida tur moddiy boyliklar, mahsulotlarni saqlash uchun belgilangan tartibda taxlanishi, me'yordagi namlik miqdori, haroratning me'yorli saqlanib turilishi o'rganiladi.

Xo'jalik ombori va boshqa saqlash joylarida tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish hamda ularning xo'jalikdan chiqarilish operatsiyalari alohida diqqat bilan o'rganiladi. Buning uchun alohida tur mahsulotlarning qabul qilinishi, xo'jalikdan chiqarilishida qatnashib, shu operatsiyalar ustidan haqiqiy audit o'rnatish zarur. Ana shunda moddiy texnika vositalarini qabul qilish operatsiyalarida qatnashish bilan, bu boyliklarning qabul qilinishida mavjud normativ hujjatlar qoidalariga amal qilinishi, idishlarga qanday solinganligini, vagonlarning plombarlarini, moddiy boyliklar kam kelgan hollarda dalolatnomalarning qanday tuzilayotganligini, mahsulotlarni kirim qilish uchun tuzilgan hujjatlarning to'g'riligini tekshirish mumkin. Mahsulotlar va tovar-moddiy boyliklar ishlab chiqarish operatsiyalarini tekshirishda, bu xo'jalik operatsiyasini amalga oshirish uchun asos bor yoki yo'qligini, talab qilingan hamda haqiqiy chiqarilgan mahsulot miqdorining hujjatlarda to'g'ri yozilganligini, shuningdek, bu kirim-chiqim operatsiyalarini ombor hisobi registrlarida to'g'ri qayd qilinishini ko'rib chiqish lozim.

Tovar-moddiy boyliklarning saqlanish joylarida dastlabki hisobning to'g'ri yuritilishiga alohida e'tibor berish kerak, chunki bunda hisobning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi natijasida turli o'g'irlik holatlari yuz berishi mumkin. Buning uchun ombor hisobiga zarur bo'lgan daftar va inventar kartochoklarning yetarlicha mavjudligi, ularning to'g'ri ochilishi va yuritilishini hamda moddiy boyliklarning oylik harakati to'g'risidagi hisobotning o'z vaqtida tuzilib, buxgalteriyaga topshirilishini o'rganib chiqish lozim. Bundan tashqari, tovar-moddiy boyliklar inventarizatsiyalarining natijalarini solishtirish hamda inventarizatsiya farqlarini hisob-kitobda aks etishi qanday amalga oshirilishini tekshirish kerak.

Nihoyat, «Davr sarflari» bosh schotiga olib borilgan inventarizatsiya farqlarini jiddiy tekshirib ko'rish zarur. Bu

bosh schotga olib borilgan kamomad summalarini tekshirishda, inventarizatsiya hay'ati tabiiy kamayish bo'yicha me'yorlarning to'g'ri qo'llanishini, ishlab chiqarish xarajatlari kamomadlari uchun haqiqatdan ham konkret aybdor shaxs yo'qligining aniq ekanligini o'rganishi kerak.

Xo'jaliklarda inventarizatsiya o'tkazish tartib va qoidalariga amal qilinishini tekshirish bilan birgalikda, audit xodimlari qayta audit inventarizatsiya o'tkazishni amalda keng qo'llashlari ham mumkinki, bu audit natijalarining obyektivligini oshiradi. Bunda inventarizatsiya natijalari oraliq dalolatnomaga muvofiq audit xulosasi hisoboti yoki tekshirish ma'lumotnomasiga qo'shiladi.

Xo'jalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kirim qilinishini audit qilish

Katta miqdordagi tovar-moddiy boyliklarning xo'jalikka kelib tushishini auditdan o'tkazishda, avvalo, xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning to'liq va o'z vaqtida kirim qilinishiga e'tibor berish lozim. Bunda joriy hisob va auditning to'g'ri yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida mahsulotlardan qonunsiz ravishda foydalanish, ularning buzilishi, o'g'irlanishi faktlari o'z vaqtida aniqlanib, bunday hollarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida tegishli shaxslarni ogohlantirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bu hollarda hujjatli audit bilan bir qatorda haqiqiy audit usullaridan foydalanish mumkin (audit inventarizatsiyasi, laboratoriya tahlili va boshqalar).

Hujjatli auditda mahsulotlarning kirim qilinishi, saqlanishi, ulardan foydalanish operatsiyalari har tomonlama va batafsil tekshirib chiqiladi.

Don, paxta, lavlagi, sabzavot ekinlari, kartoshka va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining xarajatga chiqishini audit qilish, bunday mahsulotlarni daladan jo'natish registri, yo'l varaqasi, paxta terimi to'g'risida ma'lumot, qishloq xo'jaligi mahsulotlari kelib tushish kundaligi, nakladnoylar va mahsulotlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan boshqa bosh-

lang'ich hujjatlarning haqiqiyliigi, to'g'ri tuzilganligi, ularda aks ettirilgan operatsiyalarning aniqligi ko'rib chiqiladi.

Keltirilgan hosilning xo'jalikka kiritim qilinishining to'liq va o'z vaqtida bajarilganligini aniqlash uchun yuqorida qayd qilingan hujjatlar, bu mahsulotlarni yig'ishtirib olish uchun ish haqi hisoblash hujjatlari (traktorchining hisob varaqasi, mehnat va bajarilgan ishlarinng hisob varaqasi, traktorlarning, yuk mashinalarining yo'l varaqasi va boshqalar) bilan solishtirib ko'riladi. Bu masalani o'rganishda mahsulotlarning yig'im-terim va kiritim qilinishi ishlarida qatnashgan xo'jalik ishchi va xizmatchilaridan so'rov xatlari olish ham katta samara berishi mumkin. Agarda audit bevosita o'rim-yig'im davrida o'tkazilayotgan bo'lsa, mahsulot chiqishini inventarizatsiyadan o'tkazish lozim.

Chorvachilik mahsulotlarining xo'jalikka kelib tushishini audit qilishda sut sog'imini hisobga olish jurnali, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining kelib tushish kundaligi, jun qirqish va qabul qilish dalolatnomasi, nakladnoylar hamda chorvachilik mahsulotlarini qabul qilish bo'yicha boshqa boshlang'ich hujjatlar formasi va mazmuniga ko'ra tekshirib chiqiladi. Mana shu hujjatlar bo'yicha olingan mahsulotlar miqdori sog'ilgan sigirlar, juni qirqilgan qo'ylar bosh soni ma'lumotlari bilan solishtirilib ko'riladi. Agar hujjatlarda farq aniqlansa, uning sabablarini topish lozim. Ko'p hollarda olingan mahsulot miqdorini ko'paytirish uchun bu mahsulotlar sarflarini ba'zi yo'nalishlar bo'yicha sun'iy ravishda oshirish hollari uchraydi. Shuning uchun mahsulot harakati balansini tuzib, ulardan foydalanish hujjatlarini ham tekshirish kerak. Bunga buzoqlarga ichirishga va qayta ishlashga sarflangan sut, inkubatsiyaga qo'yilgan tuxum, junni yuvishdan keyin chiqqan chiqit miqdorlarini aniqlash misol bo'ladi.

Chorvachilik mahsulotlari auditida hujjatli tekshirish bilan birga albatta qayta audit inventarizatsiyasidan ham foydalanish kerak. Ayniqsa, sut sog'imi, jun qirqimi, tuxum olish, asal olish, baliq tutishda audit inventarizatsiyalar o'tkazish katta samara beradi. Shuning uchun audit guruhi rahbari oldindan belgilangan biznes-reja asosida bitta yoki bir necha fermani tanlab olib, inventarizatsiya hay'ati tarkibini tuzadi. So'ng

xo'jalik ma'muriyati bilan kelishilgan holda, u yoki bu chorvachilik mahsulotlarining qayta audit inventarizatsiyasini o'tkazadi. Inventarizatsiya natijalari oraliq dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Sanoat va yordamchi ishlab chiqarish tarmoqlari, boshqa ishlab chiqarish hamda xo'jaliklar mahsulotlarining to'liq va o'z vaqtida kirim qilinishini audit qilishda mahsulotlarni kirim qilish hujjatlarini shu tarmoq ishchilariga ish haqi hisoblash hujjatlari hamda mahsulotlarni sotish va ishlab chiqarishga sarflanishi operatsiyalarini rasmiylashtirish hujjatlari bilan solishtirib tekshirish usullaridan foydalaniladi.

Chetdan olinadigan tovar-moddiy boyliklarni tekshirish

Chetdan sotib olingan tovar-moddiy boyliklarning xo'jalikka kelib tushishi, ularning to'liq, shuningdek, o'z vaqtida kirim qilinishi ustidan doimiy auditni tashkil qilishda shtatli va jamoat auditorlar tomonidan o'tkaziladigan oldindan va joriy hamda keyingi tekshirishlar muhim rol o'ynaydi.

Oldindan o'tkaziladigan auditda xo'jalikning moddiy boyliklarga bo'lgan ehtiyoji, hisoboti, mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari, moddiy boyliklarni olish uchun ishonchli qog'ozlari berilish tartibi, moddiy boyliklarni xo'jalikka olib kelish muddatlari va shartlari hamda mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob formalari tekshiriladi.

Joriy audit tovar-moddiy boyliklarning xo'jalikka kelib tushishi va ularning kirim qilinishi jarayonlarida amalga oshiriladi. Bu audit tovar-transport nakladnoylari, schot-fakturalar va boshqa hujjatlarni tekshirish, so'ng ularni moddiy boyliklarni kirim qilish hujjatlari bilan solishtirish, moddiy boyliklarni huquqiy holda ko'rib chiqish yoki inventarizatsiya o'tkazish usullari bilan amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan operatsiyalar hujjatli auditda yanada to'liq, har tomonlama ko'rib chiqiladi. Bunda u yoki bu moddiy boyliklarni sotib olinishining asosli ekanligiga,

ularning to'liq va o'z vaqtida kirim qilinishi hamda bu moddiy boyliklardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berish kerak. Xo'jalikda hisob-kitob ishlarini tekshirish bilan xo'jalik va mol yetkazib beruvchi tashkilotlar orasidagi munosabatlarni qo'shimcha ravishda audit qilib borish lozim.

Tovar-moddiy boyliklarni alohida shaxslardan sotib olish hollariga alohida e'tibor berish kerak. Bunday operatsiyalar barcha korxonalar va tashkilotlarga man etilgan, shuning uchun shu xildagi uchragan har bir operatsiyani davlat intizomining buzilishi sifatida qayd qilib, moddiy boyliklarning kirim qilinishi va bu boyliklar uchun o'tkazilgan hisob-kitoblar diqqat bilan tekshirib chiqiladi. Keyin esa bu moddiy boyliklarning xo'jalikdagi keyingi harakatini, haqiqatda ham mavjudligini tekshirish kerak, chunki ular xo'jalikka olib kelinmagan va hisobda qalbaki aks ettirilgan bo'lishi mumkin.

Sotib olingan alohida tur tovar-moddiy boyliklarning to'liq, o'z vaqtida qabul qilinishini aniqlash uchun bu operatsiyalar bo'yicha tuzilgan ichki va tashqi hujjatlar hamda moddiy boyliklar harakati bo'yicha tayyorlangan hujjatlar solishtirib tekshiriladi. Ba'zi paytlarda xo'jaliklar hujjatda ko'rsatilganidan kam miqdorda kelib tushgan moddiy boyliklarni qabul qiladi va mol yetkazib beruvchilar jo'natgan mahsulot summasini to'liq to'laydilar. Bunday hollarda kamomad sabablarini aniqlash, agar bunda mol yetkazib beruvchilar aybdor bo'lsa, ularga tegishli dalolatnoma tuzib, e'tiroz bildirish, ortiqcha to'langan summalarni qaytarib olish choralarini ko'rish lozim.

Ba'zan moddiy boyliklarning mansabdor shaxslar tomonidan o'zlashtirib olinishi hollari yuz berganda ombor schoti daftari yoki kartochkasi ma'lumotlarini moddiy boyliklar harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan solishtirish, shuningdek, moddiy boyliklarni olib kelish, tushirish, qabul qilish ishlarida qatnashgan shaxslardan so'rash kerak. Barcha aniqlangan mansabni suiiste'mol qilish faktlariga alohida oraliq dalolatnoma tuziladi. Bu moddiy boyliklarni tekshirishda auditor MTB LIFO va FIFO (lifo va fifo) uslublarini qo'llashga alohida e'tibor berishi lozim.

Tovar-moddiy boyliklarning sarflanishini tekshirish

Qishloq xo'jaligi korxonalaridagi tovar-moddiy boyliklar harakati ustidan audit o'rnatishda, ularning sarflanishini doimiy ravishda tekshirib borish alohida o'rin tutadi. Aynan ana shu bosqichda qonun buzilishi hollari ko'p uchraydi. Shuning uchun bunday faktlar xo'jalikning va yuqori tashkilotlar audit xodimlari tomonidan o'tkaziladigan tekshirishda o'z vaqtida aniqlanishi hamda chora ko'rilishi lozim.

Tovar-moddiy boyliklar sarflanishining qonuniyligi va bu operatsiyalarning to'g'ri rasmiylashtirilishini o'rganishda moddiy boyliklarning har bir turi va guruhini alohida yo'nalishlar bo'yicha olib borish kerak.

Xo'jalikda xodimlarga moddiy boyliklar olish uchun ishonch qog'ozi berish ham qat'iy belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim. Ishonch qog'ozlarini berish va ulardan foydalanishni audit qilishda xo'jalikda ishonch qog'ozlari berish jurnalining yuritilishi, ishonch qog'ozlarining maxsus tasdiqlangan formada ekanligi, bu ishlar bo'yicha hisobot berish tartibining saqlanishi tekshiriladi. Ishonch qog'ozlari xo'jalik rahbari va bosh buxgalter imzosi bilan xodimlarga tovar-moddiy boyliklarini olish lozimligi to'g'risida asos bo'luvchi hujjat (naryad, schot) asosida 15 kungacha muddat beriladi. Bunda auditorlar xo'jalikda mahsulotlarni sotish, ishchilarga tarqatish, ularni sarflash jarayonlarida amaldagi tartib-qoidalarga rioya qilinishini doimiy kuzatib borishlari kerak.

Mahsulotlar sarflanishining auditini mahsulot turlari bo'yicha, hujjatlarni solishtirish hamda «Tayyor mahsulotni qabul qilish», «Urug'lik va yem-xashakni sarflash» dalolatnomalari yozuvlari asosida mahsulotlar harakati balansini tekshirish usullaridan keng foydalanish yo'li bilan amalga oshirish tavsiya etiladi.

Hisob ma'lumotlaridan mahsulot sotish bo'yicha yozuvlarni tekshirishda analitik schotlar ma'lumotlarini «Realizatsiya», «Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar», «Jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlar», «Tayyor mahsulot» va «Materiallar» bosh schotlaridagi ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rish lozim. Bunda xo'jalik tomonidan jo'natilgan va tayyorlov tashkilotlari qabul qilib olgan tovar

mahsulotlarning og'irlik hamda sifat jihatlari orasidagi farqlarga alohida e'tibor berish kerak.

Audit davomida mahsulotlarning boshqa kanallar bo'yicha sotilishini diqqat bilan o'rganish kerak. Amaldagi qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi korxonalari davlat buyurtmasini bajarandan so'ng xo'jalik a'zolariga hamda dehqon bozorlarida sotish huquqiga egadirlar. Shuning uchun hozirgi paytda kartoshka, meva, sabzavot, poliz mahsulotlarini dehqon bozorlarida kelishilgan baholarda sotish amalda keng qo'llanilmoqda. Bu operatsiyalarni tekshirishda davlatga mahsulot sotish buyurtmalarining bajarilishini, sotilgan mahsulotlar sotish limitiga, normasiga to'g'ri kelish yoki kelmasligini aniqlash kerak. Boshqa sotish kanallari orqali sotildi, deb hujjat rasmiylashtirish bilan ba'zi bir javobgar shaxslar aybiga ko'ra bo'lgan kamomadlar yopilishi faktlari bo'lmasligi yoki sodir etilgan o'g'irlikni mahsulotlarni transportirovka qilishda kamayishi sifatida xarajatga chiqarib yuborishga yo'l qo'y-maslik uchun hisob ma'lumotlarini hamda alohida xodimlarning tushuntirish xatlarini tekshirish lozim.

Olib borilayotgan tekshirish ishlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barcha yo'nalishlari bo'yicha sarflanishining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash bilan birga, ulardan unumsiz foydalanishni tugatish hisobiga tovar resurslarini oshirishning mumkin bo'lgan miqdorini aniqlab topish va buni amalda qo'llanishini ta'minlash lozim bo'ladi. Bu masalalarni hal etishda xo'jalikning o'z ishlab chiqarishidan hamda chetdan sotib olingan yem-xashaklardan foydalanishning samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ko'p hollarda qishloq xo'jaligi korxonalarida yem-xashak fondi asossiz ravishda oziq-ovqat uchun mo'ljallangan don va boshqa tovar mahsulotlar hisobiga tashkil etiladi, saqlash davomida ularning buzilishiga yo'l qo'yiladi hamda chorva mollari ular bilan unumsiz ravishda oziqlantiriladi. Shuning uchun auditorlar yem-xashak sarflash qaydnomalarini tekshirib, alohida tur yemlarning sarflanishi haqiqiyligi va asosliligini, mollarga tovar mahsulotlarining (don, nostandart kartoshka, sabzavotlar va boshqalar) yem sifatida sarflanishi faktlarini o'rganishlari kerak. U yoki bu yem turining sarfini rasmiylashtirilgan hujjat sanasiga alohida e'tibor beriladi

(masalan, buzilgan tovar mahsulotlari, dag'al va shirali oзуqalar kamomadi). Mollarning alohida tur va guruhlariga ular yaylovlarda boqilayotgan davrda sarflandi deb rasmiylashtirilgan bo'lishi mumkin. Yem-xashakning haqiqiy sarfi uning normasi bilan, mollarni oziqlantirish darajasi chorva mollarning mahsuldorligi bilan solishtirilib ko'riladi.

Ko'pincha xo'jalik korxonasining rahbarlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorini ko'paytirish uchun qalbaki ravishda ularning ishlab chiqarishga (asosan mollarni oziqlantirishga yem sifatida) sarfini oshiradilar. Auditorlar har bir mahsulot turi bo'yicha mahsulot harakati balansini tuzib, ishlab chiqarish hajmidagi qo'shib yozish faktlarini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar.

Sotib olingan yem-xashakning, birinchi navbatda, konsentrat oziqlardan foydalanishning realligini alohida diqqat bilan tekshirish zarur. Bu maqsadda auditning, yem-ozuqlarning ombor, fermalarda mavjud miqdorini hamda bevosita mollarni oziqlantirish jarayonida ularning sarflanishini qayta audit inventarizatsiya qilish usullaridan foydalanishi lozim.

Urug'liklar va ko'chat materiallarining sarflanishi «Materiallar» schoti, «Asosiy ishlab chiqarish» schotining «O'simlikchilik» subschoti ma'lumotlari va boshlang'ich hujjatlar (urug'lik va ko'chat materiallari sarflash dalolatnomasi, ichki xo'jalik ishlariga tayinlangan nakladnoylar) urug' sarflanish me'yorlari asosida tekshiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyolarini xo'jalikning o'zida yoki boshqa joyda qayta ishlash operatsiyalari «Tayyor mahsulot», «Asosiy ishlab chiqarish» va «Yordamchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar» bosh schotlari ma'lumotlari hamda xomashyoni chiqarish va tayyor mahsulot chiqishini aks ettiruvchi boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlari asosida tekshiriladi. Bunda har bir xomashyo va mahsulotni qayta ishlash turi hamda partiyasi bo'yicha amaldagi normativlardan va hujjatlarni solishtirib tekshirish usullaridan keng foydalaniladi.

Auditorlik ishlarida organik va mineral o'g'itlardan qanday foydalanilayotganini o'rganishga yetarlicha ahamiyat berish kerak. Ma'lumki, ularning eng ko'p yo'qolishi saqlash jarayonida buzilishidir, shu sababli auditorlar asosiy e'tiborini

shunga qaratishlari lozim. Buning uchun xo'jalik oladigan kimyoviy dorilarning o'z vaqtida va to'liq olib kelinishini hamda ularning tuproqqa solinish operatsiyalarini tekshirish lozim. Ko'pincha inventarizatsiyada o'g'itlarning buzilishi natijasida kamomadlar chiqqanda, ularni ishlab chiqarish xarajatlariga chiqarish hollari uchraydi. Bu dalillarni mineral, organik, bakterial o'g'itlar, zaharli ximikatlari va gerbitsidlardan foydalanish dalolatnomalarini ko'rib chiqish, ularni texnologik xarita hamda agronomiya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirish yo'li bilan aniqlash mumkin.

Tekshirish davomida aniqlangan o'g'itlarning me'yori sarflanish hajmlari alohida qaydnomaga yozib boriladi, keyin shu asosda xo'jalik hisobot ma'lumotlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralari ko'riladi.

Qattiq yonilg'ilar sarflanishini tekshirishda ularni tarqatish me'yori va yonilg'i turlari bo'yicha (o'tin, torf, ko'mir va boshqa) sotish baholariga amal qilinishiga e'tibor beriladi. Tekshirishda xo'jalik rahbarlariga, mutaxassislariga va boshqa ishchilarga asossiz ravishda qattiq yonilg'ining bepul berilishi hollari aniqlanishi mumkin. Bunday hollarda auditorlar bu operatsiyalar o'tkazilgan sana, berilgan yonilg'i turi, miqdori va bahosi, yonilg'ini olgan shaxslarning familiyasi hamda u qaytarishi lozim bo'lgan summa miqdori aks ettirilgan qaydnomalar tuzadilar. Yonilg'idan unumsiz foydalanish (boshqa tashkilot va shaxslarga sotish) faktlarida baholarning to'g'ri ekanligi tekshiriladi.

Neft mahsulotlari sarfini tekshirishda asosiy e'tibor yoqilg'i va moylash materiallarining tejalganligi uchun moddiy qiziqtirish va ortiqcha sarflanganligi uchun moddiy javobgarlik masalalariga qaratiladi. Buning uchun alohida tur neft mahsulotlarining haqiqiy va me'yor bo'yicha sarfini (mashinatraktor parki tomonidan bajarilgan ish hajmini hisobga olgan holda) solishtirish, bajarilgan ishlar va sarflangan yoqilg'i miqdorini audit o'lchov qilish, tekshirish o'tkazilayotgan paytda mavjud neft mahsulotlarini qayta audit inventarizatsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

Veterinariya dori-darmonlari va biopreparatlari sarflanishining haqqoniyligini tekshirishda, birinchi navbatda,

kamyob moddiy boyliklarni (spirt, premikslar va boshqa) auditdan o'tkazish zarur. Buning uchun qayta audit inventarizatsiyalari, veterinariya ekspertizasi o'tkazish hamda haqiqiy sarflarni ularning me'yorlari bilan solishtirib ko'rish lozim.

Xo'jalikda qurilish va remont materiallarining sarflanishini diqqat bilan tekshirish kerak. Bunda noyob qurilish va ta'mir materiallari inventarizatsiya qilinadi, zarur hollarda eski haqiqiy foydalanishni aniqlash uchun ularning sarflanishi yuzasidan audit o'tkaziladi. Qurilish va ta'mir materiallari sarflanishining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va realligini aniqlash metodikasi, limit-zabor xaritalar, yuk xatlar, mashinalarni ta'mirlash uchun nosozlik qaydnomasi hamda qurilish-ta'mirlash ishlarini o'tkazish uchun tuzilgan smeta hujjatlarini, prorabning hisobotlarini tekshirishga asoslanadi.

Moddiy boyliklarning haqiqiy sarf miqdorini smetalar yoki audit o'lchov materiallari bilan solishtirib, auditorlar hisob ma'lumotlarining haqiqiylikini aniqlashlari lozim. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni hisobdan chiqarishda ulardan foydalanish muddatlarining tugaganligiga e'tibor beriladi. Bu predmetlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi, albatta, ularning xizmat muddati va ularni tugatish davrida olinadigan materiallarni kirim qilish hujjatlari bilan solishtirilib ko'riladi.

Tovar-moddiy boyliklar normativ zaxiralarining saqlanishini tekshirish

Ishlab chiqarish jarayonini me'yorli davom ettirishga imkon beradigan tovar-moddiy boyliklarni kerakli hajmda rejalashtirish, bu boyliklardan samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi. Hamma qishloq xo'jaligi korxonalarida moddiy boyliklarning turlari bo'yicha normativ o'lchamlari bir xil usul asosida ishlab chiqiladi. Auditorlik ishlarida normativlarning saqlanishi, normativdan tashqari xo'jalik uchun keraksiz bo'lgan materiallar mavjudligi aniqlanadi.

Bunday tekshirishlar butun xo'jalik yili davomida uzluksiz olib borilishi lozim.

Oldindan amalga oshiriladigan auditda tovar-moddiy boyliklarning har bir giruhi bo'yicha rejalashtirilayotgan yil

oxiriga hamda har bir kvartalga ishlab chiqarish zaxiralari normativlarining to'g'ri o'rnatilganligi tekshiriladi. Bunda o'tgan yilda tovar-moddiy boyliklarning haqiqiy ishlatilgan miqdori va u yoki bu moddiy boyliklarning o'rtacha qoldig'i aniqlanadi. Rejalashtirilayotgan davrda sarflanish miqdori, ulardan foydalanishni yaxshilash choralari topiladi hamda amaldagi ko'rsatmalar asosida kvartal va yil oxiriga zaxira normativlar o'rnatiladi. Bunday audit ishlab chiqarish zaxiralari asosli rejalashtirilishni va bu zaxiralardan samaraliroq foydalanishini ta'minlaydi. Tovar-moddiy boyliklar zaxiralari va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi orasidagi nisbatni doimiy ravishda kuzatib borish joriy auditning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy xo'jalik yuritish natijasida asosiy ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan moddiy zaxiralar miqdori nisbatan kamayishi lozim. Bu — moddiy boyliklarning ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi miqdorini hisoblash bilan aniqlanadi.

Tovar-moddiy boyliklar bo'yicha auditorlik ishlari amalga oshirilgandan so'ng, har bir moddiy javobgar shaxs bo'yicha oraliq faktlari rasmiylashtiriladi.

8- MAVZU: KORXONALARDA INVENTARIZATSIA O'TKAZISH TARTIB VA QOIDALARI

Inventarizatsiya haqida tushuncha

Inventarizatsiya termini «inventar» (lotincha — inventorum) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, buyumlarni roʻyxatga olish degan maʼnoni anglatadi. Inventarizatsiya, bu oʻrganilayotgan obyektlarni haqiqiy holda koʻrib sanash va oʻlchab oʻrganish usuli boʻlib, auditning muhim bir qismidir. Inventarizatsiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda audit qilinayotgan har bir konkret obyekt koʻrib chiqish, sanash, oʻlchash, tortish, hisoblash yoʻllari bilan oʻrganiladi.

Inventarizatsiya keng maʼnoda audit tekshiruvining amalda qoʻllanishining texnik-metodologik jarayonlari mohiyatini ochib berib, audit tushunchalarini aniqlashtiradi.

Inventarizatsiya Oʻzbekiston Respublikasida qabul qilingan OʻzR. Milliy buxgariya hisobining 19- sonli standartga muvofiq oʻtkaziladi.

Inventarizatsiya audit usullari orasida markaziy oʻrin tutadi. U kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida mulkning saqlanib qolish holatini aniqlashga imkon beradi. Inventarizatsiya usuli sodda usul boʻlganligi tufayli, bu usuldan maxsus auditorlar bilan bir qatorda xalq auditorlari ham auditning hamma turlarida, jumladan, oldindan, joriy, keyingi, haqiqiy va hujjatlar asosida oʻtkaziladigan auditlarda keng foydalaniladi.

Inventarizatsiya amalda auditning boshqa usullari bilan uzviy bogʻliq holda olib boriladiki, bu uning taʼsirchanligini yanada oshiradi. Masalan, inventarizatsiya natijasida tekshirilayotgan obyektning haqiqiy va hisobot koʻrsatkichlari oʻrtasida farq chiqsa, darhol hujjatlarni tekshirish yoʻli bilan bunday farqning kelib chiqish sabablari aniqlanadi.

Inventarizatsiya oʻtkazishning texnikaviy elementlari butun xalq xoʻjaligi yoki uning ayrim tarmoqlari miqyosida bir xil

normativ qoida sifatida qonun bilan tasdiqlangan hamda bu masala buxgalteriya hisobotlari va balanslari to'g'risidagi Nizomda to'la o'z aksini topgan. Inventarizatsiya faqat ma'muriyat tomonidan qabul qilingan qaror yoki buyruq asosida tuzilgan maxsus hay'at tomonidan o'tkazilishi mumkin. Bunday hay'at tarkibida ish faoliyati, albatta, tekshirilayotgan moddiy javobgar yoki mas'ul shaxs ishtirok etishi shart. Inventarizatsiya to'satdan va har bir obyektни ko'z bilan ko'rib, sanab o'tkaziladiki, bu uning natijalarining obyektivligini ta'minlaydi. Inventarizatsiya, albatta, takrorlash tartibida, ya'ni tekshirish obyektlari ham hay'at a'zolari tomonidan, ham javobgar shaxs tomonidan to'liq ko'rib, o'lchanib, sanab yoki tortilib o'tkazilishi lozim.

Obyektlarni birma-bir ko'zdan o'tkazib chiqishda, ular haqiqiy holida o'rganilib, mavjudligi, texnik holati, rivojlanish darajasi va ularni umumiy ravishda xarakterlovchi boshqa hamma tomonlari aniqlanadi. Bu tartibda, masalan, xo'jalikning ishlab chiqarish bo'linmalari va tarmoqlarining chegaralari bo'yicha joylashuvini, chorvachilik fermalarining zooveterinariya holatini o'rganish mumkin.

Ma'lum og'irlikka ega bo'lgan hamda miqdor jihatidan biror-bir o'lchov birligida ifodalanadigan obyektlar inventarizatsiyasida tortish usulidan foydalaniladi. Uzunlik, balandlik, maydon, hajm birliklari bilan xarakterlanuvchi obyektlar (ekin maydonlari, binolar, dag'al xashak g'aramlari va shirali oziqlar) inventarizatsiyasida o'lchash usuli qo'llaniladi. Bu usul maxsus texnik o'lchash asboblari (ruletka, o'lchov ipi va boshqalar) vositasida amalga oshirilishi mumkin. Donabay tekshirish obyektlari inventarizatsiyasi esa ularni donalab sanash yo'li bilan o'tkaziladi (masalan, mollar bosh soni, asosiy vositalar va boshqalar).

Inventarizatsiya natijalari maxsus hujjat — oraliq inventarizatsiya dalolatnomasida aks ettiriladi. Bu dalolatnoma har bir inventarizatsiya natijalariga javobgar shaxslar bo'yicha tuzilishi shart. Inventarizatsiya natijasida olingan haqiqiy ma'lumotlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtirilib, natija — obyektlarning kam yoki ortiqcha miqdori aniqlanadi. Bunda haqiqiy va hujjatli auditning buxgalteriya hisobiga uzviy bog'liqligi yana bir bor namoyon bo'ladi.

Inventarizatsiya turlari

Inventarizatsiya o'tkazilishi tartibiga ko'ra, rejali va rejasiz bo'lishi mumkin.

Audit organining auditorlik ishlari rejasiga asosan o'tkaziladigan inventarizatsiya rejali inventarizatsiya deb ataladi. Inventarizatsiyaning bu turi korxonalar va xo'jaliklararo tashkilotlar audit komissiyalari ish faoliyatida keng tarqalgan bo'lib, ko'p hollarda maxsus (shtatdagi) auditorlarning tekshirish o'tkazish rejalariga ham kiritiladi. Rejali inventarizatsiya buxgalteriya hisobi sistemasida muhim o'rin tutadi. Maxsus qarorga ko'ra, har bir xo'jalik mablag'lari va moddiy boyliklari turi bo'yicha ma'lum bir vaqt ichida inventarizatsiya o'tkazib turilishi kerak. Inventarizatsiya BXMS—4,5 va BXMS 19 ga muvofiq tartibga solinadi.

Audit organlarining rejalarida ko'rsatilmagan, inventarizatsiya o'tkazishga zarurat tug'ilganda o'tkaziladigan inventarizatsiya rejasiz inventarizatsiyalar deyiladi. Inventarizatsiyaning bu turi maxsus (shtatdagi) va xalq auditorlari tomonidan tez-tez, qonunchilikning buzilishi sodir bo'lgan hollarda, mehnatkashlar xabarlariga ko'ra yoki shubhali xo'jalik operatsiyalari aniqlangan paytlarda o'tkazilib turiladi.

Tekshirilayotgan obyektни qamrab olishiga ko'ra, inventarizatsiya to'liq va tanlanma inventarizatsiyalarga bo'linishi mumkin. Tekshirilayotgan obyektning hamma bo'linmalari qamrab olinsa, bu to'liq inventarizatsiya hisoblanadi. To'liq inventarizatsiyaga xazinani audit qilish (pul mablag'lari inventarizatsiyasi), xo'jalikdagi moddiy boyliklarning rejali inventarizatsiyasi yaqqol misol bo'la oladi. Tekshirilayotgan obyekt bo'linmalarining faqat bir qismini ko'rib chiqish (sanash, o'lchash, tortish) bilan cheklanuvchi inventarizatsiya tanlanma inventarizatsiya deb ataladi. Amaliyotda inventarizatsiyaning bu turidan bajarilgan biror-bir ishning real hajmini aniqlashda, chorva mollarining yoshi, jins guruhlari va bosh sonini bilishda yoki ba'zi tovar-moddiy boyliklarning saqlanishini aniqlashda foydalaniladi. Tanlanma inventarizatsiya o'tkazish audit xodimlaridan nisbatan kam vaqt va

mehnat talab etadi, hamda uning natijalaridan tekshirilayotgan xo'jalikda mulkning saqlanishi va undan ratsional foydalanish to'g'risida umumiy, yetarlicha to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Lekin u audit natijasining to'la obyektivligini ta'minlay olmaydi, moddiy zarar (agar moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa) to'liq miqdorini aniqlash ham qiyin. Bunday holda to'liq inventarizatsiya o'tkazish kerak bo'ladi.

Inventarizatsiya mazmuniga ko'ra, resurslar va jarayonlar inventarizatsiyalariga bo'linadi.

Resurslar inventarizatsiyasi deganda, xo'jalik potensial resurs obyektlarni natural, ya'ni fizik jihatdan sanash, o'lchash va tortish yo'li bilan ko'rib chiqish tushuniladi. Bu resurslar korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik, moliya faoliyati foydalanadigan, takror ishlab chiqariladigan yoki takror ishlab chiqarilmaydigan resurslardir. Takror ishlab chiqariladigan resurslarga inson mehnatining mahsuli bo'lgan, bino va inshootlardan tortib, pul mablag'larigacha bo'lgan moddiy boyliklar, chorva mollari hamda o'simliklar kiradi.

Jarayonlar inventarizatsiyasi deganda, korxonada oborot mablag'larining aylanmasi alohida-alohida bosqichlarini haqiqiy holda ko'rib chiqish tushuniladi. Jarayonlar ishlab chiqarish va moliyaviy jarayonlarga bo'linadi. Ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita moddiy ishlab chiqarish sohasidagi bajarilgan ishlar va xarajatlar, moliyaviy jarayonga esa hisob-kitob va moliya operatsiyalari kiradi. Ishlab chiqarish jarayonlari inventarizatsiyasida bajarilgan ishlarning miqdori va sifati (asosiy va kapital qo'yilmalar faoliyati bo'yicha) tekshiriladi.

Hisob-kitob va moliyaviy operatsiyalar inventarizatsiyasiga esa korxonaning boshqa xo'jalik va tashkilotlar bilan hisob-kitob operatsiyalarini, korxonaning bankdagi schotlaridagi pul mablag'larini, debitor va kredit qarzlarning realligini tekshirish, balans hay'ati qarorini va balansning reformatsiyasini inventarizatsiya qilish operatsiyalari kiradi.

Xo'jalik ishlarida inventarizatsiyaning u yoki bu turini qo'llash auditning oldida turgan konkret vazifalariga ko'ra aniqlanadi.

Inventarizatsiya o'tkazish tartibi

Audit tekshiruvining maqsadiga ko'ra, inventarizatsiyaning u yoki bu turini tanlash auditorlar saviyasiga bog'liq. Audit qilinayotgan xo'jalik ma'muriyati inventarizatsiya o'tkazish uchun auditorlarga barcha sharoitni yaratib berishi lozim. Auditorlar xo'jalik rahbari yordamida hay'at tarkibini tuzadilar va inventarizatsiya o'tkazish uchun kerakli kishilarni jalb qiladilar.

Inventarizatsiya tayinlanib, auditorlar va xo'jalik mas'ul xodimlaridan iborat hay'at tuzilgach, moddiy javobgar shaxsning bevosita ishtirokida inventarizatsiya o'tkazish boshlanadi. Agarda u yoki bu sabablarga ko'ra (safar, kasallik va boshqalar) moddiy javobgar shaxs ishtirok etmasa, u holda hay'at tarkibiga mahalliy organlarning vakilini kiritish lozim.

Resurslar, moddiy boyliklar inventarizatsiyasini boshlashdan oldin, auditorlar moddiy javobgar shaxsga inventarizatsiyagacha bo'lgan hamma kirim va chiqim boshlang'ich hujjatlarini hisob registrlariga o'tkazdirishi, keyin qoldiqlar asosida hisobot tuzdirib, xo'jalik buxgalteriyasiga topshirishni ta'minlashlari hamda moddiy javobgar shaxsdan hamma hujjatlar va kirim yoki chiqim qilinmagan moddiy boyliklar joyida ekanligi to'g'risida tilxat olishlari shart. Tilxatni bevosita hisobotiga yoki alohida varaqqa yozishi mumkin. Keyin moddiy javobgar shaxs tomonidan olingan boshlang'ich hujjatlar forma va mazmuniga ko'ra, diqqat bilan tekshirib chiqiladi. Bunda belgilangan tartibda to'ldirilmagan hujjatlar va boshqa kishilardan olingan tilxatlar e'tiborga olinmaydi.

Moddiy javobgar shaxs hisobidagi moddiy boyliklar qoldiqlari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslanib ko'riladi. Agarda bu ma'lumotlar orasida farq bo'lsa, xo'jalik bosh buxgalteri orqali uning sabablari aniqlanadi va moddiy boyliklarning inventarizatsiya boshlanish vaqtigacha bo'lgan qoldig'i aniq hisoblab chiqiladi. Bu ma'lumotlar inventarizatsiya natijalari bilan solishtirib ko'rish uchun foydalaniladi.

Resurslar inventarizatsiyasini o'tkazishni tashkil qilishda xazina, ombor binosi va tekshirish lozim bo'lgan obyektlar joylashgan boshqa binolarni oldindan tayyorlash, stollar, stellajlarni tartib bilan joylashtirish, tekshirilgan resurslar

uchun joy ochish, zarur hollarda, binolarni yoritish va isitishni yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Inventarizatsiyada qatnashuvchi ishchilar va hay'at a'zolari inventarizatsiya o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtirilgan, ularga kerakli instruktajlar berilgan bo'lishi kerak. Inventarizatsiya paytida tekshirilayotgan obyektga moddiy boyliklarni qabul qilib olish va chiqarish operatsiyalarini to'xtatish shart yoki inventarizatsiya natijalarining obyektivligini hamda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlovchi alohida rejimni qo'llash zarur. Ana shu tashkiliy ishlar amalga oshirilgach, bevosita moddiy boyliklar inventarizatsiyasini boshlashga kirishish mumkin.

Inventarizatsiyaning to'liqligini va obyektivligini ta'minlash uchun moddiy javobgar shaxs hay'at a'zolariga javobgarligidagi mavjud hamma moddiy boyliklarni ko'rsatishi lozim. Bunda moddiy javobgar shaxsning o'ziga, boshqa biror shaxsga yoki boshqa xo'jalikka tegishli, lekin tasdiqlovchi hujjatlari bo'lmagan moddiy boyliklar tekshirilayotgan xo'jalikniki deb hisoblanadi va xo'jalik hisobiga kiritiladi.

Inventarizatsiya natijalariga ko'ra, hay'at va moddiy javobgar shaxs o'rtasida kelishmovchilik bo'lmasligi uchun inventarizatsiya tugaganda yoki har kunning oxirida yozuv natijalari o'zaro tekshirib boriladi.

Sanash yo'li bilan o'tkaziladigan inventarizatsiyada (pul mablag'lari, chorva mollari, asosiy vositalar, kam baholi va tez to'ziyidigan buyumlar, ehtiyot qismlar) sanashni, odatda, inventarizatsiya hay'atining diqqat bilan kuzatishi ostida moddiy javobgar shaxs amalga oshiradi. Sanab o'tkazilgan buyumlar bir joydan boshqa joyga o'tkazib qo'yiladi va inventarizatsiya tugaguncha xo'jalik ishlab chiqarish oborotiga jalb etilmaydi.

Tarozida tortish yo'li bilan o'tkaziladigan resurslar, moddiy boyliklar (urug'lik, yem, tayyor mahsulot, mineral o'g'it, qattiq yoqilg'i va boshqalar) inventarizatsiyasida ortitish-tushirish ishlarini bajarish uchun ishchilar jalb qilinadi. Har bir tortish natijalari hay'at a'zolari hamda moddiy javobgar shaxs tomonidan parallel ravishda yozib boriladi.

O'lchash usuli bilan o'tkaziladigan moddiy boyliklar (dag'al xashak, organik o'g'it, neft mahsulotlari, qurilish materiallari va boshqalar) inventarizatsiyasida javobgar shaxs

hay'at a'zolari bilan birgalikda bu resurslarning bo'yini, enini o'lchab, ularning hajmini topadi.

Jarayonlar inventarizatsiyasida (bajarilgan ishlar, hisob-kitob va boshqalar) ham ungacha bo'lgan hisob ma'lumotlarida aks ettirilgan bajarilgan ish va xizmatlar hajmi, debitor va kreditor qarzlari summasi aniqlanadi. Agarda inventarizatsiya o'tkaziladigan paytda buxgalteriya hisobida aks ettirilmagan bajarilgan ish yoki hisob-kitoblar bo'lsa, bu operatsiyalar boshlang'ich hujjatlar asosida hisob registrlariga o'tkaziladi. So'ngra oxirgi qoldiq chiqariladi va shundan keyin tegishli mutaxassislar (agronom, muhandis-quruvchi, muhandis-mexanik, buxgalter va boshqalar)dan iborat hay'at bu ishlarning haqiqiy bajarilishini aniqlaydi.

Inventarizatsiya natijalarini hujjatlashtirish

Bunday hujjatlashtirish amaldagi qonunlarga ko'ra, inventarizatsiya natijalari orqali dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi va audit umumiy dalolatnomasiga yoki tekshirish ma'lumotnomalariga ilova qilinadi.

Birinchidan, inventarizatsiya natijalari bo'yicha zaruriy hisob-kitoblar o'tkazilgach, hay'at a'zolari va moddiy javobgar shaxs hisob-kitoblari chiqariladi. Agarda bunda hay'at va javobgar shaxs hisoblari bo'yicha farq chiqsa, qo'shimcha — betaraf shaxslar ishtirokida inventarizatsiya obyekti qaytadan tekshiriladi.

Inventarizatsiya ma'lumotlari solishtirib chiqilgach, tekshirilayotgan resurslarning haqiqiy qoldig'i va hisob nomenklaturasi to'g'ri kelmaganligidan chiqqan inventarizatsiya farqlari yozib, tartibga solinadi. Bunda resurslarning kamomadi va ortiqchaligini bir-biri hisobiga qoplash, faqat bir xil nomdagi hamda bitta moddiy javobgar shaxs javobgarligidagi resurslar bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Bu operatsiyalar o'tkazilgandan keyin har bir resurs turlari bo'yicha, kamomad yoki ortiqcha miqdorlar aniqlanadi. Hamma aniqlangan resurslar kamomadlariga tegishli organlar tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotlar va moddiy boyliklarni saqlashdagi tabiiy kamayish normalariga asosan hisoblar tu-

ziladi. Bu hisob-kitob natijalarini e'tiborga olgan holda, aniqlangan kamomadlar moddiy javobgar shaxs zimmasiga yuklanadi, ortiqcha chiqqan resurslar esa korxonaga, buxgalteriya hisobining tegishli schotlari bo'yicha xo'jalikka kirim qilinadi.

Inventarizatsiya natijalari aks ettiriladigan oraliq dalolatnomada hay'at tarkibi, moddiy javobgar shaxsning familiyasi va ismi, inventarizatsiya turi va uning hisobotlari ko'rsatiladi. Dalolatnomaga hay'at a'zolari va moddiy javobgar shaxs imzo chekib tasdiqlaydilar, so'ng javobgar shaxs tekshirilgan moddiy boyliklarni o'z javobgarligiga qabul qilinganligi to'g'risida yozma ravishda tushuntirish xati yozadi.

Moddiy boyliklar inventarizatsiyasi natijalari bo'yicha tuziladigan dalolatnomalarda, odatda, jadval shaklida moddiy boylik turlari, o'lchov birligi, boyliklar miqdori (hisob va haqiqiy ma'lumotlar) hamda natijalar (kamomad yoki ortiqcha) ko'rsatiladi.

Korxonaga omborlaridagi moddiy qiymatliklarning turlari ko'p yoki ozligiga hamda korxonadagi dastlabki va buxgalteriya hisobining holatiga qarab, inventarizatsiya dalolatnomalari ma'lum muddatga qoldiqlari bo'yicha, faqat qoldiqlari ko'rsatilgan holda alohida oraliq dalolatnomasida ko'rsatilsa, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslash uchun har bir moddiy javobgar shaxs bo'yicha alohida-alohida solishtirma qaydnoma tuzilishi mumkin, u quyidagicha: Payariq tumaniga qarashli «Cho'rosh» qishloq xo'jaligi kooperativ xo'jaligi ombor mudiri B.To'rayevning 1.01.2001 yildan 1.04.2001 yilgacha moddiy javobgarligidagi tovar boyliklarning solishtirma qaydnomasi:

Schot № 2	Moddiy qiymatlar nomi	O'lchov birligi	Bahosi	1.01.200 - yilga qoldiq		1.01.200 - yilga qoldiq	Amaldagi me'yorlarga muvofiq tabiiy kamayish	Hisob bo'yicha tabiiy kamayishdan so'ng	Haqiqatda inventarizatsiyada mavjud	Natija		Hisobdor shaxs imzosi
				kirim	chiqim					Kam	Oshiq	
										Miqdori	Summasi	
										Miqdori	Summasi	

Chorva mollari inventarizatsiyasi oraliq dalolatnomalarda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, mollar tirik vazn hamda ularning individual belgilari (tamg'a, isirg'a, mol quloqlaridagi raqam, laqabi va boshqalar) ko'rsatilishi zarur.

Jarayonlar inventarizatsiyalari (bajarilgan ishlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqalar) natijalariga ham xuddi shunga o'xshash oraliq dalolatnomalar tuziladi. Bunda faqat moddiy boyliklar inventarizatsiyasi dalolatnomasida moddiy boyliklar miqdori ko'rsatilgan joyda tekshirilayotgan jarayonlar hajmi (mos o'lchov birliklarida), summasi o'rnida esa bu jarayonlarni amalga oshirish xarajatlari ko'rsatiladi.

Oraliq dalolatnoma uch nusxada tuzilib, bir nusxasi tekshirish o'tkazayotgan audit organida, ikkinchisi tekshirilayotgan xo'jalikda qoladi, uchinchisi esa moddiy javobgar shaxsga beriladi. Ba'zi hollarda, inventarizatsiya natijalariga ko'ra, ishni sud-tergov organlariga topshirish zarur bo'lganda, dalolatnoma to'rt nusxada tuzilib, birinchi nusxasi, albatta, shu organlarga jo'natiladi.

Zarur hollarda inventarizatsiya oraliq dalolatnomalariga moddiy javobgar shaxslarning tilxat va tushuntirish xatlari, moddiy boyliklarning tabiiy kamayishi hisoblari, auditorlarning inventarizatsiya natijalari bo'yicha tegishli xulosalari yozma ravishda ilova qilib keltiriladi. Bu ma'lumotlar asosida xo'jalik ma'muriyati yoki yuqori tashkilotlar tomonidan kerakli qarorlar qilinadi (moddiy boyliklar saqlanishi va ulardan foydalanishni yaxshilash, kamomadlarni moddiy javobgar shaxslardan undirib olish yoki ularni javobgarlikka tortish va boshqalar).

Ishni rejalashtirish va tashkil qilish shakllari

Ma'lumki, auditorlik ishlari ularni rejalashtirishdan boshlanadi. Uning rejalashtirilishi kelgusi davrda amalga oshiriladigan ishlarning ro'yxati va auditorlik organlari tomonidan uni o'tqazish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishini ko'zda tutadi. Auditorlik ishlarini rejalashtirish kelajak va joriy rejalar asosida amalga oshiriladi.

Kelajak rejalar to'g'risida gap ketganda, auditorlik organlari tomonidan besh yil va undan ortiq muddatga mo'ljallab qilinadigan ishlar tushuniladi. Bunga auditorlar mehnatidan samarali foydalanish ishini tashkil qilish, ularning malakasini oshirish va mulkning har qanday yo'qotuv, talon-taroj bo'lishiga taalluqli hamma yo'llarni batamom bartaraf qilish to'g'risidagi tadbirlar kirdi. Bu rejalarda amaldagi normativ dalolatnomalarni yanada takomillashtirish: auditning yangi shakl va usullarini, fan-texnika, yutuqlarini keng joriy qilish kabilar ham ko'rsatiladi.

Joriy rejalar bir yilga (kvartal va oy) tuzilgan bo'lib, u kelajak rejalarining konkretlashtirib, samarali amalga oshishini ta'minlaydi. Unda audit tekshiruvi o'tkazish muddatlari, hisobot tuzish ishlari ko'rsatiladi. Quyida boshqarma auditorlik bo'limi qaramog'idagi xo'jaliklarni audit qilish rejasi keltirildi:

INVENTARIZATSIYA TAXMINIY REJASI

№	Tuman va xo'jaliklar nomi	Oldin qaysi davrga qadar audit o'tkazilgan	Qaysi davrda audit o'tkaziladi	Audit turi va shakli	Audit o'tkaziladi		Haqiqatda tamomlanadi	Auditni kim o'tkazadi, vazifasi va familiyasi
					Boshlanadi	Tamomlanadi		
1.	Payariq tumani «Cho'rosh» sh/x	1. IX	1. IX- 1. XI	Kompleks	1. IX – 1. X	1. X- 1. XI		Auditor K.Xo'jayev Buxgalter-auditor S.Ahmedov
2.	Z.Ortiqov nomli f/x	1. X	1. X					

Joriy rejalar auditorlik bo'limi va boshqarmalari tomonidan tuzilib, bu bo'lim yoki boshqarma tarkibida bo'lgan tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Agarda kvartal yoki oyda bu rejalariga o'zgarish kiritilsa, ular xuddi yillik reja

singari tasdiqlanadi. Bu joriy rejalar muvofiq, har bir auditorlik xodimi o'zining individual rejasini tuzadi. Bu individual rejalar bo'limi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Shunday qilib, kelajak va joriy rejalar audit ishlarining boshlanishi bo'lib, o'tkazilayotgan nazorat ishlarining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Audit ishlarining samaradorligining oshishida, uni tashkil qilish shakllari ham katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda bunday auditorlik ishlarini tashkil qilishning quyidagi, ya'ni markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan, jamoa va alohida, aralash hamda aralash bo'lmagan shakllari mavjud.

Markazlashgan yoki markazlashmagan audit shakllari ishlarining xalq xo'jalik bo'g'inlari miqyosida bir joyga to'planishiga qarab ajratiladi. Audit apparatining viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi viloyatda to'planishi markazlashtirilgan auditorlik shaklidir. Bunda bu ishlar ikkinchi bo'g'indan boshlab markazlashadi. Bunday shakl audit ishlarida obyektivlikni ta'minlaydi, ammo salbiy tomoni — mahalliy tashkilotlar tashabbusini bo'g'adi. Bu esa ma'lum darajada ishning samaradorligini pasaytiradi.

Markazlashmagan shakli asosan tuman va xo'jalik miqyosida tashkil qilinadi. Bu kamchiliklarni ochish imkoniyatini oshiradi. Salbiy tomoni esa subyektiv omil ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Auditorlik tekshiruvining jamoa shaklida tekshirish ishlari auditorlar brigadasi yoki guruhi tomonidan olib boriladi. Bunday audit uning sifati va operativ bo'lishini ta'minlaydi. Auditorlik tekshiruvining alohida shaklida ishlar ayrim malkali auditorlar tomonidan o'tkaziladi. Bunday tekshirishlar sifat va operativ jihatidan auditning jamoa shakliga nisbatan kam samara beradi. Shuning uchun bunday auditlar kichik korxonalarda o'tkazib kelinadi.

Auditorlik ishlarining aralash shaklida tekshirilayotgan obyektida davlat nazorati, moliya-kredit va hisob-kitob xodimlari birgalikda audit o'tkazaveradilar. Aralash bo'lmagan auditorlik ishlariga esa, korxonalaridagi audit bo'limlari tomonidan o'tkaziladigan auditlarni misol qilish mumkin. Auditorlik ishlarini tashkil qilishda auditorlar obyektida vujudga kelgan sharoitga qarab, auditning eng samarali shakl-

larini tanlashlari mumkin, bu o'tkaziladigan audit tekshiruvining samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilsin.

Audit xodimlarining mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish

Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, agarda auditorlik xodimlarining mehnati qancha ilmiy asosda tashkil qilinsa, u shuncha katta samara beradi. Audit tekshiruvining ilmiy asoslangan holda uyushtirilishi birinchidan, mehnat unumdorligini oshirsa, ikkinchidan esa, tekshiruv ishlarining samaradorligini oshiradi.

Audit ishlarining ilmiy asosda tashkil qilinishining quyidagi yo'nalishlari mavjuddir; mehnatning taqsimlanishini va kooperatsiyalarni tashkil qilish; audit xodimlarini tayyorlash, xodimlarni joy-joyiga qo'yish; audit ishlarida eng taraqqiy etgan shakl va usullarni joriy qilish, mehnatni to'g'ri me'yorlash.

Dasturda tekshirish davrida qilinadigan asosiy ishlarining ro'yxati, uning qanday usulda o'tkazilishi ko'rsatiladi. Dasturda ishlar xronologik tartibda ko'rsatiladi, u audit o'tkazuvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Bu ish rejasi taxminan quydagicha bo'lishi mumkin:

"Tasdiqlayman"
Auditorlik bo'limi boshlig'i _____

Auditorlik xodimining taxminiy ish rejasi

	Bajariladigan ishlar mazmuni	Bajaruvchi shaxsning familiyasi va vazifasi	Tekshirish usuli	Bajarish muddati	
				reja	haqida
1.	Xo'jalik bilan tanishish	Xo'jayev K. X. (buxgalter-auditor)			

	Bajariladigan ishlar mazmuni	Bajaruvchi shaxsning familiyasi va vazifasi	Tekshirish usuli	Bajarish muddati	
				reja	haqida
2.	Xazinani to'rsadan inventarizatsiya qilish	—»—	to'liq	I/IX	
3.	Xazina operatsiyalarida audit tekshiruvini o'tkazish	—»—	to'liq	1—7/IX	
4.	Bankdagi schotlarga doir operatsiyalarni audit qilish	—»—	to'liq	8—11/IX	
5.	Hisobdor shaxslar bilan olib boriladigan hisob-kitoblarga doir operatsiyalarni tekshirish	—»—	to'liq	12/IX	
6.	Mol yetkazib beruvchilarga doir operatsiyalarni audit qilish	—»—		13/IX	
7.	Tayyorlov tashkilotlarining mahsulotga buyurtma berish doir hisob-kitoblarini tekshirish	—»—	qisman to'liq	14—16/IX	
8.	Markaziy va ishlab chiqarish bo'limlaridagi omborlarni inventarizatsiya qilish va hokazolar	hay'at	to'liq	1/IX—10/IX	

Auditor xo'jalikka borishdan oldin shunday rejalarni tuzib, oraliq dalolatnomalar va umumiy dalolatnoma uchun ma'lumotlarni ham tayyorlab qo'yishi lozim. Bu ishlarning oldindan amalga oshirilishi audit tekshiruvini o'tkazish muddatini qisqartirish va samarasini oshirish imkonini beradi.

Xo'jaliklararo va jamoa xo'jaliklarida hamda kooperativ tashkilotlarda ichki auditorlik ishlarini rejalashtirish ham katta ahamiyatga egadir. Bizningcha, sh/x audit hay'atining ishlarini tashkil qilish quyidagicha bo'lishi mumkin.

**Samarqand viloyati Payariq tumaniga qarashli «Cho‘rosh»
shirkat xo‘jaligi audit hay‘atining 20.. yil uchun audit
ishlarining rejasi**

№	Tekshirish va audit ishlarining turlari	O‘tkaziladigan tekshirish va auditlar soni				Yillik tekshirish va auditlar soni	Tekshirish va audit o‘tkazish, uni talab qilinadigan vaqt, kun soni	Mehnat haqi sarflanadi
		I	II	III	IV			
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.	Sh/x ning ishlab chiqarish, xo‘jalik va moliya faoliyati bo‘yicha sh/x boshqaruvining bir yillik ishini audit qilish	1	-	-	-	1	45	350
2.	Sh/x boshqaruvi- ning yarim yillik ishi bo‘yicha sh/x ishlab chiqarish, xo‘jalik, moliya faoliyatini audit qilish (199...y).			1	-	1	40	295
3.	Moddiy boyliklarni javobgar shaxslar bo‘yicha inventari- zatsiya qilish (obyektlar soni)	4	2	4	4	14	80	510
4.	Sh/x pul mablag‘- larini, yem-xashak- dan foydalanish, yonilg‘i-moylash materiallarini tek- shirish va audit qilish (obyektlar soni)	8	10	6	6	30	126	7.20
5.	Sigirlarda audit sog‘im o‘tkazish, hisobdor shaxslarda pul mablag‘larining naqd bo‘lishini tekshirish, qishloq xo‘jalik mahsuloti sotishni tekshirish (obyektlar soni)	3	1	3	3	10	2.5	1,5

1	2	3	4	5	6	7	8	9
6.	Sh/x uchastka- larida ishlab chi- qarish jarayonini tekshirish	1	-	2	1	4	58	4
7.	Sh/x mashina- traktor parkida ularning amaldagi qoida va instruk- siyalarga muvofiq saqlanishini tekshirish	1	1	-	1	3	2,5	11
8.	Payariq tuman Suv va qishloq xo'jalik birlashmasi tomo- nidan o'tkaziladi- gan auditda qatna- shish	-	-	-	-	-	4,0	4,9
9.	Ishlab chiqarish va moddiy boylik saq- lanadigan obyekt- larda to'satdan inventarizatsiya o'tkazish	-	-	-	-	-	3,0	1,9
10.	Sh/x umumiy yig'ilishi yillik hi- sobotiga audit hay'atining xulo- sasini yozish va uni sh/x umumiy yig'ilishiga taqdim qilish	-	-	-	-	-	2,0	9,0
	Audit hay'atining ish yuritish bo'yicha registr- larini uzluksiz qayd qilib borish, kishi/kunlar soni	4	4	4	4	-	1,6	14, 5
	J A M I:	x	x	x	x	x	44,5	3,7 5

Audit tekshiruvi o'tkazish tartibi haqida

Tayyorgarlik ishlari amalga oshirilgandan so'ng audit guruhi a'zolari xo'jalikka boradilar va u yerda bir necha bosqich ishlarni amalga oshiradilar. Jumladan, korxonada rahbarlari va xodimlari bilan aloqa o'rnatib, inventarizatsiya, audit inventarizatsiya hamda audit tekshiruvi o'tkazish haqida kelishib oladilar, so'ng xo'jalikda yuz bergan moliyaviy intizomlarning buzilishini, kamomad, o'g'irlik, talon-tarojlik yuz bergan bo'lsa, yetkazilgan zararlar miqdorini aniqlab, o'tkazilgan audit natijalarini rasmiylashtiradilar.

Korxonada aloqa o'rnatish boshlang'ich bosqich bo'lib, bunda hay'at boshlig'i va a'zolari korxonada rahbariga audit tekshiruvi o'tkazish haqidagi buyruqni yoki farmoyishni ko'rsatadilar. Ayrim audit ishlari o'tkazishda korxonada rahbariga axborot beriladi, bosh mutaxassislar, jamoat tashkilotlarining boshliqlari bilan tanishiladi, o'tkaziladigan audit va uning oldida turgan maqsad-vazifalar to'g'risida axborot beriladi.

Audit obyektlari bilan umumiy tanishish, bu audit hay'ati a'zolari tomonidan audit qilinadigan joylarni ko'z bilan ko'rish, korxonada ish yuritilishini, moddiy boyliklar saqlanishini o'rganish, yordamchi va sanoat korxonalarini faoliyatini ko'rish kabi ishlardir. Shu bilan birga korxonada rahbariga qayta inventarizatsiya qilinadigan obyektlarni xabar qiladi. Bunday tanishish audit guruhi oldida turgan ish hajmini aniqlash, uni tajribalar asosida ilmiy tashkil qilish imkonini beradi. Qayta inventarizatsiya o'tkazish, bu juda mas'uliyatli bosqich bo'lib, audit tekshiruvi o'tkazish rejasiga ko'ra, korxonada rahbari tomonidan chiqarilgan buyruq asosida o'tkaziladi. Ammo kassa mablag'larini qayta audit inventarizatsiyasi o'tkazish uchun buyruq chiqarilmaydi. Bu bilan o'tkazilayotgan audit tekshiruvining sifatli bo'lishi ta'minlanadi, qayta inventarizatsiyaga zaruriyat tug'ilsa, o'tkazilishi mumkin.

Audit hay'ati tomonidan o'tkaziladigan audit va tekshirish asosiy bosqich hisoblanib, unda mulkdan foydalanishning qonuniyligi chuqur o'rganiladi. Bu bosqichda audit guruhi boshlig'i va a'zolari auditni amalga oshirishda zarur bo'lgan hamma shakllaridan keng foydalanishlari zarur. Ayniqsa, hujjatli va haqiqiy audit qo'shib olib boriladi. Audit a'zolari

fotoapparat, rotoprintlarda ayrim hujjatlarni ko'paytirishi hamda hujjat va xo'jalik mablag'lari saqlanishini ham suratga olishi mumkin. Korxonada buxgalteriyasida yuritiladigan registrlarni, dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini o'rganib chiqadi. Audit a'zolari joy va aloqa vositalari bilan ta'minlanishi zarur. Bu bosqichda yetkazilgan zarar qanday shartsharoitda yuz berganligi hisobga olinishi lozim. Yetkazilgan zararlarni aniqlashda bozor bahosida hisoblanadi. Zararlarni qoplashda pul mablag'lari — nominal qiymati bo'yicha, moddiy qiymatliklar — balans bahosida (ma'lum vaqtlarda — davlat chakana baholarida yoki zarur hollarda — koeffitsiyentlar qo'llab, 1,5 yoki 2 baravar), ishlab chiqarish jarayonida esa qilingan haqiqiy sarflar miqdorida undirilishi mumkin.

Audit va tekshirishning oxirgi bosqichi, bu natijalarni umumiy dalolatnoma va ishlab chiqarish bo'linma yoki hisobdor shaxslar bo'yicha oraliq dalolatnomalari asosida, tekshirish yakuni esa tekshiruvchining ma'lumotnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Audit va tekshirish yakunlarini rasmiylashtirish

Audit ishlari xo'jaliklarning ishlab chiqarish, moliya-xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish, foydalanilmayotgan zaxiralarni aniqlash, mulkning to'la saqlanishini ta'minlash va undan unumli foydalanish kabilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, audit tekshirish xo'jalikning umumiy faoliyati bilan tanishish, ayrim mansabdor va moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyati to'g'risida, ba'zi xo'jalik operatsiyalarining maqsadga muvofiq amalga oshirilayotganligini ko'zdan kechirish maqsadida o'tkaziladi. Tekshirish yakunlari ma'lumotnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Audit dalolatnomalari tekshirish o'tkazilgan obyektlarning hajmiga qarab, umumiy va oraliq dalolatnomalarga bo'linadi. Audit dalolatnomasi — amaldagi qonunlarga muvofiq, xo'jalikda yuz bergan operatsiyalarni protsessual jarayonda isbotlash uchun yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat. Audit qilish dalolatnomasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Dalolatnomada ko'rsatilgan dalillar faqat haqiqatga mos kelishi kerak.

2. Dalolatnomada yozilgan xulosalar va takliflar chuqur mazmunga ega bo'lishi, aniq, hamma uchun tushunarli yozilishi lozim.

3. Dalolatnomada dalillar bir tartibda yozilib, uning sifatini pasaytirish yaramaydi, bunday dalillarning ro'yxati yoki ma'lumotnomasi ilova qilinib, ularga umumiy xarakteristika yozilishi kerak.

4. Dalolatnomada audit tekshiruvi o'tkazish dasturida, ish rejasida yoki daftarida ko'rsatilgan masalalar to'la o'z ifodasini topishi lozim. Audit dalolatnomasi ikki, ya'ni kirish (ko'p hollarda umumiy qism) va asosiy qismlardan iborat bo'ladi.

Umumiy dalolatnomaning kirish qismida korxonaga taalluqli ma'lumotlar, korxonaning joylanishi, dalolatnomaning tuzilgan vaqti, audit hay'atining tarkibi, audit tekshiruvining turi, o'tkazilayotgan davr, bu davrda moliyaviy jihatdan birinchi va ikkinchi imzo huquqiga ega shaxslar ko'rsatiladi. Dalolatnomani tuzatish qat'iy man qilinadi. Agar ayrim sabablarga ko'ra tuzatilsa, daxldor shaxslar imzosi bo'lishi shart.

Pul mablag'larini, hisob-kredit operatsiyalarini to'la audit qilish yo'li bilan, boshqa masalalar va audit tekshiruvi o'tkazish dasturida ko'rsatilganidek tanlanma usul bilan o'tkaziladi.

O'tkazilgan audit natijasida quyidagilar aniqlandi:

I. Sh/x da mahsulot ishlab chiqarish va davlat buyurtmalarining bajarilishi.

II. Asosiy vositalarning ishga tushirilishi, kapital sarflar reja va shartnomada ko'rsatilgandek bajarilishi.

III. Ish haqi fondidan (normativ rejalashtirish nuqtayi nazaridan) foydalanish va shtatlar intizomiga rioya qilinishi.

IV. Asosiy fondlarning saqlanishi va ulardan foydalanish.

V. Chorva mollaridan foydalanish va uning saqlanishi.

VI. Tovar-moddiy qiymatliklarning saqlanishi va ulardan unumli foydalanish.

VII. Xazina operatsiyalarining ahvoli va xazina intizomiga rioya qilish.

VIII. Hisob-kitob kredit ishlari intizomiga rioya qilish va hisob to'lovlarining ahvoli.

IX. Sh/x moliyaviy ahvoli va iqtisodiy rag'batlantirish, maxsus fondlardan foydalanish.

X. Buxgalteriya hisobi va hisobotning ahvoli.

XI. Korxonada ish yuritish va ijroning ahvoli.

Bundan tashqari, korxonadagi audit ishlari va uning sifatiga qarab, dalolatnomaning ayrim tematik bo'limlari o'zgarishi mumkin.

Shundan so'ng, audit dalolatnomasi, ayrim noroziliklar bo'lishiga qaramasdan, 3 kun ichida imzolanishi kerak. Bordinyu, unda dalolatnomaga nisbatan e'tirozlar bo'lsa, ular yozma ravishda taqdim qilinadi, ammo unda korxonada rahbari va bosh buxgalterning belgisi bo'lishi shart. Bu e'tirozlarga binoan audit guruhi dalolatnomaga o'z xulosasini yozadi. Audit tekshiruvining umumiy dalolatnomasiga bo'limlar, moddiy javobgar shaxslarning ish faoliyati yuzasidan tuzilgan oraliq dalolatnomalari, ulardan olingan tushuntirish xatlari ilova qilinadi. Umumiy dalolatnoma to'rt nusxada tuziladi, shundan ikki nusxasi audit qilingan korxonada qoladi. Zarur hollarda, agarda mulkning talon-taroj qilinganligi dalillari uchrasa, dalolatnomaning bir nusxasi sud-tergov organlariga beriladi.

Sud-tergov organlari talabiga muvofiq o'tkaziladigan audit tekshiruvining asosiy xususiyatlari

Yuqorida aytilganidek, audit dalolatnomalari sud-tergov faoliyatida yuridik isbotlash vositasi deb tan olinganligi uchun ham, bu organlar tomonidan u yoki bu shaxs, yoxud korxonada faoliyati ustidan audit tayinlanishi mumkin. Bunda auditlarning tayinlanishi, o'tkazilishi respublikaning jinoyat-protsessual kodekslarida va korxonada birlashmasi qonunining tegishli moddasida aniq ko'rsatiladi.

Sud-tergov organlari mehnatkashlardan tushgan axborot va signallarga muvofiq ham audit tayinlashlari mumkin. Buning uchun sud-tergov organlari audit tekshiruvini o'tkazish haqida qaror va xatlarni audit o'tkazadigan tashkilotga yubo-

radi. Unda audit kimning yoki korxonaning qaysi faoliyati ustidan, qaysi davr uchun, qanday masalalarni qamrab olishi, qanday savollarga javob qilinishi to'la ko'rsatilishi lozim. Shundan so'ng, yuqori tashkilot tomonidan audit tayinlanadi. Audit uchun qaror yoki xat dastur sifatida qabul qilinadi. Bunday holatda auditorlar nihoyatda obyektiv ish tutib, sud-tergov organlari bilan mustahkam aloqada bo'lishlari lozim.

Audit tekshiruvni o'tkazish shakllari, turlari unda qo'llaniladigan usullarni sud-tergov organlari bilan maslahatlashib, ammo, asosan audit guruhi tanlab o'tkazadi. Tekshiruvda sud-tergov organlari tomonidan audit oldiga qo'yilgan savol va vazifalarning hammasiga aniq javob bo'lishi shart. Dalolatnomada sud-tergov organlarining qarori bilan o'tkazilgan bosh mutaxassislar, ishlab chiqarish bo'linmalarining rahbarlari imzosi bo'ladi. Agar audit davrida ba'zi muammolar chiqib qolsa, yana qaror yoki xat yozilib, qo'shimcha audit tekshiruvni o'tkazish haqida buyruq chiqariladi. Agar xo'jalik operatsiyalari bo'yicha ayrim hujjatlarni olish zarurati tug'ilsa, unda bu ish «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar oboroti haqida Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Hujjatli audit natijasi bo'yicha materiallar tashkilotning aloqa xati bilan beriladi. Bu aloqa xatida yetkazilgan zararining miqdori, kelib chiqish sabablari va boshqa kerakli hujjatlar qo'shib beriladi. Agar audit ishida kamchilik aniqlansa, sud-tergov organlari qaror chiqarib, qayta audit tayinlashi, uni shu guruhga yoki boshqa guruhga yuklatishi mumkin.

Audit va tekshirish yakunlari bo'yicha qaror qabul qilish

Audit yakunlari bo'yicha chora ko'rish u davom etayotgan paytda ham, to'la tamomlangandan keyin ham amalga oshiriladi. O'tkazilgan auditlar yakuni bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar, ya'ni aniqlangan kamchiliklarni yo'qotish va tuza-tish; audit yakunlarini jamoa yig'ilishida yoki majlislarda muhokama qilish; nihoyat, dalolatnomada aniqlangan o'g'irlik va mansabni suiiste'mol qilish kabilar bo'yicha to'plangan materiallarni sud-tergov organlariga o'tkazish ishlari bajariladi.

Audit yakunlari bo'yicha tekshirish o'tkazilgan korxonada bo'ysunadigan yuqori tashkilot bir necha xil variantdagi qarorlar qabul qilishi mumkin. Bular: audit yakuni bo'yicha xat yozish, farmoyish yoki buyruq qabul qilish; chiqarilgan yakun asosida qaror qabul qilish, va nihoyat, audit natijasi bo'yicha uning materiallarini sud-tergov organlariga o'tkazish.

Xat, agarda audit natijasida ayrim moliya-xazina intizomining buzilish faktlari aniqlansa, ba'zi hisobdor yoki mansabdor shaxslar tomonidan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, yuqori tashkilot tomonidan faqat audit o'tkazilgan korxonada rahbarlari va mutaxassislariga aniqlangan kamchiliklarni tugatish uchun yuboriladi. Xat audit o'tkazgan auditor tomonidan tayyorlanadi.

Farmoyishning xatdan farqi shuki, unda ko'rsatilgan choralar albatta bajarilishi lozim. Farmoyish audit o'tkazilgan korxonada bo'ysunadigan tashkilot tomonidan qabul qilinadi. Farmoyishlar o'zining tarkibiy jihatidan konstruktiv va albatta bajariladigan buyruq qismidan iborat. Konstruktiv qismida asosan audit natijasida aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilsa, ikkinchi qismida bajarish uchun farmon qilinadigan ishlarning mazmuni yoritiladi. Zarur hollarda farmoyish boshqa tashkilotlarga ham yuborilishi mumkin, bundan maqsad shuki, qo'shni korxonalar shunday kamchiliklarga yo'l qo'ymas.

Buyruq konstruktiv va buyruq qismlardan iboratdir. Buyruqning moliya-xazina faoliyati yuzasidan aniqlangan kamchiliklar ochiq ko'rsatiladi, buyruq qismida esa shu kamchiliklar yuzasidan tegishli mansabdor va hisobdor shaxslarga nisbatan ko'riladigan tashkiliy masalalar yuzasidan ko'rilgan choralar bayon qilinadi. Buyruq audit o'tkazilgan korxonaga bo'ysunadigan hamma tashkilotlarga jo'natiladi. U korxonada rahbari yoki uning muovini tomonidan imzolandi. Buyruqda kimlar va ular bu ishlarni qachon bajarishi ko'rsatiladi.

Qaror, bu kollegial organlar tomonidan qabul qilinib, auditorlik ishlarini yaxshilab, qaramog'idagi korxonalarda mulkning saqlanishi kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Qaror tarmoq vazirliklari kollegiyasida yoki jamoa-kooperativ tashkilotlarda qabul qilinadi. Qarorlarda aniqlangan kamchiliklar, ularni bajarish muddatlari ko'rsatiladi. Agarda mulkning

o'g'irlanganligi yoki suiiste'mol qilinganligi aniqlanganda, uni tiklash maqsadida audit materiallari sud-tergov organlariga yuboriladi.

Qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan audit o'rnatish

Tekshirish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar, ya'ni xat, farmoyish, buyruq, qaror va sud-tergov organlariga o'tkazilgan materiallar yuzasidan audit o'tkazish — ishlar ijrosini tekshirish muhim ahamiyatga egadir. Qabul qilingan qarorlar ijrosini tekshirishni yuqori tashkilotning audit ishlarini olib boruvchi boshqarmalari va bo'limlariga yuklatish lozim. Albatta, bunda qilingan ishlarni hisobga olib borish katta ahamiyatga egadir. Buning uchun o'tkazilgan audit, tekshirish va auditlarni hisobga olib borish maxsus jurnali katta rol o'ynaydi.

Unda yuqori tashkilot qaramog'idagi korxonalar qachon, qaysi davr uchun audit qilingani, audit yakuni bo'yicha qanday tadbir-choralar belgilangani, ularning ijrosi nima bilan tugagani aniq ko'rsatilib boriladi.

Auditorlik ishlarini tashkil qilishda ish yuritishni uyushtirish

Har qanday mehnat jarayonida ham zarur ma'lumotlarning yig'ilib borishi ularni o'z vaqtida tahlil qilishni talab qiladi. Yig'ilgan axborot va ma'lumotnomalarni bir tizimga solib yoki tegishli jurnallarga doimiy ravishda, ma'lum bir tartib asosida qayd qilib borish ish yuritish deyiladi.

Quyida auditorlik organlarida ish yuritishning tizimini ko'rib chiqamiz.

Auditorlik ishlari bo'yicha normativ dalolatnomalar delosida audit va tekshirish o'tkazish metodikasi, tartibi, vazirliklar hamda yuqori tashkilotlarning auditorlik ishlari yuzasidan chiqaradigan instruktiv xatlari, shuningdek, bu ishlarni tashkil

qilishga taalluqli hujjatlar tartib bilan yig'ib boriladi. Uning saqlanish muddati doimiydir.

Auditorlik ishlarining rejasi bu organning kelajak, yillik, kvartal va oylik rejalaridan iborat. Uning saqlanishi ham doimiydir.

O'tkazilgan audit va tekshirishlarning materiallari, bunda yuqori tashkilot qaramog'idagi korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'tkazilgan audit, tekshirish natijalari yig'ilib boriladi, tekshirish yakuni bo'yicha ma'lumotnomalar, kerak hujjatlarning nusxalari to'planadi. Deloning saqlanishi doimiydir.

Audit va tekshirishlarni hisobga olib boruvchi jurnalda esa, o'tkazilgan tekshirishlarning yakuni korxonalar bo'yicha yozib boriladi. Jurnalda audit o'tkazilgan korxonaning nomi, qaysi davr faoliyati audit qilinganligi, necha so'm kamomadligi, undan qanchasini hisobdor yoki mansabdor shaxslar zimmasiga yozish bo'yicha summalar aniqlanadi, ularning tiklanishi, auditni kim o'tkazganligi ko'rsatiladi. Saqlanish muddati doimiy. Shuningdek, jurnalda audit natijalari bo'yicha ko'rilgan tadbirlar ham qayd qilib boriladi, bu ma'lumotlar audit ishlari bo'yicha hisobot tuzish uchun ham foydalaniladi.

Auditorlik masalalari bo'yicha tashkilot va korxonalar yozishmalar delosida mulkning saqlanishi, auditorlarning malakasini oshirish, audit yakunlariga ko'ra xat, farmoyish, buyruq, suh targo'v organlari bilan yozishma xatlar bo'lib, uning saqlanish muddati uch yil.

Auditorlik organlari protokol daftariga auditorlarning ishlarini yanada takomillashtirish yuzasidan metodik yig'ilishlarning yakunlari yozib boriladi. Unda muhokama qilingan masalalarning qisqacha mazmuni, masala yuzasidan so'zga chiquvchilarning fikrlari hamda qabul qilingan qarorlar yoziladi. Protokollar daftarining saqlanishi doimiydir.

Bulardan tashqari, korxonalar va xo'jaliklararo tashkilotlarning audit hay'atlari qo'shimcha ikkita: xodimlardan tushgan ariza va shikoyatlar; audit yakunlari bo'yicha kelayotgan va ketayotgan yozishmalarni qayd qilish jurnali tutadilar.

Birinchi jurnalda — deloda korxonada ishlayotganlarning ariza va shikoyatlari, ularni tekshirish yakunlari va ko'rilgan choralar yozib boriladi. Saqlash muddati besh yil.

Ikkinchi jurnalning saqlanish muddati 3 yil bo'lib, unda auditlar yakuni bo'yicha kelgan-ketgan xatlar, ularning qisqacha mazmuni yozib boriladi.

Ish yuritish va auditorlik organlarida davlat hisoboti muhim o'rin egallaydi. Hamma audit organlari, qanday tashkilotga bo'ysunishidan qat'iy nazar, hisobot topshiradilar. Bundan tashqari qishloq xo'jalik korxonalarining yillik hisobotlariga mulkning kamomadi yoki o'g'irlanishi haqida alohida forma kiritilganidir.

Yillik hisobotga audit hay'atining xulosasi ilova qilinadi, bu xulosa umumiy jamoa a'zolari (yoki vakillar) yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Shunday qilib, yuqorida ko'rsatilgan tartibda audit ishlarining rejalashtirilishi, tashkil qilinishi va olib borilishi hozirgi kun talabi bo'lib, auditning iqtisodiy samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Yangi tahrirdagi qonun auditorlarga tarmoqlar, mulkchilik shakllaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish texnologiyasi, tovar va xizmatlar xalqaro standartlarini, audit tekshiruvining xalqaro va respublikamizdagi standartlarini to'liq bilishlarini talab qiladi.

Audit tekshiruvini o'tkazish uslubiyatida personal kompyuterlar va ekspert tizimidan foydalanish

Audit tekshiruviga tayyorgarlik davrida, ish hajmini aniqlashning alohida reja va dasturlarini tuzishda personal kompyuterdan foydalanish vaqtini tejashda katta ahamiyatga egadir. Bunda kompyuter dasturlar doirasidagi mijozning fayllaridan mazmunlariga qarab foydalanish zarur bo'ladi. Bunda dasturlardagi zarur ma'lumotlarni yig'ish, xo'jalik operatsiyalarini auditdan o'tkazish, hujjatlarning dalil ekanligini hisobga olish, fayllarda olingan ayrim qismlarni emas, balki barchasini kuzatish zarur.

Auditorlik tekshiruvida personal elektron hisoblash mashinalarida (EHPM) ishlangan «Superkalk», «Drakon», «Izikayak» va «Varitab-86» tipovoy dasturlardan foydalanish mumkin. Bunda auditor ma'lumotlarni guruhlashi, yig'ishi

va analitik tahlil qilishi, nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblab, xulosa chiqarishi mumkin.

Auditor tekshiruvda ekspert tizimidan foydalanish qo'l keladi. Bunda moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlardan kompyuter yordamida foydalanishi mumkin bo'ladi.

Ekspert tizimida olingan moliyaviy, iqtisodiy ko'rsatkichlar auditor tekshiruv maqsad-vazifalarini belgilashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ekspert tizimida quyidagi kategoriyalardan foydalanish mumkin bo'ladi

Kategoriyalar	Muammoni yechish	Misollar
Interpretatsiya	Vaziyatni baholashda, ko'pgina ko'rsatkichlardan muhimlarini ajratish	Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
Dasturlash	Topshiriq berilgan vaziyatda dasturlashning nima oqibatlarga olib kelishi	Sotish-olish operatsiyasida investitsiya-ning iqtisodiy qaytimi.
Vaziyatni baholash	Kutilgan tizimdagi harakat chetlanishini baholash	Auditda qo'llanilgan tavakkalchilik tizimini baholash
Loyihalash	Tekshiruv obyektlarini reja, dasturlardagi maqsadga muvofiq cheklash	Tekshiriladigan sohalar auditi
Rejalashtirish	Barcha audit tekshiruv loyihalarini tuzish	Ishlab chiqarish resurslarini tekshirishni rejalashtirish
Kuzatish	Izlanuvda foydalaniladigan ma'lumotlarni loyihalangan imkoniyatlar bilan taqqoslab, chetlanish sabablarini maqsad qilish.	Operatsion audit chet el valutalar kursini chetlanishi
Kamchiliklarni aniqlash va ularni yo'qotish yo'llari	Intizom buzilishlari, audit tekshiruv xatolarining ko'zda tutilgan me'yorlarga mos kelishi	Audit tekshiruvda yordamchi vositalardan foydalanish
Zaxiralardan foydalanishning ahvoli	Rejaning majburiy bo'lishi ulardan chetlanish darajasi	Shartnomalar bo'yicha bajarilish ketma-ketligi.
Yo'riqnomalar va takliflar berish	Aniqlangan kamchiliklarni tugatish	Kompyuterda shu asosida tayyorgarlik
Audit	Rivojlanish tizimidagi dinamik o'sishni kuzatish	Kommunikatsiya va audit

Ekspert tizimida audit tekshiruv maqsadi, strategiyasi izlash, uning yuzasidan bir qarorga kelish imkoniyatini beradi, bunda zarur takliflar berishga vaziyat vujudga kelishi mumkin. Undan foydalanishda bir martalik va ko'p martalik izlanishlardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Ekspert tizimida evristik uslubdan, ya'ni izlanishni cheklash uslubidan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Bu tizim auditorlar ishini yengillashtirishga va vaqtni tejashga katta yordam beradi, ayniqsa, moliyaviy ahvol, to'lov qobiliyatini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ekspert tizimida kompyuterlardan foydalanish testlarini belgilash muhimdir.

Uslublar	Misollar
Audit qilinadigan muammolarni qayta kompyuterda ishlash	Foydalaniladigan ma'lumotlarni, ekspert tizimlarni ko'rish va ular-dan zarurlarini tanlab olish
Kompyuterda qayta ishlangan ma'lumotlarni yana bir takror ko'rish	Ekspert tizimida ko'rib, qarorga kelingan yechimlarga qarab xulosa chiqarish
Parallel muammolarni tuzish	Olingan ma'lumotlarni boshqa ekspert tizimi asosida ko'rish va xulosaga kelish
Yozuvlarni tekshirish	Qo'llanilgan ekspert tizimi analitik tahlil va xulosaga kelish imkoniyatini beradimi?

Shunday qilib, respublikamizda o'tish davrining murakkab ketayotganligi, bozor iqtisodiyoti jarayonidagi tez o'zgaruvchanlik, iqtisodiyotni erkinlashtirish kabilarga qarab, ekspert tizimi vaziyatdan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin.

9- MAVZU: XAZINA VA XAZINA OPERATSIYALARI AUDITI

Xo'jalik subyektlari ijtimoiy tashkilotlar xazinalarida pul mablag'lari bilan bo'ladigan operatsiyalarni amalga oshirish Respublika Markaziy bankining buyrug'i bilan tasdiqlangan «Xalq xo'jaligida xazina operatsiyalarini yuritish» qoidalariga asosan olib boriladi. Bu qoidaga asosan har bir xo'jalik xazinasida har oyda bir marta pul mablag'lari yuzasidan audit o'tkazilib turilishi kerak. Audit tekshiruvi o'tkazishda, birinchi navbatda, xazinadagi naqd pul va qimmatbaho qog'ozlar inventarizatsiya qilinib, ularning summasi aniqlanadi va inventarizatsiya natijasi bo'yicha oraliq dalolatnoma tuziladi. Agarda inventarizatsiya natijasida pul mablag'lari ortiq chiqsa, order bilan xazinaga kirim qilinadi. Kamomad summasi aniqlansa, xo'jalik xazinasidan undirib olinadi, bu operatsiya xazina chiqim orderi bilan rasmiylashtiriladi. Bunday hollarda xazinabonning shu vazifada ishlash yoki ishlamasligini audit natijalariga, auditor taklif va tavsiyalariga qarab ma'muriyat yoki mulk egasi amal etadi. Odatda, kichik summadagi kamomadlar uchun xazinabon ishdan chetlashtirilmasdan, bu ish xo'jalik ma'muriyatiga topshiriladi. Katta summadagi kamomad va o'g'irlik aniqlanganda, xazinabon darhol ishdan chetlashtiriladi va zarur hollarda, audit materiallari aloqa xati orqali mulkiy da'vo bildirilib, sud-tergov organlariga o'tkaziladi.

Xazina inventarizatsiyasidan keyin auditorlar «Xo'jalikda kassa operatsiyalarini yuritish to'g'risida»gi Nizom qoidalariga amal qilinishini tekshiradilar. Bu qoidalarga binoan xazinabon buyruq (sh/x boshqaruvi qarori) bilan lavozimga qabul qilingach, xo'jalik rahbari xazinabonni kassa operatsiyalarini yuritish haqidagi qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Keyin xazinabon bilan shartnoma tuziladi. Agar xazinabonning

shaxsiy hujjatlari orasida bu shartnoma bo'lmasa, ma'muriyat orqali darhol yozdirib olinadi va bu haqda audit dalolatnomasida qayd qilinib o'tiladi.

Audit davrida xazinabon tomonidan o'z ishlarini boshqa shaxsga ishonib topshirish hollariga duch kelinganda, bu dalolatnomada ko'rsatiladi, agarda boshqa shaxsga topshirish lozim bo'lsa, buyruq bilan rasmiylashtirilib, undan moddiy javobgarlik to'g'risida majburiyatnoma yozdirib olingan-olinmaganligi tekshiriladi. Keyin esa xazinada naqd pul mablag'larining saqlanishi holati, xazina daftari va hujjatlarining to'g'ri yuritilishi, xazina intizomiga qay darajada rioya qilinishi tekshirilib ko'riladi.

Xazinada naqd pul mablag'larining saqlanish holatini tekshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim: xazina operatsiyalarini yuritish qoidalariga binoan, xazina binosi boshqa binolardan alohida ajratilgan, naqd pullarni saqlash uchun esa xazina xonasida seyf o'rnatilgan bo'lishi lozim.

Xazina operatsiyalari amalga oshirilayotganda xona eshigi doim yopiq turishi va bu ishga aloqasi bo'lmagan kishilarning kirishi man qilinadi. Kassa muomalalarini audit qilishda O'zbekiston Respublikasi hukumati qonun va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 1998- yil 24- yanvardagi 376- sonli «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari»ga va Moliya vazirligi yo'riqnomalari, yuqori tashkilotlar buyruq va farmoyishlariga amal qilish lozim.

Kassa muomalalarini audit qilishni xazinadagi naqd pul va qat'iy hisobdagi blankalarni, qimmatbaho qog'ozlarni qo'q-qisdan inventarizatsiya qilishdan boshlash lozim. Inventarizatsiya korxonada bosh buxgalteriya va xazinaboni ishtirokida o'tkazilishi kerak. Inventarizatsiya oldidan auditor o'zi ishtirokida (ko'zi oldida) xazinabondan inventarizatsiya o'tkazilayotgan sanaga xazina hisobotini tuzishni va xazina kitobida pul mablag'lari qoldig'ini chiqarishni talab etishi hamda undan pul mablag'lari kirim va chiqimi bo'yicha hamma hujjatlar kassa hisobotiga qo'shilganligi to'g'risida tilxat olishi shart.

Shaxslarning tilxatlari hujjat sifatida e'tiborga olinmaydi va xazinabon hisobotiga qo'shilmaydi. Bunday hujjatlarning

ro'yxati tuzilib, kimning ko'rsatmasiga binoan kimga, nima uchun, qancha pul, qachon berilgani ko'rsatiladi.

Xazinadagi veksellar, aksiyalar, har xil markalar, sanatoriy va dam olish uylarining puli to'langan yo'llanmalari naqd pul sifatida emas, balki pul hujjatlari sifatida hisobga olinadi.

Auditor kassa hisobotining va xazina qoldig'ining to'g'riligini tekshirishi shart. Pulning qoldig'i oying birinchi sanasidan shu kungacha kirim va chiqim hisoblanib tekshiriladi. Kirim va chiqim orderlarini qayd etish daftari bilan xazina hisobotiga ilova qilingan kassa orderlari solishtiriladi. Agar qandaydir farq chiqsa, albatta sababini aniqlash zarur. Kassa hisobotini tekshirib chiqqandan so'ng, auditorga hisobot va unga ilova qilingan xazina kirim-chiqim orderlariga kelgusida kassa hisobotiga hech qanday tuzatish kiritishga imkon bermaslik uchun qayd belgisi (viza) qo'yish tavsiya etiladi. Tekshirilgan va qayd belgisi qo'yilgan xazina hisoboti «Kassa» schotida qoldiq chiqarish uchun buxgalteriyaga beriladi. Shundan so'ng pul va boshqa moddiy qimmatdorliklar inventarizatsiyasi boshlanadi. Agar korxonada bir necha xazina bo'lsa, ular muhrlanib, bosh xazinadan inventarizatsiya boshlanadi. Pullarni auditor ishtirokida xazinabon sanaydi. Agar pul aytarli darajada ko'p bo'lsa, kupyuralari bo'yicha ro'yxat qilinadi. Ro'yxatda kupyura qiymati, s~~oni~~ va umumiy summa ko'rsatiladi. Xazinada yopilmagan xazina hujjatlari (to'lov vedomostlari, pochta pul o'tkazmalari, ota-onalardan bolalari maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiyalanayotgani uchun yig'imler vedomosti) bo'lsa, kirim qilingan va berilgan pulni sanab chiqish zarur. Oxirgi qoldiqni aniqlashda kirim summasini qoldiqqa qo'shib, chiqim summasini ayirib ko'rish kerak. Xazinada kirim orderi bilan rasmiylashtirilmagan naqd pul ortiqcha pul sifatida belgilangan tartibda kirim qilinadi va kirim orderi nusxasi dalolatnomaga ilova qilinadi. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan hujjatdagi summa kamomad sifatida hisobga olinadi.

Xazinadagi naqd pul va boshqa qimmatli qog'ozlar kassa inventarizatsiya dalolatnomasi tuziladi. Dalolatnoma oxirida xazinabon o'zidagi pul mablag'lari summasi, hujjatlar va boshqa qimmatdorliklar uning javobgarligiga o'tgani to'g'risida

yozib berishi kerak. Agar inventarizatsiya vaqtida kamomad yoki ortiqcha pul aniqlanganda, xazinadan pul olingani haqida vaqtincha tilxatlar chiqqanda, auditor xazinabondan tushuntirish xati olishi shart. Kamomad summasi xazinabon hisobiga yozilib, tekshirish vaqtida undirilishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Xazinadan chiqqan ortiqcha pul shu zahotiy oq kiringga olinishi shart. Ortiqcha chiqqan pul va undirilgan kamomad summasi kiringga olinganda xazina kiring orderining nusxasi dalolatnomaga ilova qilinadi. Xazina inventarizatsiyasining oraliq dalolatnomasi 3 (uch) nusxada tuzilishi shart. Ulardan biri auditorda qoladi, ikkinchisi buxgalteriyaga beriladi, uchinchisi xazinabonda qoldiriladi. Inventarizatsiya dalolatnomasida, albatta, oxirgi kiring va chiqim orderlari raqamlari ko'rsatilishi shart.

Tekshirish vaqtida auditor xazinadagi pul va boshqa boyliklarning saqlanishini ta'minlash choralari, ya'ni xazina-ning qay darajada mustahkamlanishiga, uning derazalariga metall panjaralar o'rnatilgani, xazinadan ish haqi berilayotgan vaqtda qo'shimcha xavfsizlik choralari ko'rilishi, xazina eshigi ichidan yopilishi, pul yonmaydigan seyf (shkaf)da saqlanishi, bankka pul topshirishda va u yerdan pul keltirishda ehtiyot choralari ko'rilishiga e'tibor berilishi kerak. Shuningdek, u xazina kalitining boshqa nusxalari qayerda (ular muhrlangan holda korxonah rahbarida saqlanishi kerak) saqlanishiga, signalizatsiya o'rnatilganiga, korxonah va xazinabon o'rtasida moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzilganiga ishonch hosil qilishi kerak.

Kassah muomalalarini audit qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tasdiqlagan «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga rioyah qilinishi darajasi aniqlanadi.

Xazinah hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishiga, siyoh rangda tuzatishlarsiz yozilganiga, barchah rekvizitlarning to'ldirilganligi kiring va chiqim orderlarining «Kassah kiring va chiqim orderlarini ro'yxatga olish» daftarida qayd etilganiga e'tibor berish kerak.

Bankdan olingan pulning to'lah va o'z vaqtida kiringga olinganini bilish uchun, yirtib olingan chek varag'ining chek

daftarida qolgan qismi (koreshogi), bankdagi schotdan ko'chirma va kirim orderlari o'zaro solishtiriladi. Agar tekshirilayotgan hujjatlarda shubha tug'ilsa, bankdagi asl hujjatlar bilan solishtirish mumkin.

Xazina kirim va chiqim orderlarida imzolarning mavjudligi, summalarning raqam va so'z bilan yozilganligi, olingan (berilgan) sanasi, to'lov vedomostlarida to'lovga ijozat berilgani haqida va to'lov muddati ko'rsatilgan yozuv borligini tekshirib, imzolarning haqiqiylikini bilish uchun tanlanma usulda ishga qabul qilish haqidagi arizadagi imzo bilan chiqim hujjatlaridagi imzo solishtiriladi.

To'lov vedomostlari bo'yicha berilgan pul va chiqim orderlari summalari yig'indisi solishtiriladi. Tekshirishda ushbu korxonada ishlaydigan, vaqtincha ishlarni bajarganligi uchun haq oladigan kishilarga xazina chiqim orderi bilan berilishi kerakligini esda tutish lozim. Unda pul oluvchining shaxsini aniqlovchi hujjat ma'lumotlari keltiriladi.

Hamma kassa va kirim-chiqim hujjatlari hamda xazinabon hisobotidagi summalar solishtirgandan so'ng, xazinabonning kirim va chiqimga yozgan summalarini sanab (hisoblab), yig'indi summa taqqoslanadi va kassadagi naql pul qoldig'ining to'g'ri hisoblangani aniqlanadi.

Auditor to'lov vedomostlarida pul to'lash to'g'risida ruxsat va to'lov muddati ko'rsatilgan yozuv bo'lgan taqdirda, pul to'lanadimi yoki yo'qligini, korxonada buxgalteriyasi tomonidan har oyda xazinada inventarizatsiya o'tkazilishi-o'tkazilmasligini, yoqilg'i-moylash materiallari va ovqatlanishga beriladigan talonlar hamda qat'iy hisobdagi blankalar hisobini ko'rib chiqishi kerak.

Xazina muammolarini yuritish tartibiga rioya qilinishini tekshirishda xazinabon vazifasini ish haqi, pul va bank muomalalari hisobini olib boruvchi, xazina hujjatlariga imzo qo'yish, tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan buxgalteriya xodimlari qo'shib olib bormasligiga; xazinaga kirim qilingan tushum, bankdan olingan pul boshqa maqsadlarga sarflanmayotgani; gazeta va jurnallarga obuna xarajatlarining asosligiga va korxonada hisobidan shaxslar obuna xarajatlari to'lanayotgani masalalariga e'tibor berish kerak.

Xazina birlamchi hujjatlari va xazinabon hisobotini tekshirishda xazina muomalalarining buxgalteriya hisobi schotlarida to'g'ri aks ettirilishini ko'rib chiqish zarur. Xazina birlamchi hujjatlarida va xazinabon hisobotida «Kassa» schoti bilan boshqa schotlarning korrespondensiyasi ko'rsatilishi shart. Buxgalteriya schotlariga to'g'ri aks ettirilganiga ishonch hosil qilingandan keyin, auditor vedomostlar, jurnal-order va Bosh kitoblar bilan taqqoslaydi.

Bankdagi hisob-kitob schoti, valuta schoti, maxsus schotlar va yo'ldagi o'tkazmalarni tekshirishda quyidagi hujjatlar manba bo'lib xizmat qiladi: bankdagi hisob-kitob, valuta schotlari va maxsus schotlardan ko'chirmalar, xazinabon hisobotlari; kitob va tuzum (vedomost)lar, jurnal-orderlar, pattalar, chek koreshoklari, to'lov talabnoma topshiriqlari, to'lov topshiriqlari va boshqalar.

Tekshirish davomida auditor: chek daftarini saqlash va undan foydalanish tartibiga rioya qilinishini; bekor qilingan va foydalanilmagan chek varaqalarining miqdorini, xazina va bank muomalalari hisobini olib boruvchi shaxslarning bevosita bankdan pul olish hollari bo'lgan-bo'lmaganligini; qalbaki banknot, moliyaviy hujjatlarning tuzilishi, bankdagi har xil schotlardan ko'chirmalardagi raqamlarning pul mablag'larini o'zlashtirish maqsadida qalbaki to'g'rilash hollari bo'lmaganligiga ishonch hosil qilib, bankdagi schotlardan ko'chirma bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi farqlar yoki noaniq tuzatishlarni auditor bank muassasasidan tekshirishi lozim.

Pul muammolari bo'yicha bankdagi schotdan ko'chirmaga ilova qilinadigan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishini, ularda bank muassasasining muhri, sana va bank xodimining imzosi borligi tekshirilishi, birlamchi hujjatlarda ko'rsatilgan muammolarning qonuniyligini aniqlash kerak. Buning uchun bank muomalasi mazmunining kodini bilish kerak.

Olingan moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun schotlarni to'lash bo'yicha pul hujjatlarini tekshirishda olingan moddiy boyliklarning o'z vaqtida va to'la kirimga olinganini hamda ish va xizmatlarning dalolatnomasi bilan qabul qilinganiga ishonch hosil qilish kerak. Pul mablag'lari schotidan xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarga, kelgusi davr

xarajatlari schotiga, zararga o'tkazilgan summalarni tekshirishda ulardan ba'zi birlarini undirib olish zaruriyati yo'qligini, masalan, obuna vaqtida korxonada faoliyatiga kerak bo'lmagan gazeta va jurnal uchun pul o'tkazish hollarini aniqlash lozim. Kreditorlik qarzini to'lash uchun o'tkazilgan pul muomalalarining asosli va o'z vaqtidaligini tekshirish kerak.

Bankdagi maxsus schotlarni tekshirishda, cheklangan (limitlashtirilgan) va cheklanmagan (limitlashtirilmagan) chek daftarchalari bilan amalga oshirilgan muomalalarni tekshirishda daftarchadagi qoldiqning bankdan olingan ko'chirma va buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridagi ko'rsatilgan summaga mos kelishini aniqlash lozim. Agar farq chiqsa, bank to'lama-gan summa va sababi aniqlanadi. Zarur hollarda hisoblashuv muomalasi o'tkazilgan korxonadan muomalaning haqiqiylikini bilish mumkin. Ochilgan akkreditivning asosligini va to'lov-ning o'z vaqtidaligiga ishonch hosil qilish kerak.

Pul hujjatlarini tekshirishda auditor xazinadagi pochta markalari, davlat poshlinasi markalari, veksel, sanatoriy va dam oliy uylariga yo'llanmalar, o'z aksiyalarning miqdorini ko'rib chiqadi. Aksiyadorlardan sotib olingan o'z aksiyalari bilan bog'liq muomalalarni tekshirishda ularning qonuniyligini va buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini, moliyaviy qonun va tartibga rioya qilinayotganligini, ushbu sotib olingan aksiyalardan foyda olinayaptimi yoki foyda olinmayaptimi, foyda olishda korxonada o'z huquqini himoya qila olishi ko'rib chiqiladi.

Yo'ldagi o'tkazmalarni tekshirishda shu nomdagi 57- schot ma'lumotlari pochta kvitansiyalari, xazina va bank hujjatlari bilan solishtiriladi. Korxonaning obligatsiyalari, depozitlari va boshqa qimmatbaho qog'ozlari miqdori ko'rib chiqiladi. Nominal va sotib olish bahosi o'rtasidagi farq ishonchligi tekshiriladi.

Sanatoriy va dam olish uylariga berilgan yo'llanmalar bilan bog'liq (yo'llanmalar) muomalalarni tekshirishda qaysi mablag' hisobidan sotib olingan (maxsus fondlar, ijtimoiy sug'urta) tekshirish o'tkazilayotgan korxonada ishlamaydigan kishilarga berilish hollari bo'lmaganligini, bu yo'llanmalar uchun haqni xazinaga o'z vaqtida to'lanishini va ularga kasaba uyushmasining roziligi borligini aniqlash kerak.

Chet el valutasini buyicha muomalalarini tekshirishda naqd pul berilishining va boshqa korxonaga, xorijga o'tkazilishining asosli ekanligini aniqlash zarur. Respublika ichida hisoblashlar Markaziy bank qoidalariga to'g'ri kelish-kelmasligini tekshirish lozim. Masalan, respublika ichidagi va xorijdagi o'qishlar uchun o'tkazilib berilgan chet el valutasini va milliy pulning korxonaga aloqasi bo'lmagan shaxslarga va noo'rin ishlarga o'tkazib berish hollari bo'lmaganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Valuta kursining o'zgarishi to'g'ri ko'rsatilganligini aniqlash kerak.

Korxonaga mablag'larini boshqa maqsadga ishlatish hollari, noqonuniy pul o'tkazishlar, akkreditivni noto'g'ri qo'yish hollari bo'lmaganligiga va tovarsiz schotlarni akseptlash hamda «Yo'ldagi pul jo'natmalar» schotida pul mablag'lari kamomadi oshirilmayotganiga ishonch hosil qilish zarur.

Audit davomida xo'jalik xazinasida naqd pul saqlanishida belgilangan limitga amal qilinishi (qishloq xo'jalik korxonalari uchun bu limit korxonaga rahbari tomonidan shu xo'jalikka xizmat ko'rsatuvchi bank bo'limi bilan kelishilgan holda belgilanadi), xazina hujjatlarining yuritilishi tekshiriladi. Xazina operatsiyalarini tekshirishning bir qancha variantlari mavjud, ularni asosan ikkiga bo'lish mumkin. Birinchi variantda oldin hamma xazina kiritim hujjatlari, keyin chiqim hujjatlari tekshiriladi; ikkinchi variantda kiritim va chiqim hujjatlari birgalikda tekshirib chiqiladi. Xazina operatsiyalarini tekshirish hujjatlar bilan tanishishdan boshlanadi. Bunda xazina kiritim va chiqim hujjatlarini, qayd qilish daftari va xazina daftarining yuritilishi tekshiriladi. Xazina daftari raqamlanadi, xo'jalik rahbari va buxgalter imzosi bilan tasdiqlanib, muhrlanadi.

Pul olish uchun cheklar xo'jalik buxgalteriyasida to'ldirilishi lozim. Bu qoidalarning saqlanishi ustidan bosh buxgalter sistemali ravishda audit olib boradi.

Xazina operatsiyalari auditida auditorlar bankdagi schotdan ko'chirma ma'lumotlaridan ko'p foydalanadilar. Shuning uchun har bir auditor bu hujjatni o'qiy bilishi kerak. Quyida bankdagi schotlardan ko'chirma o'qish tartibi keltirildi:

02 shifr debeti — xo‘jalik schotidan to‘lov talabnomalar asosida inkassa kesib olingan mablag‘ni bildiradi.

Kredit — to‘lov talabnomalari bilan xo‘jalik, schotiga kelib tushgan mablag‘lar.

03 shifr debeti — xo‘jalik schotidan chek bilan naqd pul olingan.

Kredit — xazinadan yoki xo‘jalikning boshqa ishlab chiqarish bo‘limlari schotiga kelib tushgan naqd pul summasi.

04 shifr debeti — xo‘jalikning hisob-kitobi limitlangan yoki limitlanmagan cheklari bo‘yicha to‘langan pullar.

Kredit — xo‘jalik reyestri, limitlangan yoki limitlanmagan chek va boshqa hujjatlarga asosan schotga kelib tushgan summalar.

Boshqa kanallardan tushgan naqd pullarning kirim qilinishi ham xazina kirimi orqali bo‘lib, ko‘rsatilgan tartibda tekshiriladi. Masalan, oshxona, bufet, do‘kon, laryoklarda mahsulot sotish yoki xizmat ko‘rsatishdan tushgan pullar kirim orderlari, xazina daftari va bu tarmoqlarning javobgar shaxslari tomonidan topshirilgan hisobot yozuvlari bilan solishtirilib tekshiriladi. Zarur bo‘lganda, mahsulot sotilgan kunlarda, bozorda mahsulotlarning o‘rtacha sotish bahosi to‘g‘risida so‘rab, ma‘lumot olinadi.

Hamman, sataroshxona, tikish ustaxonasi, tegirmon va boshqa xo‘jaliklar faoliyatidan tushgan tushumlar summasi xazina kirim orderi, daftari, bu xo‘jaliklar hisobotlari va kvitansiyalarini solishtirib tekshiriladi. Bunda aholiga haqiqatdan ham ko‘rsatilgan xizmat hajmi, qo‘llanilgan tarif va baholarning (rastsenkalarining) to‘g‘riligi, tushumning xazinaga to‘liq hamda o‘z vaqtida qabul qilinishini tekshirish lozim.

Kommunal xizmatlar, ijara va yotoqxonalar xizmati uchun tushgan pullarning kirimi, xazina hujjatlari va ijaralarda turuvchilar qaydnomalari hamda bu xizmatlar uchun to‘lov kvitansiyalarini solishtirib tekshiriladi. Bunda amalga oshirilgan operatsiyalarning to‘g‘riligini bilish uchun ba‘zi kvartirada turuvchilardan tushuntirish xati olinadi. Ota-onalardan ularning farzandlari bolalar muassasalarida tarbiyalanganligi uchun tushadigan pul summalarining to‘g‘riligi kirim hujjatlarini, bolalar muassasalari boshliqlari hisobotlari, bolalarning qatnashini hisobga olish jurnali, ma‘lumotlari bilan solishtirilib aniqlanadi.

Xazinadagi naqd pullar chiqimining asosiy yoʻnalishi, bu pullarning ish haqiga tarqatilishidir. Bu operatsiyalarni tekshirishda hisob-toʻlov qaydnomalari va bunga tuzilgan xazina chiqim orderlarining toʻgʻri tuzilishi, ularning haqiqiy-
ligi, ularda xoʻjalik rahbarining hamda bosh buxgalterning ish haqini tarqatishga ruxsat berganliklari toʻgʻrisida yozuvlari va imzolarning mavjudligini koʻrish kerak. Qaydnomadagi summalarning tarqatilganlarini, tarqatilmagan va deponentga oʻtkazilganlarini alohida jamlab koʻrib, jami summaning toʻgʻriligini tekshirish kerak. Bunda qaydnoma boʻyicha tarqatilmagan va deponentga oʻtkazilgan ish haqi summalariga registr tuzilgan boʻlishi lozim.

Yuqorida koʻrib oʻtilgan hamma hollarda ham xazina chiqim orderlarida xoʻjalik rahbari va bosh buxgalter imzolari boʻlishi shart. Xazina kirim va chiqim orderlari siyoh yoki sharikli ruchkada, tuzatishlarsiz, oʻchirilmasdan aniq qilib yozilishi kerak. Xazinadagi hamma orderlarga xazinabon tomonidan imzo chekilgan, yordamchi hujjatlarda esa «olindi» yoki «toʻlandi» degan tegishli yozuvlar boʻlishi shart.

Xazina daftari ham shu tartibda tuzatishsiz kopirovka qogʻozi bilan ikki nusxada yozilishi, har kuni jamlanib, qoldiq summa aniqlanib, ikkinchi nusxasi kirim va chiqim hujjatlari bilan birga xazinabon tomonidan buxgalteriyaga hisobot tariqasida topshirilishi lozim.

Xazinani audit tekshiruvi oʻtkazish boʻyicha har bir xazinabon faoliyatiga alohida oraliq dalolatnomasi tuziladi. Oraliq dalolatnomasi buxgalteriya registr maʼlumotlari bilan inventarizatsiya dalolatnomasida aniqlangan naqd pulni va qimmatbaho qogʻozlarni taqqoslash asosida amalga oshiriladi. Bunda xazina boʻyicha solishtirma qaydnomasi lozim. Solishtirma qaydnomadani oldin tuzilgan inventarizatsiya haqida quyidagilarga eʼtibor berish lozim. Inventarizatsiya oʻtkazilishi uchun maʼmuriyat tomonidan buyruq (sh/x boshqaruvi qarori) chiqadi. Unda inventarizatsiya oʻtkazish hayʼati tarkibi, uni oʻtkazish muddati koʻrsatiladi. Inventarizatsiya oʻtkazish tartibi hayʼat aʼzolariga tushuntiriladi. Xazinadagi mablagʻlar, qimmatbaho qogʻozlar birma-bir sanaladi. Uni sanashdan oldin xazinabondan hayʼatga inventarizatsiya oʻtkazish uchun qarshiligi yoʻqligi haqida tushun-

tirish xati olinadi. Bundan tashqari, shu bilan bir paytda, xazinada kirim-chiqim hujjatlarining rasmiylashtirilmay qolish hollari yo'qligi, xazinada boshqa shaxsning puli yo'qligi to'g'risida tilxat olinadi. So'ngra inventarizatsiya jarayonida naqd pullar va qimmatbaho qog'ozlar, birinchi navbatda, xazinabon, keyin inventarizatsiya hay'at a'zolari tomonidan sanaladi, so'ng inventarizatsiya dalolatnomasi tuzilib, sanalgan naqd pul va qimmatbaho qog'ozlar qabul qilib olinganligi haqida dalolatnoma yoziladi.

Shuningdek, hay'atga o'tkazilgan inventarizatsiya yakuniga e'tirozi yo'qligi to'g'risida, mavjud ro'yxatda ko'rsatilgan kirim-chiqim hujjatlarini bir kun ichida hisobot bilan qo'shib topshirish haqida tushuntirish xati yozib beradi. Keyin inventarizatsiya yakuni va korxonaxona buxgalteriya registrlari ma'lumotlari taqqoslanib, solishtirma qaydnoma tuziladi.

Shundan so'ng xazinabonga olingan naqd pullarning maqsadga muvofiq ishlatilishi tekshiriladi. Buning uchun ham alohida qaydnoma tuzilishi mumkin.

Naqd pul olingan maqsadlar	Bankdagi schotdan ko'chirmaga muvofiq	Sarflanadi	Natija		Imzo
			aniq	kam	
Mehnat haqiga Mol sotib olishga Mayda xo'jalik xarajatlariga Safar sarfiga va hokazolar					
Buxgalter-auditor Korxonaxona rahbari Bosh buxgalter Xazinabon					

Agarda xazinada katta kamomad aniqlansa yoki sud-tergov organlari qarorlari bilan audit o'tkazilsa, unda har bir hujjat ko'rsatilib, alohida kirim va chiqim qaydnomasi tuziladi.

Audit oxirida esa xazina oraliq dalolatnomasi tuziladi. Unda xazinada yo'l qo'yilgan moliya va xazina intizomining buzilish dalillari ham birma-bir yoki operatsiyalarning mazmuniga qarab umumlashtirib ko'rsatiladi.

10- MAVZU: KORXONA HISOB VARAG'I VA BOSHQA HISOB VARAQLARINI YURITILISH AUDITI

Qishloq xo'jalik korxonasi va birlashmalari asosiy hamda kapital qo'yilmalar faoliyatiga mo'ljallangan pul mablag'larini ularga xizmat qiluvchi Bank muassasasi bo'linmalarida saqlashlari lozim. Bankdagi schotlarning ochilish tartibi va naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish Respublika Markaziy Bankining maxsus instruktiv ko'rsatmalariga asosan amalga oshiriladi.

Barcha korxonalarining bankdagi schotlari bo'yicha operatsiyalarini audit qilish, bu schotlarni ochish uchun belgilangan qonun-qoidalarga asosan pul mablag'larining saqlanishi va bu schotlardagi pul mablag'laridan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni tekshirishga qaratiladi. Bu vazifalarni bajarish, avvalo, xo'jalik rahbari va bosh buxgalterga tegishlidir. Bankdagi schotlarni ochish va pul mablag'laridan foydalanishni tashkil etish, ularning vazifasidir. Shuning uchun bosh buxgalter xo'jalikning to'lov va moliyaviy intizomi ustidan, pul mablag'larining xo'jalikka kirim qilinishi, saqlanishi va ularning sarflanishi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar ustidan audit olib borishi, bunda amal qilindigan qonun va qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Bank operatsiyalari auditi har bir schot bo'yicha alohida o'tkaziladi. Bunda hisob-kitob schoti operatsiyalarini tekshirishga alohida e'tibor berish lozim, chunki xo'jalikning asosiy faoliyatiga taalluqli bo'lgan barcha hisob-kitoblar shu schot orqali amalga oshiriladi.

Birinchi navbatda, schotdagi pul mablag'larining audit o'tkazilayotgan oy boshigacha bo'lgan qoldig'i bank schotidan ko'chirma va buxgalter hisobi registrlaridagi (bosh jurnal, jurnal-order) yozuvlar bilan solishtirib tekshiriladi. Agarda farq chiqsa, buning sabablari aniqlanib, xatolar tuzatiladi.

Keyin hujjatlarni o'qish usuli asosida bank schotidan ko'chirma va unga ilova qilib keltirilgan hujjatlar diqqat bilan o'rganib chiqiladi. Bunda hujjatlarning haqiqiyliigi, ulardagi sanalar, raqamlar, korrespondensiyalanuvchi schotlarning kodlari, shtamp, bank xodimlari imzolari tekshirib ko'riladi. Shundan so'ng, bank schotidan ko'chirma va ilova hujjatlari arifmetik tekshirishdan o'tkaziladi: taksirovkaning to'g'riligi, oborot summalarining to'g'ri jamlanishi, boshlang'ich va oxirgi qoldiqlarning to'g'ri chiqarilganligi tekshirib chiqiladi.

Bank schotidan ko'chirma va ilova hujjatlaridagi summalarni «Hisob-kitob schoti» dagi yozuvlar bilan solishtirib, tekshirib chiqish lozim. Bu tekshirishda schotlar korrespondensiyalarining to'g'riligiga alohida e'tibor berish kerak. Chunki, bunda pul mablag'lari bo'yicha o'g'irlik hollari yashiringan bo'lishi mumkin. Masalan, u yoki bu kreditorlik qarzlarni to'lash uchun ko'chirilgan pul summalari boshqa mas'ul shaxslar bilan til birlashtirilgan holda (bu summalarni o'zlashtirish maqsadida) boshqa xo'jalik yoki tashkilot hisobiga olib borilgan bo'lishi mumkin (noto'g'ri korrespondensiya tuzish). O'chirib yozilgan, tuzatilgan buxgalteriya yozuvlarini ham diqqat bilan tekshirish kerakki, bunda ham o'g'irlik, o'zlashtirish faktlari mavjud bo'lishi mumkin.

Hisob-kitob schotiga kelib tushuvchi pul mablag'larining to'g'ri hisoblanishini va buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini tekshirishda ham hujjatlarni solishtirib ko'rish usulidan foydalaniladi. Tayyorlov tashkilotlari va boshqa sotib oluvchilardan tushgan tushum summalari 9010- sonli «Asosiy faoliyat maxsulotlar realizatsiyasi» va 9030- sonli «Ko'rsatilgan xizmat va bajarilgan ishlar» va 4010- sonli «Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar» schotlaridagi yozuvlar bilan solishtirib ko'riladi.

Boshqa debitor qarzlarning to'lanishi tartibida yuqori tashkilotlardan, moliya-kredit organlaridan tushgan mablag'larni ham bank schotidan ko'chirma va ilova hujjatlari solishtirilib, lozim bo'lganda esa boshqa tashkilotlar hujjatlari bilan taqqoslab chiqiladi.

Xo'jalikning kapital qo'yilmalar faoliyatiga mo'ljallangan pul mablag'lari schotlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni audit qilishda bu mablag'larning o'z vaqtida, qonun

asosida to'ldirilib turilishi, ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi tekshiriladi. Buning uchun xo'jalik moliya-ishlab chiqarish rejasi, loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bu schotlardagi pul mablag'laridan foydalanishni tekshirishda bank schotidan ko'chirma va unga ilova qilingan hujjatlar, buxgalteriya hisoblaridagi yozuvlar solishtirib ko'rib, operatsiyalarning to'g'riligi va maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Tekshirish natijalari maxsus qaydnomada to'liq foydalanilmagan mablag'lar summalarini umumlashtirib yozib chiqish bilan aks ettiriladi.

Bankdagi boshqa schotlar bo'yicha o'tkazilgan operatsiyalarni audit qilish, bu operatsiyalarning qonuniyligi va pul mablag'laridan foydalanishning to'g'riligini aniqlashga qaratilgandir. Bunday audit «Bank bo'limidagi boshqa schotlar» bosh schoti ma'lumotlari asosida har bir akkreditiv, limitlangan va limitlanmagan chek daftariga ochilgan schotlar bo'yicha o'tkaziladi.

Audit davomida, avvalo, bu schotlarning ochilishi va mablag' bilan to'ldirilib borilishida o'rnatilgan tartib-qoidalarga amal qilinishi aniqlanadi. Keyin bank schotidan ko'chirma va ilova hujjatlar asosida har bir operatsiyaning to'g'riligi, uning maqsadga muvofiqligi o'rganib chiqiladi.

11- MAVZU: HISOB-KITOB VA KREDIT OPERATSIYALARI

Audit qilish tartibi, auditorlarning oldiga qo'yilgan vazifalar

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining xo'jalik faoliyatiga davlat organlarining aralashuvi kamayib boradi. Bu degani korxonalar mulkiy va raqobatbardoshligi yuzasidan mas'uliyati ularning o'zlariga tushadi. Bunda davlat bilan korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar soliqlar va soliqsiz to'lovlar, majburiyatlarni bajarish bilan tartibga solinadi. Shunday ekan, auditorlarning birinchi galdagi vazifasi auditorlik to'g'risidagi qonun va me'yoriy hujjatlarni, hukumat qarorlarini chuqur o'rganishi ularga rioya qilish mas'ulligidir. Ular bu sohadagi yangiliklardan doimo xabardor bo'lishi lozim.

Bu sohadagi qonun va qarorlarning respublikamizda barqaror, uzoq muddatga amal qilmayotganligi yuz berib turgan hollarda, normativ qonunlar bazasi yaratilishi bobida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. 1997- yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq sakkizinchi sessiyasida «Soliq kodeksi» qonuni qabul qilindi. Endigi vazifa uni takomillashtirishdan iborat. Fikrimizcha, xalq xo'jaligida ishlab topilgan ma'lum bir qiymatdan ishchiga, dehqonga, xodimga qancha qolayotganligini tahlil qilish, soliqlar miqdori va moddiy manfaatdorlik ahvoli hisobga olingani lozim. Bunda auditorlar soliq atamalarini chuqur bilishlari, soliq turlarining bugungi kunda respublikamizda ko'p shaklligini e'tiborga olib, tahlil qilib, sonini kamaytirish yo'llari yuzasidan takliflar kiritib borishi maqsadga muvofiqdir.

Auditorlar soliqlar bo'yicha audit tekshiruvida «Davriy xarajatlar», «Sotib olingan moddiy boyliklar bo'yicha qo'shimcha qiymat solig'i», «Mahsulotlar realizatsiyasi», «Asosiy vositalarning xo'jalikdan chiqishi va sotilishi», «Boshqa aktivlarning sotilishi»dan keng foydalanishlari lozim.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish xo'jalik subyektlari yagona yer solig'iga tortiladi. Bu esa, o'z navbatida, Yer kadastri, «Yer to'g'risida»gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar bilishini taqozo qiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini o'z faoliyatlari davomida bir necha korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan iqtisodiy aloqada bo'ladilar. Korxonada hisob-kitob va kredit operatsiyalari bo'yicha to'lov, hisob-kitob ishlarining yaxshi tashkil qilinishi, avvalo, xo'jalik moliyaviy ahvolidan yaxshilanishiga, aloqada bo'luvchi boshqa korxonalar va tashkilotlarning bir me'yorda ishlashiga, umuman olganda, mamlakatimizda tovar-pul muomala jarayonining yaxshi uyushtirilishiga olib keladi. Shuning uchun ham hisob-kitob va kredit bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini audit qilishda auditorlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi: iqtisodiy aloqada bo'layotgan korxonalar bilan ish yuritishning qonuniyligi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi tekshiriladi: shu iqtisodiy aloqalarning real bo'lishi, to'lov hisob-kitobi intizomiga rioya qilinishi, korxonalar o'zi va o'zgarar mablag'laridan ratsional foydalanishi masalalari tekshirilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan hamda ularni bartaraf qilishga doir tadbirlarni belgilash lozim.

Ma'lumki, hisob-kitob va kredit operatsiyalarini audit qilishda kamchiliklarni aniqlash, ularni tugatish yuzasidan tadbirlar belgilash pul mablag'laridan foydalanishni yaxshilash imkoniyatini beradi. Korxonada hisob-kitob va kredit operatsiyalari bo'yicha ishlarni o'z me'yorida, to'lov intizomiga to'la rioya qilgan holda tashkil qilish hamda uzluksiz ravishda audit qilib borishda rahbar va mutaxassislar asosiy rol o'ynashi lozim. Bu operatsiyalar yuzasidan audit tekshiruvini o'tkazishda auditorlar maxsus yo'l-yo'riq va ishlar navbatiga rioya qilishlari kerak. Bunda, avvalo, hisobdor shaxslar bilan muomalalar, so'ngra mol yetkazib beruvchi va ish bajaruvchi pudrat korxonalar bilan hisob-kitoblar, tayyorlov tashkilotlari orasidagi, budjet hamda ijtimoiy sug'urta organlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ko'rib chiqiladi. To'lov, kredit operatsiyalarini audit qilishda turli debitor va kreditorlar bilan bo'ladigan iqtisodiy tekshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Audit tekshiruvining eng oxirida bank va kredit

organlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblar tekshiriladi va xulosa qilinadi.

Har bir guruh, korxonalar, tashkilot va shaxslar bilan bo'ladigan xo'jalik operatsiyalari tekshirilganda, birinchi navbatda, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini o'zaro aloqa dalolatnomalari bilan taqqoslash, sodir bo'lgan operatsiyalarning qonunga muvofiqligi, iqtisodiy jihatdan maqsadli bo'lishi, uning yuzaga kelish xarakteri, haqiqiyliigi, qarzlarnig o'z vaqtida to'lanishiga ahamiyat berish kerak. Bunda audit tekshiruvini o'tkazish uchun buxgalteriya hisobining registrlari, dastlabki hujjatlar, normativ dalolatnomalar va ishlab chiqarish moliya rejalari, yillik hisobotlar, balanslar asosiy manbalar hisoblanadi.

Mol yetkazib beruvchi va ish bajaruvchi pudrat korxonalarini bilan hisob-kitoblarni audit qilish

Qishloq xo'jalik korxonalarida kengaygan takror ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishi uchun, ular doimiy ravishda boshqa korxonalar bilan mustahkam iqtisodiy aloqada bo'ladilar.

Bunday aloqalar korxonalar o'rtasida qonun asosida tuziladigan shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi. Shartnomalarga tomonlarning majburiyatlari, ularni bajarish muddatlari, hosil bo'ladigan debitorlik va kreditorlik qarzlarni to'lash tartib muddatlari aniq ko'rsatiladi. Shuningdek, yetkazib beriladigan mollarning sifati, miqdorlari va baholari ham to'la ravishda ko'rsatib o'tiladi. Mol yetkazib beruvchilar bilan aloqalarda qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash, ilm-fan, texnika yutuqlaridan keng foydalanish muhim o'rin tutadi.

Mol yetkazib beruvchilar bilan xo'jalik operatsiyalarini audit qilishda auditor har bir operatsiyaning qonuniyligi, shartnomalar shartiga muvofiqligi, uning rejali xarakterga ega bo'lishi, yuridik, asosda ekanligi, kapital sarf va reja, shartnomalarda aks ettirilishi, loyiha-smeta hujjatlarining mavjudligi, qurilish titul ro'yxatiga kiritilishi kabi masalalarni sinchiklab tekshirib chiqadi. Ayniqsa, korxonalar tomonidan

har yilgi yoqilg'i-moylash, qurilish materiallari, ehtiyot qismlarning olinishi va sarflanishi jiddiy tekshirilishi lozim. Pudrat tashkilotlar bilan bo'ladigan aloqalarda bunday audit tekshiruvining xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lmasdan oldin amalga oshirilishi katta samara beradi.

Agar zaruriyat tug'lsa, olingan moddiy-texnika resurslari inventarizatsiya qilinishi, ikki korxonadagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'zaro taqqoslanishi mumkin. Bunda ayrim hisobdor va mansabdor shaxslardan tushuntirish xati olinadi, sifat masalalari bo'yicha laboratoriya ekspert xulosalari audit dalolatnomasiga ilova qilinadi. Bu operatsiyalarni audit qilishda korxonalar o'z funksiyasi bo'yicha ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlovchi korxonalardan olmasdan, qimmat bo'lsa-da, savdo tashkilotlaridan olishga harakat qiladilar. Bunday operatsiya korxonalar uchun zarar keltiradi. Tekshirish oxirida buxgalteriya registrlari ma'lumoti bilan yillik, kvartal, oylik hisobot ma'lumotlari taqqoslab ko'riladi.

Shartnomadagi shartlarning bajarilishini analitik audit qilish quyidagicha amalga oshishi mumkin:

Mol yetkazib beruvchi korxonaning nomi	Yetkaziladigan tovar va moddiy qiymati	Shartnoma bo'yicha			Haqiqatda yetkazib berildi		Shartnomadan chetlanish (so'mlik)	
		vaqti	miqdori, o'lchov birligi	summasi	vaqti	miqdori, o'lchov birligi	kechik. yetkaz.	oldin. yetkaz.

Auditor

Korxonra rahbari

Korxonra bosh buxgalteri

Pudrat tashkilotlar bilan hisob-kitob operatsiyalarini tekshirishda asosiy e'tibor bajarilgan ishlarning hajmini audit o'lchovini o'tkazishga, qurilish-montaj ishlariga qaratiladi. Bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi «F—2» chuqur o'rganiladi. Audit o'lchov ma'lumotlari bilan «F—2»da ko'rsatilgan ishlarning miqdori bir-biriga taqqoslanib ko'riladi.

Ushbu dalolatnoma asosida yoziladigan schotlar yaxshi o'rganilib, loyiha-smeta hujjatlari ekspert hay'ati auditidan

o'tkaziladi. Ayrim hollarda, bu hujjatlarda ish hajmini oshirib ko'rsatish, mahalliy sharoitni hisobga olmasdan baholarni qo'llash kabi kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Shuning uchun audit ishlarida har bir xodimdan o'z ishiga jiddiy munosabatda bo'lish talab qilinadi. Chunki yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash audit xodimining birinchi galdagi vazifasidir. Agar audit davomida qo'shib yozish, mulkni suiiste'mol qilish hollari aniqlansa, oraliq dalolatnomalari tuziladi, so'ngra tegishli tadbirlar belgilanib amalga oshiriladi.

Tayyorlov tashkilotlari va xaridorlar bilan bo'ladigan hisob-kitob operatsiyalarini audit qilish

Qishloq xo'jalik korxonalarida tayyor mahsulotlarni sotish ishlab chiqarishning oxirgi davri hisoblanadi. Shuning uchun, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishni to'g'ri tashkil qilish bir tomondan davlat buyurtmalarining bajarilishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan esa korxonaning xo'jalik va moliyaviy ahvolini yaxshilash imkoniyatini beradi.

Tayyorlov tashkilotlari bilan hisob-kitoblarni yo'lga qo'yishda korxonalar bilan tayyorlov tashkilotlari o'rtasida tuzilgan shartnomaga amal qilinishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Bunda, birinchidan, shartnomaning o'z vaqtida rasmiylashtirilishiga e'tibor berilsa, ikkinchidan, davlat buyurtmasining bajarilishi chuqur tekshiriladi. Ma'lumki, davlat buyurtmasi respublika fondlariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib berishdir. Shartnomada tomonlar kelishuviga muvofiq mahsulotlarning miqdori, yetkazish muddatlari, normativ hujjatlarga qarab baholari ko'rsatiladi. Shartnomalar tuzilishida ko'rsatilgan yetishirilgan mahsulotlarning dehqon bozorida sotish (o'zaro kelishilgan baholarda) ishlariga e'tibor beriladi.

Tayyorlov tashkilotlari bilan qishloq xo'jalik korxonalarini o'rtasidagi hisob-kitoblar tekshirilganda qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisobga o'tgan vazniga aylantirilishi (fizik og'irlikning hisobga o'tgan vazniga aylantirilishi), sotilgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari, pul daromadlarning o'z vaqtida to'lanishi, baholar tizimiga rioya qilinishi kabi

masalalar chuqur o'rganiladi. Tekshirish davomida jo'natilgan mahsulotlar chuqur o'rganiladi. Tekshirish davomida jo'natilgan mahsulotlar bilan qabul qilingan mahsulotlar miqdori taqqoslanadi, agarda kam bo'lsa, uning sabablari o'rganiladi, bordi-yu zarar shaxs tomonidan yetkazilganligi aniqlansa, uni undirish choralari ko'riladi. Bunday holatlarda joriy tekshirish muhim rol o'ynaydi. Masalan, tovar-transport nakladnoylari yuk xatlari bilan ularni qabul qilinganligi to'g'risidagi tayyorlov tashkilotlari tomonidan berilgan kvitansiyalar, mahsulotlarni tashish yo'l hujjatlari bir-birlari bilan taqqoslanadi. Shuningdek, qabul qilingan mahsulotlar qiymatini o'z vaqtida tushishiga alohida e'tibor beriladi.

Shu kabi tayyorlov tashkilotlari tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z vaqtida qabul qilmaslik, qaytarib yuborish dalillari yoki ortiqcha chiqitga chiqarish hollari ham uchray turadi, auditorlar bularga alohida e'tibor qaratishlari kerak.

Boshqa xaridorlarga sotilgan mahsulotlar ham tayyorlov tashkilotidan kelgan pul daromadlarining o'z vaqtida kirim qilinishi qattiq audit ostiga olinadi. Audit tekshiruvi o'tkazishda jurnal-order va vedomostlarda qayd qilingan ma'lumotlardan keng foydalaniladi. Bu hisob-kitoblarni audit tekshiruvi o'tkazish bo'yicha alohida oraliq dalolatnomalari tuziladi.

Xo'jaliklararo kooperatsiya korxonalari bilan bo'ladigan hisob-kitob operatsiyalarini tekshirish. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida ijtimoiy ishlab chiqarish samarasini oshirishning bosh yo'li hisoblangan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bo'yicha har xil yo'qotuvlar qisqartirish uchun kurashda audit muhim ahamiyatga ega bo'layotgani bejiz emas. Audit tufayli xo'jaliklararo korxonalarining hisob-kitob operatsiyalari o'z vaqtida tekshirilib turibdiki, bu ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda asosiy omillardan biri bo'layotir.

Ma'lumki, xo'jaliklararo kooperatsiya korxonalari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda ta'sischi bo'yicha hisob-kitoblar bosh schotida olib boriladi. Bunda korxonalar o'z faoliyatini davlat korxonasi (birlashmasi) to'g'risidagi qonun asosida yurgizadilar. Korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar ular o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Audit qilish paytida quyidagilarga e'tibor beriladi:

xo'jaliklararo korxonalariga audit o'tkazilayotgan korxonaning ixtiyoriylik asosida paychi bo'lishi, bu masalaning korxonada xodimlarining umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilganligi chuqur o'rganiladi. Shundan so'ng iqtisodiy aloqalar sifatida pay badallarining o'z muddatida to'lanishi, shartnomada ko'rsatilgan moddiy resurslarning vaqtida yetkazilishi, olinishi, baholar tizimining to'g'ri qo'llanilishi hamda xo'jaliklararo korxonada foydasining normativ dalolatnomalarida ko'rsatilganidek, taqsimlanishi jiddiy tekshiriladi va oraliq dalolatnomalari tuziladi.

Auditorlik ishlarini rejalashtirishda va uning tekshiruvini tugallashda moliyaviy umumlashtiruvchi koeffitsiyentlarni hisoblab chiqish eng muhim ishdir. Ular guruhlanadigan bo'lsa, asosiylaridan bir korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qaytarish qobiliyatini belgilovchi koeffitsiyentlardir:

$$\text{Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash koeffitsiyenti} = \frac{\text{joriy aktivlar}}{\text{joriy majburiyatlar}}$$

$$\text{Qisqa muddatli joriy majburiyatlarni absolut tugatish koeffitsiyenti} = \frac{\text{pul mablag'lari + tugatish qimmatbaho qog'ozlari}}{\text{joriy majburiyatlar}}$$

Albatta, bu yerda, bizning fikrimizcha, tayyor, sotilishi bo'yicha raqobatbardosh tovarlar va mulklar ham hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo Buyuk Britaniya olimlari E. A. Arnes va J. K. Lobbeklar o'z darsliklarida bu masalani e'tiborga olmaganlar.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisob-kitoblarni tekshirish

So'ngra soliqsiz to'lovlarga audit tekshiruvini qaratiladi, bunda me'yoriy hujjatlarga muvofiq 4520- raqamli schot «Sug'urta to'lovlari bo'yicha avans», 4510- raqamli schot

«Davlat maqsadli fondlariga to'lovlar bo'yicha avans», 6230-raqamli schot «Muddati uzaytirilgan soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar» va nihoyat 6500-raqamli schot «Davlatning maqsadli fondlari hamda sug'urta bo'yicha qarzlilar (schot 6510—6530)» ma'lumotlari qonuniyligi, hisob-kitoblarining ularga mosligi tekshiriladi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq ijtimoiy ta'minot davlat budjeti va jamoa xo'jalik a'zolari mablag'lari hisobiga tashkil qilinadi. Bu mablag'lardan xodimlarga vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganda nafaqa tayinlash, qarilik nafaqasi tayinlash, boquvchisini yo'qotganlarga nafaqa berish uchun foydalaniladi.

Yangi tahrirdagi auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq, bu masalalar auditor, zarur hollarda, uning taklifiga muvofiq soliqchi-ijtimoiy sug'urtachi tomonidan koordinatsiyalashgan tekshiruv bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minot mablag'larini tekshirganda korxonalar tomonidan ma'lum miqdorda pul ajratadilar va ijtimoiy ta'minot organlariga ko'chirib beradilar. Ijtimoiy ta'minotni tekshirganda uning miqdorlari xodimning ish stajiga qarab to'lanishi tekshirilib ko'riladi. Ikkinchidan, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan xodimlarga nafaqa hisoblashni qattiq audit qilish kerak. Bunda ish staji, yoshi va mehnatga qay sababga ko'ra vaqtincha yaroqsizligiga, Ikkinchi jahon urushida qatnashganligiga qarab to'lanishi tekshiriladi. Nafaqa tayinlashda kunlik summa minimal ish haqi hisobidan olinadi.

U bilan birga ijtimoiy sug'urta summalari bo'yicha hisob-kitoblar, ya'ni nafaqalarning o'z vaqtida berilishi ijtimoiy sug'urta organlari bilan har kvartalda hisob-kitob bo'yicha orani ochuvchi hisobot (T—4 forma) chuqur o'rganiladi. Agar debitor va kreditor qarzlilar ko'p yillardan beri regulirovka qilinib, o'zaro aloqalar dalolatnomasi tuzilmagan bo'lsa, u tartibga solinadi. Shunday qilib, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta masalalari bo'yicha alohida oraliq dalolatnomasi tuziladi. Bu auditorlik tekshiruvining alohida qismi qilib hisobot va xulosada ko'rsatiladi, tamomlangach 15 kunda tegishli organlarga topshiriladi.

Hisobdor shaxslar bilan bo'ladigan xo'jalik operatsiyalarini tekshirish

Audit bosh schotlaridagi «Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar»ning buxgalteriya registridagi qoldiqlarini tekshirishdan boshlanadi. Bunda xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng hujjatlardagi hisoblashlar sinchiklab tekshiriladi, agar noto'g'ri hisoblangan bo'lsa, to'g'ri hisob-kitob qilinadi. Audit davomida hisobdor shaxslarning safar xarajatlari va xo'jalik chiqimlari uchun berilgan avanslar yuzasidan o'z vaqtida hisob-kitob qilinishi, hisobotlarning topshirilishi tekshirib boriladi.

Safar bilan bog'liq operatsiyalarni tekshirishda safar xarajatlari to'g'risida ko'rsatilgan normativlarga rioya qilinishi zarur. Qarorda korxonada rahbarlarining huquqlari kengayishi munosabati bilan xizmat safar sarflarining limitini (budjet tashkilotlardan boshqasi) belgilash yo'q qilinadi. Qarorga muvofiq xizmat safar muddati 40 kundan oshmasligi lozim.

Agarda ishchilar payvandlash-qurilish ishlari uchun xizmat safariga borsalar, ularning oylik maoshidan 50 foizi to'lanadi. Korxonada safar xarajatlari guvohnomasi hisobga olinadigan alohida jurnal yuritiladi. Jurnalda safarga qancha muddatga jo'natilishi, qachon ketishi va kelishi ko'rsatilib boriladi. Agarda bu operatsiyalarni audit qilishda kamchiliklar va boshqa moliyaviy intizomni buzishlar aniqlansa, oraliq dalolatnoma tuzilib, yakunlari rasmiylashtiriladi.

Auditorlik tekshiruvini yakunlash jarayonida qisqa muddatli korxonada tugatish koeffitsiyentlarining tizimini bilib olib, hisoblab chiqish asosida xulosaga kiritish muhim ish hisoblanadi:

$$\frac{\text{Debetorlik qarzlarning o'rtacha aylanish koeffitsiyenti}}{\text{toza hajmdagi mahsulotlar realizatsiyasi, summa}} = \frac{\text{o'rtacha debitorlik qarzlari, summa}}{\text{summa}}$$

$$\text{Debetorlik qarzlarini o'rtacha to'lash kunlari} = \frac{\text{o'rtacha debetorlik qarzlari summasi 360}}{\text{toza hajmdagi mahsulotlar realizatsiya summasi}}$$

$$\text{Tovar-zaxiralarning o'rtacha aylanish koeffitsiyenti} = \frac{\text{sotilgan mahsulotlar qiymati}}{\text{o'rtacha tovar-zaxiralar summasi}}$$

Shu yerda bozor munosabatlariga o'tilishi munosabati bilan bizga ma'lum bo'lmagan ayrim ko'rsatkichlarni hisoblash zaruriyati ham tug'iladi, jumladan:

$$\text{Tovar-zaxiralarni o'rtacha xaridorlarga jo'natish kunlari} = \frac{\text{o'rtacha tovar-zaxiralar qiymati 360}}{\text{sotilgan mahsulotlar qiymati}}$$

$$\text{Tovar-zaxiralarning naqd pulga aylanishining o'rtacha kunlari} = \frac{\text{sotilgan tovar-zaxiralari uchun to'lov kunlari} + \text{tovar zaxiralarini o'rtacha jo'natish kunlari}}$$

Fikrimizcha, tajribali buxgalterga bu ko'rsatkichlar uchun axborot ma'lumotlarini hisoblab, aniqlash qiyinchilik tug'dirmaydi.

Yetkazilgan moddiy zararlarni tiklash bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini tekshirish. Ma'lumki, korxonalarda mulkning o'g'irlanishi, unga zarar yetkazilishi kabi salbiy hollar uchrab turadi. Bunday faktlar aniqlanganda, yetkazilgan zararlarning tiklanishi uchun kurashish lozim. Bunda zarar aybdor hisobidan undiriladi. Bu operatsiyalarni audit qilishda «Moddiy qiymatliklarning kam kelishi va buzilishidan yo'qotuvlar», schot yuritiladigan 8- jurnal-order va tegishli qaydnomalarning ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Agarda tabiiy ofatlar yuzasidan mulk va ekinlarga zarar yetsa, unda davlat sug'urta organlari tomonidan sug'urta summasi hisobidan qaytim to'lanadi. Ularning miqdori ekinlar, ko'p yillik daraxtlar hosilining qiymatidan 70 foiz, ko'p yillik daraxtlarning to'la qiymati, ya'ni 100 foiz, chorva mollari bo'yicha 100 foiz qiymati qaytim sifatida beriladi. Bu xo'jalik operatsiyalari bo'yicha ham alohida oraliq dalolatnomalari tuziladi.

Turli debitor va kreditor bilan bo'lgan xo'jalik operatsiyalarini tekshirish. Korxonada moliya-xazina intizomini yo'lga qo'yish va uni mustahkamlash uchun boshqa debitor hamda kreditorlar bilan hisob-kitoblarini doimiy ravishda audit qilib turish katta ahamiyatga egadir. Bunday hisob-kitoblarga deponentlar, e'tirozlar, xodimlar bilan turli xizmatlar, ijara haqi, bog'chada tarbiyalanayotgan bolalar uchun ota-onalardan tushadigan badallar, yuqori tashkilotlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar kiradi va ular buxgalteriya hisobining «E'tirozlar bo'yicha hisob-kitoblar», «Xodimlar bilan boshqa xo'jalik operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar», «Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar» schotlarida olib boriladigan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Tekshirish manbalari sifatida buxgalteriya registrlaridan keng foydalanish mumkin. Asosiy e'tibor bu operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarning vujudga kelishi, xarakteri, buxgalteriya registrlarida aks ettirilishiga qaratiladi. Audit tekshiruvu o'tkazishda bu hisob-kitoblarning turlariga alohida e'tibor beriladi, deponentlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblardagi imzolar qaydnomalar bilan taqqoslanadi, mehnat haqi hisoblanadigan tabellarga solishtirib ko'riladi. Operatsiyalarni tekshirishda debitor qarzlarning o'z vaqtida xazinaga kirim qilinishiga e'tibor berish kerak. Bu hisob-kitoblar bo'yicha alohida oraliq dalolatnomasi tuziladi.

Korxonaning uzoq muddatli kreditorlik qarzlarni va aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash bo'yicha guruh koeffitsiyentlari auditorlar hisoblashlarini bozor iqtisodiyoti sharoitida hayotning o'zi taqozo qiladi, jumladan:

$$\frac{\text{Aksiyadorlarga, aksiya hissalari bo'yicha kreditorlik qarzlarni to'lash nisbat koeffitsiyenti}}{\text{barcha majburiyatlar}} = \frac{\text{aksiya kapitali}}{\text{aksiya kapitali}}$$

$$\text{Aksiyadorlar hissasiga toza material aktivlar hissasi} = \frac{\text{aksiya kapitali} - \text{nomaterial aktivlar}}{\text{aksiya kapitali}}$$

$$\text{Oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lovlar} = \frac{\text{bu xo'jalik operatsiyalaridan daromadlar}}{\text{oddiy dividendlar summasi}}$$

$$\text{Oddiy va imtiyozli aksiyalarga dividend to'lovlari} = \frac{\text{xo'jalik operatsiyalaridan daromadlar}}{\text{oddiy dividend summasi} + \frac{\text{Imtiyozli dividend summasi}}{1 - \text{soliq tarifi}}}$$

Hozirgi kunda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida bozor munosabatlariga o'tish islohotining jadal amalga oshirilishi va mulkdorlar sinfining vujudga kelishini hamda yangi bo'lgan qimmatbaho qog'ozlar bozorini tashkil qilishni ko'zda tutib, dividendlardan soliq olinmasligi normativ hujjatlarda aniq ko'rsatilgandir.

Kredit operatsiyalarini audit qilish

Ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirib, mahsulot yetishtirishni ko'paytirib borayotgan korxonalar asosiy vositalarni rekonstruksiyalash va yangidan qurishda sotib olish uchun vaqtincha Bank muassasasining mablag'iga muhtoj bo'lib qoladi. Shunda korxonalar asoslangan hisob-kitoblar bilan o'z bankiga qisqa yoki uzoq muddatli ssudalar so'rab murojaat qiladi. Bugungi kunda kredit berish yuzasidan biznes-reja, sug'urta organlarining kafolatlari e'tiborga olinib, maqsadli tekshirilishi lozim. Bunda xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobida «Davlat bankining qisqa muddatli ssudalari», «Maxsus ssudalar» va «Uzoq muddatli ssudalar» kabi schot-

larning ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bular buxgalteriya hisobining jurnal-order registrlarida qayd qilib boriladi.

Bu operatsiyalarni tekshirish, ularni rejalashtirishdan kreditga bo'lgan talabni aniqlash va hisoblash boshlanadi. Bu hisoblarning tuzilishida korxonada oborot mablag'larining zaxiralari to'la hisobga olinishi zarur. So'ngra davlat banki bo'limini ssudasining maqsadga muvofiq foydalanishi, o'z vaqtida qaytarilishi tekshiriladi. Audit tekshiruvining oxirida davlat banki ssudasidan foydalanishning samaradorligi aniqlanadi. Kredit operatsiyalari audit tekshiruvini o'tkazish bo'yicha oraliq dalolatnomalarini tuzish bilan tamomlanadi.

Mamlakatimizda o'rta va kichik biznes tadbirkorlik deb qaralayotgan bir paytda lizing shartnomalari, ichki ijara pudrat munosabatlar, turli xil jamg'armalar, sug'urta organlari, xizmat ko'rsatuvchi servis, bank muassasalari bilan hisob-kitoblar asosida shartnomaviy raqobat ko'rsatishlarini hisobga olib, ularga hisoblanmalar va o'z vaqtida to'lov sug'urta qiymatlari aniq audit tekshiruvidan o'tkazilishi lozim.

Umuman olganda, hisob-kitob va kredit operatsiyalari tekshiruvini davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi, shuningdek, pul-kredit tizimiga katta ta'sir ko'rsatishi, fuqarolar turmush darajasiga to'g'ridan to'g'ri ta'siri nuqtayi nazaridan qaralishi foydadan holi ish emasligini auditor o'z faoliyatida to'la mas'ullik bilan his qilishi lozim.

12- MAVZU: ASOSIY VOSITALARNING BUTUN SAQLANISHI VA ULARDAN FOYDALANISH AUDITI

Audit qilish tartibi, auditorlarning asosiy vazifalari

Korxonalarining ishlab chiqarishida, xo'jalik va moliya faoliyatida asosiy vositalar moddiy-texnik baza hisoblanadi. Hozirgi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan jarayonda u xalq xo'jaliklaridagi singari amalga oshiriladi.

Ayniqsa, xo'jalik operatsiyasi sodir bo'lmasdan oldin o'tkazilgan audit eng muhim javobgarlik funksiyasi korxonalar rahbarlari, mutaxassislari zimmasiga yuklatiladi. Bunday auditni o'tkazishda auditorlar xo'jalikka olinadigan asosiy vositaning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini, ulardan foydalanishda qanday ishlarni amalga oshirish lozimligi, kimning javobgarligiga berilishi, nihoyat, qay tartibda qo'riqlanishi ko'rsatiladi.

Asosiy vositalar strukturasiida aktiv hisoblangan traktorlar, kombaynlar, qishloq xo'jalik mashinalari, avtomobil va transport vositalaridan foydalanishda amaldagi qoidalarga rioya qilinishi, xo'jasizlik kabi salbiy hodisalarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik masalalariga e'tibor berilishi lozim.

Joriy auditni amalga oshirishda ham oldindan o'tkaziladigan audit singari ichki xo'jalik auditini o'tkazish katta ahamiyatga egadir. Bunday audit korxonalar rahbari, mutaxassislari, jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi. Agarda tekshirishda moliya-kredit tashkilotlarining vakillari qatnashsa, audit va audit tekshiruvining ta'sirchanligi yanada oshadi. Bunda hujjatli audit tekshiruvining usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Asosiy vositalar qayta inventarizatsiyadan o'tkazilayotganda binolar, inshootlar, uzatuvchi moslamalarning ishlatishga yaroqlilik darajasi, kelgusida yana qancha vaqt ishlatish mumkinligi kabilarga katta e'tibor beriladi. Tekshirish davomida korxonada ishlab chiqarish bo'linmalari

bo'yicha joylanishi, to'la quvvatdan foydalanish, texnik jihatdan qarovning tashkil qilinishi, ularning komplekt va texnik ahvoli chuqur o'rganiladi.

So'ngra, asosiy vositalarning korxonada amaldagi inventarizatsiya o'tkazishda instruksiyaga muvofiq vaqt va turlari jihatidan amal qilinishi o'rganiladi. Agar kamchiliklar aniqlansa, tezlik bilan uning oldi olinishi lozim.

Shuni qayd qilish lozimki, audit asosan texnik mutaxassislar tomonidan ko'proq o'tkazilsa, auditda esa auditorlik xodimlari faol qatnashadilar va moddiy zarar yetkazish hollari uchrab qolsa, uni tiklash choralari ko'riladi. So'ng bu ishlar yuridik jihatdan rasmiylashtiriladi. Asosiy vositalar audit qilinayotganda buxgalteriya hisobida, ularning harakatini korxonalar va xo'jaliklararo korxonalardagi tasdiqlangan klassifikatsiyasi bo'yicha aks ettirilishi chuqur o'rganiladi. Asosiy vositalarga inventar raqamlarining berilishi, moddiy javobgar shaxslarga biriktirilishi, ularga beriladigan texnik jihatdan xarakteristikasini ko'rsatuvchi pasportlarning o'z vaqtida hamma rekvizitlari asosida yuritilishi kabilar tekshiriladi.

Shuningdek, asosiy vositalarni audit qilishda dastlabki hisob va buxgalteriya hisobidagi aks ettirilishiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda inventarizatsiya yakunlari bo'yicha hay'at tuzgan bayonnomalarning yuritilishiga, asosiy vositalardan foydalanish muddatlariga rioya qilinishi jiddiy o'rganiladi.

Agarda asosiy vositalardan xo'jasizlarcha foydalanish hollari uchrab qolsa, darhol oraliq dalolatnomalari tuziladi. Bunday dalolatnomalar moddiy javobgar shaxslar bo'yicha alohida-alohida tuziladi. So'ngra ular korxonaga bo'yicha tuzilgan audit tekshiruvining umumiy dalolatnomasiga ilova qilinadi va dalolatnomaning matnida ham umumlashtirilib ko'rsatiladi.

Asosiy vositalarning xo'jalikka kelishi va korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishini tekshirish

Korxonalarda kengaygan takror ishlab chiqarishni davom ettirish uchun mehnat qurollari hisoblangan asosiy vositalarni to'ldirish, rekonstruksiya qilish muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy vositalar asosan xo'jalikka quyidagi manbalar hisobiga, ya'ni xo'jalikning o'z mablag'i hisobiga (amortizatsiya fondi, foydadan ajratmalar va boshqa fondlar hisobiga) markazlashgan kapital sarflar va bepul bank kredit hisobiga olinishi mumkin. Shu manbalar hisobiga asosiy vositalar sotib olinishi, yangidan qurilishi (pudrat va xo'jalik yo'li bilan), boshqa korxonalaridan bepul olinishi mumkin. Asosiy vositalarning kelishini audit qilganda, ularning yuqoridagi kanallardan kelishi haqiqiy va hujjatlar auditi asosida tekshirish lozim.

Asosiy vositalarning xo'jalikka kelishi tekshirilganda ularning amaldagi qonun va qoidalar asosida olinishiga, qurilishiga e'tibor beriladi. Shuningdek, asosiy vositalarni sotib olishga va qurishga zarur mablag'larning moliyalashtirilishi kabilar o'rganiladi. Bunda, avvalo, xo'jalikning shu xildagi zarur asosiy vositalar bilan ta'minlanishi, texnik unumlilik darajasi jihatidan hozirgi kundagi ishlab chiqarish talabiga javob bera olishi tekshiriladi.

Korxonalarda asosiy vositalar hisoblangan bino va inshootlar kapital qurilishi hisobiga barpo qilinadi. Bino va inshootlar kirim qilinishini tekshirish ularning loyiha-smeta hujjatlarini ko'rishdan boshlanadi. So'ngra bino va inshootlarning kapital qurilish biznes-rejasiga kiritilishi, moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanishi, qurilishning iqtisodiy maqsadli bo'lishi va qonuniyligi tekshiriladi. Shuningdek, bino va inshootlarning qurilish muddatlariga, ularni qabul hay'ati tomonidan o'z vaqtida, sifatli qabul qilish uchun tuzilgan dalolatnomalariga, bunda ular ko'rsatgan kamchiliklarning tuzatilgan yoki tuzatilmaganligiga ahamiyat beriladi.

Shundan so'ng asosiy vositalarning korxonalar balansiga o'z vaqtida kirmga olinishi tekshiriladi. Qabul qilingan asosiy vositaning qabul qilish dalolatnomasidagi texnik tavsifnomasi loyiha-smeta texnik xarakteristikasiga taqqoslab ko'riladi. Shuningdek, asosiy vositalarning qabul qilinishini tekshirganda ularni qabul qilish bo'yicha dalolatnomada ko'rsatilgan kamchiliklarning bartaraf qilinishiga alohida e'tibor beriladi. Har bir asosiy vositaning qabul hay'ati tomonidan sinab qabul qilinishi, barcha bino va inshootlarning texnik qoidalarga muvofiq to'g'ri montaj qilinishi, asosiy vositalar klassifikatsiyasi bo'yicha kirmga olinishi, nihoyat inventarga raqam

berilishi va boshlang'ich bahosining to'g'ri aniqlanishi alohida-alohida tekshiriladi.

Ma'lumki, asosiy vositalar korxonalariga yuqori tashkilotlardan bepul berilishi mumkin. Bunday asosiy vositalar tekshirilganda ularning boshlang'ich bahosi, eskirishi, amortizatsiya summalari, qabul hay'ati tomonidan vositalar to'g'ri baholanishi o'rganiladi. Shuningdek, asosiy vositalar korxonaga bepul kelishi mumkin. Bunday asosiy vositalarning ham to'la kiringa olinishi, javobgar shaxslarga birlashtirilishi o'rganiladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining traktor, avtomobil, qishloq xo'jalik mashinalari bilan ta'minlanishi, ta'minot tizimi tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Texnik vositalar asosan korxonalar bilan ta'minot tashkilotlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olinadi.

Auditorlar qishloq xo'jalik mashina va qurollarining xo'jalikka kelishini tekshirganda oldi-sotdi munosabatlarida shartnomalarga muddat va baho jihatidan rioya qilinayotganligini o'rganadilar. Bunda texnik vositalarning olinishida, auditorlar ularning to'la komplekt kelishi, o'z vaqtida asosiy vositalar safiga kiringa olinib, javobgar shaxsga birlashtirilishiga alohida e'tibor berishi kerak. Ko'p hollarda traktor, avtomobillar, qishloq xo'jalik mashinalari va qurollari bilan komplekt ehtiyot qismlar, inventarlar keladi, ularning «Materiallar», «Kam baholi va tez to'ziydigan buyumlar» bosh schotlariga daromad qilinishi tekshiriladi.

Agar xo'jalikka asosiy vosita yuqori tashkilotning buyrug'i bilan keladigan bo'lsa, bunday operatsiyalar tegishli buyruqlar va ikkala xo'jalik o'rtasidagi asosiy vositalarni qabul qilish dalolatnomasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bu asosiy vositalar ham korxonada javobgar shaxslarga birlashtiriladi. Mamlakatimizda «Korxonalar (birlashma) haqida»gi qonunda ko'rsatilganidek, korxonalar ortiqcha asosiy vositalarini sotish huquqiga egadirlar.

Ko'p yillik daraxtlar ham asosiy vositalar sifatida qabul qilinadi. Bunda asosiy e'tiborni barpo etilgan bog'-rog'larning to'la gektarlar asosida bo'lishi hisobga olinishi lozim. So'ngra hosilga kirgungacha yosh daraxtlar xarajatlari, ayrim bog' tashkil qilingan maydonlar bo'yicha bo'lishligi qay tartibda hisobga olib borilganligi tekshiriladi. Shuningdek, bog' may-

donlari bo'yicha boshlang'ich balans qiymatining to'g'ri aniqlanishi chuqur o'rganiladi. Har bir barpo qilingan maydonlar kamida 10—15 gektar bo'lsa, yaxshi natija beradi, xuddi mulkiy asosiy vositalar singari, ular ham moddiy javobgar shaxslarga birlashtirilishi lozim. Eksploatatsiya o'z vaqtida mutaxassislar ishtirok etgan maxsus hay'at dalolatnomasi bilan qabul qilinishi kerak. Agarda asosiy vositalar kirimida kamchiliklar aniqlansa, javobgar shaxslar bo'yicha oraliq dalolatnoma tuziladi.

Audit davrida korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasidagi almashuvni ko'rish kerak. Ayrim hollarda, ba'zi korxonalarda asosiy vositalarning noto'g'ri, obyektiv talab darajasini hisobga olmasdan taqsimlash hollari uchrab turadi. Agarda asosiy vositalardan shaxsiy manfaatlarda foydalanish hollari uchrab qolsa, unda yetkazilgan zarar aniqlanib, javobgar shaxsdan to'la undirilishi lozim.

Asosiy vositalarning xo'jalikdan chiqishini audit qilish

Qishloq xo'jalik korxonasi va birlashmalarida asosiy vositalar ma'lum muddat davomida foydalanilgandan so'ng, ular eskirishi natijasida, xo'jalik hisobidan chiqariladi. Agarda xo'jalikdan asosiy vositalarning chiqishi sabablari o'rganilsa, ular quyidagi hollarda amalga oshiriladi: ko'p yillar ishlatilishi natijasida yaroqsiz bo'lganda, to'la eskirganda, ishlatishda samara bermay qolganda, sotilganda, bepul boshqa korxonalariga berilganda yoki tabiiy ofat tufayli, moddiy javobgar shaxslar mas'uliyatsizligi natijasida avariya bo'lganda, o'g'irlanganda xo'jalik balansidan chiqariladi.

Asosiy vositalar davlat korxonasi (birlashmasi) to'g'risida, jamoa xo'jaliklarida esa shu xo'jalikda qabul qilingan Ustavga muvofiq hisobdan chiqariladi. Asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi tekshirilganda xo'jalikda obyekt bo'yicha yoki har bir vositadan samarali foydalanilganligi hisobga olinishi lozim.

O'tkazilgan audit va auditdan maqsad asosiy vositalarning to'la eskirishidan oldin yoki samarali foydalanilmasdan avval xo'jalik balansidan chiqarib yuborilishining oldini olishdir. Shuning uchun ham audit doimiy va yil davomida bir tartibda amalga oshirilishi kerak. Amalda korxonalarda asosiy vositalar

yil oxirida bir marta balansdan chiqarilmoqda, lekin bu ishga yaroqsiz asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining oshib ketishiga sabab bo'layotir.

Asosiy vositalarning xo'jalik balansidan chiqishini audit qilganda eng asosiy e'tibor xo'jalik operatsiyasi sodir bo'lishdan oldin o'tkaziladigan auditga qaratilishi lozim. Tekshirishda asosiy vositalarning xo'jalik balansidan chiqishini rasmiylashtiruvchi hay'at bo'lishi kerak. Bunday hay'at korxonalarda rahbarning buyrug'iga muvofiq, jamoada esa a'zolar umumiy yig'ilishi yoki vakillar yig'ilishi qaroriga muvofiq tuziladi. Hay'at tarkibiga korxonah rahbarining o'rinbosari, bosh buxgalterlar va boshqa tarmoq mutaxassisleri kiritiladi.

Asosiy vositalarning xo'jalikdan chiqishini audit qilganda joriy audit shaklidan keng foydalanish zarur bo'ladi. Bunda auditorlar xo'jalik balansidan chiqarilayotgan asosiy vositalarning har birini texnik jihatdan haqiqiy holida ko'rishi lozim. Auditda asosiy e'tibor asosiy vosita qanday holatda va muddatda xo'jalik balansidan chiqarilayotganiga qaratiladi. Ayniqsa, paxtachilik xo'jaliklarida traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari, paxta terish mashinalari ko'p hollarda yetarli miqdorda ish bajarmasdan, faqat ularning xo'jalikda bo'lgan muddatiga qarab chiqarilish hollari uchrab turadi. Shuning uchun asosiy vositalar xo'jalikdan chiqarilayotganda ularning texnik pasportlari, yuritilishiga, dalolatnoma tuzilishi, tasdiqlanishiga katta e'tibor berilishi lozim.

Agarda asosiy vosita to'la eskirmasdan yoki o'zi bajaradigan ish hajmini bajarmasdan chiqarilayotgan bo'lsa, uning sabablari chuqur o'rganiladi. Xo'jalikdan chiqayotgan asosiy vositaga hisoblash amortizatsiya summasi to'g'ri hisoblanganligi tekshiriladi. Imorat va inshootlarning esa elementlariga (poydevori, devori va yopilishi) e'tibor beriladi. Agarda ko'p yillik daraxtlar 70 foizgacha siyraklashib hosil bermay qolganda ularni joriy audit qilish va xo'jalik balansidan chiqarish mumkin.

Hujjatli auditda xo'jalikdan chiqarilayotgan asosiy vositalarning hamma hujjatlari ko'riladi, bunda hay'at tuzilganligi to'g'risidagi buyruq yoki qarordan boshlab, audit qilinayotgan davrda balansdan chiqarilayotgan har bir asosiy vositalarning

texnik holati, foydalanish bo'yicha ko'rsatkichlari, xo'jalikdan chiqarish dalolatnomasi formasiga rioya qilinishi, dalolatnoma rekvizitlari tekshiriladi. Asosiy vosita xo'jalikka kelganidan chiqqaniga qadar qanday foydalanilganligiga e'tibor beriladi. Imorat va inshootlar xo'jalikdan chiqarilganda, ularni buzishdan olinadigan inventar va materiallarning to'la kirim qilinganligi tekshiriladi.

Agarda asosiy vosita xo'jalikdan tabiiy ofat natijasida chiqarilsa, uning uchun sug'urta qaytimi olinganligi yoki olinmaganligi tekshiriladi. Asosiy poda va ishchi hayvonlari xo'jalikdan chiqarilganda ularning boquvga qo'yilishi yoki to'g'ridan to'g'ri sotilishiga e'tibor beriladi. Bordi-yu ular so'yilgan bo'lsa, go'sht va go'sht mahsulotlarining to'la daromadga olinishi tekshiriladi. Asosiy vositalar sotilgan bo'lsa, unda uning korxonaga uchun zarur emasligi, ortiqchaligi, sotishda hay'at tomonidan bahoning to'g'ri belgilanishi, unga amortizatsiya summasining qay darajada hisoblanganligi audit qilinadi. Asosiy vositalarning xo'jalikdan chiqishi o'rganilganda ularning xo'jalikda bo'lishi va ishlatilishidan korxonaga qanday foyda yoki zarar kelganligi tekshiriladi.

Asosiy vositalardan foydalanishni tekshirish

Ma'lumki, korxonalar ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalardan mehnat qurollari sifatida foydalanadilar. Asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonlarida iste'mol qilinishi amortizatsiya ajratmalari summasi miqdorida amalga oshiriladi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan hisoblanadigan amortizatsiya summa normalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona normalar asosida hisoblanadi va bir tomondan, asosiy vositalar ishlatiladigan tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxiga kiritilsa, ikkinchi tomondan, jismoniy va ma'naviy eskirishni tiklash, asosiy vositalarni rekonstruksiya qilish, to'ldirish uchun korxonaga amortizatsiya fondi tashkil qilinadi. Auditorlar asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiyani shu nuqtayi nazardan tekshiradilar.

Amortizatsiya ajratmalari korxonalarda har oy amortizatsiya hisoblash vedomosti, hisoblangan amortizatsiya summalarini taqsimlash vedomostiga muvofiq, buxgalteriya hisobida aks ettirilishi mablag'lardan unumli maqsadlarda hamda qonuniy jihatdan foydalanilishi tekshiriladi.

Amortizatsiya summalarini hisoblashda asosiy e'tiborni ulardan unumli foydalanishga qaratish lozim bo'ladi. Bunda xo'jalikdagi asosiy vositalarning oy boshidagi qoldig'i, oy davomida kelishi, ketishi va qoldig'iga e'tibor beriladi.

Amortizatsiya summalari asosiy vositalarning turlariga qarab hisoblanib borilishi e'tiborga olingan holda, bino va inshootlar bo'yicha balans qiymatidan hisoblansa, unda traktor, qishloq xo'jalik mashinalari, avtomobillar bo'yicha norma asosida hisoblanadigan amortizatsiya summasi rejada ko'rsatilgan ish hajmiga taqsimlanadi, so'ng har bir ish birligiga hisoblanib, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga kiritilib boriladi. Auditorlar har bir xo'jalik bo'yicha ish birligiga etalon gektar (seyalkalar bo'yicha — ekilgan maydonga, kosilka va grabeller, kombaynlarga esa yig'ib olingan maydonga) to'g'ri belgilanganligini o'rganadilar.

Bu turdagi asosiy vositalardan foydalanishning unumli yoki unumsiz bo'lganligi har bir etalon traktor, avtomobil va kombaynlar bo'yicha yillik bajarilgan ish miqdori avvalo, reja, so'ngra esa bazis yoki oldingi yillarga taqqoslanadi. Auditorlar traktor, avtomobil, kombaynlar bo'yicha ulardan foydalanishning boshqa ko'rsatkichlari (smena koeffitsiyenti, yuk bilan bosilgan yo'l, norma-smena, bajarilgan ishlarning tannarxi)ni o'rganish asosida auditni amalga oshiradilar.

Auditorlar amortizatsiya ajratmalarini tekshirayotganda asosiy vositalar uchun hisoblanayotgan eskirish summalarining to'g'ri hisoblanayotganligini alohida o'rganadilar. Audit jarayonida asosiy e'tibor traktor, avtomobil, kombayn va qishloq xo'jalik mashinalari bo'yicha rejadagi amortizatsiya summasini, haqiqatdan bajarilgan ish hajmini hisobga olgan holda hisoblanishiga qaratiladi.

Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashni tekshirishda asosiy vositalarning xo'jalikka kelishi va ketishi hisobga olinadi. Qabul qilingan asosiy vositalar uchun amortizatsiya o'sha oydan keyingi oyning birinchi kunidan, xo'jalikdan

chiqqan asosiy vositalar bo'yicha esa balansdan chiqarilgandan keyingi oy birinchi kundan boshlab to'xtatiladi. Agar amortizatsiya kam hisoblangan bo'lsa, qo'shimcha hisoblanadi, agarda oshiqcha hisoblangan bo'lsa, unda «qizil yozuv» bilan korrektirovka qilinadi. Bunda ham bir asosiy vositalar uchun amortizatsiya hisoblash vedomosti tuziladi.

Hisoblangan amortizatsiya summalarining «Amortizatsiya fondi» bosh schot subschotlarida aks ettirilishi audit qilinadi.

Audit oxirida amortizatsiya fondi mablag'larining oborot mablag'lari turadigan agrosanoat bankidagi hisob schotda vaqtida qayd qilib turilishi tekshiriladi. Amortizatsiya ajratmalarini audit qilishda oldindan o'tkaziladigan, joriy va keyingi audit shakllarini uyg'unlashtirib audit tekshiruvini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy vositalarni ta'riflash uchun qilingan sarflarni tekshirish

Auditorlar asosiy vositalardan foydalanishni tekshirishda, ulardan ishlatilishi natijalariga qarab, ekstensiv yuklanishini va intensiv yuklanish koeffitsiyentlarini bilib hisoblab chiqsalar hamda buning uchun quyidagi formulalardan foydalansalar, maqsadga muvofiq bo'lur edi:

$$K_{\text{ekstensiv yuklama koeffitsiyenti}} = \frac{Tf - \text{asosiy vositaning belgilangan muddatda ishlagan vaqti}}{Tk - \text{asosiy vositaning kalendar yoki rejim fond vaqti}}$$

$$K_{\text{intensiv yuklama koeffitsiyenti}} = \frac{Pf - \text{haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan ish hajmi}}{Pn - \text{imkoniyatga ko'ra mahsulot ishlab chiqarilishi yoki bajarilishi mumkin bo'lgan ish hajmi}}$$

Bunday koeffitsientlar eng ilg'or texnologiya asbob-uskunalari, traktor va qishloq xo'jalik mashinalari uchun alohida-alohida hisoblab chiqilib, xulosaga kiritilishi lozim.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotganda asosiy vositalar o'zining fizik holatini saqlab qolgani holda asta eskirib boradi yoki detallari (qismlari) ishga yaroqsizlanib, butunlay ishlatib bo'lmaydi. Bunday holatlarda asosiy vositalar texnik qarovdan o'tkaziladi, joriy yoki kapital ta'mirlanadi va yaroqli holga keltiriladi.

Korxonalar esa bunday ishlarni bajarish uchun ma'lum xarajat qiladilar. Oldingi ikki ish, ya'ni texnik qarov va joriy ta'mir uchun sarflar asosiy faoliyat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, bu sarflar asosiy vositalar xizmat qiladigan tarmoq ishlab chiqarish bo'linmalari texnologik xarita, liniya-xarajatlarida ko'rsatilib, chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalardan samarali foydalanishning birdan-bir to'g'ri yo'li traktor parkining ta'mirlash ustaxonasini, avtomobil parkining ichki xo'jalik hisobiga ko'chirilishidir. Ichki xo'jalik hisobiga ko'chirilgan ishlab chiqarish bo'linmasining bajargan ishi shartnoma yoki baho asosida belgilanishi lozim. Bunda, albatta, ijara pudrati yoki jamoa pudrati kabi mehnatni tashkil qilish shakllaridan yaxshi natija kutish mumkin.

Asosiy vositalarni kapital ta'mirlash, yuqorida aytilganidek, amortizatsiya fondi hisobiga amalga oshiriladi. Kapital ta'mir sarflari har bir asosiy vosita bo'yicha alohida-alohida hisobga olinib, amortizatsiya fondidan qoplanadi. Tegishli schotlar ma'lumotlarini buxgalteriyaning joriy va yillik hisobotlaridagi ma'lumotlarga taqqoslash bilan audit tugallanadi.

Asosiy vositalar ta'mirini audit qilishda oldindan o'tkaziladigan, joriy va keyingi audit shakllaridan keng foydalanish mumkin. Agarda asosiy vositalar ta'mirini audit qilishda ayrim kamchilik yoki mulkni talon-taroj qilish faktlari aniqlansa, oraliq dalolatnomalari tuzilib, har bir moddiy javobgar shaxslar ko'rsatiladi. Audit tekshiruvining umumiy dalolatnomasida esa bunday dalillar umumlashtirilib yoziladi.

13- MAVZU: NOMODDIY AKTIVLARNING AUDIT TEKSHIRUVI

Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan fan-texnika yutuqlarini xo'jalik subyektlari faoliyatlarining ishlab chiqarishiga integratsiyalashish joriy qilinmoqda. Nomoddiy aktivlar buyumlashmagan bo'lib, korxonada foydalanish natijasida daromad keltiradigan ilmiy ishlanmalar, patentlar, savdo belgilari mualliflik ishlanmalar, adabiyot, san'at asarlari va EHM dasturlari, kashfiyot, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, foydali modellar, litsenzion shartnoma guvohnomalari, «Nau-xau» oid huquqlar misol bo'la oladi.

Nomoddiy aktivlar uzoq muddatli, ya'ni bir yildan yuqori bo'lishi mumkin. Ularning bir necha ishlab chiqarish siklida qatnashganligi sababli, ularga eskirish hisoblanadi. Mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxiga kiritilib beriladi.

Nomoddiy aktivlarni joriy buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirish O'zRSXIS—7 asosida olib borilishi lozim. Ularni baholash borasida dastlabki qiymat, tugatish qiymati, sotish qiymati, qoldiq qiymati, qoplash qiymatlarida hisobga olib boriladi.

Jurnal-order buxgalteriya hisobida 04- sonli «Nomoddiy aktivlar» schotida APK—13 shaklda hisobga olib boriladi. «Nomoddiy aktivlarning eskirishi» (passiv schot) foydalaniladi.

Ularni audit tekshiruvida kirim qilinishi hujjatlari shartnoma, foydalanish muddatlari, sotib olish qiymati korxonaga olib kelish, o'rnatish va boshqa xarajatlari qo'shib qiymatlari aniqlanishiga e'tibor berilishi lozim.

Nomoddiy aktivlarning kelish sohalari, sotib olinganda schot 0830 «Nomoddiy aktivlarini harid qilish» bepul olinsa schot 8530- «Bepul olingan mol-mulk» yuridik va jismoniy shakllardan olingan bo'lsa, unda schot 8330- «Ta'sischi

pay va qo'yimalari» schotlar kreditidan daromadga olinishini ko'zda tutish lozim. Bunda eng muhim masala nomoddiy aktivlarning saqlanishi, shartnoma munosabatlaridagi shartlarga mosligi, samaradorlik olishga qaratilishi lozim.

Nomoddiy aktivlarning xo'jalikdan chiqarilishi 9220-raqamli schot «Boshqa aktivlarning sotilishi va xo'jalikdan chiqishi»da aks ettirib boriladi.

Nomoddiy aktivlar qiymatining, korxonada faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilishi 0500-raqamli schot «Nomoddiy aktivlarning eskirishi» uchun tayinlangan registrlarida, uning kreditida xarajatlarni hisobga olib boruvchi schotlar debetiga yozib boriladi.

Eskirishni hisoblash asosiy vositalar singari bo'lib, farqi shuki, uning me'yoriy qismi foydalanish muddatiga muvofiq belgilanadi. Bu 92-raqamli schot «Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimlar hisobi debet schoti bilan yopiladi.

O'zRBXMS—7 ga muvofiq ularga eskirish quyidagi usullarda amalga oshiriladi: to'g'ri chiziqli usul — nomoddiy aktivlarni foydali ishlatishning butun muddati davomida eskirishning doimiy qiymatlarini hisoblab yozish; kamayib boruvchi usul bo'yicha — muntazam hisoblab yoziladigan qiymatlar foydali ishlatish muddati davomida kamayadi.

Eskirishning bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuliga ko'ra, amortizatsiya miqdori aktiv, faqat necha marta ishlatilishiga yoki qancha mahsulot birligini ishlab chiqarish kutilayotganiga bog'liqdir. Eskirish muddati 5 yildan oshiq emas qilib belgilangan.

14- MAVZU: MOLİYAVIY QO‘YILMALAR SARFLANISHINING TEKSHIRUVI

Kapital qo‘yilmalarni tekshirish tartibi va auditorlarning vazifalari

Kapital qo‘yilmalar korxonalar moliyaviy ishlab chiqarish faoliyatining asosiy qismi bo‘lib, ishlatilayotgan vositalarni to‘la tiklash, to‘ldirish hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirishga xizmat qiladi. Kapital qo‘yilmalarni tekshirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak, kapital qo‘yilmalarni rejalashtirishning ilmiy asosiy-ligini tekshirish, reja bajarish darajasini aniqlash, reja bajarilmagan bo‘lsa, uning sabab va omillarini topish, hisob-kitob va loyiha-smeta intizomiga rioya qilishni tekshirish, tugagan qurilishni qabul qilish tartibi bilan tanishish, kapital qo‘yilmaga mablag‘lardan maqsadga muvofiq foydalanayotganligini tekshirish. Bu vazifalarni hal qilishda kapital qo‘yilmalar rejasining haqiqiyliigi, loyiha-smeta hujjatlari, titul ro‘yxati, ta‘minot va pudrat tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma hamda moliyalashtirish manbalari tekshiriladi.

Auditor kapital qo‘yilmalarni rejalashtirishning to‘g‘riligini tekshirish vaqtida qo‘yilma — bu rejaga taalluqli bo‘lgan xarajatlar, kapital qo‘yilma reja (har bir quriladigan obyektlar va jami ishlar hajmi bo‘yicha), loyiha-smeta hujjatlarini (alohida obyektlar va qurilishning butun hajmi bo‘yicha loyiha moliyaviy hisob-kitoblar) hamda shartnomalarni tekshirib ko‘radi. Shuni ham hisobga olish kerakki, yuqoridagi hujjatlar joriy yil boshlanishigacha tuzilgan bo‘lishi kerak.

Ko‘pchilik hollarda, rejadagi kerakli hujjatlarni tayyorlashda, xatolarga yo‘l qo‘yiladi va bu xatolar kapital qo‘yilmalarni amalga oshirishga, shu maqsadga mo‘ljallangan mablag‘lardan samarali foydalanishga yomon ta‘sir qiladi. Shuning uchun yuqoridagi hujjatlardan kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish va boshqa rejali ta‘minotlarning xarajatdagi tartibiga rioya qilish tekshiriladi, jumladan, kapital qo‘yilmalarning

rejalashtirilgan miqdorini moliyalashtirish manbaiga to'g'ri kelishi, qurilishga mo'ljallangan obyektlar bo'yicha shartnoma va loyiha-smeta xarajatlarining borligi, ularning sifati, qishloq xo'jalik mashinalari, traktor va avtomashinalari hamda boshqa uskunalarni olib kelish bo'yicha ta'minot tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomaning mavjudligi va o'z vaqtida tayyorlanganligi, ta'minot hamda pudratchi tashkilotlar bilan shartnomaning o'z vaqtida tuzilganligi, ishga tushiriladigan obyektlarning titul ro'yxatiga keltirilganligi, shuningdek, tasdiqlanganligi tekshiriladi.

Auditorlar hujjatlarni amaldagi qonunga xilof ravishda rasmiylashtirilganligi, xo'jalikning ishlab chiqarish biznes-rejasiga kapital qo'yilmalarning miqdori noto'g'ri ko'rsatilganligini aniqlasalar, darhol bu kamchiliklarni tugatish choralarini ko'radilar. Shundan so'ng joriy yilda foydalanishga topshiriladigan qurilish obyektlarining reja ko'rsatkichlari bilan haqiqatda bajarilgan ishlar miqdori taqqoslanadi.

Auditning asosiy manbai sifatida ishlab chiqarish, moliya rejadan, o'tgan davrlarning hisobot ma'lumotlari va xo'jalikning kelgusida tashkiliy-xo'jalik tuzilishi rejasidan foydalaniladi. Shu ma'lumotlar asosida xo'jalikning asosiy vositalarning har bir turi bo'yicha ta'minlanganligi va loyiha bo'yicha asosiy vositalarga ehtiyoji aniqlanadi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil usuli bilan asosiy vositalarning strukturasi, fond bilan ta'minlanganligi va fond qaytimi, bino, inshoot, mashina, uskuna va boshqa obyektlardan foydalanish, yangilanish va hisobdan chiqarish koeffitsiyenti, har bir asosiy vositaning reja ko'rsatkichi hamda ulardan samarali foydalanishi aniqlanadi. Zarur hollarda, bu yerda mashina va uskunalarining texnik xarakteristikalaridan qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlarining fond sig'imi va boshqa ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Xo'jalikning keyingi yillardagi kapital qo'yilmalar rejasining bajarilish strukturasi va miqdori tahlil qilinadi. Bu tahlillar joriy yilga rejalashtirilgan kapital qo'yilmalarni obyektiv baholashga yordam beradi. Kapital qurilish rejalarining to'g'riligini tekshirishda mablag'lar obyektlar bo'yicha taqsimlanganligiga e'tibor berish kerak. Kapital qo'yilmalarning tarqab ketishiga yo'l

qo'ymaslik va qurilish boshlangan obyektlarni tezroq ishga tushirishdir.

Auditorlar yangi qurilish rejasini ko'rsatganda uning yil oxirida tugallangan ishlab chiqarishiga va boshqa qurilishlarga ta'sir qilmasligini tekshiradilar. Bunday vaqtda mablag'lar va pudrat ishlari qaratilgan ishlab chiqarish obyektlarini birinchi navbatda ishga tushirish va loyihadagi quvvatidan to'la foydalanishga e'tibor berish kerak. Shuningdek, yangi kapital qurilishni amalga oshirish turlari, pudrat va xo'jalik usulining to'g'ri rejalashtirilganligi ham tekshiriladi.

Mashina va uskunalarni olib kelish rejalari birma-bir tekshiriladi. Birinchi navbatda, moddiy-texnika vositalari berilgan talabnomalar o'rganiladi, chunki shular asosida xo'jalikda bor texnikaning soni, ishlar miqdorining rejasini va ularning ehtiyoji va moliyalashtirish bilan ta'minlanganligi aniqlanadi. Keyin esa, energetiklar bularni ishlab chiqarishi, moliya rejasini bilan mos kelishini o'rganadi. Ko'rsatkichlar o'rtasida farq bo'lsa, uning sababi aniqlanadi. Keyin har tomonga har bir mashina va uskunani olish rejasini, oldin xo'jalik bergan talabnomalardan farqi, talabnomada ko'rsatilgan va ishlab chiqarish, moliya rejasini bo'yicha haqiqiy ehtiyoj tahlil qilinadi. Bu ko'rsatkichlar o'rtasida farq yoki mashina uskunalarni noto'g'ri olish hollari aniqlansa, auditorlar ishlab chiqarish, moliya rejasiga tegishli o'zgartirishlar kiritishi yoki boshqa xo'jaliklarga qaytadan taqsimlanishni taklif qiladilar. Shuningdek, xo'jalikning boshqa tarmoqlari holatini va kelgusida rivojlanishini tahlil qilib, kapital miqdorini boshqa yo'nalishlar bo'yicha to'g'riligini aniqlaydilar. Jumladan, bog'dorchilik va ihotada daraxtlarini o'tqazish ishlari qanday amalga oshirilganligini o'rganadilar. Yer maydonlarining holati va uning yaxshilash imkoniyatlarini tekshirayotganda auditorlar sug'orish, qurilish va boshqa ishlarning to'g'ri miqdorini aniqlaydilar.

Qurilishning qiymati, kapital qo'yilmalarni olib kelish rejasining to'g'riligi alohida tekshiriladi. Buning uchun loyiha rassenkalari, ulgurji baholari, xo'jalik hisobida bajarilgan ishlarning tannarxi, yosh mollarni o'stirish va rejalashtirishning to'g'riligi o'rganiladi.

Keyin esa kapital qo'yimalarning rejali hajmini yangi moliyalashtirish bilan birga, uning alohida moliyalashtirish manbalari ham aniqlanadi (o'z mablag'larining budjet ajratmalari, uzoq, va qisqa muddatli bank kreditlari va boshqalar). Bunda xo'jalikning moliyaviy rejasi kapital qo'yimalarning rejasi bilan solishtiriladi.

Jamoa xo'jaliklarida kapital qo'yimalarning umumiy miqdori, jumladan, asosiy podani tashkil etish xarajatlari hamda kapital remont xarajatlariga e'tibor berildi, chunki korxonada bular uchun faqat kapital qo'yimlar va kapital ta'mir fondi yagona moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Davlat va xo'jaliklararo korxonalar hamda birlashmalarida moliyaviylashtirish kapital qo'yimlar, asosiy podani tashkil etish, kapital ta'mir bo'yicha alohida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu farqlarni kapital qo'yimlarni moliyalashtirish rejasini tekshirishda hisobga olish kerak.

Kapital sarflar rejasining bajarilishini tekshirish

Kapital qo'yimlarni tekshirish vaqtida bu sohaga oid rejanig bajarilishiga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun yil davomida kiritilgan o'zgartishlarni hisobga olgan holda, to'g'rilangan reja ko'rsatkichlaridan va taqqoslanadigan ko'rsatkichlar bo'yicha haqiqiy ma'lumotlardan foydalaniladi. Kapital qo'yimlar bo'yicha haqiqiy ma'lumotlar, 6- jurnal-order va 16a- vedomosti yoki «Kapital qo'yimlar», «Amortizatsiya fondi» bosh schotlardagi xarajatlar va moliyalashtirish summalari bo'yicha ishlatiladigan tegishli mashinagrammalardan foydalanildi.

Ba'zi xo'jaliklarda qurilish uchun vaqtinchalik yoki mavsumiy yollanma ishchilar qabul qilinadi. Bularga ish haqi alohida qurilish ishlarini bajarganligi uchun emas, balki obyektida barcha ishlar tugatilgandan keyin akkord ish haqi hisoblanadi. Bunday hollarda sarflangan ish haqi summasi normadagi ish haqi fondi bilan solishtirilib, uning ortiq sarflangan qismi aniqlanadi. Loyihada ko'rsatilmagan ishlarga naryad tuzilganligi aniqlansa, alohida tuzilgan qaydnomada ishning nomi, rassenkasi va hisoblangan ish haqi ko'rsatiladi.

Bunday ishlarni o'rganish natijasida obyektlarni qurishda mablag'larning noto'g'ri sarflanishi yoki qo'shib yozishlar aniqlanadi. Qurilish materiallari loyiha bilan solishtiriladi; bu solishtirish farqlarning sababini aniqlashga yordam beradi. Bunday hollarda «Qurilish materiallari va o'rnatiladigan uskunalar» hamda «Kapital qo'yilmalar» bosh schotining ma'lumotlari solishtiriladi.

So'ngra qurilish materiallarining har bir obyekt va ishlarga sarfi bilan loyiha bo'yicha normadagi sarfi taqqoslanadi. Obyektlarga sarflangan materiallarning haqiqiy miqdori, zarur hollarda, muhandis va boshqa qurilish mutaxassislari jalb qilinib, audit o'lchovdan o'tkaziladi.

Bilvosiga xarajatlar obyektlarga to'g'ri taqsimlanishi kerak. Buning uchun bu xarajatlarni alohida analitik schotlarda aks ettirishda qo'llaniladigan xarajat moddalari va ulardagi yozuvlarning to'g'riligi, qurilish mashina va mexanizmlarining soni to'g'risida ma'lumotlar, ish soati, qurilishga xizmat ko'rsatuvchilar soni, ishni tashkil qilish bo'yicha xarajatlar, kamchiliklar protokollarda hamda boshqa hujjatlarda aks ettiriladi va tezda bu kamchiliklarni tugatish ustidan audit o'rnatiladi.

Auditorlar maxsus analitik jadvallardagi tahlil natijalarini va rejaning bajarilishini ko'rsatadilar. Audit jarayonida hisob-hisobot ma'lumotlari birma-bir tekshiriladi. Buning uchun yuqorida aytib o'tilgan registrlardan «Kapital qo'yilmalar» bosh schotining yozuvlari tekshiriladi. Birinchi navbatda, xo'jalik usulida bajarilgan ishlar miqdorining to'g'ri aks ettirilganligiga e'tibor berish kerak. Buning uchun har bir xarajat moddalari, ularning to'g'ri ochilganligi, boshlang'ich hujjatlardagi summalar va korrespondensiyalanuvchi schotlardagi yozuvlari tekshiriladi. Ayniqsa, ish haqi (mehnat haqi) fondi va qurilish materiallarining sarflanishiga e'tibor beriladi.

Ish haqi fondining to'g'ri ishlatilganligi, uning haqiqiy sarflangan summasi loyihadagi summa bilan solishtirilib, ishbay ishlar uchun tuzilgan naryadlarni o'rganiladi (bunda ishni bajaruvchi va bajarilgan ishlar miqdori, rassenka va hisoblangan summalarining to'g'riligi) va alohida obyektlarda audit o'lchov orqali tekshiriladi. Ba'zi xo'jaliklarda qurilish uchun vaqtinchalik yoki mavsumiy yollanma ishchilar qabul qilinadi. Bularga ish haqi alohida qurilish ishlarini bajarganligi

uchun emas, balki obyektida barcha ishlar tugatilgandan keyin akkord ish haqi beriladi. Bunday hollarda, sarflangan ish haqi summasining normadagi ish haqi fondi bilan solishtirilib, uning ortiq saqlangan qismi aniqlanadi. Loyihada ko'rsatilgan ishlarga naryad tuzilganligi aniqlansa, alohida tuzilgan qaydnomada ishning nomi rassenkasi va hisoblangan ish haqi ko'rsatiladi.

Shundan keyin qurilish materiallarining har bir obyekt va ishlarga haqiqiy sarfi bilan loyiha bo'yicha normadagi sarfi taqqoslanadi. Obyektlarga sarflangan materiallarning haqiqiy miqdori, kerakli hollarda, muhandis va boshqa qurilish mutaxassisleri jalb qilinib audit o'lchovidan o'tkaziladi.

Bilvosita xarajatlar (qurilish mashina va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilish hamda nakladnoy xarajatlar) to'g'ri aks ettirilishi va obyektlarga to'g'ri taqsimlanishi kerak. Bunda xarajatlarni alohida analitik schotlarda aks ettirishda qo'llaniladigan xarajat moddalari va ulardagi yozuvlarning to'g'riligi, qurilish mashina va mexanizmlarining soni to'g'risidagi ma'lumotlar, ish soati, qurilishga xizmat ko'rsatuvchilar soni, ishni tashkil qilish bo'yicha yoki xarajatlar tizimlari tekshiriladi. Ayniqsa, kapital qurilishning unumsiz xarajatlari alohida o'rganiladi, chunki bu xarajatlar ko'pincha moddiy javobgar shaxslar yo'l qo'ygan kamomad va o'g'irliklarni yashiradi. Pudrat usulida bajarilgan qurilish ishlarining haqiqiylikini tekshirishda bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish dalolatnomasi asosiy manba hisoblanadi. Odatda, hisob-kitoblar har bir tugagan qurilish bosqichi bo'yicha olib boriladi, shuning uchun ishlar miqdorining to'g'riligini aniqlash ancha qiyin. Bunday hollarda audit o'lchov o'tkaziladi va bu dalolatnomaga pudrat tashkiloti ham imzo chekadi. Dalolatnoma asosida pudrat tashkiloti qonunsiz olingan summani qaytarish to'g'risida talabnoma yozadi.

Montaj qilish talab qilinmaydigan mashina va uskunalarni olib kelish miqdori tekshirilganda, «Kapital qo'yilmalar» schotining yozuvlari, asosiy vositalarni qabul qilish dalolatnomasi schot, faktura va boshqa hujjatlar bilan solishtiriladi. Kapital qo'yilmalarning boshqa yo'nalishlari bo'yicha hisob ma'lumotlari ham shu tartibda tekshiriladi.

Kapital qo'yilmalar rejasini bajarishning auditi faqat reja va haqiqiy ko'rsatkichlarni taqqoslash, rejaning bajarilish darajasini aniqlashdan iborat emas, bu yerda yana rejaning har bir obyektlar bo'yicha bajarilishi, bajarilmagan bo'lsa, buning sabablari hamda bu obyektlarni o'z vaqtida ishga tushirishga javobgar shaxslar, shuningdek, ishchilar ham audit dalolatnomasida yoki tekshirish ma'lumotnomasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Kapital qo'yilma mablag'larning maqsadga muvofiq ishlatilishini tekshirish

Ma'lumki, biznes-rejaga muvofiq kapital qo'yilmalar mo'ljallangan maqsadlarni ko'zda tutadi. Kapital sarflarga ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanish uchun shartnomaga, loyiha-smeta hujjatlariga va hisob-kitob intizomiga qattiq rioya qilish lozim bo'ladi. Korxonalar material-texnika ta'minoti korxonalari bilan tuzilgan shartnomalarni o'z vaqtida va to'g'ri instruksiya asosida tuzganligiga e'tibor beriladi. Ayniqsa, shartnomadagi ishlar miqdorining kapital sarflar rejasidagi miqdorga to'g'ri kelishi, shartnomadagi ko'rsatilgan muddatlarga rioya qilinishi, sanksiyalarning qonun asosida qo'llanilishi hamda tuzilgan shartnomaning yangi tartib qoidalarga mos kelishiga diqqat qilinadi. Agar shartnoma tuzish vaqtida ta'minotchi bilan xo'jalik o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa, bu kelishmovchilikni hal qilish uchun arbitrajga yoki xo'jalik sudiga murojaat qilinadi.

Loyihalash tashkilotlaridan olingan smeta hujjatlari ko'rsatkichlari berilgan buyurtmaga to'g'ri kelishi, smeta texnologik yechimlarning har bir obyektlar bo'yicha to'liq bo'lishi, loyiha-smeta hujjatlari o'z vaqtida va kerakli miqdorda xo'jaliklarga berilishi kerak. Qishloq qurilishlari, odatda, korxonalar buyurtmasi bo'yicha loyihalash tashkilotlari tuzgan zamonaviy loyiha asosida amalga oshiriladi. Auditorlar bunday buyurtmalarning o'z vaqtida berilishini, loyihalash tashkilotchilari bilan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishini loyiha-smeta ishlarining to'g'riligini tekshiradilar.

Kapital qo'yilmalarning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi xo'jalikning moliyaviy rejasi asosida, o'z mablag'larini hisobga olgan holda tekshiriladi. Bunday korxonada rejalashtirilayotgan yilda ajratmalar, kapital qo'yilmaga tegishli amortizatsiya ajratmalari va boshqa manbalar har bir turi bo'yicha aniqlanadi.

Kapital qurilishda va asosiy vositalarni sotib olishda qabul qilingan hisob-kitoblar ham tekshiriladi, chunki bu hisob-kitoblarda ilg'or hisoblash formalarini qo'llash yaxshi samara beradi. Dastlabki auditda qurilish materiallarini sarflashda ishlatiladigan boshlang'ich hujjatlar, bajarilishi kerak bo'lgan ishlar uchun tuzilgan naryadlar, yollanma ishchilar bilan tuzilgan shartnomalar hamda mashina va mexanizmlar olish naryadlari tekshiriladi. Masalan, so'ralgan qurilish materiallarini berish, qilinadigan ishlarning xarakteri va miqdori, alohida materiallarni sarflash me'yori loyiha ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Naryadlar yozish va alohida ishchilar bilan shartnoma tuzish vaqtida ish haqi fondining sarfi ham shu tartibda tekshiriladi. Ta'minot tashkilotlaridan rejasiz mashina va uskunalar olish naryadi alohida tekshiriladi. Chunki, ko'pincha bu operatsiyalar har xil suiiste'mollarni yashiradi.

Shartnoma, loyiha-smeta va hisob-kitob intizomi joriy audit tartibida tekshiriladi. Shuningdek, naryad va ta'minotchilarning shartnoma asosida olgan majburiyatlari bajarilishi ham o'rganiladi. Bunda operativ holda qurilish-montaj-texnika vositalarini yetkazib berish audit qilinadi. Bajarilgan qurilish ishlarining muddati, miqdori va sifati, moddiy-texnika ta'minoti tartibiga rioya qilish, mashina va uskunalarni o'z vaqtida va kompleks yetkazish alohida audit ostida bo'ladi. Ko'pchilik hollarda, korxonalarda qurilish-montaj ishlari va moddiy-texnika vositalarini kech yetkazib berish, bir mashina o'rniga boshqasini, buyurtma berilmagan vositalarni kompleksiz yetkazib berish va boshqa shartnoma shartlarini buzish hollari uchraydi. Shartnoma majburiyatlarining buzilishi hollari aniqlangan vaqtda to'lov, jarima va boshqa choralar ko'rish uchun takliflar kiritiladi.

Bajarilgan ishlar va olingan material, texnika vositalari uchun hisob-kitob operatsiyalarining to'g'riligi, tartibi va to'lash muddati tekshiriladi. Jumladan, qurilish-montaj ishlari

uchun hisob-kitoblarda ko'pchilik hollarda qo'shib yozishga yo'l qo'yiladi. Bu qo'shib yozishni faqat audit o'lchov yordamida aniqlash mumkin. Qurilish-montaj ishlarini audit o'lchash juda sermehnat ish, shuning uchun uni qurilish davom etayotganda o'tkazish kerak. Qurilish tugagandan keyin o'lchash uchun auditoridan juda katta miqdorda ish bajarish talab qilinadi.

Audit o'lchovning natijasi oraliq audit dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi, bu dalolatnomaga auditor, buyurtmachi va pudratchilarning vakillari qo'l qo'yadilar. Audit o'lchov dalolatnoma asosida xo'jalik bajarilgan qurilish-montaj ishlari uchun hisoblangan summalarni qaytarish yoki ushlab qolish uchun choralar ko'radi.

Xuddi shunday tartibda shartnomaga, loyiha-smeta va hisob-kitob intizomiga rioya qilish aniqlanadi. Asosiy e'tibor u yoki bu kapital qo'yilmani qonuniy amalga oshirilganligini, rejalarni, shartnomalarni, loyiha-smeta hujjatlarini, titul ro'yxatlarini va moliyalashtirish rejalarining borligini tekshirishga qaratiladi. Rejasiz qurilgan obyektlar va sotib olingan vositalarni moliyalashtirish manbai, moddiy-texnika ta'minoti birma-bir tekshiriladi, chunki bu operatsiyalar ortida korxonalar mablag'ini qonunsiz o'zlashtirish fakti bo'lishi mumkin. Rejasiz kapital qo'yilmalarni amalga oshirish vaqtida mablag'larning maqsadsiz va noto'g'ri ishlatilishiga aybdor kishilarga auditorlar taklifiga ko'ra ma'muriy, mulkiy yoki boshqa jazo qo'llaniladi. Ta'minotchi va pudratchining xo'jalikdan noto'g'ri olgan summasi aniqlansa, bu summani undirib olish uchun norozilik dalolatnomasi arbitraj organlari, xo'jalik sudiga berilishi kerak.

Kapital qurilishning alohida obyektlarni to'xtatish yoki tugatishning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi uning loyiha qiymati, ishlab chiqarishga tayinlanishi va undan foydalanish yo'llari asosida tekshiriladi. Bu ishlarning hammasi audit oraliq dalolatnomasida ko'rsatildi.

15- MAVZU: ASOSIY ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXINING TEKSHIRUVI

Hammamizga ma'lumki, tadbirkorlik faoliyatida tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning dastlabki ish davri ishlab chiqarish jarayonidan boshlanadi. Shu sababli, bu jarayonda jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash, Alloh taolo in'om qilgan resurslarni mehnat jarayoni bilan moslashtirish davrida ushbu munosabatga ehtiyotkorlik, ekologiyani saqlash birlamchi maqsad ekanligi, uning mulkiy munosabat ekanligini his qilish vazifasi turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003- yil aprel oyidagi sessiyasida, respublikamizda «Nodavlat kredit uyushmalari haqida» qaror qabul qilindi. Bu uyushmaning maqsadi, aholi va mehnatkashlardagi bo'sh mablag'larni kredit manbasi sifatida jalb qilishdan iborat.

Auditor ushbu kreditning prinsiplarga qancha mos ekanligini, raqobatlar kurashida hisoblanadigan foizlarni, olinish tartib-qoidalari va o'z vaqtida qaytarilishi yuzasidan taqqoslash asosida xulosa va ularni takomillashtirish jihatidan xulosa berishi lozim.

Mamlakatimizda tub iqtisodiy islohotlar va xo'jalik subyektlarini tashkil qilish, ish yuritishning qonuniy bazalari ishlab chiqilib, chet el investorlari tomonidan ishlab chiqarilgan sarmoyalarning kirib kelishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

16-MAVZU: DEHQONCHILIKDA AUDIT TEKSHIRUVINI TASHKIL QILISH

Dehqonchilik bo'yicha auditning xususiyatlari oldingi mavzuga bog'liq bo'lib, unda ishlab chiqarish davri bilan ish davrining bir-biriga mos kelmasligi natijasida mavsumiylik paydo bo'ladi. O'z navbatida, har bir ekin turi bo'yicha biznes-rejadagi texnologik jarayonlar bilan haqiqiy bajarilishi lozim bo'lgan agrotexnika tadbirlarining ish turlari hamda bajarishning agrotexnik muddatlari ko'rsatilgan texnologik zanjirli-intizomga rioya qilinishi vaqt va sifat jihatidan ko'rib chiqilishi zarur bo'ladi. Masalan, paxtachilikda g'o'za parvarishi qishloq va suv xo'jaligi mutaxassislari tomonidan ishlangan texnologiyalarga muvofiq 120—125 xildagi ishlar-ning bajarilishini ko'zda tutadi. Shu ishlar bo'yicha chuqur tahlil kerak bo'lsa, har bir ishda yuqorida ko'rsatilgan ishlar-ning bajarilishi alohida-alohida tahlil qilinishi lozim.

Boshqa ekinlar bo'yicha ham shunday tartibda iqtisodiy-operativ tahlil o'tkazilishi lozim. Bunda ichki audit tekshiruv korxonada doirasidagi ishlab chiqarish bo'limlarining ko'rsatkichlari ilg'or, o'rta va qoloq bo'lganlari bilan taqqoslanib, ichki audit xulosasiga kelish mumkin.

Agarda tashqi audit amalga oshiriladigan bo'lsa, unda auditor ilg'or xo'jaliklar, ilg'or texnologiyalar bilan taqqoslanib o'rganilishi kerak. Shu bilan ishlab chiqarish bo'linmalari mutaxassislar va butun jamoaning hisobot davri uchun iqtisodiy va moliyaviy baholash omillarini miqdor va nisbiy miqdor ko'rsatkichlarda ta'sir doirasini o'rganib, auditorlik xulosasiga kelish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dehqonchilikka ixtisoslashgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari, navlari bozor talabiga

mos kelishi nuqtayi nazaridan ham fikrlab ko'rishi va zarur takliflarni berishi mumkin.

Audit tekshiruvini o'tkazishda eng muhim manba sifatida texnologik kartalardan tashqari operativ-texnika uchyot ma'lumotlari hamda xo'jalik operatsiyalarining bajarilganligini isbotlovchi dastlabki uchyot ma'lumotlari:

a) hujjatlar; b) moddiy javobgar shaxs yoki ishlab chiqarish bo'linmasining daromadlar va xarajatlar daftari ko'rsatkichlari; d) yuqoridagi shaxsning korxonaxarajalari bo'yicha topshiradigan hisobotlaridan taqqoslash usulida keng foydalaniladi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligida oila ijara pudratining keng joriy qilinganligi sababli ma'muriyat bilan pudratchi o'rtasidagi qonun kuchiga ega bo'lgan shartnomalarda ko'rsatilgan shartlarning vaqt, texnologiya, mahsulot miqdorlari, ularni aks ettiruvchi "chek tizimi sistemasi" hamda ekin turlariga ochilgan analitik schotlarning ma'lumotlaridan keng foydalanish lozim bo'ladi.

Shartnoma munosabatlari va chekda ko'rsatilgan limit xarajatlarning tabiatga bog'liq ravishda o'zgarishi va chekdagi limitlarga obyektiv sabablar asosida o'zgarishlari auditor tomonidan alohida hisobga olinishi lozim.

Dehqonchilik sohasining audit tekshiruvida agronom, gidrotexnik, yer tuzuvchi, mexanik-muhandislar hamda tajribali dehqonlar ham auditorning taklifiga muvofiq ishtirok etishi foydadan holi bo'lmaydi. Bu masalaning zarur jadvallari amaliy mashg'ulotlar to'plamida keltirilgan.

17- MAVZU: CHORVACHILIKDA AUDIT TEKSHIRUVINI TASHKIL QILISH

Audit qilish tartibi hamda auditorlarning vazifalari

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish vazifasini amalga oshirishda chorvachilik tarmog'i salmoqli o'rin tutadi. Shuning uchun bu muhim tarmoqning rivojlanishiga alohida e'tibor berilishi lozim. Chorva mollari-ning sonini va ulardan olinadigan mahsulotlarni audit qilish-ning asosiy vazifalari: chorva mollari bosh sonining to'la saqlanishini, mollarni boqish va oziqlantirish sharoitini, poda oboroti hamda zotining yaxshilanishini, mollarning xo'jalikka daromad qilinishini hamda ularning katta guruhlarga ko'chirilishida, band qilinishida va xo'jalikdan chiqarilishida amal-dagi tartibga rioya etilishini hamda chorvachilikda zootexnika va buxgalteriya hisobining to'g'ri yo'lga qo'yilishini tekshi-rishdir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun auditorlik ishlarini quyidagi ketma-ketlikda olib borish tavsiya etiladi. Avvalo, xo'jalikda chorvachilik tarmog'ining tashkil etilishi, chorva mollarining moddiy javobgar shaxslar qaramog'iga birlashtirish tartibini, ularni saqlash, oziqlantirish sharoitini o'rganib chiqish lozim. Keyin inventarizatsiya o'tkazish bilan mollar bosh sonining to'la saqlanishi tekshiriladi. Bu ishlar tugatilgach, xo'jalikka kelayotgan mollarning to'liq va o'z vaqtida daromad qilinishi, poda oboroti rejasining bajarilishi tekshiriladi. Bunda mollarni majburan so'yish va ularning harom o'lishi hollariga alohida e'tibor berish lozim.

Chorva mollarining xo'jalikda joylanishi, ularni saqlash va oziqlantirish sharoitlarini tekshirish

Xo'jalikda chorva mollarining auditini o'tkazishda, avvalo, ularning xo'jalik hududi bo'ylab joylanishi va moddiy javobgar shaxslarga birlashtirilish tartibi bilan tanishish, keyin

esa, ularni saqlash hamda oziqlantirish sharoitlarini o'rganish lozim. Oldindan o'tkaziladigan auditda xo'jalikning joriy va biznes-rejalarida chorvachilikni rivojlantirishga qanday ahamiyat berilayotganligi, mollarni alohida yosh va jins guruhlari bo'yicha qaysi fermalarda joylashtirish, mehnatni tashkil etishning, saqlanishining qanday shakl va tizimlarini qo'llash rejalashtirilayotganligi, chorvachilik binolari, ularni mashina va uskunalar bilan ta'minlash bo'yicha qanday tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilayotganligi tekshirib ko'riladi.

Xo'jalikda chorvachilikni rivojlantirishning zaxiralarini aniqlash uchun o'rganilgan bir necha yillarning ko'rsatkichlarini ilg'or xo'jaliklar natijalari bilan solishtirib ko'rish bilan chorvachilikda rivojlangan texnologiya hamda mollarni saqlash va oziqlantirishning ilg'or usullarini qo'llash imkoniyatlari qidirib topilishi zarur. Chorva mollari inventarizatsiyasining rejali ravishda o'tkazilib turishini tekshirish uchun hisob va audit xodimlarining zarur buxgalteriya hamda zootexnik hisobi hujjatlari bilan ta'minlanganligi o'rganiladi.

Joriy audit davomida chorva mollarini xo'jalik hududi bo'yicha qanday joylashtirish, chorvachilik binolari kapital qurilishi rejalarining bajarilishi, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalanish darajasi, chorvachilik binolarida zooveterinariya talablariga qay darajada amal qilinishi tekshiriladi.

Buning uchun joriy hisob ma'lumotlarini tekshirish bilan birga, mollar bosh soni, yem-xashak va oziq qoldiqlari inventarizatsiya qilinadi, mollarni haqiqiy oziqlantirish darajasi ratsion orqali tekshiriladi. Buzoqlarning va chetdan sotib olingan mollarning to'liq va vaqtida daromad qilinishini, ularning alohida moddiy javobgar shaxs qaramog'iga birlashtirilishini joriy audit qilib borish chorva mollarining to'liq saqlanishini ta'minlashda katta samara beradi.

Hujjatli auditda chorvachilik tarmoqlarining joylashishi, ixtisoslashuvi va konsentratsiyalanishi, reja ko'rsatkichlarining asosiligi, uning bajarilish darajasi, chorva mollarining xo'jalik territoriyasi bo'yicha haqiqiy joylanishi, mollarni saqlash sharoiti va oziqlantirish darajasi o'rganiladi. Tekshirishda xo'jalikning ishlab chiqarish moliya rejasi va yillik hisoboti ma'lumotlaridan, chorva mollari harakatini hisobga olish

daftari, inventarizatsiya ro'yxati, yem-xashak sarflash vedomosti, chorva mollari va parrandalar harakati to'g'risidagi hisobot hujjatlaridan hamda zootexnik hisobi registrlari ma'lumotlaridan keng foydalaniladi.

Chorva mollarining saqlash holatini to'laroq aniqlash uchun audit davomida qayta audit inventarizatsiyalar o'tkazish tavsiya etiladi. Inventarizatsiyada ortiqcha chiqqan chorva mollari xo'jalik hisobiga kirim qilinadi, kamomad esa aybdor shaxslar zimmasiga yozilib, undirib olinadi.

Inventarizatsiya natijalariga oraliq dalolatnoma tuzilib, keyin bu ma'lumotlar audit umumiy dalolatnomasiga qo'shiladi.

Chorva mollarining xo'jalikka daromad qilinishini tekshirish

Chorva mollarining bosh sonini va harakatini audit qilishda, tekshirilayotgan davr mobaynida xo'jalikka qo'shilgan barcha mollarning to'liq va o'z vaqtida daromad qilinishini diqqat bilan kuzatish lozim. Xo'jalikka chorva mollarining qo'shilishi yo'llari — bu xo'jalikning o'z chorva mollaridan nasl olish, aholidan va boshqa xo'jaliklardan sotib olish hamda boqilayotgan mollarning tirik vaznini o'stirish. Chorva mollarining ko'payishini doimiy ravishda oldindan joriy va hujjatli audit qilib borish zarur. Chorva mollarining oldindan o'tkaziladigan auditi xo'jalikda zootexnika va buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan amalga oshiriladi.

Joriy auditda xo'jalik chorva mollaridan olingan nasllarni va sotib olingan mollarni to'satdan inventarizatsiya qilish usulidan ko'proq foydalanish zarur. Bu inventarizatsiya natijalari hisob ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rib, xo'jalikka qo'shilayotgan chorva mollarining kirim qilinishining to'liqligi aniqlanadi. Chorva mollarining ko'payish davrida, sotib olingan mollar xo'jalikka qo'shilgan paytda bunday inventarizatsiyalar o'tkazish katta samara beradi. Joriy audit davomida tekshirishning inventarizatsiya o'tkazish usulini hujjatlar asosida qo'shib olib borish auditning obyektivligini oshiradi va xo'jalikda chorva mollarining saqlanishi to'g'risida yetarlicha to'liq ma'lumot olish imkonini beradi. Xo'jalikda

chorva mollarining ko'payishi va ularning to'g'ri daromad qilinishini hujjatli audit qilishda, birinchi navbatda, mollarning qochirish vaqti yoziladigan jurnaldan ularning tug'ish payti aniqlanadi. So'ngra buzoqlarni kirim qilish dalolatnomasi, hayvonlar va parrandalar harakatini hisobga olish daftari ma'lumotlari bilan bu ma'lumotlar solishtirib ko'rib, tug'ilgan buzoqlarning to'g'ri kirim qilinishi aniqlanadi.

Tug'ilgan buzoqlarning to'liq va o'z vaqtida kirim qilinmaslik faktlarini, yem-xashak sarflash qaydnomasi ma'lumotlarini mollarning bosh soni ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rib aniqlash mumkin. Tekshirishda, shuningdek, hisobda buzoqlarning tirik vaznining to'g'ri ko'rsatilishiga ham ahamiyat berish mumkin. Amalda mollar tirik vaznining o'sishiga yuqori ish haqi olish uchun yangi tug'ilgan buzoqlarning vaznini kamaytirib ko'rsatish hollari uchraydi. Bunday suiiste'mol hollari yosh mollarning tug'ilgandagi hisobda ko'rsatilgan vaznini normativ vazniga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Yangi tug'ilgan hayvon va parranda bolalarining normativ vaznlari: buzoq — 20—30 kg, cho'chqa bolasi — 0,8—1,2 kg, qo'zi va uloq — 2—4 kg, jo'ja — 35 gr, o'rdak va tovuq — 50 gr, g'oz jo'jasi — 100 gr. Audit davomida kirim qilinmagan hayvon bolalari aniqlangan faktlarga alohida vedomost tuzish lozim.

Aholidan qat'iy shartnoma asosida sotib olingan mollarning to'liq va o'z vaqtida daromad qilinishini aniqlash uchun sotib olish dalolatnomasi har tomonlama o'rganib chiqilib, bu hujjat ko'rsatkichlari yem-xashak vedomosti, mollar vaznini o'lchash vedomosti, hayvonlar va parrandalar harakati haqida hisobot va bu harakatlarni hisobga olish daftari ma'lumotlari bilan solishtirib tekshiriladi. Bunda sotib olingan mollar bosh sonining qanchaligini aniqlash bilan birga, ularning tirik vaznining to'g'ri ko'rsatilishini ham tekshirish kerak, buning uchun bir davrda tuzilgan qat'iy shartnoma dalolatnomalari hayvonlarning vaznini o'lchash vedomosti bilan solishtirib ko'rish lozim. Zarur hollarda esa, qayta audit inventarizatsiya (mollarning inventar raqamlari bo'yicha) o'tkaziladi. Boshqa xo'jaliklardan sotib olingan mollarning to'liq kirim qilinishini tekshirish ham xuddi shu tartibda amalga oshiriladi.

Yosh chorva mollarining katta guruhlarga o'tkazilishini tekshirish

Chorva mollarining harakatini audit qilishda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish, sotish shartnoma va buyurtmalarining bajarilishini, hayvonlar bosh sonining o'sishini hamda ularning naslini yaxshilashni ta'minlovchi iqtisodiy, tashkiliy va ishlab chiqarish texnologik tadbirlar tizimining ishlab chiqilganligini tekshirish lozim. Xo'jalikda podadagi sigirlarni qochirishda zootexnika talablariga amal qilinishiga alohida ahamiyat berish zarur. Buning uchun bir necha yillik ma'lumotlar: hayvonlarning o'rtacha nasl berishi, ularning o'rtacha saqlanish foizi, qochirishga qo'yilishining o'rtacha muddatlari asosligi aniqlanadi. Oldindan o'tkaziladigan auditda, chorva mollaridan yalpi nasl olish davri boshlanishi oldidan, xo'jalik fermalari, otarlarining bu mavsumga shayligi tekshiriladi (sutka davomida navbatchilik tashkil qilinishi, tug'ish bo'limlarini tayyorlash va boshqalar). Joriy audit davomida hayvonlarning katta guruhlarga o'tkazilishini, bu operatsiyalarni amalga oshirish muddatlarini doimiy ravishda tekshirib borish katta samara beradi. Bunda auditorlar yosh chorva mollarinnig o'z vaqtida kirim qilinishini, podani to'ldiruvchi yosh mollarning asosiy podaga ko'chirilishini va qari hayvonlarni asosiy podadan «berk» qilish operatsiyalarini tekshirib borishlari lozim. Alohida shaxslar tomonidan asosiy podaning mahsuldorligini oshirib ko'rsatish uchun nasl bergan yosh hayvonni asosiy podaga ko'chirilmaligi yoki mahsuldor mol qalbaki ravishda boquvdagi mollar guruhiga «o'tkazilishi» mumkin. Shuning uchun asosiy podani to'ldirish uchun mo'l-jallangan yosh mollarning bosh sonini, mahsuldor hayvonlarning asosiy podadan berkitilinishini tekshirish kerak.

Hayvonlarning katta guruhlarga ko'chirilishining hujjatli auditi «O'stirishdagi yosh va boquvdagi chorva mollari» hamda «Asosiy vositalar» bosh schotlar ma'lumotlari, hayvonlarni guruhdan boshqa guruhga o'tkazish dalolatnomasi, shuningdek ishlab chiqarish, reja, buxgalteriya va statistik ma'lumot, zootexnik hisobi registrlari ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Buxgalteriya schotlaridagi yozuvlarni bir guruhdan boshqa guruhga o'tkazish dalolatnomasining

ma'lumotlarini tekshirish bilan, bu operatsiyalarning realligi va maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Hayvonlarning katta guruhlarga o'tkazilishini tekshirishni ularning inventar raqamlari bo'yicha, kichik yosh guruhidan boshlab, to ularni asosiy podaga yoki boquvdagi podagacha bo'lgan harakatini o'rganish asosida amalga oshirish lozim. Bunda tug'ilgan paytda kirim qilinmagan hayvon bolasi keyinchalik fermada hayvonlar va parrandalar harakati hisobotiga qo'shilishi hollari uchrashi mumkin. Bunday hollarda bu mollarni xo'jalikka daromad qilish, o'lgan hayvonlarga dalolatnomalarning rasmiylashtirishini va aybdor shaxslarni aniqlash zarur.

Ba'zi hollarda, masalan, alohida mol guruhlaridan olingan mahsulot miqdorini oshirib ko'rsatish uchun, hayvonlarni guruhdan boshqa guruhlarga qalbaki ravishda ko'chirish faktlari uchraydi. Bunday faktlar uchraganda hayvonlar va parrandalarni bir guruhdan boshqa guruhga ko'chirish dalolatnomasi, buxgalteriya va zootexnik hisob ma'lumotlari bilan solishtirilib, bu operatsiyalar qo'shimcha ravishda o'rganiladi.

Hujjatli auditda aniqlangan qonun buzilishi faktlari uchun hayvonlarni bir guruhdan boshqa guruhga ko'chirish dalolatnomasining raqami, sanasi, unda aks ettirilgan mollar bosh soni, mollarni boshqa guruhlarga ko'chirishdagi qo'shib yozishlarni ko'rsatish bilan alohida vedomost tuziladi.

Hayvonlarning xo'jalikdan chiqishini audit qilish

Hayvonlarning xo'jalikdan chiqish operatsiyalarining asosiy yo'nalishlari: sotish, xo'jalikda so'yish, almashtirish, majburan so'yilishi, harom o'lishi va chorva mollarning o'g'irlanishi bo'lib, tekshirishda ana shularga e'tibor berish lozim. Shuningdek, tekshirishda hayvonlarning bosh soni, tirik vazni, semizlik darajasi, zotlilik va balans qiymatiga, ularni yetishtirish hamda yosh va jins guruhlari, inventar raqamlariga jiddiy ahamiyat beriladi.

Hayvonlarning sotilishi bo'yicha oldindan o'tkaziladigan auditda sotishning alohida yo'nalishlariga tuzilgan ko'rsatkichlarning realligi aniqlanadi, tayyorlov tashkilotlari bilan mol sotish uchun tuzilgan shartnomalar, undan ortiqcha

sotish hisob-kitoblarning asosli ekanligi o'rganiladi. Joriy audit bevosita mollar va parrandalar sotish davomida amalga oshiriladi. Xo'jalikning go'sht uchun mol sotish shartnomasining bajarilishi, sotish operatsiyalarining haqiqiyliги ustidan audit o'rnatiladi. Buning uchun mollarning bosh sonini ularni sotish uchun jo'natish oldidan hamda yil davomida bevosita tayyorlov tashkilotlariga topshirilayotgan paytda tekshirib ko'rish lozim.

Bu operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin hujjatlar asosida o'tkaziladigan audit tovar-transport nakladnoylarini, tayyorlov tashkilotlari tomonidan berilgan kvitansiyalarni o'rganish hamda bu hujjatlarni hayvonlar va parrandalarning fermadagi hisoboti, ularning harakatini hisobga olish jurnali, 9- jurnal-order va 9- vedomosti, statistik va buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bilan solishtirib tekshirish usullari asosida o'tkaziladi. Audit davomida sotilgan mollarning tirik vazni va semizlik darajasining hujjatlarda bir-biriga mos kelishiga e'tibor berish lozim. Chunki, bunda semiz mollarni kam vaznlisi bilan almashtirilishi, tayyorlov tashkilotlarida mollar vaznining noto'g'ri o'lchanishi faktlari bo'lishi mumkin. Hayvonlarning xo'jalikdan chiqishini boshqa kanallar bo'yicha ham tizimli audit qilib borish zarur.

Asosiy tekshirish manbalari sifatida hayvonlar va parrandalarning xo'jalikdan chiqish dalolatnomasi, buxgalteriya va zootexnika hisobi registrlari, xo'jalikning ishlab chiqarish, mollarni so'yishda o'rtacha go'sht chiqishi to'g'risida qo'llanma ma'lumotlaridan foydalaniladi. Joriy tekshirish davomida alohida mollarni nazorat so'yish usulini qo'llash mumkin. Hayvonlarni so'yishdan olingan mahsulotlarning kirim qilinishining to'liqligini aniqlash uchun yuqoridagi hujjatlar va qo'llanma ma'lumotlari asosida maxsus vedomostlar tuziladi. Bu vedomostlarda har bir so'yilgan mol bo'yicha tirik vazni, semizlik darajasi, haqiqiy olingan go'sht va boshqa mahsulotlar miqdori hamda me'yori ko'rsatiladi.

Asosiy podani to'ldirish uchun mo'ljallangan va zotli yosh mollarning so'yilish faktlari uchraganda, bu operatsiyalarni diqqat bilan qo'shimcha ravishda o'rganib chiqish zarur, chunki ularda xo'jasizlik bilan almashtirilishi kabi faktlar yashiringan bo'lishi mumkin.

Mollarning majburan soʻyilishi dalolatnomalarini ham diqqat bilan tekshirib koʻrish lozim. Bu hollarda majburan soʻyilgan mollarga maxsus vedomost tavsiya etiladi. Vedomostda soʻyilgan mollar turi va guruhi, soʻyilish muddati, inventar raqami, bosh soni, tirik vazni, semizligi, majburan soʻyilish sababi (veterinarning diagnozi), molning balans qiymati hamda moddiy javobgar shaxs koʻrsatiladi. Majburan soʻyish operatsiyalarining realligini aniqlash uchun hayvon va parrandalarning xoʻjalikdan chiqarilish dalolatnomasining haqiqiyligini, toʻgʻri tuzilganligini, dalolatnomaning masʼul shaxslar tomonidan tasdiqlanganligi tekshiriladi.

Majburan soʻyilgan mollardan olinadigan mahsulotlarning amaldagi meʼyorlariga rioya qilinishini quyidagi jadval asosida aniqlash maqsadga muvofiq boʻladi. Bu jadvalning toʻldirilishi auditorlarga chorva mollarning soʻyilishidan goʻsht va goʻsht mahsulotlarining olinishi toʻgʻrisida tahlil uchun toʻliq maʼlumotlarni beradi.

№	Hayvonlarning turlari, semizligi va ishlab chiqarish boʻlinmasi	Bosh soni	Meʼyor boʻyicha goʻsht topshirishi	Tirik vazni	Tirik vazniga nisbatan foiz hisobida	Haqiqatda	Normaga nisbatan				Imzo
							kam		oshiq		
							Miqdori	Summa	Miqdori	Summa	
1.	1-ferma. Yuqori semizlikdagi qoramollar										
2.	2-ferma. Oʻrtacha semizlikdagi qoramollar va hokazolar										

Auditor
 Bosh buxgalter
 Bosh zootexnik
 Moddiy javobgar shaxs

Ba'zi hollarda mollarning so'yilishini, ularning harom o'lishi tariqasida hujjatlashtirish va chiqqan mahsulotlardan qonunsiz ravishda foydalanish faktlari uchraydi. Bu faktlarni so'yilgan mollar terisi, go'shti va boshqa mahsulotlarini to'satdan inventarizatsiya qilish, tuzilgan chorva mollariga berilgan inventar raqami bilan joriy yilda tug'ilgan yosh mollar raqamlarini solishtirib tekshirish, harom o'lgan mollarga qo'yilgan diagnozni veterinariya jihatidan tekshirish usullarini qo'llash bilan aniqlash mumkin. Auditda harom o'lgan mollarning yashirilganligi aniqlanganda, ular so'yish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining tabiiy ofat va yirtqich hayvonlar hujumidan nobud bo'lishi faktlari uchraganda, bu hollarda maxsus hay'atning tuzgan dalolatnomasiga e'tibor beriladi. Dalolatnoma tuzuvchi hay'at tarkibida betaraf vakil bo'lishi lozim. Bunda auditorlar yuqorida ko'rsatilgan dalolatnomani diqqat bilan o'rganib chiqadilar, zarur hollarda dalolatnoma tuzishda qatnashgan betaraf tashkiliy vakilni so'roq qilish, mahalliy, gidrometeorologiya xizmati ma'lumotlaridan foydalanish mumkin. Halokatga uchragan hayvon terisidan va boshqa mahsulotlardan xo'jalikda mumkin qadar foydalanilganligi, nobud bo'lgan hayvon uchun xo'jalikka sug'urta qaytimlarining to'lanishiga alohida e'tibor berilishi zarur.

Xo'jalikda sodir bo'lgan o'g'irlik yoki yo'qotilish sababli yuzaga kelgan omillar kamomadi auditorlar tomonidan diqqat bilan o'rganib chiqilishi lozim. Birinchi navbatda, kamomadlarga tuzilgan dalolatnomaning haqiqiyliги hamda realligi aniqlanadi. Buning uchun dalolatnoma tuzilgan kun, hay'at tarkibi, dalolatnomadagi imzolarning haqiqiyliги, boshlang'ich hisob ma'lumotlarining hayvonlar va parrandalar harakati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan mos kelishi tekshirib ko'riladi. Zarur hollarda, bu ishga aloqador shaxslar bilan so'roq o'tkazish, ulardan yozma ravishda ko'rsatma olish mumkin. Xo'jalikda nobud bo'lgan yoki o'g'irlangan mollarning qiymatini aybdor shaxslardan undirib olish tadbirining saqlanishi alohida o'rganib chiqiladi.

Agar bu kamomad summalarini xo'jalik hisobiga olib borish hollari aniqlansa, kamomad summasini aybdor shaxslar hisobiga olib borish va undirib olish choralari ko'rilishi lozim.

Chorva mollarining poda oboroti hamda sigirlardan buzoq olinishini tekshirish

Poda oborot bo'yicha reja ko'rsatkichlarining bajarilishini audit qilish har bir tur va jins guruhlari bo'yicha chorva mollari harakatining reja va haqiqiy ko'rsatkichlarini solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda chorva mollarining zotlilik tarkibi va poda tuzilishini to'ldirish ko'rsatkichlari mollarning go'sht mahsuldorligi ko'rsatkichlarini iqtisodiy tahlil qilib o'rganiladi.

Poda oborotining reja va haqiqiy ko'rsatkichlarini bu tartibda o'rganish podaning to'ldirilishini yaxshilash va mollar mahsuldorligini oshirish rezervlarini topish imkoniyatini beradi. Tekshirish davomida aniqlangan bu rezervlar xo'jalikda chorvachilik ishlarini yaxshilash uchun taklif sifatida rasmiylashtirilib, audit umumiy dalolatnomasiga qo'shiladi.

Audit sifatida auditorlar buxgalteriya va statistik hisoblar ma'lumotlarining haqiqiylikini tekshirib ko'rishlari lozim. Buning uchun chorva mollarining joriy hisob ma'lumotlarini buxgalteriya, statistik hisobot ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rish tavsiya etiladi. Agar ko'rsatkichlar orasida farq aniqlansa, buxgalteriya hisobi registrlari va boshlang'ich hujjatlar, tug'ilgan hayvon bolalarini kirim qilish dalolatnomasi, mollarni bir guruhdan boshqa guruhga o'tkazish dalolatnomasi, tovar-transport yuk xati, 9- jurnal-order va 9- vedomosti, mollarni qochirish jurnali va boshqa hujjatlar tekshirishga jalb qilinadi.

Chorva mollari bo'yicha inventarizatsiya natijalari buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga taqqoslanib, solishtirma vedomostlar bilan kam yoki oshiq ekanligi aniqlanadi va oraliq dalolatnomalari yoziladi. Audit oxirida oraliq dalolatnomalari hamda ma'lumotlardan umumiy dalolatnoma uchun foydalaniladi.

18- MAVZU: YORDAMCHI ISHLAB CHIQRISH VA TRANSPORT XIZMATI AUDITI

Xalq xo'jalik tarmoqlar tizimida transport, yordamchi ishlab chiqarishlar hal qiluvchi, obrazli qilib aytganda, «qon tomir» hamda shu korxonalar doirasida ularda mehnat qilayotgan xodimlarni qishloq xo'jalik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan arzon narxda ta'minlash vazifasini bajarishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati deb qaralishi lozim. Shu kabi boshqa tarmoq, korxonalarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish ularning biznes-rejasida ko'zda tutilgan ishlarni o'z vaqtida bajarish, texnologik rejim hamda ritmni ta'minlashga qaratilgan faoliyat deb qaralishi lozim.

Ulariga shartnoma munosabatlari asosida xizmat ko'rsatuvchi, havo, avtomobil transporti, shuningdek, agrosanoat kompleksi uchun «Kimyota'minot», mexanizatsiya mashinatraktor park (MTP) larini, elektr, gaz, suv, issiqlik ta'minot, uy-joy kommunal xizmat, o'simlik va hayvonot zararkunandalariga qarshi kurash tashkilotlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Bu korxonalar faoliyatlarining audit tekshiruvi, ushbu darslikda o'rganilgan boshqa xo'jalik subyektlarining barcha faoliyatlarini audit tekshiruvi kabi o'tkaziladi. Ammo ayrim xususiyatlari e'tiborga olinadi:

1. Ularda buyurtma shartnoma munosabatlari asosida tashkil qilinadi, biznes-rejadagi axborot ma'lumotlari shartnomadagi hajmlarga ish turlari, hajmi jihatidan vaqtni hisobga olib taqqoslash asosida, ularning funktsional yuklatilgan vazifalarni qanchalik bajarayotganligiga e'tibor qaratiladi.

2. Bu korxonalarda bajarilgan ish va xizmatlar, natural o'lchov birliklar bilan, shartli natural, ya'ni tonna-kilometr, motor-soat, kilovatt-soat, dekolitr, kilokaloriya va boshqalarda ko'rsatiladi.

3. Davlat budjetiga soliqlar, undan tashqari soliqsiz to'lovlar, yo'l fondiga to'lovlar kabilarni o'z vaqtda hisoblanishi va to'lanishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

4. Ularda amalga oshirilgan ishlar uchun «Mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish xarajatlar tarkibi, moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'ridagi Nizom» va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilinganligi o'rganiladi. Ayniqsa, kalkulyatsiya obyektlarga to'g'ri tannarx hamda bahoning shakllanishi jihatlarini tahlil asosida o'rganiladi.

5. Mavjud vositalardan xo'jalikda sakllangan vaqt, uning tarkibida ish vaqtining salmog'i kam darajada bo'lganligi ko'rib chiqiladi.

6. Transport vositalaridan umumiy bosib o'tilgan yo'l, shundan yuk bilan bosilgan yo'l salmog'i, bu vositalardan foydalanish koeffitsiyentlari hisoblanib, ularning ham imkon miqdor ko'rsatkichlari taqqoslanib, auditor hisoboti hamda xulosalarida o'z aksini topishi lozim.

Bulardan tashqari auditorlik tekshiruvining boshqa umumiy talablari, ko'rsatkichlari ham o'rganilib chiqilishi tavsiya qilinadi.

Bu mavzuda faoliyat ko'rsatayotgan boshqa tarmoq korxonalar doirasida yordamchi, transport, mexanizatsiya, elektr, suv, gaz, kimyo, issiqlik ta'minotlari ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyatlari auditorlik tekshiruvi, korxonada boshqa ishlab chiqarish bo'linmalarini tekshiruvi singari amalga oshiriladi.

Bunda muhim masala ijara pudrati, ichki shartnoma munosabatlari asosida texnologik zanjir sifatida ishlar va xizmatlarning vaqt jihatidan, to'la hajmda bajarilishi o'rganiladi.

Bunda ham shu mavzuda ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda tekshiruv o'tkaziladi. Ammo quyidagi qo'shimcha xususiyatlar hisobga olinishi lozim:

1. Yuridik shaxslardan bu ishlarning o'zaro iqtisodiy bog'liqligini hisobga olib, avvalo, korxonada hududida yo'qotuvlar (k/s, motor/soat va boshqalar) alohida o'rganiladi, foydalanilmagan zaxiralar ko'rsatiladi.

2. Ichki xo'jalik hisobi qoidalariga rioya qilinishi, vositalardan ratsional (unumli) foydalanish ko'rsatkichlari samaralilik jihatidan o'rganiladi.

3. Korxonada asosiy faoliyat turiga qanchalik texnologik, ritm, rejim jihatidan xizmat salmog'i va darajasi ta'minot jihatidan o'rganiladi. Bunda buxgalteriyadagi eng muhim hisoblangan xo'jalik operatsiyalarini hujjatlar, ularning bo'lim rahbarlari tomonidan hisobotlarida o'z aksini qay darajada ko'rsatib berilganligiga alohida e'tibor beriladi.

Shunday qilib, audit tekshiruvida ichki va tashqi auditning samaradorlik tomonlari puxta, joriy buxgalteriya ishida (ya'ni buxgalteriya schot va ularga tayinlangan registrlarda), hisobotlarda to'la moliyaviy, statistik, tahlil nuqtayi nazaridan o'rganilib, auditor hisoboti va xulosasida to'la ko'rsatilishi bilan yakunlanadi.

Ishlab chiqarish faoliyatini tekshirish va auditorlarning vazifalari

Korxonada asosiy va oborot mablag'larining xo'jalik operatsiyalari ichida ishlab chiqarish jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. Chunki bu jarayonda mahsulotlar ishlab chiqariladi, boshqacha aytganda, yangi qiymat yaratiladi. Ishlab chiqarish faoliyati korxonalarda qishloq xo'jalik, sanoat va yordamchi ishlab chiqarishlarni, ish bajaruvchi hamda xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish bo'linmalari ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni tayyor mahsulotni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonini audit qilishda auditorlar oldida mahsulot ishlab chiqarish rejalarining asosli ekanligini, korxonada va ishlab chiqarish bo'linmalarida mavjud resurslardan ishlab chiqarish dasturini bajarishda foydalanishni tahlil qilish, kelgusida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish bo'yicha rezervlarni topish vazifalari turadi.

Auditni amalga oshirishda agrotexnika, zooveterinariya, texnik-muhandislik tadbirlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi, ularning ekinlar hosildorligini va chorva mollari mahsuldorligini oshirish, korxonada barcha ishlab chiqarish quvvatidan to'la foydalanishga qaratilganligi chuqur o'rganiladi. Shu bilan birga tekshirish davomida texnologik jarayonga qanday rioya qilinayotganligi, har bir gektarerdan, har bir bosh moldan va boshqa ishlab chiqarish quvvatlaridan qanday

foydalanilgani tekshiriladi. Korxonalarda auditni quyidagi tartibda amalga oshirish tavsiya qilinadi.

Avvalo, asosiy ishlab chiqarish hisoblangan tarmoqlar, o'simlik va chorva mahsulotlari ishlab chiqarish rejalarining asosli ekanligini, rejalarining realligini tuzishda hisobga olinmagan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish rezervlarini tekshirish lozim. Shulardan so'ng mavjud yer maydonlarini tekshirish lozim. Keyin esa mavjud yer maydonlaridan, chorva mollaridan foydalanishning ahvoli, yo'l qo'yilayotgan har xil yo'qotuvlar va ulardan qutulish choralari ko'rish tekshiriladi. So'ngra o'simlikchilik va chorvachilik ishlab chiqarish dasturining bajarilishini ta'minlashda agrotexnika, zooveterinariya qoida va talablariga rioya qilinayotganligi audit qilinadi. Tekshirish va audit jarayonida ekish rejalarining bajarilishi, ularning hosildorligi, chorva mollari zotining yaxshilanishi, mahsuldorligining oshishi, mahsulot chiqarish va tannarxi o'rganiladi. Shundan so'ng sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining barpo qilinishi, korxonani tuzishda mavjud qonunlarga rioya qilinishi, iqtisodiy jihatdan ularning maqsadga muvofiqligi, ayrim holda har bir mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishi tekshiriladi. Yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyati ham xuddi shunday tartibda o'rganiladi.

Ishlab chiqarish dasturining bajarilishida smeta rejimiga rioya qilish masalalari alohida ko'riladi. Korxonada ichki xo'jalik hisobi va musobaqani tashkil qilish, shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tekshiriladi. Tekshirish jarayonida iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish, bu ishga iqtisodiy tarmoq mutaxassislarini jalb qilish muhim ahamiyatga egadir.

Asosiy tarmoqlar ishlab chiqarishini rejalashtirish va ularning ishlarini o'rganish

Bu tarmoqlarni rejalashtirish negizida asosiy tarmoqlarning, jumladan, o'simlik va chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirish uchun yer unumdorligini, chorva mollarining mahsuldorligini oshirish yotadi. O'simlik va chorvachilik mahsulotlarining ko'payishida qo'shimcha yer maydonlarining

ishga solinishi, chorva mollarining oboroti, shuningdek, ekin maydonlari va chorva mollarining oborot tuzilishi, hosildorlik, mahsuldorlik ko'rsatkichlarining aniqlanishi muhim rol o'ynaydi. O'simlik sohasidagi rejalashtirish tekshirilganda, avvalo, xo'jalik bo'yicha ekin maydoni tuzilishining korxonada ishlab chiqarish dasturiga mos kelishi ko'riladi. Shu bilan birga ekinlar hosildorligi, rejaning to'g'ri belgilanishi tekshiriladi. Ekinlar hosildorlik rejasini belgilashda, agrar iqtisodchilarning tavsiyasiga ko'ra, o'tgan besh yilning o'rtacha hosildorligi olinib, joriy yilda texnika progressi, ilg'or tajriba va dehqonchilikning ilg'or metodlari joriy qilinishi, organik hamda mineral o'g'itlar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanishi hisoblangan holda belgilanadi.

Shundan keyin dehqonchilik ishlab chiqarish jarayoni chuqur iqtisodiy tahlil usuli asosida audit qilinadi. Bunda, avvalo, mavjud resurslardan, ya'ni asosan yer va suvdan foydalanish masalalariga e'tibor beriladi. Audit ishlab chiqarish dasturining bajarilishini tahlil qilishdan boshlanadi. So'ngra hosildorlik rejalarining bajarilishi o'rganiladi. Hosildorlik rejalarining bajarilishida, avvalo, xo'jalikda qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha agrotexnik operatsiyalarning ish rejasi va uning bajarilishi tahlil qilinadi. Audit uchun ishlab chiqarish bo'linmalarining ishlab chiqarish topshiriqlari, buxgalteriya hisobida 20/1- raqamli bosh schotining «O'simlikchilik» subschoti bo'yicha ochilgan analitik schotlar yuritiladigan jurnal-order, 10/3- raqamli, yillik va joriy hisobot, operativ-texnika hisobi ma'lumotlari, shuningdek, korxonada agronomlarining ish rejaları va iqtisodiy tahlil byurosining xulosalari kabilar hisoblanadi.

O'simlikchilik ishlab chiqarish jarayonini audit qilish har bir ekin, ixtisoslashgan ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Tekshirishda bu masalalardan keyin ishchi kuchi, asosiy vositalardan, masalan, yangi o'zlashtirilgan yerlar bo'lsa, loyiha quvvatidan foydalanishning ahvoli o'rganiladi. Bunda ishlab chiqarish xarajatlarini moddalar bo'yicha o'rganish muhimdir. Qilingan sarflar texnologik ish jarayonlari bilan qo'shib o'rganilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning to'la tannarxi o'rganiladi. Bunday tahlilni ishlab chiqarish bo'linmalari va ekin

tarmoqlari bo'yicha o'rganish yaxshi natija beradi. Mahsulot tannarxining arzon bo'lishi hosildorlikning salmog'iga, ekin navi va sortiga, hosil pishib yetilgandan so'ng o'z vaqtida to'la kirim qilinishiga bog'liq. Shuning uchun, asosiy manba bo'luvchi xarajat hujjatlari bilan mahsulotni kirim qilish hujjatlari, ishlab chiqarish bo'linmasidagi dastlabki hisob registrlarining to'g'ri yuritilishini tekshirish lozim. Ishlab chiqarish jarayonini audit qilishda mehnat unumdorligining o'sishini tahlil qilish kerak. Buning uchun ishlarning mexanizatsiyalashtirilish darajasi o'rganiladi. Har bir ishning mexanizatsiyalash darajasini o'rganish, birinchidan, juda ko'p ishga solinmay yotgan rezervlarni ochib bersa, ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonida eng faol, hal qiluvchi ishchi kuchidan foydalanishni o'rganishni taqozo qiladi. Bu masalalarni mehnatni ilmiy tashkil qilish, har bir jamoaning, unga birlashgan a'zosining mehnat qobiliyatini ishga solinish darajasi bilan bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Audit natijalari umumlashtirilib, audit tekshiruvining oraliq va umumiy dalolatnomalarida ko'rsatiladi.

O'simlikchilik ishlab chiqarish jarayonini audit qilishda quyidagi shakl tavsiya qilinadi:

Payariq tumanidagi «Cho'rosh» shirkat xo'jaligi paxta hosildorligiga ta'sir qiluvchi operatsiyalarning ta'sirini aniqlash hisob-kitobi

Agrotexnik tadbirlar	Agrotexnik muddatlarda o'tkazilgan			Agrotexnik muddatlari kechiktirilgan maydon			Muddatida o'tkazilmaganligi uchun hosildorlik	
	Maydon, ga	Hosildorlik, s/ga	Yalpi hosil, t	Maydon, ga	Hosildorlik, s/ga	Yalpi hosil, t	Kam, t	Qiyamati
1. Shudgorlash								
2. Paxtani ekish								
3. Paxtani yaganalash								
4. 1-sug'orish va h.k.								

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish rejasining real va asosli ekanligi tekshirilganda chorva mollarining bosh soni, poda oboroti rejalari, zoovetenariya qoidalari, xo'jalikdagi yem-xashak bazasining mustahkamlanishi hisobga olinadi. So'ngra rejalashtirishda mahsuldorlik rejaga qay darajada e'tibor berilganligi o'rganiladi. Avvalo, kamida o'tgan uch yil davomida mollarning mahsuldorligi, keyin esa poda oborotidagi mahsuldor hayvonlarning ko'payishi, ularning kelish manbalari tekshiriladi. Olingan materiallar rejadagi mahsuldorlik, mahsulot ishlab chiqarish dasturida ko'rsatilgan ma'lumotlarga taqqoslanadi. Bu ishlar bajarilgandan so'ng audit tekshiruvining yo'nalishi ishlab chiqarish jarayonini tekshirishga o'tkaziladi. Bunday asosiy e'tibor chorvachilik ishlarining mexanizatsiyalash darajasining holatiga qaratiladi.

Payariq tumanidagi «Cho'rosh» shirkat xo'jaligining qoramolchilikda asosiy poda mollarini saqlash ishlarining mexanizatsiyalanish darajasi, uning mehnat unumdorligi va mahsulot tannarxiga ta'siri to'g'risida

Ishlarning nomi	O'lchov birligi	Jami bajariladigan ishlar miqdori	Mexanizmlar yordamida bajariladigan ishlar		O'rtacha ishlaydigan xodim hisobiga mahsulot ishlab chiqariladi	Bir sentner mahsulotning tannarxi	
			miqdori	foiz		reja	s.t.
1. Ozuqani yetkazib berish	bosh						
2. Suv bilan ta'minlash	bosh						
3. Sut sog'ib olish	bosh						
4. Molxonalarni tozalash va hokazo							

Qishloq xo'jaligi va sanoatning integratsiyasi qishloq xo'jalik mahsulotlarining har xil isrofgarchiligini yo'qotish va ishning mas'uliyatini hisobga olib, mehnat resurslaridan unumli foydalanish maqsadida tuziladi. Barpo etilgan sanoat korxonalarini faoliyati, korxonalar ixtisoslashgan qishloq xo'jalik ishlab chiqarish bilan uyg'unlashuvi nuqtayi nazaridan chuqur o'rganiladi. Sanoat korxonalarini faoliyati audit qilinganda fondlar sig'imi, fondlarning qaytimi chuqur reja va bazis davriga solishtirilib, iqtisodiy tahlillar asosida ko'riladi.

Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarflanayotgan xomashyo yoqilg'i elektr energiyasi hamda ilmiy asoslangan normalarga taqqoslanib ko'riladi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida tayyor mahsulot chiqimi, masalan, qayta ishlash natijasida paxta tolasining chiqimi tekshiriladi. Birinchi sort xomashyo paxtadan me'yorga asosan 95 foiz birinchi sort paxta tolasini, 5 foizga ikkinchi sort tola chiqishiga yo'l qo'yilishi mumkin, agarda ikkinchi sort tola 5 foizdan oshib ketsa, bu xomashyo sortlashda yoki sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi buzilganligidan dalolat beradi.

Audit natijasida ishlab chiqarish va tovar mahsulotini yetkazib berish hamda sanoat korxonasi ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish iqtisodiy tahlil qilinib, reja va bazis davrining ma'lumotlariga taqqoslab ko'riladi. Natija bo'yicha mahsulot tannarxi, tovar mahsulotning bir so'miga xarajat, nihoyat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishi undan olinadigan moliyaviy natijalar, rentabellik darajasi chuqur o'rganiladi.

Auditorlar tomonidan yordamchi ishlab chiqarish va boshqa xo'jaliklar faoliyati chuqur audit qilinadi. Chunki yordamchi korxonalarining faoliyati asosiy ishlab chiqarish jarayonining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ta'mir ustaxonasi faoliyatida kapital va joriy ta'mirlar soni tekshirilgach, ularning tannarxi davlat tomonidan belgilangan bahoga nisbatan o'rganiladi. Shu kabi ustaxona faoliyatida traktor va qishloq xo'jalik mashinalari texnika qaroviga rioya qilinishi, ularga ketayotgan xarajatlarni tekshiriladi. Avtotransport faoliyati audit qilinganda, xo'jalikdagi mavjud mashina uskunalar soni ishlagan mashina kunlariga taqqoslanadi. Umumiy bosib o'tilgan yo'l bilan, yuk bilan bosilgan yo'l

19- MAVZU: «DAVR XARAJATLAR» AUDITI

Turli mulk shakllariga asoslangan xo'jalik subyektlarida, yangi xalqaro schotlar rejasi va O'zRBXMS lariga muvofiq davr xarajatlari hamda daromadlari alohida hisobga olib boriladi. Chunki jahon BXMS larida xuddi shunday ishlab chiqarishlar tannarxiga kiritilmaydi, balki korxonada foydasidan qoplanadigan xarajatlar sarasiga kiradi. U Respublikamizda 1995- yil yanvar oyida va Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 5- fevraldagi 54- sonli qarori bilan tasdiqlanib, kuchga kiritilgan «Mahsulot (ish va xizmatlarning) ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi Nizomi»da dunyo mamlakatlaridagi singari xo'jalik faoliyatining alohida turi deb ko'rsatilgan va tan olingan. Bu faoliyatda ham boshqa faoliyatlar singari xarajatlar 5 (besh) moddaga ajratilib hisobga olinadi. Bu xarajatlar schotlar rejasining 94- raqamli «Davri xarajatlar» schotlarida asosan to'rt guruhga bo'lib hisobga olib boriladi:

- 1) sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- 2) ma'muriy boshqaruv xarajatlari;
- 3) boshqa operatsion xarajatlar (soliq bazasiga kiritilmaydigan xarajatlar qo'shib);
- 4) umumiy xo'jalikni yuritishga bog'liq xarajatlar.

Auditorlar bu xarajatlarni tekshirishda biznes-reja va boshqa yuqori organlar tomonidan belgilangan me'yorlarga shtat birliklari hamda samara olishni ko'zda tutgan iqtisodiy, moliyaviy ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratishlari lozim.

Bunday xarajatlarni hisobga olishda O'zRBXMS №1, №5 milliy standartlarga rioya qilinayotganligiga taqqoslanadi. Shuningdek, bu xarajatlar tarkibi xo'jalik operatsiyalari alohida-alohida, yoppasiga, mazmun, qonuniylik, maqsadlilik jihatlaridan birma-bir o'rganilishi lozim. Davri xarajatlari

korxonaning foyda va zararlar schotlari bilan yopilganligi sababli rentabellik darajalariga ta'sir qiluvchi omil sifatida ham moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilinishi lozim.

Davr daromadlari esa to'g'ridan to'g'ri «Foyda va zararlar» schotlarida aks ettirilishini e'tiborga olib, auditorlar shartnoma munosabatlari shartlarining bajarilishini hisobotlardan 2-shakl — «Moliyaviy natijalar bo'yicha hisobot» ma'lumotlari bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining bir-biriga xosligi, eng muhim realligiga e'tiborni qaratishlari lozim.

Bunda xarajat moddalari, hujjatlashtirilishi, bu jarayondagi mablag'larning kapital aylanish soni va kuni kabilarni hisobga olishga to'g'ri keladi.

Biz bu yerda joriy buxgalteriyada bu xarajat va daromadlarning dastlabki hamda buxgalteriya hisobini auditorlar o'rganib olganligini hisobga oldik. Bu sohada boshqa audit tekshiruvlari texnologik jarayon va yakunlarini rasmiylashtirish, sanab o'tilgan xos xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishini eslatib qo'yishni lozim deb hisoblaymiz.

20- MAVZU: KORXONANING MOLIVAVIY NATIJALARINI TEKSHIRISH

Korxonalarning ishlab chiqarish, xo'jalik-moliyaviy faoliyatining oxirgi natijasi ular tomonidan olinadigan moliyaviy natija hisoblangan foyda yoki zararda aniq ko'rsatiladi.

Korxonada foyda olish uchun mahsulotlarning bir necha tur variantlari o'rganilib chiqiladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotish rejalari, oldingi yillarda sotilish dinamikasi o'rganiladi, belgilangan rejaning realligi aniqlanadi. Shuningdek, foyda taqsimlanishida korxonaga zarur jamg'arma, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hisobga olinishi e'tiborga olingan holda tekshiriladi. Shundan so'ng auditorlar tomonidan foydaning kamayishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblangan unumsiz xarajatlar, jarima, pena, har xil yo'qotishlar chuqur tahlil qilinadi. Foydani ko'paytirish uchun baho mexanizmidan maqsadga muvofiq foydalanish: masalan, ertaki mahsulot yetkazish, yuqori semizlikdagi mollarni sotish, mahsulotlar bir qismini kelishilgan baholarda sotish kabilardan foydani rejalashtirish masalasi o'rganiladi. Foydaning tashkil bo'lishi va taqsimlanishini audit qilishda manba sifatida «Foyda va zararlar» bosh schoti yurgiziladigan 15- jurnal-order va mashinagramma, «Sotish» bosh schoti, 11- jurnal-order ma'lumotlaridan foydalaniladi. Auditorlar foydani audit qilishda davlat budjetiga ajratmalarni o'rganib chiqadilar.

Auditorlar moliyaviy natijalarni audit qilishda korxonada ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni chuqur o'rganishlari lozim. Buning uchun korxonada bo'yicha to'la tannarxga va fondlarga nisbatan moliyaviy ahvolidan birini to'lov qobiliyatiga bog'lash masalasi turadi. Korxonaning to'lov qobiliyati quyidagi formula asosida aniqlanishi mumkin:

$$K_{ns} = \frac{S_d + G_n + D_z + O_a + U_p}{Z_n + K_z + U_n},$$

bunda: K_{ns} — to'lash qobiliyati bo'yicha koeffitsiyent;
 S_d — korxonada schot va xazinasida mavjud mablag'larning jami;

G_n — sotish uchun tayyor mahsulot qiymati va xaridorlarga jo'natilgan tovarlar qiymatining jami;

O_n — aylanma mablag'larning me'yorida ortiq summasi;

U_n^p — kapital sarflarga mablag'larning ortiqcha o'tkazilishi;

Z_p — korxonaning xodimlarga, ishchi va xizmatchilarga ish haqi bo'yicha kreditor qarzlari summasi;

K_z — asosiy faoliyat bo'yicha kreditorlik qarzlari, ssudalarning jami summasi;

U_n — asosiy fondlarga o'tkazilmay qolgan aylanma mablag'lar summasi.

Korxonada ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini aniqlashda, ko'pgina iqtisodchilar tomonidan guruh iqtisodiy ko'rsatkichlari tavsiya qilinadi. Iqtisodiy ilmiy-tekshirish natijalariga ko'ra, pul birligida samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash va bu boshqa tavsiya qilinayotgan ko'rsatkichlardan aniqroq natijalar bo'layotganligini ko'rsatadi. Uni aniqlash tartibi va koeffitsiyenti quyidagicha:

$$K_e = R_k \times K_{ps}$$

bunda: K_e — samaradorlik koeffitsiyenti; R_k — rentabellik koeffitsiyenti, olingan foydaning to'la tannarxga nisbatan hisoblanishi; K_{ps} — korxonaning to'lov qobiliyati koeffitsiyenti.

Mazkur formula universal va korxonada balansi bilan barobar umr ko'radi. U bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida avanslangan kapitallar mutanosibli aniqlik ko'rsatilishi tahlili bilan qimmatlidir.

Bunday yo'l bilan iqtisodiy samaradorlikni aniqlash, birinchidan, korxonada hisob-kitob va iqtisodiyot xodimlarini xo'jalik ahvoli bilan yaxshiroq tanishish imkonini bersa, ikkinchidan, samaradorlikni aniqroq ko'rsatadi. Jamoa xo'jaligida yalpi va sof foyda daromadning taqsimlanishi uchun umumiy yig'ilish qarori va fondlarga bo'lgan ehtiyojlar hisobga olingan holda tekshiriladi. Xo'jaliklararo korxonalarda esa foydaning taqsimlanishi qatnashuvchi paychi xo'jalik vakillarining yig'i-

lish qarori asosida amalga oshiriladi. Bunda, birinchi navbatda, davlat budjeti bank masalalari bo'yicha hisob-kitoblar qilingandan keyin qarorga muvofiq foydaning taqsimlanishi chuqur tahlil qilinadi. Unga bog'liq xo'jalik operatsiyalarining aks ettirilishi audit qilinadi. Korxonaning to'lov qobiliyati bo'yicha koeffitsiyenti asosiy faoliyat bo'yicha rentabellik koeffitsiyenti bo'linmasi 1 ga teng va undan oshiq bo'lsa, korxonada rivojlanish uchun yaxshi sharoit bor hisoblanadi hamda dalolatnomalarda aniq ko'rsatiladi. To'lov qobiliyati formulasida asosiy va aylanma mablag'lar mutanosibliigi ham ko'rinadi, bozorli iqtisodiyotda bu ham muhimdir.

Ustav (bo'linmas) fondi mablag'larini tekshirish

Asosiy va aylanma mablag'larning qiymat birligidagi manbai jamoa xo'jaliklarida bo'linmas fond, korxonalarda Ustav fondi hisoblanadi. Hamma korxonalar singari, shirkat xo'jaliklarva boshqa korxonalar shu mablag'larga tayanib, o'z ishlab chiqarish muomala jarayonlarini yuritadilar. Ustav fondini audit qilishda bu fondning ko'payishi va kamayishiga bog'liq operatsiyalar alohida-alohida o'rganiladi.

Ustav fondi asosiy mablag'larining ko'payishi bo'yicha «Asosiy vositalar»ning kirim qilish operatsiyasi tekshiriladi, bunda sotib olingan va qurilishi tugallangan obyektlar bo'yicha «Kapital sarflar» bosh schotining ma'lumotlari, «Asosiy vositalar» bosh schotidagi ma'lumotlar bilan taqqoslanib tekshiriladi. Bordi-yu, ishlatishda bo'lgan asosiy vositalar xo'jalikka kirim qilgan bo'lsa, ularni qabul qilish dalolatnoma ma'lumotlari, «Asosiy vositalarning tugallanishi va eskirishi» ma'lumotlari bilan solishtiriladi. So'ngra asosiy vositalarning xo'jalikdan chiqishini ko'rsatuvchi «Xo'jalik operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar», «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schotlaridagi ma'lumotlar e'tiborga olinadi. Asosiy vositalar bo'yicha eskirish va amortizatsiyani hisoblash ham nazardan chetda qolmasligi lozim. Audit tekshiruvining oxirida yillik hisobotdagi fond mablag'larining harakatini ko'rsatuvchi jadval ko'rsatkichlari buxgalteriya registrlarining ma'lumotlari bilan solishtirilib, dalolatnomaning tegishli joyida ko'rsatiladi.

Amortizatsiya (kapital qo'yilma) fondini tekshirish. Asosiy vositalarning korxonada ishlab chiqarishida iste'mol qilinishi

amortizatsiya summasi sifatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxiga kiritilishi, shu asosida amortizatsiya fondining tashkil bo'lishi, ularni tiklash, qayta qurish, yangilarini sotib olish va qurish uchun asosiy manba hisoblanadi. Amortizatsiya fondining tashkil qilinishi ikki yo'l bilan vujudga keladi. Amortizatsiya fondini tekshirganda, eng avvalo, amortizatsiya hisoblash me'yorlarining to'g'ri qo'llanishi va oyma-oyma me'yorlar asosida amortizatsiya summalarining ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxiga kiritilishi tekshiriladi. Unda amortizatsiya fondining har ikkala qismi — to'la tiklash va kapital ta'mirlashga ajratilishi alohida o'rganiladi. Bu masalani korxonada ma'muriyati ko'rib, hal qiladi. Bunday amortizatsiya hisoblash va hisoblangan amortizatsiya summalarining taqsimlanishi bo'yicha vedomostlar tekshiriladi.

Amortizatsiya fondi mablag'larining sarflanishini tekshirganda, ularni kamaytirishga doir xo'jalik operatsiyalari, jumladan, asosiy vositalarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomalari, ta'mirlashdan so'ng qabul qilish dalolatnomalari, asosiy podaga yosh mollarni ko'chirish dalolatnomalari, hosilga kirgan ko'p yillik daraxtlarni foydalanishga qabul qilish dalolatnomalari o'rganiladi. Sotib olingan asosiy vositalarni moddiy javobgar shaxslarga birkitish dalolatnomalari va bosh schoti ma'lumotlari bilan ham solishtiriladi.

Asosiy vositalarning kapital ta'miri «Ta'mir ishlab chiqarish xarajatlari» (faqat kapital ta'mir xarajatiga taalluqli), «Kapital sarflar» bosh schotlari bo'yicha, buxgalteriya ma'lumotlari asosida chuqur tekshiriladi. Amortizatsiya fondi bilan boshqa fondlar sinchiklab tekshiriladi.

Amortizatsiya fondini audit qilish va tekshirish buxgalteriya registrlari (hujjatlar asosida aks ettiruvchi jadvalning ma'lumotlari bilan taqqoslash natijasida qilingan xulosa) oraliq dalolatnomada yoki tekshirish ma'lumotnomasida ko'rsatilishi bilan tugallanadi.

Zaxira, iqtisodiy rag'batlantirish va maxsus fondlarni tekshirish

Korxonalarda iqtisodiy rag'batlantirish maxsus fondlar, korxonada ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini va ishchi, xizmatchi hamda xodimlarning turmush darajasini oshirish

maqsadida foydadan ajratilib tashkil qilinadi. Bunday fondlarga qishloq xo'jalik korxonasi va birlashmalaridagi ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi, moddiy rag'batlantirish fondi, xo'jalikni ijtimoiy rivojlantirish fondi, zaxira fondlari tashkil qilinishi mumkin bo'lgan yuqori natijalarga erishish uchun ajratilgan mablag'lar kiradi.

Xo'jaliklararo korxonalarda fan, texnika va ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi, xodimlarni moddiy rag'batlantirish fondi, korxonani ijtimoiy rivojlantirish fondi zaxira fondlar hisoblanadi. Jamoa xo'jaliklarida kapital qo'yilmalar fondi, a'zolarini moddiy rag'batlantirish fondi, jamoa xo'jaligining sotsial rivojlantirish fondi va zaxira fondi kabilar tashkil qilinadi. Bu fondlarni tashkil qilish manbai korxonalaridagi daromad hisoblanadi. Har bir fondning tashkil qilinishi va uning mablag'laridan foydalanish Nizomlari asos bo'lib hisoblanadi. Har bir fondni audit qilishda yoki tekshirishda ularning har biri Nizomdagi shartlarga, mablag'larni ajratish va sarflash hujjatlaridagi miqdorlarni bir-biriga taqqoslash asosida o'tkaziladi.

Korxonalarda bu fondlarni tashkil qilish manbalari va qanday maqsadlarga sarflash smetalari tuziladi, auditorlar korxonalar huquqlarining kengayishi munosabati bilan smetalarning ilmiy asosli ekanligini o'rganadilar. Shundan so'ng ularning tashkil qilinishi va sarflanishi moddalar bo'yicha solishtirib tekshiriladi. Tekshirishda zarur shaxslardan so'rash va tushuntirish xati olish, inventarizatsiya o'tkazish usullaridan foydalaniladi. Bunda har bir fond alohida-alohida audit qilinib, oxirida yillik hisobotlardagi ma'lumotlar registralarda qayd qilingan raqamlar bilan taqqoslanadi, xulosalar chiqariladi, hisob-kitobni yaxshilash bo'yicha ayrim taklif va mulohazalar kiritiladi, natija audit dalolatnomasining tegishli bo'limida yoki tekshirish ma'lumotnomasida ko'rsatiladi.

Kelgusi davrda qilinadigan to'lov va chiqimlar zaxiralarini tekshirish

Korxonalarda bir xil metodika asosida quyidagi maqsadlar, ishchi va xizmatchilarga ta'til haqlari hisoblash uchun, bir korxonada uzoq yillar xizmat qilganligi uchun, asosiy vositalar

kapital ta'miri uchun zaxiralar tashkil qilinadi. Agarda korxonada boshqa zaxiralar tashkil qilish zarur bo'lsa, Agrosanoat davlat qomitasining ruxsatini olish zarur.

Auditorlar bu zaxiralarni tekshirganda asosiy e'tiborni zaxira ajratish me'yori (protsent)ning to'g'ri hisoblab topilganligiga qaratishlari shart. So'ngra bu zaxira mablag'lardan to'g'ri foydalanishni har bir operatsiya bo'yicha arifmetik, yuridik va mantiq jihatidan tekshirish kerak. Shundan keyin esa, zaxira summalar sarfi zaxira tashkil qilish summalarida kam bo'lgan zarur buxgalteriya korrektirovkalari orqali to'g'rilanishi lozim. Chunki bunday hol korxonaning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Audit tekshiruvini o'tkazish uchun «Kelgusi davr to'lovlari va chiqimlari uchun zaxiralar» bosh schoti yuritiladigan registrlar, 12- jurnal-order va 12a- vedomosti hamda boshlang'ich hujjatlar buxgalteriya ma'lumotlari asosiy manba hisoblanadi. Audit yakuni buxgalteriya registrlari ma'lumotlari bilan yillik hisobot ma'lumotlarini taqqoslash asosida qilingan xulosa va takliflarni audit dalolatnomasi yoki tekshirish ma'lumotnomasida bayon qilish bilan tugallanadi.

Maqsadli moliyalashtirish va maqsadli kirimlarni tekshirish

Bunda korxonalarda xo'jalikda qilinadigan ayrim xarajatlarga maqsadli moliyalashtirish yoki maqsadli kirimlar hisobidan foydalanish imkoniyati amaldagi tartib-qoidalarga muvofiq tekshirib boriladi. Masalan, qishloq xo'jalik zararkunandalariga yoki veterinariya-sanitariya tadbirlariga, ko'proq yer erroziyasiga qarshi kurash xarajatlarini qoplash uchun davlat budjeti yoki yuqori tashkilotlardan mablag' ajratiladi. Bunday mablag'larning tayinlanishi va sarflanishini audit yoki audit qilishda «Maqsadli kirimlar va maqsadli moliyalashtirishlar» bosh schoti registrlari, 12- jurnal-order va 12a- vedomosti hamda dastlabki hujjatlar asosiy manba hisoblanadi. Ularning qonuniyligi va iqtisodiy maqsadga ega ekanligi har bir operatsiya bo'yicha tekshiriladi. Oxirida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan yillik hisobot ma'lumotlari solishtiriladi, dalolatnoma va ma'lumotnomada qilingan xulosa va fikr-mulohazalar ko'rsatiladi.

21- MAVZU: KORXONA SOLIQLARI VA ULARNI HISOBLASHNI TEKSHIRISH

Respublikamizdagi qonunlarga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslar davlat budjetiga o'z daromadlaridan soliq hamda soliqsiz to'lovlarni hisoblashlari, belgilangan vaqtda ular to'lovini amalga oshirishlari lozim. Soliq va soliqsiz to'lovlar «Soliq kodeksi» hamda har yili Respublika Vazirlar Mahkamasidan belgilangan qarorda miqdor va stavkalari (tariflari) belgilanadi, ular asosida to'lovlarni amalga oshiradilar. Bunda buxgalteriya hisobining hisoblash usuli asosida, schot № 4410 «Budjetga bo'nak to'lovlar hisobi, schot № 6240- «Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar», schot № 6400 — «Budjetga to'lovlar bo'yicha qarz hisobi», schot № 6250 — «Vaqtincha farqlar bo'yicha foyda solig'i» Nizomning ilovalariga mos holda, ma'lumotlar hisobot davri uchun hisoblash va to'lash, zarur hollarda jarimalar ko'rib chiqiladi.

Korxonalar singari qishloq xo'jalik korxonalarini ham mamlakat miqyosida kengaygan takror ishlab chiqarishi bo'yicha davlat budjetining hosil bo'lishiga ma'lum miqdorda o'z hissalarini qo'shadilar. Yuqorida ko'rsatilgan me'yoriy hujjatlarga muvofiq audit tekshiruvida xo'jalik hisobi bo'yicha soliqchilar ham kompleks tekshiruvlar o'tkazib, koordinatsiya qilishlari lozim. Korxonalar hamda xo'jaliklararo korxonalar davlat budjetiga o'zlarida bor imkoniyatlar, ya'ni yer (yerning sifati ball sistemasida, har bir ball me'yoriy hujjatlar asosida baholanadi), mavjud asosiy va obrot fondlari summasidan, shuningdek, mehnat resurslari foyda hisobidan to'lov to'laydilar. To'lov me'yorlari qonunda belgilanib, auditorlar tomonidan xo'jaliklarda tartibga solinishi mumkin. Bundan tashqari, shirkat xo'jaliklar yollanma ishchilar daromadidan ushlana-digan soliqlar to'laydilar. Audit o'tkazilayotganda bu budjetga to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini tekshirish lozim.

1998- yilning 1- yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksi»ga muvofiq, barcha xo'jalik subyektlari

lari turlicha soliqlarni to'laydilar. Bu kodeks 1997- yilda qabul qilingan.

Kodeksning 2- bobida soliqlar tizimi to'g'risida aniqlik berilgan. Ular ikki turdan, birinchidan, umumdavlat, va ikkinchidan, mahalliy soliqlar yig'implaridan iborat.

I. Umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i (foyda).
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.
3. Qo'shimcha qiymat solig'i.
4. Aksiya solig'i.
5. Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq.
6. Ekologiya solig'i.
7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
8. Kichik korxonalar uchun yagona soliq.

II. Mahalliy soliqlar yig'implari esa quyidagilardir:

1. Mol-mulk solig'i.
2. Yer solig'i.
3. Reklama solig'i.
4. Avtortransport vositalarini olib-sotganlik uchun soliq.
5. Savdo-sotiq qilish huquqi yig'implari, bunga tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya uchun yig'im ham kiradi.
6. Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.
7. Avtotransport to'xtash joyi tashkil qilinganligi va foydalanganlik uchun yig'im.
8. Obodonchilik ishlari uchun yig'im.
9. Ijtimoiy infrastrukturallarni rivojlantirish solig'i.

Davlat sug'urta organlari korxonalar va xo'jaliklararo tashkilotlar mulklarini, ko'p yillik daraxtlarini, chorva mollari va ekinlarni sug'urta qilishadi. Ularning balans qiymati hisobidan ma'lum miqdorda badal to'lanadi. Mabodo, audit jarayonida hisob-kitoblar bo'yicha kamchiliklar aniqlansa, oraliq dalolatnomalari tuziladi.

Yangi qonunga muvofiq yo'l to'lovlari, kasaba uyushmalariga, bandsizlik organlariga to'lovlar tekshiruvi ham audit tekshiruvida hisoblanib, to'lov masalalari birgalikda tekshiriladi.

Ekologiya solig'i tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat ekanligini unda muvozanat saqlash borasida bir chora ekanligini anglagan auditor katta e'tibor bilan hisobot va xulosada aks ettirishga harakat qilishi kerak.

22- MAVZU: QO'SHMA KORXONA, KICHIK KORXONA, MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATLARDA AUDIT TEKSHIRUVINI O'TKAZISH

Kichik va o'rta korxonalar faoliyati auditi

Mamlakatimizda tezkorlik asosida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar, mulkdorlar sinfini tashkil qilish, ularning xo'jalik yuritishida iqtisodiy erkinligini ta'minlash borasida ko'pgina me'yoriy hujjatlar yaratildi. To'g'ridan to'g'ri chet el investorlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish imkoniyatlari yaratildi. Tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarishga yangi, ilg'or texnologiya va agrosanoat integratsiyasi jarayonini vujudga keltirish maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishi, lizing munosabatlarining tashkil qilinishi, buxgalteriya hisobotlarini soddalashtirishi, audit organlari tomonidan barcha tekshiruvlarni tartibga solish borasida Respublika Vazirlar Mahkamasi qoshida audit-koordinatsion kengashning faoliyat ko'rsatishi, Respublika Adliya vazirligining tekshiruv jurnalini tashkil qilish kabi servis xizmatini ko'rsatishi shart. Ayniqsa, o'rta va kichik korxonalarda buxgalteriya uchotini O'zR. MBUS — 20 ga muvofiq o'rganilishi lozim. Bulardan tashqari, qisqa, o'rta mikrokredit va uzoq muddatli kreditlarning tashkil qilinishi ham o'rta va kichik biznesni iqtisodiyotning istiqbolli rivojlanish sohasi deb qaralmoqda. Chunki ular fan-texnika yutuqlarini joriy qilishga, tezkorlik bilan bozor talablariga mos tovarlar ishlab chiqarish, servis xizmatlarini o'zgartirish manevriga ega bo'lgan, bular uchun katta kapital sarflar talab qilinmaydigan, ko'proq intellektual kuchlarga asoslangan korxonalar ekanligini jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi isbotlab turganligi, O'zbekistonda esa bunday intellektual kuchlar, hunarmandlar qadim-qadimdan rivojlanganligini e'tiborga olib, hukumati-miz bular uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu korxonalar faoliyati audit tekshiruvi amaldagi me'yoriy hujjatlarga mos ekanligini, ta'sis shartnomalarga rioya qilinganligini,

mulklar va boshqa mavjud quvvatlardan samarali foydalanishga qaratilganligini, ularning buxgalteriya joriy hisobi, registrlarida va hisobotlarida aniq va o'z vaqtida aks ettirilganligini ko'rib chiqishdan iboratdir. Shuningdek, budjet to'lovlari, boshqa budjetsiz to'lovlarning hisoblanishi va to'lanish muddatlariga rioya qilinayotganligini o'rganib, xulosa qilish, hisobot berilishi lozim. Auditorlar kichik va o'rta korxonalar faoliyatini o'rganishda, uning to'lov qobiliyatini, moliyaviy barqarorligini o'rganib chiqishi birinchi o'rindagi ishlardan hisoblanadi. Biznes-reja, kreditlarning maqsadli foydalanishi, o'z vaqtida moddiy bazaga ega bo'lishi, o'z vaqtida qaytarilishi ham audit tekshiruvining muhim jihatlari tashkil qiladi. Hisob-kitob operatsiyalarining mehnat haqi yuzasidan ta'minotchi va xaridor tashkilotlar bilan bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning ahvoli, sug'urta organlari bilan hisob-kitoblarni, foyda va iqtisodiy samaradorlik masalalariga e'tibor beriladi.

Kooperativ korxonalar auditi

Ma'lumki, kooperativ korxonalar bizning mamlakatimizda jamoa korxonalar bazasida bo'linish va xususiylashtirish, jismoniy shaxslarning pay ulushlari asosida tashkil qilinmoqda.

Kooperativ korxonalar faoliyatini tekshirishda ham amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida ustavi, Ustav fondining tashkil topishi, xo'jalik yuritilishi masalalari ham o'rganilib chiqiladi. Bu borada ta'xis shartnomalari, ularga rioya qilinishi ham chuqur o'rganiladi. Xo'jalik yuritishda joriy buxgalteriya hisobi, hisobotlardagi ma'lumotlarning realligiga, mavjudligiga katta e'tibor beriladi. Kooperativlar yollanma ishchilarni jalb qilish huquqiga ega ekanligini ham alohida o'rganib chiqiladi. Soliq va soliqsiz to'lovlarga qanday rioya qilinishini ham sinchiklab o'rganib chiqadilar.

Umuman olganda, kooperativ korxonalar faoliyatini audit qilishda, uning ichki me'yoriy hujjatlari umumiy me'yoriy hujjatlariga antogonistik bo'lmaganligini hisobga olib, ularning aniqroq bajarilishiga e'tiborni kuchaytiradilar.

Korxonalarni xususiylashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bilan bog'liq operatsiyalarning audit tekshiruvi

Xususiylashtirish — yuridik va jismoniy shaxslarga davlatga tegishli mulklarning egasi sifatida mulk qilib berishdir. Bunga asosan, uy-joylar, korxonalar, asbob-uskunalar va boshqa moddiy boyliklarni kiritish mumkin.

Xususiylashtirishdan asosiy maqsad — ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kurashini kuchaytirish, boshqarishni o'ta markazlashuvidan qutultirish hamda bozorning tarkibiy jihatlarini tashkil qilishdan iborat.

Respublikamizda mustaqillikka erishilgach, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, kommunal, qishloq xo'jaligida, chorvachilikni xususiylashtirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Xususiylashtirish fondlari tashkil qilindi, hozir ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ularning aksiyalari birjalar orqali sotilmoqda va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Auditorlar xususiylashtiriladigan korxonalarni moliya-xo'jalik faoliyatlarining istiqbolini belgilashda, mulklarning qayta baholanishi iqtisodiy ekspertiza qilinishida qatnashishi mumkin. Xususiylashtirilayotgan korxonalar auksion orqali sotilishi, aksionerlik jamoa korxonalariga aylantirilishi mumkin. Shunday hollarda auditorlar oldida turgan maqsad — xususiylashtirishning me'yoriy hujjatlardagi qoidalarga mos bo'lganligi, inventarizatsiya hay'atining barcha mulklarni obyektiv baholaganligi uning boshlang'ich baho (startovaya sena) to'g'ri belgilanganligini o'rganishdan iborat. Bunday holatda ma'naviy eskirishda koeffitsiyentlar qo'llash muhimdir. Agarda asosiy vosita, asbob-uskuna 50% boshlang'ich qiymatidan eskirmagan bo'lsa, koeffitsiyentlar qo'llanilmaydi. Bularning hammasi xususiylashtiriladigan korxonalar yoki obyektning noobyektiv baholanishiga olib keladi. Ular bahosining yuqori yoki past baholanishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir qiladi. Auditor xususiylashtirilayotgan operatsiyalarni o'rganishda mulk tarkibiy qismlariga e'tiborni kuchaytirishlari lozim. Shu kabi auksion badal to'lovi, sotilgan moddiy qiymatliklarning naqd pul yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar

bilan amalga oshirilishini hisobga olib, daromadlarning to'la kirim qilinganligini to'la hujjatlar asosida tahlil qilib o'rganishi lozim.

Xususiylashtirilgan operatsiyalar bo'yicha mulklarning to'la-to'kis saqlanishi, ishlab chiqarish sohalarining rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlik darajalari qanday amalga oshirilganligining iqtisodiy, moliyaviy egalik mulkiy jihatidan amaldagi qonunlarga taqqoslab, o'rganib, tahlil qilib, auditorlik hisobotini (keng ma'noda mulklar guruhi ishlab chiqarish, hisob-kitob, moliyaviy natijalar bo'yicha), shundan so'ng auditorlik xulosa yozish bilan yakunlanishi lozim. Bu masalalar xususiylashtirish operatsiyalari audit tekshiruvining o'ziga xos xususiyatlaridir. Ammo korxonalar moliya ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatlari audit tekshiriladigan bo'lsa, umumiy auditorlik prinsiplari asosida amalga oshirilishini eslatib o'tamiz.

Tashqi iqtisodiy aloqalar faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar faoliyatlarini audit tekshiruvining xususiyatlari

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgach, tashqi iqtisodiy aloqalar bilan shug'ullanish imkoniyati va huquqiga ega bo'ladilar.

Mamlakatimizda tub iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi, o'rta va kichik biznes xo'jalik subyektlarini rivojlantirishga qaratilgan barcha huquqiy bazalarda, belgilanayotgan tadbirlarda katta imkoniyatlar berilmoqda. Jumladan, chet el investitsiyalarini kiritish, so'ngra esa to'g'ridan to'g'ri tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilishga undalmoqda. Respublikamizda bu masala bo'yicha imkoniyat yaratish tashqi iqtisodiy aloqalar, moliya, yustitsiya vazirliklari hamda soliq va bojxona qo'mitalariga yuklatilgan. Shuningdek, sabzavot, meva, tez buziladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari bo'yicha mahalliy organlar, hududiy bojxona organlariga ham litsenziya berishni qisqa muddatlarda amalga oshirish yuklatilgan. Auditor oldida tashqi iqtisodiy aloqa import va eksport operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beradigan me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishini, malaka va boshqa sifatlarini

ko'rish, imkoniyat bo'lmasa, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq mutasaddi organ xodimlaridan yordamchi auditor sifatida foydalanishlari mumkinligini e'tiborga olishi lozim. Ayniqsa, korxonalar uchun traktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga barter qilishga imkoniyatlar yaratilishi tashqi iqtisodiy aloqa qiluvchi korxonalar texnika jihatidan yuqori darajada ta'minlanishi, qurollanishi va rivojlanishi uchun katta imkoniyatdir.

Import va eksport tovarlarining nomlariga, ahamiyatiga hamda davlat tomonidan texnikalar miqdorini, tovar qiymatini belgilashda guruhlariga bo'lib kodlanishini, sertifikatini bo'lishini, veterinariya-tibbiyot va epideologik ko'rikdan o'tishiga alohida e'tibor zarur bo'ladi. Shuningdek, tovarlar sifat ko'rsatkichlari, ichki bozor talabi, tashqariga chiqarilayotgan tovarlarning, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha esa ichki bozor ta'minot darajasi ham chetda qolinmay e'tiborga olinishi lozim.

Tovarlarning shartnoma asosida baholanishi, tashqi va ichki bozor baholarini ham tekshiruv jarayoni qamrab olishi kerak. Shartnomalardagi tomonlarga belgilangan majburiyatlarning to'la-to'kis o'z vaqtida bajarilishiga ham e'tibor berilishi lozim. Bunday aloqalarda tashqi, ichki firmalar, banklar va budjet organlarining ishtiroki o'rganilmasdan qolmasligi shart.

Bu korxonalarda joriy buxgalteriya hisobi va hisobotlar «Buxgalteriya hisobi qonuni» milliy buxgalteriya hisobi andozalari talablariga mos ravishda yuritilishi tekshirilishiga alohida ahamiyat zarur bo'ladi. Shulardan kelib chiqib, auditorlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

— eksport va import tovarlarning saqlanishi va harakati ustidan haqiqiy ichki auditning yaxshi darajada bo'lishini tekshirish;

— tashqi iqtisodiy xo'jalik operatsiyalari yuzasidan hisob-kitoblarning aniqligiga, ajratilgan resurslardan (quvvatlardan) unumli foydalanish darajasining tashqi savdo oborotining samaraliligiga ta'sirini tekshirish;

— tashqi iqtisodiy xo'jalik operatsiyalarining rejalashtirilishini, aniq bajarilishini, ular bo'yicha tomonlar majburiyatining bajarilishini tekshirish;

— tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligini aniqlash, maqsad jihatidan ularning natijaliligini tahlil qilish;

— korxonada tashqi iqtisodiy aloqa operatsiyalarida foydalanilmayotgan zaxiralarni topish, bu aloqalar uchun qanday istiqbolli muammolarni belgilash;

— korxonada ishini, faoliyatini baholashda biznes-reja, mamlakatimizdagi ustivor rivojlanish tamoyillariga tegishli chuqur iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy eksport va import ko'rsatkichlarining tahlili kabilarga alohida e'tiborni qaratishlari lozim. Bunday tahlillar mamlakatlar, tarmoqlar va sohalar bo'yicha dinamik va vertikal amalga oshirilishi kerak.

Tahlillarda chet el kompaniyalariga majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun (sanksiya) javobgarlik masalalari; iqtisodiy, moliyaviy va boshqa jihatlaridan qanday ko'rilayotganligi alohida o'rin tutadi. Tovarlar, ular sifatiga qarab hajmi, ustama chegirmalari (refaksiya) yoki ustama summalar (bonifikatsiya)ning belgilanishi, e'tirozlar bildirilishi, kontrakt shartnomalarda belgilanish va amalda qo'llanilishini ko'rib chiqishlari lozim. O'zaro aloqaga kirayotgan korxonalarining to'lov qobiliyati moliyaviy barqaror rivojlanishi ham chuqur o'rganilishi kerak. Barcha tovarlarga tegishli dastlabki, yuridik yo'l hujjatlarining o'z vaqtida realligini soxta hujjatlar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi jihatidan qattiq o'rganilishi muhim o'rin tutadi. Bunda shartnomalarning Tashqi aloqa vazirligi va bojxona organlari ro'yxatidan o'tishiga, moddiy boyliklar qiymati (Jahon bozori bahosida) mamlakat ichkarisidan chiqib ketmasligi e'tiborga olinishi lozim. To'lovlarning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi, real bo'lishi, o'z vaqtida jo'natilishi, buxgalteriya hisobida «jo'natilgan tovarlar» schotlarida aks ettirilishi valuta tushumlaridan to'lovlarning to'liq, aniq, o'z vaqtida amalga oshirilishi chuqur o'rganilib chiqilishi lozim.

Aloqa qiluvchi korxonalar faoliyatini kafolatlaydigan xalqaro auditorlik xulosalarining mavjud bo'lishi, ustama xarajatlarining aniq mavjud xarajatlar, moliyaviy natijalar shakllanishi nizomlariga mos kelishi o'rganiladi. Zarur hollarda chet ellardagi kompaniyalarda solishtirma hisob-kitoblar qilinishiga ahamiyat berilishi lozim. Unda o'zaro hisob-kitob formalari ham o'rganilib chiqilishi kerak. Bunday

korxonalar faoliyatida joriy buxgalteriya hisobi, hisobotlarda debitorlik, kreditorlik qarzlari, o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari chuqur o'rganilishi, sabablari, zarur hollarda, yuridik va jismoniy shaxslarning hamma tomonlama mas'uliyati ham ko'rib chiqiladi.

Ko'pgina hollarda tashqi iqtisodiy aloqalar qattiq valuta hisobiga amalga oshirilishi ma'lum. Shu jihatdan kredit operatsiyalarining maqsadliligi, uning barcha prinsiplariga rioya qilinishi, sug'urta organlari tomonidan bu xo'jalik operatsiyalarining kafolatlanishiga ham juda sinchkovlik bilan o'rganilishi lozim.

Tashqariga chiqarilayotgan tovarlardan sof foyda olinishi, tashqi va ichki bahoning qanday darajada, ya'ni ichki bozor bahosidan davr xarajatlari qo'shilgandan kam bo'lmasligiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki samaradorlik daraja shunga ko'p jihatdan bog'liq. Sababi, mamlakat ichidagi jamiyatimiz uchun kerakli resurslardan samarasiz foydalanishga yo'l qo'yilmasligi ko'zda tutiladi. So'ngra davlat, mahalliy soliqlar, soliqsiz to'lovlar, korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri keng o'rganiladi. Bunda mamlakatimizda bunday korxonalariga berilayotgan soliq va boshqa imtiyozlardan to'g'ri foydalanish kabi masalalar ham chuqur o'rganib chiqilishi lozim.

Auditorlar bunday korxonalarni audit tekshiruvidagi ko'rsatib o'tilgan xususiyatlaridan tashqari, uning boshqa talablarini, barcha korxonalaridagi auditorlik tekshiruv texnologiyasi rasmiylashtirilishi va yakunlanishini, audit tekshiruv materiallarining realizatsiya qilinishi kabi amalga oshirishlari ko'zda tutiladi.

Investitsiya fondi (jamg'arma) korxonalari, sug'urta, birja muassasalari hamda brokerlik faoliyatlari audit tekshiruvining xususiyatlari

Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bozor munosabatlari sharoitida bo'lganidek, sug'urta kompaniyalari o'rtasida ham obyektiv va subyektiv baxtsiz hodisalardan mulk egalarini saqlash, zarar ko'rmaslik uchun kontrakt shartnomalar tuza-

dilar. Bular ham raqobat kurashiga uchraydilar. E'lon qilingan ma'lumotlarga qaraganda respublikamizda 35 dan ortiq sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular ham nodavlat tashkilotlari bo'lganligi uchun auditorlik tekshiruviga muhtojdirlar.

Auditor sug'urta korxonalar faoliyatini audit tekshirish jarayonida buxgalteriya hisobi shaklining tanlanishiga, buxgalteriya schot registr va balanslarda aks ettirilishiga alohida e'tibor beradilar. Bunda «Bosh jurnal», «Balans» va yordamchi registrnlarni ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Sug'urta kompaniyada to'lovlarning sug'urta to'lovi qaytimi, sug'urta papkasining tuzilishi, sug'urta xizmat turlari, hajmi kabilarni dinamik tarzda tahlil qilish zaruriyati bo'ladi. Shuningdek, shartnomalar soni, o'rtacha sug'urta to'lovi, sug'urta to'lovi tarifi, sug'urtalanuvchi uchun chiqim va boshqa ko'rsatkichlarni o'rganish zarur.

Sug'urta kompaniyalar faoliyatini audit tekshiruv o'tkazishda hisobotlardagi asosiy ko'rsatkichlar natural va nisbiy miqdorlarda tahlil qilinadi. Shunday ko'rsatkichlar orasida sug'urta xo'jalik operatsiyalar tannarx ko'rsatkichi muhim hisoblanadi. Ya'ni bir so'mlik sug'urta to'loviga chiqim:

$$X = \frac{Ch}{T} ;$$

bunda: X — bir so'mlik sug'urta to'loviga xarajat; Ch — yil davomida sug'urta idorasining barcha chiqimlari; T — shu davr davomida sug'urta to'lovlar kirim summasi.

Albatta, sug'urta organlarining rentabellik darajasining yuqori bo'lishi yaxshilikka olib bormaydi. Chunki qiymat yaratilmaydi, balki yalpi daromad qayta taqsimlanadi.

Sug'urta organlarini auditorlik tekshiruvi dasturini quyidagicha bo'lish mumkin:

1. Sug'urta organlarining barcha qonuniy me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanganligi, huquqiy hujjatlar bo'lishi, davlat idoralaridan litsenziyasi qayd qilingan bo'lishi.

2. Sug'urta faoliyatining litsenziya va qonuniy hujjatlarga mos yuritilishi.

3. Buxgalteriya hisobi qoidalari va talablari darajasida bo'lishi.

4. Sug'urta zaxiralarining to'g'ri tashkil topishi.
5. Moliyaviy natijalarning to'g'ri shakllanishi.
6. Budjetga soliq va soliqsiz to'lovlar hisob-kitoblarining to'g'ri tashkil qilinishi.
7. Mulk, hisob-kitob, kredit, debitorlik, kreditorlik qarzlarning ahvoli.
8. Buxgalteriya balansining to'g'ri tuzilganligi.
9. Balansdagi aktiv va passiv mutanosibligi.
10. Sug'urta rezervlari, sug'urta tavakkalchiligiga javobgarlik asosida joylashtirilishi.
11. Shartnomalar to'g'ri, qonuniy tuzilishi, ular yuzasidan sug'urta to'lov va qaytimlarining hisoblanishi va amalga oshirilishi.
12. Sug'urtalanuvchi bilan sug'urta qiluvchi xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlar, ular yuzasidan da'vogarlar ham ayrim hodisalar bo'yicha audit, tergov organlarining aralashuvlarini o'rganib chiqadilar.

Shular asosida auditorlik hisobotlari va xulosalar audit tekshiruvining maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqib, barcha texnologiyalarga rioya qilgan holda rasmiylashtiriladi.

Birja va brokerlik faoliyatlarining audit tekshiruvi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatbaho qog'ozlarning birlamchi va ikkilamchi bozorlarini, tovar va xizmatlar ko'tara bozorlarini tashkil qilishda birja va firmalar, ulardagi brokerlik o'rinlari muhim rol o'ynaydi.

Bunday xo'jalik subyektlari faoliyatining audit tekshiruvida ham joriy buxgalteriya hisobi va hisobotlariga katta e'tibor beriladi.

Birja faoliyati deganda tovar, sotish va olishni, almash-tirishni amalga oshiruvchilar o'zaro kelishuv jarayoni tushuni-ladi. Brokerlik faoliyati esa sotuvchi va oluvchi o'rtasida vosi-tachilik faoliyatidir. Bunda broker tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar sotilishi va olinishi davrida vositachi bo'lishi mumkin.

Fond birjalari ko'proq aksionerlik jamiyatlarida amalga oshiriladigan bo'lsa, tovar birjalari turli korxonalarda tashkil qilinishi mumkin.

Qatnashuvchilar o'z vakillariga ega bo'lib, unda vositachi brokerlik joylarini tashkil qiladi va ular o'z qiymatiga ega bo'ladi. Qiymat 10 yilga yoki korxonada faoliyat ko'rsatish davriga teng bo'lishi mumkin. Ma'lum chiqimlar bo'ladi. Shu vositachilik katta foydaga ega ham bo'lishi mumkin. Auditorlar barcha sotish va olish operatsiyalarini chuqur o'rganishlari lozim. Boshqa sohalar esa xo'jalik subyektlari audit tekshiruvini jarayonlari singari amalga oshiriladi.

Investitsiya jamg'armalar faoliyati audit tekshiruvining xususiyatlari

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qonuniy baza va imkoniyatlar yaratildi. Natijada xalq xo'jalik tarkibiy tuzilishida katta imkoniyatlar vujudga keldi. O'zgarishlar ro'y berdi, barqaror rivojlanish davom etmoqda.

Bularning hammasi respublikamizda turli investitsiya fondlarining faoliyat ko'rsatishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli investitsiya fondlar faoliyatlarini ham audit tekshiruvidan o'tkazish eng muhim vazifalardan biridir. Ular faoliyatining audit tekshiruvini ta'sis hujjatlari, joriy buxgalteriya hisobi va hisobotlarning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda olib borilayotganligini o'rganishdan boshlanadi.

So'ngra mulk saqlanishi, balansdagi fondlar miqdori, boshqaruvchi bilan chiqimlar bo'yicha hisob-kitoblari, fondni tashkil qiluvchi depozitlarning hisob-kitoblari, qimmatbaho qog'ozlar, hisob-kitoblari chuqur o'rganiladi.

Fondning balansi bo'yicha aktiv, investitsiyalarning maqsadli, qonunga mos joylashtirilishi, passivlarga mutanosibligi, soliq va soliqsiz to'lovlarning hisob-kitoblari aniq o'rganiladi. Investitsiyalarning ishlab chiqarish sohasiga, yangi texnologiyalarga, bugungi kunda dolzarb o'rta va kichik biznesga, agrosanoat kompleksi sohalariga joylashtirilish hajmi va tarkibiy tuzilishiga, har bir sohadan olinayotgan samaradorlik, tabiiy resurslardan unumli, tejamkorlik bilan foydalanishga ta'siri o'rganilishi lozim. Mamlakatimizning valuta zaxiralariga va fuqarolar turmush darajasining o'sishiga ta'sir

chuqur tahlil qilinishi lozim. Investitsiyalarning moddiy va nomoddiy tarkibiy tuzilishiga ham e'tibor qaratiladi. Investitsiyalardan olingan moliyaviy natijalar ham keng o'rganiladi.

Umuman olganda, bu xususiyatlardan tashqari bu xo'jalik subyektlar faoliyati audit tekshiruv maqsad va vazifalariga qarab belgilangan texnologik jarayonlar asosida yakunlanadi.

Auditorlik tashkilotining konsultatsion xizmati

Bugungi kunda auditorlik tashkilotlariga faqat auditorlik tekshiruv emas, balki buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish va tiklash, moliyaviy hisobotni va daromadlar to'g'risida deklaratsiya tuzish, xo'jalik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatlarini tahlil qilish korxonalarida aktiv va passivlarini baholash, konsultatsiya xizmatlariga hayotiy muhtojlik bilan murojaat qiladilar. Konsultatsiya xizmatlari ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi: jumladan, aniq ko'rsatmalarni yozma va og'zaki tartibda rahbar, mutaxassislar, auditorlarga berishi mumkin. Ikkinchi yo'li esa juda muhim, mas'uliyatli, yuqori malaka talab qiladigan ishlarda tug'ilgan muammolar bo'yicha o'qigan, katta tajribaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar, boshqacha qilib aytganda, mualliflar o'zlari ishtirokida konsultatsiya amalga oshiradilar.

Katta masshtabdagi auditorlik firmalari katta diapozonlar bo'yicha, moliyaviy ishlarga umumiy rahbarlik, marketing va ta'minot boshqaruvi, kadrlarni boshqarish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yuridik va boshqalar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

Agarda konsultatsiya jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, bu yechilishi lozim bo'lib turgan bir murakkab masalani konsultant bilan mijozning ko'zda tutilgan darajasiga erishish yo'lidagi birgalikda ko'rsatgan faoliyatidir.

Konsultatsiya xizmatining eng ko'p ishlatiladigan moduliga hayotda ko'proq murojaat qilinadi. Jumladan, maxsus adabiyotlarda ham shular ko'satiladi. Buni biz quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.

Konsultatsiya jarayonining bosqichlari

Tayyorgarlik	<ol style="list-style-type: none">1. Mijoz bilan birinchi uchrashuv2. Taxminiy muammoga tashxis3. Topshiriqlarni rejalashtirish4. Mijozga nisbiy aniqlangan rejani tavsiya qilish5. Konsultatsiya bo'yicha uchrashuv
Diagnoz (tashxis)	<ol style="list-style-type: none">1. Zarur dalillarni aniqlash2. Dalillarni tahlil qilish3. Muammoni chuqur o'rganish
Harakatlar rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Tanlov yechimi2. Alternativ variantlarni baholash3. Mijozga taklif4. Amalga oshiriladigan ishlar rejasi
Joriy qilish	<ol style="list-style-type: none">1. Rejani amalga oshirishda yordam2. Takliflarga ayrim o'zgartirishlar kiritish3. Xodim va kadrlarni o'qitish
Tamomlanishi	<ol style="list-style-type: none">1. Baholash2. Xotima hisoboti3. To'lovlar bo'yicha majburiyatlar4. Kelgusi davrlar uchun rejalar5. Xulosa bo'yicha mijoz bilan bayonnoma tuzish

Mazkur bosqichlar katta ishga tayyorgarlik yoki o'qish asosida bir kasb egasini o'rgatib, yuqori malaka egasi sifatida faoliyat ko'rsatish va hayotga tatbiq qilib, samara olish bilan bog'liq katta bir faoliyatdir.

Konsultatsiya ishida mijoz bilan konsultant o'rtasida bir-birini tushunish, samimiy, samara olishga qaratilgan yaqinlik va harakat, intilish zarur hisoblanadi. Unda sidqidillik, sobit-qadamlik, sodiqlik, har biri o'zini turlicha boshqa fikr-mulohazalarga bardosh bilan cheklash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Audit tekshiruvining tugallanishi va haqda umumiy bo'lgan ayrim xulosalar

Dunyodagi eng nufuzli darslik va maxsus adabiyotlarda audit tugallanishi degan keng tushunchalar ma'no jihatidan turlicha ta'riflanadi. Agar bu masalaga falsafiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, har bir ish, hodisa, voqelik sabablar natijasida oqibatga olib keladi. Ular ma'lum maydonda hamda ma'lum vaqt birligi ichida yuz beradi. Shunday ekan, ko'rsatilgan tushunchasini xo'jalik subyekti faoliyatining audit tekshiruvning tamomlanishi yoki bir olingan hududda auditorlik ishlarining nihoyasiga yetishi deb ham tushunsa bo'ladi. Yana bir fikr vujudga keladiki, barcha maxsus adabiyotlarda auditorlik faoliyatini obyektiv xo'jalik subyektlar doirasi deb tushuniladi. Vaholanki, bu masala davlatni boshqaruv jarayonida axborot va kafolatni ayrim olingan hudud, xalq xo'jaligining tarmog'i, butun tarmoqlar, qolaversa, mamlakat doirasida, masalan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar maqsadi, respublikamizda yashayotgan barcha fuqarolar turmush darajasining ahvoli, istiqboli, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jabhalari to'g'risida to'la ma'lumot beriladigan auditorlik faoliyatini tashkil qilinishi va rivojlantirilishini katta ishonchi, tayanchli vositasi deb qaralishi hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Imonimiz komilki, kelajakda shunday vosita sifatida zarur ehtiyojlardan kelib chiqib foydalanamiz.

Shu jihatdan olganda, audit tekshiruvining tugallanishini ikki ma'noda: 1) ayrim olingan bir xo'jalik subyektida auditorlik tekshiruvining tugallanishi bo'lsa; 2) ayrim olingan bir soha hududida rejalashtirilgan auditorik faoliyatining tugallanishi deb tushunish ham mumkin.

Masalalardan kelib chiqib, ayrim olingan bir xo'jalik subyektida auditorlik tekshiruvining tugallanishini tor ma'noda, konkret tushunadigan bo'lsak, u avvalo, audit tekshiruv maqsadiga erishish, belgilangan vazifalarning bajarilishi, tekshiruv yakunlanib, rasmiylashtirilishi, natija bo'yicha materiallarning realizatsiya qilinishidir. Ma'lumki, audit tekshiruv ikki muhim hujjat: 1) audit tekshiruv yakuni bo'yicha xulosa; 2) hisobotdan iborat. Shu yerda misol tariqasida auditor

hisoboti auditor xulosasidan katta, ko'proq axborot beruvchi vosita deb qaralmog'i lozim.

Agar korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyati audit tekshiruv maqsadi deb olingan bo'lsa, unda uning faoliyat doirasida har bir faoliyat uchta nuqtayi nazardan: a) axborot; b) xulosa; d) natija-baho bilan yakunlanishi lozim. Audit ishlarini rejalashtirish mavzusida umumiy dalolatnomaning o'n bir bo'limdan iborat qilib belgilanganligi bejiz emasligini payqash qiyin emas. Boshqa bir jihatdan bozor iqtisodiyoti obyektiv qonun va jamiyat talabi nuqtayi nazaridan qaralsa, yana uch narsa; 1) mavjud resurslardan tejamkorlik va samara bilan foydalanish; 2) moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyatiga ega jihatlari; 3) mamlakati-mizdagi bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va ustivor yo'nalishlar jihatidan ijtimoiy himoya hamda sotsial-ijtimoiy rivojlanish tahlili, taklifi bo'lishi lozimligi jihatlarini qamrab olgan vosita ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, auditor hisoboti mijoz, davlat boshqaruv organlari, u bilan iqtisodiy o'zaro aloqaga kiruvchi korxonalar, to'rtinchi hokimiyat — matbuot uchun, audit, kafolat va xulosaga kelib, yechim qaroriga kelish vositasining keng bayonidir deb qarash to'g'ri bo'ladi.

Auditorlik xulosasi uch qism, ya'ni kirish, asosiy qism, xulosa va takliflardan iboratdir. Uning yuqorida ko'rsatilgan 12 bo'limi haqida auditor hisoboti tarkibiy tuzilishining birinchi qismini hisobotda aks ettirilishi jihatidan qaralsa, biznes-reja bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillar dinamik va zanjirli bazis tahlillari asosida xo'jalik muammolari, avvalo, ishlab chiqarish sohalari, so'ngra iqtisodiy mazmunlariga qarab statistik tahlil qilinsa, auditor malakasi ham bozor iqtisodiyotining talablariga ko'ra, yer, ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari miqdori, nisbiy miqdorlarni hisoblab, tahlil qilishga to'g'ri keladi (yerning hosildorligi, qiymat ko'rsatkichlarda mahsulot olish, asosiy fondlar bilan ta'minlanish, mehnat qurollariga ega bo'lish, foiz sig'imi qaytimi, smena koeffitsiyenti kabi yuzlab ko'rsatkichlardan hisobotning xulosa qismida iqtisodiy baza sifatida foydalanish kabilar). Bunday o'rganish jarayonida xo'jalik subyekti tomonidan davlat statistik hisobot ko'rsat-

kichlariga «yoyilma berish», bu tushuncha auditor hisoboti-ning bo'lim, moddalariga yuqori malaka egasi sifatida nisbiy ko'rsatkichlarni gorizantal va vertikal tahlil asosida aniq xulosaga kelishini ko'rsatishning o'zi kifoya.

Moliyaviy natijalar qismida to'lov qobiliyati, aylanma mablag'lar aylanish muddati, koeffitsiyentlardan foydalanishni ko'rsatib o'tish lozim. Mana shunday tartibda keng hajmda yozilib, umumiy xulosa va takliflar berilishi mumkin. Shu jihatdan olganda, protsessual-jinoyat kodeksida hujjat statusi «dalolatnoma» so'zi «auditor hisoboti» so'zlari bilan almashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Auditor xulosasining tarkibi haqida oldingi boblarda yetarlicha ma'lumotlar berganimiz o'quvchiga ayon ekanligini e'tiborga olib qo'yamiz.

Umumiy bo'lgan ayrim xulosalar haqida gap yuritar ekanmiz, korxonalar, xo'jalik subyektlari, boshqaruv, audit organlari, qolaversa, fuqarolar maqsadi, el obodonligi, xalq farovonligi ekanligi ma'lum bo'lib qoladi. Shunday ekan, bir mulohaza beixtiyor xayolingizni o'ziga tortadi. Ya'ni barcha qonun va me'yoriy hujjatlarni amalga oshirish obyekti, audit tekshiruvini o'tkazilayotgan xo'jalik subyekti va audit tekshiruvini o'tkazuvchi nodavlat tashkilot auditorlik firmalari doirasida ahamiyat jihatidan qaralishi to'g'rimikan?

Agar to'g'ri degan fikrga kelsak, unda, avvalo, hududni boshqarayotgan boshqaruvchi (ma'lumki, bir necha tarmoq soha, mavjud quvvatlar bor), qolaversa, fuqarolar o'z hududiga, vataniga mehr-muhabbati bilan qarashi, uni e'zozlashi, mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi, uning istiqbolli rivojlanishi kabi muammolar yuzasidan yechim qaroriga umumlashgan ko'rsatkichsiz qanday keladi?

Demak, bu masalaga bitta auditorlik nuqtayi nazaridan emas, balki umumiylik asosida barchaning manfaatlariga ta'sir qiluvchi muammolarni yechish uchun ma'lum bir qarorga kelishini taqozo qiladi. Shunday ekan, 1) hududdagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi xo'jaliklar sohalarini qamrab olgan hisobot davri audit tugallanishi zarur bo'ladi; 2) barcha mavjud quvvatlardan samarali foydalanish mulkdor yoki xo'jalik subyekt rahbarlari, xodimlari uchun emas, balki hududdagi barcha kishilar uchun umumiy ko'rsatkichlar lozimligini tan

olish lozim; 3) qonunga bo'ysungan holda, auditor hisobotida ko'rsatkichlar miqdor va mazmun jihatdan yoyilib, hisobotga qo'shilib, davlat hisob organlariga nisbiy ko'rsatkichlar bilan berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Bugungi kunda respublikamizda huquqiy demokratik davlat qurish tamoyillari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yuqoridagi masalalar yuzasidan katta mas'ullikni talab qiladi. Bunga auditorlik faoliyati ham o'z hissasini qo'shishi lozim bo'ladi.

Demak, shunday uslublar bilan xo'jalik subyektlarining tijorat siri saqlangan holda, iqtisodiyot, moliya, ijtimoiy rivojlanish borasida zarur ma'lumotlarni olish, hududdagi hokimiyat organlari shu faoliyatlarga, tarmoq sohalarga baho berish yechimini kutayotgan muammolarni quyidan to yuqorigacha obyektiv yechim-qaroriga kelish imkoniyatini beradi. Bu, o'z navbatida, tekshiruvlar zarur bo'lgan holatlarda chuqur axborotlar olish borasida juda katta miqdordagi vaqtni, malakali ishchi kuchini tejash imkoniyatini to'la beradi.

Bulardan tashqari, respublikamizda qabul qilinayotgan qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan birga, dunyo tajribasi bilan uyg'unlashayotgan milliy auditorlik standart (andoza) talablariga mos ravishda tugallanishga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb o'ylaymiz.

23- MAVZU: BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VA AUDIT TEKSHIRUVINI O'TKAZISH

Budjetdan moliyalashtiriladigan korxonalar, asosan, davlat boshqaruv organlari, audit, ta'lim va sog'liqni saqlash tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish, ish yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga qaratilgan.

Respublikamizda barcha xo'jalik subyektlarida me'yoriy hujjatlarga muvofiq, uslubiy jihatdan mutasaddilik O'zbekiston Moliya vazirligiga yuklangan. Shu tufayli budjet mablag'lari hisobidan faoliyat ko'rsatadigan korxonalar, tashkilotlardagi buxgalteriya hisobiga rahbarlik shu vazirlik zimmasidadir.

Bu korxonalar va tashkilotlarda joriy buxgalteriya hisobi hamda hisobortlar Respublika Moliya vazirligining 1998-yil 14-dekabrda 03—02—26/74-sonli xat-yo'riqnomasiga muvofiq tashkil qilinadi va ishlar ham shu asosida yuritiladi.

Ko'rsatib o'tilgan yo'riqnomaga muvofiq budjet mablag'laridan moliyalashtiriladigan korxonalar va tashkilotlar belgilab qo'yilgan 4 (to'rt) guruh xarajatlari bo'yicha belgilangan smeta ko'rsatilgan mablag'larning maqsadli, shu miqdor qiymat ko'rsatkichlaridan oshmasligi asosida tashkil qilinadi, ular jumlasiga:

1- *guruh* — xarajatlari mehnat haqi, unga tenglashtirilgan to'lovlari, stipendiya, ishlayotgan onalarning farzandlari 2 yoshgacha bo'lgan davrdagi nafaqalarini o'z ichiga oladi.

2- *guruh* — sarflari ish haqiga nisbatan hisoblanadigan ajratmalar: nafaqa ta'minot fondi va boshqa ajratmalar.

3- *guruh* — chiqimlar notijorat tashkilotlardagi transfertlar, uy xo'jaliklariga joriy transfertlar.

4- *guruh* — xarajatlari, safar xarajatlari, xizmatlar uchun to'lovlari, joriy ta'mir, moddiy zaxiralarni sotib olish, kapital

ta'mir, noishlab chiqarish sferasidagi chiqimlarni hisobga olib boradi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, bu korxon va tashkilotlarda subschotlar to'rt raqamli kodlar asosida qat'iy belgilangan smetadagi sarflardan oshib ketmasligi eng muhim auditorlik tekshiruvi hisoblanadi.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, tasdiqlangan bunday audit, uning ajralmas qismi bo'lgan audit turidan foydalanishga ko'proq mos keladi.

Bu korxon va tashkilotlarda hozirgi vaqtda nobudjet mablag'larni tashkil qilish, u mablag'lardan keng foydalanish statusi berilgan, masalan, o'quv yurtlarida shartnomalar asosida birkirilgan yerlardan mahsulot yetishtirish kabilardan olinadigan daromadlar.

Auditorlar auditorlik tekshiruvlarini mavjud qonun-qoidalarga mos ravishda tashkil qilinishini eslatib, ammo ayrim o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tishni ma'qul deb hisoblaymiz:

1. Budget korxon va tashkilotlarida xo'jalik subyektlaridagi faoliyatiga xos faoliyatlar yuritilishi mumkinligi hisobga olinishi lozim.

2. Auditorlik tekshiruvi ikki qismdan, ya'ni smetada belgilangan sarflarning aniq maqsadga qaratilgani nuqtayi nazaridan audit o'tkazilish lozim va ikkinchi tomondan nobudjet mablag'lar hisobidan, faoliyatlar samaradorligi jihatlaridan audit tekshiruvi o'tkazilib, auditorlik hisobot va xulosalari berilishi lozim.

Demak, bu korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish, ayniqsa buxgalteriya schotlariga tayinlangan registrlardagi ko'rsatkichlar ham, yuqori tashkilotlarga topshiriladigan hisobotlar shakl, mazmunlari ham shu yo'nalishlarda yuritiladi.

Budgetdan tashqari mablag'lar ularning manbalari bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish, hisobotlarni topshirish boshqa tarmoq, soha xo'jalik subyektlarining audit tekshiruvi singari amalga oshirilishi lozimligi uqtililadi.

Tekshirish tartibi hamda auditorlarning vazifalari

Korxonalar to'la xo'jalik hisobi sharoitida o'zlarining ishlab chiqarish moliya faoliyatini me'yorli ravishda amalga oshirish uchun ma'lum darajada o'z mablag'lariga ega bo'lishlari kerak. Korxonada iqtisodiy fondlarning tashkil bo'lishi va u mablag'lardan unumli foydalanishni audit qilish zarur bo'ladi. Auditorlar korxonada ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida, birinchi galda, fondlar va zaxiralarning tashkil qilinishining qonuniyligi va iqtisodiy maqsadli bo'lishini tekshiradilar. Korxonada foyda olishning ishlab chiqarish turlari bo'yicha va yo'nalishlariga qarab, vujudga kelish omillari chuqur tahlil qilinadi, foydaning taqsim qilinishi, agarda ayrim tarmoqlardan — zarar olingan bo'lsa, uning sabablari o'rganiladi. Shundan so'ng foydaning taqsimlanishi natijasida jamoa xo'jaliklarida foydalardagi, Ustav fondidagi o'zgarishlarning qonuniyligi, to'g'ri rasmiylashtirilishi tekshiriladi. Shuningdek, amortizatsiya, iqtisodiy rag'batlantirish, maxsus fondlarning tashkil qilinishi, ularga taalluqli operatsiyalarning qonuniy rasmiylashtirilishi, fond mablag'laridan unumli foydalanish o'rganib chiqiladi. Bunda har bir fond bo'yicha alohida-alohida tekshirish o'tkaziladi. Korxonada auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida balansdagi foydani tahlil qilish muhim vazifadir.

Balansdagi foydaning tahlili

Ko'rsatkichlarning nomlari	Bazis hisobot davri	Hisobot davri	Chetlanish	
			summa	foiz
1. Mahsulot sotishdan daromad				
2. Sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari				
3. Sotishdan foyda				
4. Boshqa realizatsiyalardan foyda				
5. Realizatsiyadan, boshqa operatsiyalardan daromadlar shu jumladan, qo'shma korxonalarda qatnashishdan				
6. Realizatsiyadan boshqa operatsiyalar bo'yicha chiqim va zararlar				
7. Balansdagi foyda				

Ushbu jadval tuzilib, xulosaga qo'shiladi. Tekshirish yakunida korxonalarda kelgusi davr sarflari uchun zaxiralar tashkil qilinishi, davlat budjetidan olinadigan mablag'lardan samarali foydalanish va tekshirilayotgan korxonaning ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli xulosalar beriladi.

24- MAVZU: KORXONA MOLIYAVIY AHVOLI AUDITI

Korxonalarda audit o'tkazish jarayonlari

Tahliliy jarayonlar audit tekshiruvining muhim bir uslublaridan bo'lib, ketma-ket moliyaviy qadam tashlashni taqozo qiladi. Bunda asosiy ish moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan munosabatlarni o'rganishdan boshlanadi. Tahliliy jarayonda quyidagi tartibda ish olib boriladi:

a) audit tekshiruviga tayyorgarlik, ekspert ko'rsatkichlar tahlili;

b) maqsadni belgilash;

d) matnni rejalashtirish;

e) matnni o'tkazish;

f) natijalarni tahlil etish va xulosa.

Maqsadni belgilashda asosiy vazifa korxonadagi biznes-rejalarning mavjudligi va ular bilan tanishishni amalga oshirish bilan bog'liq. Biznes-rejalashning realligini belgilashda asosiy e'tibor korxonaning faoliyat ko'rsatish qobiliyatini belgilashdan boshlanadi. Korxonaning faoliyat ko'rsatish qobiliyatini belgilashda, avvalo, uning moliyaviy to'lov qobiliyati hisobga olinadi. Shuningdek, korxonaning uzoq muddatli kapitali bilan o'z kapitalining nisbati qaysi holatda ekanligi o'rganiladi. Shundan so'ng korxonaning foyda me'yori tahlil qilinadi. Tahliliy jarayonlarda moliyaviy hisobotlarning taxminiy ehtimol xatosini topishga katta e'tibor beriladi. Ehtimollik xatosini topishda «odatdan tashqari tebranish» atamasidan keng foydalaniladi. Test elementlarning sonini kamaytirish ham katta ahamiyatga ega.

Tahliliy jarayonlarda auditor uchun vaqtni tanlash ham muhimdir. Maqsadni aniqlashda avval umumiy reja, keyin esa aniq reja belgilanadi. Aniq rejani belgilashda asosiy e'tibor testlarni rejalashga qaratiladi. U quyidagi uchta vazifani o'z ichiga oladi:

1. Mos keladigan audit tanlash.
2. Vaqt tanlash.
3. «Odatdan tashqari tebranish».

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining funksional ravishda mavjud bo'lishini tahlil qilish auditorlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Chunki, korxonaning joriy majburiyatlarni o'z vaqtida amalga oshirishini moliyaviy jihatdan ta'minlashi uning raqobatbardoshligini ko'rsatuvchi asosiy omildir. Korxonaning joriy davr mobaynidagi moliyaviy mustahkamligini bilish uchun mavjud xo'jalik operatsiyalar mablag'larini, mablag'lar manbaini ko'rsatuvchi umumiy moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblash asosiy vazifalardan biridir. Quyidagilar milliy umumlashtiruvchi koeffitsiyentlar hisoblanadi: a) moliyaviy sarflarni qoplash; b) qisqa muddatli qarzlarni tugatish koeffitsienti; d) absolut miqdorda mablag'larni qoplash. Bu koeffitsiyentlar juda katta iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, korxonaning balansidagi ma'lumotlar olib ko'rsatiladi:

$$1) \frac{Qoplash}{koeff} = \frac{joriy aktivlar}{joriy majburiyatlar}$$

Joriy aktivlar balansning 2- qismi bo'lib, joriy davrdagi xo'jalik mavjud mablag'larining unishi lozim bo'lgan debitor qarzlarni o'z ichiga oladi. Joriy majburiyatlar balansning passiv qismi hisoblanadi va u joriy to'lanishi lozim bo'lgan kreditorlik qarzlarni o'z ichiga oladi:

$$2) \text{ qisqa muddatli qarzlarni tugatish koeffitsiyenti} = \frac{\text{pul mablag'lari + bozor qiymatiga ega qimmatbaho qog'ozlar + real debitorlar}}{joriy majburiyatlar};$$

$$3) \text{ absolut tugatish koeffitsiyenti} = \frac{\text{pul mablag'lari + qimmatbaho qog'ozlar}}{joriy majburiyatlar}$$

Shunday qilib, korxonalarining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi yashash qobiliyatini o'rganish va tegishli xulosa berishi uchun, uning moliyaviy ahvolini tahlil qilib berish uchun korxonada faoliyatining auditorlar tomonidan chuqur o'rganilishi hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Chunki bozorning obyektiv iqtisodiy qonunlari harakat talabiga ko'ra vujudga keladi. Demak, raqobat doimo korxonada egasining auditorlar xizmatiga muhtojligini oshiradi.

Qisqa muddatli to'lovlarning koeffitsiyentini hisoblash ham muhim ahamiyatga ega. Debitorlik qarzlarni tugatishda korxonadagi mavjud pullar va mablag'larning aylanma tezligidan, qimmatbaho qog'ozlardan foydalanish mumkin. Qisqa muddatli qarzlarni tugatish koeffitsiyenti quyidagicha:

$$\text{a) debitor qarzlarning o'rtacha aylanma koeffitsiyenti} = \frac{\text{mahsulot sotish hajmi}}{\text{o'rtacha debitor qarzar}};$$

$$\text{b) mahsulot (xizmat, ish)larni sotishdan keladigan o'rtacha to'lov kunlari soni} = \frac{\text{o'rtacha bir kunlik debitorlar (so'm)} \cdot 360}{\text{sotilgan mahsulot miqdori (so'm)}}$$

a) mazkur koeffitsiyent korxonalar naqd aktivlarining to'lanish imkoniyatini ko'rsatadi;

b) koeffitsiyent ish bilan birga korxonadagi aylanma tovarlar miqdorining naqd shaklda aylanishini ko'rsatadi;

$$\text{d) moddiy tovar boylıklarning o'rtacha aylanish koeffitsiyenti} = \frac{\text{sotilgan mahsulot qiymati}}{\text{moddiy tovar qiymatining o'rtacha hajmi}}$$

Koeffitsiyent moddiy tovar qiymatini hisobga olish tartibi muhim ahamiyatga ega va ularning o'zgarish tartibini ifodalashga quyidagi usullardan foydalaniladi.

FIFO — xo'jalikdagi moddiy-tovar qiymatliklarning hisobot davrida arifmetik o'rtacha baholar bilan xarajatga chiqarilishini ko'rsatadi.

LIFO — xo'jalikdagi moddiy-tovar qiymatliklarning xronologik tartibda baho belgilanib, xarajatga chiqarilishini ko'rsatadi.

$$e) \text{ o'rtacha yuk jo'natish kunlar soni} = \frac{\text{moddiy tovar boyliklar zaxirasining o'rtacha qiymati} \cdot 360}{\text{moddiy tovar qiymatining o'rtacha hajmi}}$$

$$f) \text{ o'rtacha tovar zaxiralarning naqd pulga aylanish kunlar soni} = \frac{\text{o'rtacha to'lash kunlar soni} +}{\text{o'rtacha yuk jo'natish kunlari}}$$

Korxonalarining moliyaviy jihatdan qudrati yoki inqirozga yuz tutayotganligini oldindan bilish uchun uzoq muddatli qarorlar va dividendlarning o'z vaqtida to'planishini hisobga olib borish auditor uchun ham, korxonaga uchun ham xulosa chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Bu hol quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlaydi:

$$1) \text{ aksioner hissasining qarzlariga nisbati} = \frac{\text{barcha majburiyatlar}}{\text{aksiya kapitali}};$$

$$2) \text{ mavjud material aktivlarning aksionerlar hissasiga nisbati} = \frac{\text{aksiya kapitali} - \text{nomoddiy aktiv}}{\text{aksiya kapitali}};$$

$$3) \text{ oddiy aksionerlik ko'effitsiyenti} = \frac{\text{xo'jalik operatsiyalaridan olingan daromad}}{\text{oddiy dividend summasi}} ;$$

$$4) \text{ oddiy va imtiyozli aksionerlarga to'lov ko'effitsiyenti} = \frac{\text{xo'jalik operatsiyasidan olingan daromad}}{\text{oddiy aksiyalarga dividend} + \frac{\text{imtiyozli aksiya}}{1 - \text{soliq stavkasi}}} ;$$

Korxonada moliyaviy jihatdan yetarli faoliyat ko'rsatishi uchun uning quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash zaruriyati tug'iladi:

$$1) \text{ samaradorlik ko'effitsiyenti} = \frac{\text{sotilgan mahsulot hajmi}}{\text{aylanma moddiy aktivlar}} ;$$

$$2) \text{ moddiy aktivlarning rentabellik darajasi} = \frac{\text{xo'jalik operatsiyalaridan olingan daromad}}{\text{aylanma moddiy aktivlar}} ;$$

$$3) \text{ umumiy mulkning rentabellik darajasi barcha mulklar summasi} = \frac{\text{dividend to'langanga qadar barcha daromadlar summasi} - \text{olingan soliqlar}}{\text{barcha mulklar summasi}} ;$$

$$4) \text{ barcha aksiya kapitalining daromadlilik darajasi} = \frac{\text{soliq olinguncha daromad} - \frac{\text{Imtiyozli aksiyalar uchun dividend summasi}}{\text{soliq stavkasi}}}{\text{umumiy aksiya kapitali}} ;$$

$$5) \text{ aksiyaning o'rtacha hisob qiymati} = \frac{\text{umumiy aksiya qiymati}}{\text{umumiy aksiya soni}} ;$$

25- MAVZU: KORXONA HISOBOTLARINI TEKSHIRISH VA TAHLIL QILISH

Audit qilish tartiblari va auditorlarning vazifalari

Audit organlarining korxonadagi birinchi vazifasi buxgalteriya hisobini tashkil qilishda amaldagi tartib-qoidalarga rioya qilinishini, yuqori tashkilotlarga topshiriladigan hisobotlarning haqiqiy xo'jalikdagi ahvolni ko'rsatishini va o'z vaqtida tuzib topshirilishini tekshirishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi tekshirilganda, avvalo, korxonadagi ahvol, amalda uni tashkil qilish qonun ABUSlariga taqqoslab ko'riladi va undagi tartib-qoidalardan chetlanish aniqlanadi. Bunda buxgalteriya hisobida progressiv usullarning qo'llanilishi hisobga olinadi, bosh buxgalter tomonidan unga yuklatilgan mansab vazifalarining bajarilishi tekshiriladi. Korxonada hisob siyosatining ishlanganligi, unga to'g'ri rioya qilinganligi o'rganiladi. So'ngra hisobotlarning tuzilishi, o'z vaqtida yuqori tashkilotlarga yetkazilishidagi kamchiliklar aniqlanib, ularni tuzatish choralari belgilanadi.

O'zbekistonda progressiv shakl hisoblanayotgan jurnal-order shaklining to'la joriy qilinishi sust bormoqda. Bunga sabab, birinchidan, hisob reja xodimlarining malaka va bilim saviyasining pastligi bo'lsa, ikkinchidan esa, jurnal-orderlar mazkur regionga xos xususiyatlarini o'zida to'la aks ettirmaydi va takomillashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, kompyuterlardan foydalanishga o'tishga alohida e'tibor berilishi lozim.

Buxgalteriya hisobining ahvolini tekshirish

Buxgalteriya hisobi, birinchidan, xo'jalik tizimida, ishlab chiqarishni boshqarishda, uni ishlab chiqarish, ta'minot, mahsulotlarni realizatsiya qilish to'g'risida axborot bilan ta'minlansa, ikkinchidan, korxonada mulkning saqlanishi, undan

unumli foydalanish ustidan qattiq audit olib boriladi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining ahamiyati boshqarishning ajralmas qismi ekanligini ko'rsatib o'tish muhim. Shu munosabat bilan xo'jalikni yuritishda korxonada buxgalteriyasi hisobi ustidan doimiy ravishda audit olib borish taqozo qilinadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda buxgalteriya hisobida xo'jalik operatsiyalarini o'z vaqtida aks ettirish bo'yicha orqada qolish faktlari ko'zga tashlanib qolmoqda. Auditorlar tomonidan uning sabablari chuqur o'rganilib, audit o'tkazilayotgan korxonada uni tuzatish choralari ko'rilishi zarur.

Buxgalteriya hisobining joriy ahvolini tekshirishda esa, dastlabki hujjatlarning tipovoy (namuna) shakllarga mosligi, buxgalteriyada qo'llanilayotgan schotlarning xalq xo'jaligi sohasida foydalaniladigan schotlar rejasiga mos kelishi tekshiriladi. So'ngra bosh schot tarkibida subschotlar, buxgalteriya registrlari to'g'ri bo'lishi tekshiriladi. Korxonada yuritilayotgan bosh subschotlar va analitik schotlar, buxgalteriya registrlarining dastlabki hujjatlari, so'ngra Respublika Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan formalari mos kelishi tekshiriladi. Hisob-kitob xodimlarining bilim darajasi, malakasi, ishlab chiqarish bo'linmalarida, jumladan, ombor-da, fermada, brigadada, xazinada dastlabki hisobning tashkil qilinishi o'rganiladi. Buxgalteriya hisobining joriy ahvoli tekshirilganda hisob xodimlari o'rtasida vazifalarning taqsimoti, bunda tavsiya qilingan hisob va rejalashtirish vazifalari qo'shilishi lozimligi masalalari o'rganiladi.

Korxonada buxgalteriya hisobining progressiv shakllarining joriy qilinishi, kompleks mexanizatsiyalash ishlarining borishi tahlil qilinadi. Shu kabi hujjatlar rejaning tuzilishi, unga qay tartibda amal qilinayotganligi, hisob ishlari grafigining tuzilishi, korxonada buxgalteriyasida unga rioya qilishning ahvoli tekshiriladi. Korxonada buxgalteriya hisobining joriy ahvolini tekshirishda shtatlar birligiga rioya qilish, ularning bilim va malakalarini oshirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilayotganligi o'rganiladi.

Tekshirish yakunida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish, ilg'or tajriba va progressiv usullarni joriy qilish bo'yicha taklif va mulohazalar ko'rsatiladi.

26- MAVZU: AUDITORLIK XIZMATINING HISOBOTI VA TEKSHIRISH YAKUNLARINI RASMIYLASHTIRISH

Hisobot intizomi mamlakatimizdagi boshqaruv organlarini korxonalar, tashkilot, muassasa va boshqalarning moliya, xo'jalik hamda ishlab chiqarish faoliyatlari haqida axborot ma'lumotlari bilan ta'minlaydi. Hisobot shakllari Respublika Moliya vaziri, Iqtisod va statistika vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, xalq xo'jaligining mazkur sohasiga rahbarlik qiluvchi organlar tomonidan tasdiqlanib, buxgalteriya hisobi registrlari ma'lumotlari asosida tuzilgan grafik (tasdiqlangan muddatda) ularga topshiriladi. Hisobotlarni talab qiladigan va xalq xo'jaligi bo'yicha umumlashtiriladigan organlarga ko'ra buxgalteriya va statistika hisobotlari tayyorlanadi. Auditorlar hisobot intizomiga rioya qilinishini audit qilganlarida har bir hisobotlarni alohida-alohida tekshirishlari lozim.

Hisobotlar xo'jalik operatsiyalarini, ular sodir bo'lgan davrni qamrab olishiga ko'ra, yillik va joriy hisobotlarga bo'linadi. Auditorlar buxgalteriya hisobotlarini audit qilganda, korxonadagi hisobot formalarining namunaviy formalar asosida ekanligiga e'tibor qiladilar. Buxgalteriya hisobotida ko'rsatkichlar, miqdorlar buxgalteriya registrlaridagi hajm miqdoriga to'g'ri kelishi tekshiriladi.

Ko'p hollarda, amalda, axborot hisobot ma'lumotlari bilan buxgalteriya registrlari miqdorlarida farq uchraydi. Shuningdek, yillik hisobot ma'lumotlari bilan kvartal yakuni hisobotlari o'rtasida ham farqlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ular bir-birlariga taqqoslanishi lozim. Agarda unda farqlar uchrasa, auditorlar tomonidan ko'rsatkichlar bo'yicha hisobot va registr ma'lumotlari asosida qaydnoma ma'lumotnomalar tuzilishi zarur.

Aylanma mablag'lar summasi haqiqiy natijasida aniqlangan summalarga mos kelishi lozim, hisobotda yo'qotuv-o'g'irlik qiymatlari aks ettirilgan bo'lsa, xarajatga chiqarish dalolat-

noma ma'lumotlariga teng bo'lishi kerak. Inventar schotlardagi qoldiqlar pul birligida, buxgalteriya registrlaridagi va inventarizatsiya dalolatnomalaridagi miqdor va summalariga teng bo'lishi kerak. Shunday qilib, hisobotlardagi ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tan-narxi, tarmoq va butun xo'jalik bo'yicha foyda-zarar buxgalteriya registrlaridagi ma'lumotlarga teng bo'lishi lozim.

Agar vaqtida hisobotlarda va buxgalteriya registrlarida korxonaning debitor qarzlarini qonunsiz zarar hisobiga xarajatga chiqarish hollari aniqlansa, dalolatnoma bilan javobgar shaxsdan undirib olinadi.

Statistik hisobotlar ham korxonadagi ijtimoiy hodisalar va ularning o'zaro aloqasi haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi. Bu hisobotlar real holatni ko'rsatishi lozim. Statistik hisobotlar korxonadagi moddiy, mehnat, moliya va boshqa resurslar to'g'risida davlat rejalarining bajarilishi, davlat korxonasi huquqlarining kengayishi munosabati bilan shartnoma bo'yicha buyurtmalarning bajarilishi to'g'risida, davlat rejalarining bajarilishi, davlat korxonasi huquqlarining kengayishi munosabati bilan shartnomalar bo'yicha buyurtmalarning bajarilishi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Undagi ma'lumotlar, avvalo, buxgalteriya registrlari va yillik, joriy hisobotlar ma'lumotlariga mos bo'lishi lozim. Agar buxgalteriya va statistika ma'lumotlarida noto'g'ri miqdorlar yoki qo'shib yozish haqidagi ma'lumotlar bo'lsa, audit dalolatnoma sud-tergov organlariga o'tkaziladi. Buxgalteriya hisobotlari singari statistika hisobotlari ham belgilangan muddatlarda soliq statistika davlat qo'mitasining joylardagi organlariga topshirilishi lozim.

Shu bilan birga auditorlar tomonidan audit qilinayotgan korxonada statistik hisobotlarni to'ldirish yo'l-yo'riqlari bo'lishi kerak. Hisobotlarni tahlil qilish va tekshirish natijalari dalolatnomaning alohida bo'limida aniq, tushunarli tilda to'la aks ettirilishi lozim. Audit xulosa dalolatnomasi bozor iqtisodiyoti davrida katta ahamiyatga egadir.

Tekshirish tartibi hamda uning oldiga qo'yilgan talablar

Korxonalarda ish yuritish va ijrochilik intizomini to'g'ri tashkil qilish, xo'jalikda ishlab chiqarish, moliya faoliyatida yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Ish yuritish deganda, avvalo, korxonalarda texnologik ishlarni agrotexnika, zootexnika hamda veterinariya qoida va muddatlari asosida o'tkazish uchun tuziladigan ish rejalari, yuqori tashkilotlardan kelayotgan qarorlar, shu korxonada xodimlari yozgan xatlarni hisobga olish va ishlab chiqarishga tatbiq etish tushuniladi. Shuningdek, ish yuritishda korxonada o'tkazadigan umumiy yig'ilishlar, balans hay'ati, mehnat jamoalari hamda tahlil byurolari bayonnomalarining yuritilishi, tezkor ma'lumotlarning korxonada ishlab chiqarish bo'linmalaridan olinishi, o'z vaqtida rahbar va mutaxassislar tomonidan ulardan ishlab chiqarish axboroti sifatida qabul qilinib, kelgusida xo'jalik masalalari bo'yicha yechimlar qabul qilinishi ahamiyatga egadir. Bu ishlar qanchalik aniq qayd qilinib, rasmiylashtirilib borilsa, ular yuzasidan tadbirlarning amalga oshirilishi shuncha yaxshi natijalar beradi. Auditorlarning birinchi vazifasi, bu ishlarning o'z vaqtida amalga oshirilayotganligini tekshirishdan iboratdir. Shuningdek, auditorlar bu hisob-kitob, delo va jurnallarini ma'lum tartib asosida tekshirishi zarur.

Ijrochilik intizomiga rioya qilish esa, avvalo, korxonada hukumatimiz tomonidan xo'jalik masalalari bo'yicha qabul qilingan qaror hamda buyruqlarning o'z vaqtida bajarilishini audit qilishni o'ziga vazifa qilib olsa, ikkinchi tomondan esa, korxonaning o'zida qabul qilingan ish rejalari, jamoaning umumiy yig'ilishida tasdiqlangan qarorlari, rahbarlar tomonidan yozma ravishda ko'rsatmalarning aniq bajarilishini tekshirishdir.

Ish yuritishni tekshirish

Korxonalar faoliyatida ish yuritish mehnatni tashkil qilish bo'g'ini hisoblanib, ishlab chiqarish, xo'jalik va moliya jaryonlarida tashkilotga kelayotgan ishlar yuzasidan hujjatlarni tartibga solish, yuritish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Ma'lumki, korxonada har bir xo'jalik operatsiyasi yuridik kuchga ega bo'lgan, asosli hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu xo'jalik operatsiyalarining xarakteriga qarab

hujjatlar normativ rejali, hisobot, hisob, texnika, kadrlar hamda boshqaruvga doir hujjatlarga bo'linadi.

Har bir hujjat tuzish yozish, jurnallarda qayd qilish, jo'natish, qabul qilish, zarur hollarda ularni ko'paytirish va saqlash vazifalari bilan bog'liqdir. Bu ko'rsatilgan vazifalarning to'g'ri tashkil qilinishi esa korxonada ish yuritishning qanday uyushtirilishiga bog'liq, shuning uchun ham bu jarayonlar auditga taalluqlidir. Auditorlar, avvalo, korxonada ish yuritishni tekshirishda yuritiladigan delolarning nomlari asosida bir xil hujjatlar tashkil qilinganligi, ularning namunaviy ish yuritish tartibidagi raqamlariga mos kelishini aniqlaydilar. So'ngra delolarga taalluqli, tuzilgan hujjatlarning o'z vaqtida tikilib, yig'ilib borishini tekshiradilar. Auditorlar tomonidan har bir hujjatlarning tuzilishi, kerakli jurnallarda qayd qilinishi, tayinlanishi bo'yicha jo'natilishi, ularning ijro qilinishi to'g'risida belgilarning qo'yilishi tekshiriladi. Shunda bu hujjatlarning saqlanishi, arxivga topshirilishi kabilar chuqur o'rganiladi. Ayniqsa, hujjatlarning tuzilishi katta ahamiyatga egadir. Chunki, buyruq, qaror va hujjatlarning kelishi, tashkilotdan jo'natilishi, rasmiylashtirilishi, korxonada ish yuritish darajasi boshqaruv ishlarining uyushtirilish umumiy darajasini ko'rsatadi. Shuningdek, auditorlar delolarda aks ettirilgan mavzularning o'ziga mos ekanligi, undagi hujjatlarning mazmunini bayon qilish tartiblarini ham o'rganadilar. Korxonada tuzilgan hujjatlar o'rganilganda ularning yozilishiga, bayon qilish tartibiga, tushunarli tilda yozilishiga, tuzilganda esa tegishli aloqador shaxslarning imzolari, belgilari bo'lishiga, yozilgan yuridik hujjatlar amaldagi qonunlarga qarama-qarshi bo'lishi yoki bo'lmasligiga alohida e'tibor berildi. Agarda shunday hujjatlar uchrab qolsa, auditorlar uning tezlikda bekor qilinishi to'g'risida taklif kiritadilar va u audit dalolatnomasi yoki tekshirish ma'lumtnomalarida ko'rsatiladi.

Yuridik hujjatlarda ko'rsatilgan natura, pul, fizik miqdorlar ijro hujjatidagi miqdorlar bilan taqqoslanib ko'rilishi lozim. Korxonaning moliya, mehnat, material, real aktivlar va pul mablag'laridan foydalanishga doir hujjatlari shu sohadagi yuridik huquq normativ hujjatlariga mos yoki mos emasligi aniqlanadi. Zarur hollarda korxonada yozilgan hujjatlar

auditorlar tomonidan ekspert organlariga xulosa uchun havola qilinadi. Tekshirishda korxonadagi hujjatlarning saqlanishi, davlat arxiviga topshirish uchun tayyorlanishi o'rganiladi. Tekshirishning oxirida ish yurituvchi xodimlar malakasi, ularning malakasini oshirish, ish yuritishning yanada takomillasuvi bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar, ish yurituvchi xodimlar ish joylarini va mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish masalalari yoritiladi.

Ijro intizomini tekshirish

Korxonalarda ijrochilik intizomining mustahkamlanishiga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini oshirishda muhim shart-sharoit ekanligi bir necha marta ko'rilgan. Auditorlik, audit ishlarida ijrochilik intizomiga rioya qilinishini chuqur tekshirib borish vazifasi turadi.

Auditorlar ijrochilik intizomiga rioya qilinishini tekshirganda rahbarlar, mutaxassislar, boshqarma apparati xodimlari o'rtasida mansub vazifalarining taqsimlanishini o'rganishlari lozim. Shundan so'ng korxonada xodimlari tomonidan tushayotgan ariza va shikoyatlar, takliflar, davlat tomonidan ishlab chiqarish rejalarining bajarilishi tekshiriladi. Shuningdek, korxonaning o'zida qabul qilingan qaror va buyruqlarning ishlab chiqilgan oylik, kvartal rejalarining bajarilishi alohida audit qilinadi. Tekshirishda rejalarining ilmiyligiga, bajarilishining tahlil qilish asosida realligiga e'tibor beriladi.

Ijro intizomini audit qilishda oldingi o'tkazilgan audit dalolatnomalarida ko'rsatilgan takliflar va ko'rilgan choralarlarning ijrosi aniq tekshiriladi. Ayniqsa, hisobdor va mansabdor shaxslarga ko'rilgan choralar ijrosi, dalolatnomada aniqlangan iqtisodiy zararlarning tiklanishiga katta e'tibor berish lozim. Ishlab chiqarish rejaları va korxonada mulkining saqlanishini ta'minlash tadbirlarining korxonada amalga oshirilishi tekshiriladi. Albatta, ijro intizomining yuqori saviyada bo'lishi, ijro uchun berilgan topshiriqlarning bajarilishi haqida o'z vaqtida tegishli shaxslarga jamoaga axborot berilishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir.

Nihoyat, auditorlar ijrochilik intizomining ahvolini yozish bilan chegaralanmay, uni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritadilar. Ularning hammasi korxonada ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tadbirlari ekanligini isbotlab, ko'rsatib berishi lozim.

Korxonaga ustavga rioya qilinishini tekshirish

Audit ishlarining eng muhim sohalaridan biri bu korxonaning ishlab chiqarish va moliya faoliyatini yo'lga solib turuvchi Ustavga rioya qilishni tekshirishdan iboratdir. Ustav me'yorlariga rioya qilish orqali korxonaga mulkning to'liq saqlanishi va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishi ta'minlanadi.

Ustav qonunlariga rioya qilish, tekshirish quyidagi tartibda o'tkaziladi. Avvalo ta'sischi Ustavning mavjudligi, uning ta'sischi umumiy yig'ilishida qabul qilinishi va belgilangan tartibda saqlanishi aniqlanadi. So'ngra ushbu korxonaning Ustav qoidalariga namunaviy Ustav qoidalariga mos kelishligi hamda mahalliy sharoitlarni va amaldagi qonunlarni hisobga olgan holda kiritilgan o'zgartirishlar o'rganiladi.

Tekshirishning so'nggi bosqichida xo'jalikning kundalik ishlab chiqarish, moliya faoliyatida Ustavning huquqiy me'yorlariga amal qilinishi ko'rib chiqiladi. O'tkazilgan tekshirishni umumlashtirish natijasida jamoa xo'jaligining Ustavi qoidalarining buzilishi hollari, bunga yo'l qo'ygan aybdor shaxslar va shu bilan birgalikda kelgusida ushbu kamchiliklarni tugatish yo'llari ko'rsatiladi.

Belgilangan tartibda ishlab chiqilgan korxonaga Ustavi ta'sischi umumiy yig'ilishida yoki vakillar yig'ilishida tasdiqlanadi. Umumiy yoki vakillar yig'ilishida qabul qilingan Ustav tuman hokimligiga tasdiqdan o'tkazish uchun taqdim etiladi. So'ngra bu Ustavning har bir betiga muhr bosiladi.

Ta'sischi Ustavning mavjudligini tekshiruvchi shaxs uni qay ahvolda saqlanayotganligiga alohida e'tibor berishi lozim. Ustavga har kimning har xil o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Odatda, ta'sischi Ustavi hisob blankalari va hujjatlari yonmaydigan temir seyf-

larda saqlanadi. Uning bexatar saqlanishi va daxlsizligini korxon boshqaruvi ta'minlashi lozim. Auditor ta'sischi Ustavining ta'sischi umumiy yig'ilishida yoki vakillar tomonidan tasdiqlanganligini tekshirib ko'radi. Yig'ilishning tartibiga (bunda ta'sischi kamida 2/3 qismi qatnashgan bo'lishi shart) va qabul qilgan qaroriga (unda ta'sischi Ustavining ko'pchilik qismi ovoz berganligiga) alohida e'tibor beriladi. Ta'sischi Ustavining umumiy yoki vakillar yig'ilishini o'tkazish qonundan tashqari yoki qaror qabul qilishda kamchilarga yo'l qo'yilganligi aniqlangan hollarda, audit dalolatnomasiga yoki tekshirish ma'lumotnomasiga ta'sischi Ustavini tasdiqlash uchun qaytadan qonuniy ravishda yig'ilish o'tkazilishi taklifi kiritiladi.

Tekshirishning navbatdagi bosqichida ta'sischi Ustavining umumiy moddalariga ta'sischi Ustavining Namunaviy Ustavi moddalariga muvofiq kelishi ko'rib chiqiladi. Bunday umumiy huquq normalariga korxonaning vazifasi, korxon a'zolarining umumiy huquq va majburiyatlari, yerdan umumiy foydalanish tartibi, uning umumiy mulkini tashkil qilish va undan foydalanish, ishlab chiqarish va moliya faoliyatini yoritish, ish haqi va mehnat qilish tartiblarini tashkil qilishning umumiy qoidalari, ta'sischi Ustavining yalpi mahsulotini va fondlarini taqsimlash tartiblari, madaniy-maishiy va ijtimoiy ta'minot hamda ularning shaxsiy xo'jaligini yuritish, boshqarish organlari kabilar kiradi. Bu huquqiy normalar korxon Ustavida albatta ko'rib chiqilgan va Namunaviy Ustavga nisbatan keng yoritilgan bo'lishi kerak.

Tekshirishda qonundan tashqari dalolatnoma hollari mavjudligi aniqlansa, audit dalolatnomasi yoki tekshirish ma'lumotnomasiga ilova qilinadigan maxsus vedomostga yozib qo'yiladi. So'ngra korxon boshqaruvining va ayrim javobgar shaxslarning Ustavning alohida moddalariga qanday rioya qilishi ko'rib chiqiladi. Bunda, birinchi navbatda, korxon boshqaruvining, ta'sischi Ustavining umumiy yoki vakillar yig'ilishining chaqirish muddatlariga e'tibor beriladi (bu yig'ilishlar yiliga kamida to'rt marta, bundan tashqari ta'sischi Ustavining 2/3 qismi yoki audit hay'ati talab qilgan vaqtlarda chaqirilishi lozim).

Umumiy yig'ilishga qatnashayotgan ta'sischilarning sonini aniqlash ushbu yig'ilishning qonuniy huquqqa ega ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari qarorlar kitobida qayd qilingan ko'rsatkichlar, ya'ni umumiy yig'ilishlar necha marta chaqirilganligi, kun tartibi, savollarni muhokama qilish xarakteri, ta'sischilarning faolligi, qarorning mazmuni va shu kabilar tekshirish manbai hisoblanadi. Xuddi shu tartibda ta'sis korxonasi boshqaruvi yig'ilishini o'tkazishning qonuniy huquqqa ega ekanligi, savollar muhokama qilingan qarorlarning mohiyati tahlil qilinadi.

Korxonasi a'zolariga rioya qilish tartibini alohida tekshirish kerak. Buning uchun tekshirishning quyidagi, ya'ni korxonaga qabul qilish yoki chiqish to'g'risida yozilgan ariza, alohida shaxslar bilan suhbat o'tkazish va ulardan yozma ravishda xat olish, qarorlar kitobidagi yozuvlar bilan tanishish, ta'sischilarning mehnat daftarchasi mavjudligini aniqlash usullari qo'llaniladi.

Korxonasi audit hay'atining yillik hisoboti bo'yicha va shirkat xo'jaligi boshqaruvinin a'zolar umumiy yig'ilishiga xulosa yozish tartibi

Audit ishlarini tashkil qilishning o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri jamoa xo'jaligining yillik hisoboti bo'yicha audit hay'atining tuzadigan xulosasi hisoblanadi. Audit hay'atining bu xulosasida xo'jalik-ishlab chiqarish, moliya rejasini ko'rsatkichlarini bajarish, mavjud mablag'lardan qanday foydalanilganligi, yillik hisobotdagi muhim ko'rsatkichlarning haqqoniyligi bayon etiladi. Bunday xulosaning asosiy manbai hisobot, hisobot yilidagi ishlab chiqarish-moliya rejasining ko'rsatkichlari, buxgalteriya schotidagi yozuvlar, yillik hisobotning jadvallardagi ma'lumotlar hamda joriy va yillik audit, tekshirish ishlarining materiallari hisoblanadi.

Audit hay'ati xodimlarining umumiy yig'ilishi (vakillar majlisi)da ma'ruza qiladi. Odatda, bunday ma'ruzani tayyorlash uchun audit hay'atining maxsus yig'ilishi chaqiriladi, bunda hay'atning har bir a'zolariga alohida-alohida ish rejasini

taqsimlab beriladi. So'ngra hay'at a'zolari tekshirgan sohasi bo'yicha ma'lumotnoma tayyorlaydi va shu ma'lumotlar asosida audit hay'atining umumiy ma'ruzai tayyorlanadi. Bunda quyidagilar, ya'ni xo'jalik subyektining ishlab chiqarish, moliyaviy rejalarning bajarilishi, qishloq xo'jaligida mahsulotlarga davlat buyurtmasining bajarilishi, ekinlar hosildorligi, chorva mollar mahsuldorligi, ishlab chiqarishning rentabellik darajasi, mehnat resurslaridan unumli foydalanish kabilarga alohida e'tibor beriladi. Ma'ruzada moliyaviy, ishlab chiqarish, davr xarajat va daromadlari, favquloddagi faoliyat, ishlab chiqarish bo'linmalarining faoliyatlariga obyektiv baholar ko'rsatilishi, ayniqsa, Ustav fondi, qo'shilgan, zaxira kapitallar holatiga aniqlik bilan yondoshish lozim bo'ladi.

Ma'ruzada audit hay'ati, yoki ichki saylangan audit tekshiruv rejalarda ko'zda tutilgan ishlar qay darajada bajarilganligini, ularning korxonada faoliyati uchun qanchalik samarali bo'lganligini ishonchi raqam ko'rsatkichlar asosida yoritib berish lozim.

Korxonadagi foydalanilmayotgan zaxiralar, ulardan foydalanish yo'llari, korxonada istiqboli uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan takliflar ham kiritilishi lozim. Korxonaning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, uning salmog'i haqida obyektiv kafolat fikrlari bilan tugatilishi lozim. Kafolat bo'lmasa sabablari va unga aniq salbiy ta'sir qiluvchi omillar subyektiv shaxslarning ayblari bilan ochib berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bojxona to'lovlarini audit tekshiruvini o'tkazilishining umumiy tamoyillari

Respublikamiz o'tgan o'n uch yillik qisqa tarixiy davrda iqtisodiy mustaqillik pog'onalarida hajm jihatidan katta iqtisodiy yo'lni bosib o'tdi. Bu davrda mamlakat iqtisodiyotiga moliyaviy va audit organlari bilan bir qatorda respublikamiz bojxona tashkiloti ham o'zining munosib hissalarini qo'shish bilan birga rivojlanish, mustahkamlanish yo'lini bosib o'tdi va o'tmoqda.

Ayniqsa, O'zbekistonning ko'pgina dunyo hamjamiyatlari faoliyatiga integratsiyalashuvini ko'rish mumkin. Respublika-

miz bojxona tashkiloti 1992- yildayoq jahon bojxona tashkilotiga kirgan bo'lsa, 1995- yilda uning siyosiy hay'atiga a'zo qilib saylandi, so'ngra 2000- yilda tashkilotning moliyaviy qo'mitasiga ham saylandi.

Ma'lumki, bojxonachilar respublikamizdan chiqarilayotgan mamlakatimizga kiritilayotgan tovarlar, mahsulotlarni audit qiladilar. Bu murakkab ishda ular yuridik va jismoniy shaxslar bilan mulklar turi, ularning sertifikat, jahon va davlat standartlariga mos kelishiga, mamlakat uchun zarurligi, ahamiyati va qiymati kabilarni o'zlari haqiqiy auditdan o'tkazib, qonunlarda belgilangan tarif stavkalariga muvofiq ravishda boj to'lovlarini belgilaydilar va o'z vaqtida undiradilar.

Audit infratuzilmasi: 1) yuridik va jismoniy shaxslar bilan davlatimiz o'rtasidagi iqtisodiy munosabatni tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, 2) o'zaro aloqaga kiruvchi chet el yuridik va jismoniy shaxslarining mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ham o'z faoliyati bilan ta'sir ko'rsatadi.

Bunday iqtisodiy aloqalarning auditi, fikrimizcha, quyidagi ishlarni o'z ichiga oladi: 1) import qilinadigan moddiy boyliklarning bahosini, miqdorini, qiymatini aniqlash; 2) eksport qilinadigan tovarlar hajmi, bahosi va qiymatini aniqlash; 3) davlat budjetiga tushadigan bosh to'lovlar miqdorini belgilash; 4) respublikamiz bojxona quyi organlarining hisob-kitob, hisobot ishlarining realligi va boshqa masalalarini ham ko'rish lozim.

Bunday tekshiruvlarni amalga oshirishda yuridik yoki jismoniy shaxs e'lon qilgan deklaratsiyada tovar qiymati, bojxona to'lovining to'g'riligini aniqlash asosiy vazifa hisoblanadi. Ma'lumki, bu juda muhim ish, sababi u tovarning harakati belgilovchi hujjatlar, o'zaro aloqadagi xo'jalik subyektlari, ularning qonuniy statusi, faoliyat turlari (ustavga ko'ra) kabilarni o'z ichiga oladi. Bulardan tashqari har bir tovarning zarur laboratoriya tahlillari (biologik, sifat, sertifikat va boshqalar) qilinishi mumkin.

Har bir operatsiyaning amalga oshishida ma'lum nizolar ham uchrab turishi muqarrardir, ularning ham optimal yechimlarida auditorlik tekshiruvlari muhim rol o'ynaydi.

Demak, audit tekshiruvlarini koʻz oldimizga keltiradigan boʻlsak, boshqa audit tekshiruvlaridan farqli oʻlaroq, bojxona audit tekshiruvi haqiqiy auditdan boshlanib, keyinchalik hujjatli tekshiruvlarni oʻz ichiga oladi.

Albatta, bunda mutaxassislar malakasi juda muhim rol oʻynaydi, bulardan tashqari ularning tarkibiy tuzilishida, turli jins shaxslar ishtiroki, barcha turdagi texnologik, epidemiologiya, veterinariya vrachi, biologik va texnik muhandis, hatto harbiy mutaxassislar qatnashishi zarurligini taqozo qiladi.

Bojxona faoliyatida bebaho madaniy boyliklar — avlod-ajdodlarimizdan qolgan merosni saqlash va kelajak avlodlar oldidagi masʼulligimiz boʻlganligi sababli, bojxona xodimlari tarkibida yoki audit tekshiruvida olimlar ishtiroki taʼminlanishi ham tarixiy va zaruriy omildir.

Bugungi murakkab audit tekshiruvi oʻziga xos usullarni taqozo qiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: 1) amaliy usullar; 2) maxsus usullar; 3) bojxona qiymati boʻyicha mijoz qarorlarining auditini. Bular bojxona auditini rejalashtirishda boshlangʻich nuqta hisoblanadi. Bojxona qiymatini aniqlashda tekshiriladigan elementlarni belgilash tekshirish yoʻllarini aniqlab olishdan iborat.

Soha mutaxassislarining fikricha, asosiy va maxsus usullar inventarizatsiya, tijorat faoliyatidagi turli munosabatlar darajasini aniqlash, statistik maʼlumotlarni taqqoslash (schot, schot faktura) va tovarlar bir vaqtda kelib tushmagan holda umumiy toʻlovnomalarni, registrlarni tekshirish, boshlangʻich qoldigʻini topshirish va shu kabi yuzlashtirish, soʻroq qilish, agroxi-mik, biologik, texnik tahlillar, mutaxassis xulosalari ham muhim rol oʻynaydi. Bu usullar bojxona audit tekshiruvi iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

ILOVALAR

1- ilova

XALQARO MAYDONDA QABUL QILINGAN AUDITORLIK STANDARTI

Auditorlik standartlari (andozalari) — bu auditorlik faoliyatini amalga oshirishda, moliya hisobotlarining auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida, ko'rsatilgan tamoyillarga asoslanib, umumiy suyanuvchi material sifatida foydalanish mumkin bo'lgan vositadir. Ularda mutaxassislik malakasi, vakolati va mustaqilligi, auditorning axborot ma'lumotlari xulosasiga talablar mujassamlashgandir. Ularning umumiy soni 10 ta. Bu 1947- yilda (Amerikacha qasamyodli) Buxgalterlar instituti tomonidan tavsiya qilingan. Bu bir necha bor o'zgargan bo'lsa-da, doimo asos bo'lib kelmoqda.

I. AUDIT TEKSHIRUVINING UMUMIY STANDARTLARI

1. Audit tekshiruvini ma'lum tayyorgarlikka, kasb mutaxassisligiga ega bo'lgan shaxs o'tkazishi lozim.
2. Auditor barcha auditorlik vazifalarini bajarishda o'z mustaqilligini saqlashi lozim.
3. Auditor o'z xulosa va hisobotini yozishda malaka jihatidan eng yuqori darajada aniqlik, chuqur bilim, dalillarning ishonchligiga mas'uldir.

II. AUDITORLIK TEKSHIRUVINI O'TKAZUVCHI OBYEKTlarda AUDITOR IShINING STANDARTLARI

1. Ish aniq rejalashtirilgan, tegishli assistent bilan yetarli darajada reja auditidan o'tishi lozim.
2. Auditor, eng avvalo, ichki xo'jalik auditorlik faoliyati tizimini chuqur o'rganishi natijasida audit tekshiruv ishining

hajmini aniq bilgandan so'ng, tekshiruvni rejalashtirilishi lozim.

3. Hujjatlarni tekshirish, shaxsiy kuzatish, rahbar, muta-xassislardan so'rash asosida audit tekshiruvi o'tkazilayotgan korxonaning moliyaviy hisoboti bo'yicha to'liq ma'lumot, asoslarga ega bo'lishga erishish.

III. AUDITORLIK XULOSASINING STANDARTLARI

1. Auditorning xulosasi, korxonalarning xo'jalik, moliya, ishlab chiqarish faoliyatini aks ettiruvchi umumiy buxgalteriya hisobini tashkil qilish lozim. Taqdim qilingan moliyaviy hisobotlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning mazmuni haqidagi axborotlarni to'la qamrab olishi shart.

2. Auditorning xulosasida tekshirilayotgan, hisobot berila-yotgan davr mobaynida xo'jalik yuritish normativ hujjatlardagi rioya qilinishi lozim bo'lgan prinsiplarning oldingi auditorlik tekshiruvda buzilgan deb topilganlaridan qaysilari bo'yicha kamayishga erishganligi ko'rsatilishi lozim.

Umumiy qabul qilingan andozalar

Umumiy malaka va fe'l-atvori	Obyektda audit tekshiruvi	Audit tekshiruvi natijalari haqida
Zarur tayyorgarlik va tajriba	To'g'ri rejalashtirish va audit	Hisobot tamoyillariga mos keladimi?
Yo'nalishning mustaqilligi	Ichki audit tizimini chuqur tushunish	Hisobotning tamoyillarga mos kelmasligiga olib keluvchi holatlar
		Axborotlarning to'la ochilganligi
Moddiy zarar, chuqur ehtiyotkorlik, sinchkovlik	Yetarli darajada vakolatli ma'lumotlarga ega bo'lish	Umuman, moliyaviy hisobot haqida to'la fikrning bayon qilinishi

3. Moliya hisobotlaridagi axborotlarning auditor xulosa-sidagi yozuvlar bilan aynanligiga e'tibor qaratilib ko'rsatib berilishi lozim.

4. Auditorning xulosasida moliyaviy hisobot to'g'risida mustaqil bir butun fikr va malohaza yozilishi lozim. Ayrim to'la fikrlarga erishish imkoniyati bo'lmay qolgan bo'lsa, ularning sabablari prinsipial ko'rsatilishi kerak.

2- ilova

AUDITNI O'TKAZISH BO'YICHA AUDITORNING O'Z MAJBURIYATNOMA-ROZILIK XATI

Sizning... Korxonaga rahbariga

Bizning... korxonamizga moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risidagi taklifingiz qabul qilinadi.

Auditorlik qonuni normativ-texnik hujjatlar asosida auditorlik tekshiruvida: balans, unga ilovalar, hisobot, buxgalteriya registrlari va boshlang'ich hujjatlar qamrab olinadi.

Audit tekshiruvining maqsadi... 200__ - yil uchun berilgan hisobotlardagi moliya natija, to'lov qobiliyati haqidagi ma'lumotlarning to'la ishonchliligini, ko'rsatkichlarning to'g'ri hisoblanganligini to'g'ri baholashdir.

Ularni asoslash uchun Sizning korxonangiz mutasaddi xodimlarining qatnashuvida tekshiruv test savollari asosida aniqlab olinadi.

Ayrim savollarni tekshiruv jarayonida auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-hujjatlarga mos ravishda tavakkalchilikda tanlovga yo'l qo'yilishi sababli, ayrim xato va kamchiliklarda noaniqliklar bo'lishi mumkin, ammo biz ularni eng minimumiga keltirishga harakat qilamiz. Chunki ularning bo'lishi buxgalteriya hisobi va ichki auditning ahvolidan kelib chiqadi, shunday hollarda Siz alohida yozma bayonnoma olasiz.

Audit tekshiruvini o'tkazish jarayonidagi zarur ma'lumotlarning aniq, ishonchli, obyektivligi haqida Sizdan buxgalteriya va ichki audit yuzasidan rahbarning (ma'muriyatning) javobgarligini his qilgan holda yozma axborot berishingizni iltimos qilamiz. Shu bilan birgalikda biz ishonamizki, Sizning xodimlaringiz bizning ixtiyorimizga barcha yozma va boshqa zarur axborotlarni beradi.

Bizning gonorar (qalam haqi) ishni bajarish davrida to'lanib boriladi. Sizdan ushbu xatni moliyaviy hisobotlarning talabga javob berishi nuqtayi nazaridan qarab, tasdiqlashingizni so'raymiz.

Auditorlik firmasi

Korxonadagi mas'ul xodim

3-ilova

SHARTNOMA № _____

_____ shahar(qishloq) _____ 200__ - y.

Bir tomondan _____

Nizomga muvofiq firma (auditor) nomidan _____

va ikkinchi tomondan buyurtmachi-korxonona sifatida Nizomga ko'ra, uning nomidan _____

quyidagilarni shartlashib kelishdik:

1. Shartnomaning predmeti

1.1. Korxonada auditorlik tekshiruvi birinchi bosqichining tavsiyasini o'rganib, auditorlik firmasi korxonaning _____ xo'jalik moliya faoliyatini firmaning reja grafigi asosida kompleks auditorlik xizmatini bajarishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Auditorlik tekshiruvini bajarganligi uchun buyurtmachi korxonona grafik va miqdor bo'yicha tomonlarning kelishuviga muvofiq qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda () _____ so'mni to'lashni o'z zimmasiga oladi.

Tekshirish muddati buyurtmachi korxonona tomonidan pul to'langan kundan hisoblanadi. Oldindan pul to'lash 200__ - yil _____ oyining _____ kunigacha amalga oshiriladi.

Mazkur shartnoma buyurtmachi korxonona bilan audit tekshiruvini o'tkazuvchi korxonona o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar uchun asos hisoblanadi.

Bajaruvchi

Buyurtmachi

M. O'.

M. O'.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Buyurtmachi-korxonona auditorlik xizmati uchun quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

2.2. Firma xodimiga shartnomada bajariladigan ishlar uchun barcha zarur ma'lumotlarni, hujjatlarni, buxgalteriya registrlarini olish, o'rganish huquqini, imkoniyatini va kafolatini beradi.

2.3. Shartnomaning (3) ilovasiga muvofiq buyurtmachi-korxonona auditorga tekshiruvni o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni, buxgalteriya, moliya-bank hujjatlarini, hisobotlarni, xodimlarning tushuntirish xatlarini o'z muddatida to'la ravishda taqdim qiladi. Ular kechikib taqdim qilinishi natijasida auditorlik tekshiruvining cho'zilib ketishiga javobgardir.

2.4. Agarda audit tekshiruvi jaryonida buxgalteriya hisobotini qayta tiklash, takomillashtirishga to'g'ri kelsa, u auditorlik firmasining qo'shimcha Shartnoma yoki yozma rozilik xatiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.5. Auditorlik firmasi o'z zimmasiga quyidagilarni oladi:

2.5.1. Mazkur shartnomaga muvofiq audit tekshiruvi jarayonida ma'lum bo'lgan buyurtmachi-korxonaning tijorat sirini oshkor qilmaslik.

2.5.2. Auditor audit tekshiruvini tashkil qiladi va unga rahbarlik qiladi. Tartib bo'yicha va navbat bilan xo'jalik operatsiyasini o'rganish asosida uni bajarish uslublarini belgilaydi.

2.5.3. Auditorlik tekshiruvini aniq tasdiqlangan reja asosida amalga oshiradi, buni buyurtmachi-korxonona audit qilib boradi. Buyurtmachi-korxonona auditorning operativ faoliyatiga aralashishga haqli emas, ammo belgilab olingan ishlar yuzasidan ayrim ko'rsatmalar berishga haqli, auditorlik firmasi ularni so'zsiz bajarishi shart emas.

2.5.4. Agarda ayrim o'rinsiz harakatlar natijasida rejadagi ishlarining amalga oshirilishida sustkashlik sezilsa, buyurtmachi-korxonona ma'lum qiladi.

2.5.5. Rejada belgilangan, bajariladigan ishlar oralig'ida ham ayrim ishlar bo'yicha muddatlar belgilanishi mumkin.

2.5.6. Shartnomaning predmetidagi shartlarni o'z vaqtida bajarib topshirishni o'z zimmasiga oladi.

2.5.7. Agarda bajarilgan ishlar yuzasidan buyurtmachi korxonaning e'tirozlari bo'lmasa, taqdim qilingan auditorlik materiallarini amalga oshirishga kirishadi.

2.5.8. Auditorlik firmasiga (auditorga) buyurtmachi-korxonadan tomonidan sifatsiz material berilsa, buyurtmachi-korxonadan yozma rozilik so'rashga haqli. Sifatsiz material uchun mas'uliyat buyurtmachi-korxonaga yuklatiladi.

2.5.9. Auditorlik firmasi audit tekshiruvini o'tkazishda zarur mutaxassis, yuridik shaxslarni, ayrim mutaxassislarni bajarish uchun subpodryadchi sifatida shartnoma asosida ish bajarishga taklif qilishi mumkin.

3. Shartnoma bekor qilingan hollarda tomonlar javobgarligi

3.1. Buyurtmachi-korxonaning audit tekshiruvida sifatsiz material taqdim qilganligi uchun to'la javobgardir.

3.2. Ushbu shartnomaga muvofiq buyurtmachi-korxonadan bilan auditor firmasi o'rtasidagi xizmatning cho'zilishiga yoki boshqa sabablarga ko'ra, fors-mojor harakatlariga mos choralar ko'rish mumkin. Bunday sharoitda qaysi tomon aybdor bo'lsa, moddiy zarar shundan undiriladi.

3.3. Agar buyurtmachi-korxonadan firmaning yozma axborotiga e'tibor bermasa, firma shartnomani bekor qilishga haqli.

3.4. Auditor firmasi (auditor) ishlarni o'z vaqtida topshiradi, buyurtmachi-korxonadan taklif beradi, moddiy zararga da'vo bildiradi.

4. Ishni topshirish tartibi

4.1. Audit tekshiruvining obyekti vujudga kelgan kunning ertasiqayoq ish tamomlanganligini buyurtmachi-korxonadan ma'lum qiladi.

4.2. Buyurtmachi-korxonadan esa mazkur ishni 5 kun (besh kun) muddat ichida ko'rib chiqishi lozim. Undan so'ng ikkala tomonga «ishni topshirish — qabul qilish dalolatnomasi» tuzib beriladi.

4.3. Firma ishni rejada belgilangan muddatdan oldin topshirishi mumkin.

5. Shartnoma bo'yicha hisob-kitoblar

5.1. Buyurtmachi-korxonadan, ishni bajaruvchiga ish hajmidan kelib chiqqan holda shartnomada kelishilgan pulni to'laydi. Bunda pul 100 foiz oldindan to'lanishi mumkin.

5.2. Agarda auditorlik firmasi ishni muddatidan oldin bajarsa, buyurtmachi-korxonaga _____ so'm miqdorida mukofot pulini to'laydi.

6. Shartnomaning qo'shimcha shartlari

6.1. Shartnomadagi majburiyatlarni bajarmaslik hollari bo'yicha nizolar vujudga kelsa, ular vakolatli adliya organlari tomonidan hal etiladi.

6.2. Agarda mazkur shartnomaga o'zgartirishlar kiritiladigan bo'lsa, ikkala tomon o'zaro kelishib, yozma ravishda imzo, muhrlar bilan amalga oshiriladi.

6.3. _____

7. Shartnomada kelishilgan tomonlarning va ularga xizmat ko'rsatadigan bank rekvizitlari

7.1. Buyurtmachi-korxonaga _____

7.2. Auditorlik firmasi _____

8. Tomonlarning imzo va muhrlari

Buyurtmachi-korxonaga

Auditorlik firmasi

M. O'. « ____ » 200 ____ - y.

M. O'. « ____ » 200 ____ -y.

AUDIT O'QUV KONSALTING MARKAZI YAKUNIY TESTLARI

Moliyaviy va boshqaruv hisobi

1. Korxonaning xususiy kapitaliga nimalar kiradi?

- 1) Ustav kapitali;
- 2) qo'shilgan kapital;
- 3) zaxira kapital;
- 4) taqsimlangan foyda;
- 5) barcha javoblar to'g'ri.

2. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda necha xil foiz stavkasining turi mavjud?

- 1) uch xil;
- 2) to'rt xil;
- 3) besh xil;
- 4) olti xil;
- 5) to'g'ri javob yo'q.

3. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish qaysi organlar zimmasiga yuklatilgan?

- 1) Ijtimoiy ta'minot va Mehnat vazirligi;
- 2) buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi;
- 3) Moliya vazirligi;
- 4) Soliq qo'mitasi;
- 5) Vazirlar Mahkamasi.

4. Nomoddiy aktivlar kimoshdi savdosida qaysi tashkilot orqali sotiladi?

- 1) Moliya tashkiloti;
- 2) Soliq idorasi;
- 3) Statistika bo'limi;
- 4) Mulk qo'mitasi bo'limlari;
- 5) Hammasi to'g'ri.

5. Sotib olingan asosiy vositaning puli o'tkazib berildi:

- 1) D 0100 K 5100
- 2) D 6000 K 5100

3) D 6200 K 5100

4) D 8500 K 5100

5) D 4700 K 5100

6. Asosiy vositaga eskirish hisoblandi (don kombayni misolida)

1) D 0200 K 8900

2) D 8900 K 0200

3) D 2000 K 02/10

4) D 8500 K 0200

5) D 0200 K 8200

7. Asosiy vositani sotishdan korxonaga zarar ko'rdi:

1) D 9200 K 9900

2) D 9900 K 9200

3) D 9400 K 4200

4) D 5000 K 9900

5) Hammasi to'g'ri

8. Quyidagi yozuv nimani anglatadi?

Debet 5800 qismida muddatli moliyaviy qo'yilmalar
Kredit 5100 «Hisob-kitob schoti»

1) aksiyalar bo'yicha foizlar hisoblanishi;

2) uzoq muddatli qimmatbaho qog'ozlarining sotib olinishi;

3) qisqa muddatli qimmatbaho qog'ozlarning sotib olinishi;

4) xaridorlardan veksellarning kelib tushishi;

5) to'g'ri javob yo'q.

9. «Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisoblashlar» 6700-schotning kreditida nima ko'rsatiladi?

1) turli tashkilotlarga to'lovlar;

2) ish haqining hisoblanishi;

3) ish haqining to'lanishi;

4) xodimlar bilan hisob-kitoblar;

5) barcha javoblar to'g'ri.

10. Nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblanadi:

1) D 2000 K 0500

2) D 2100 K 0500

3) D 2300 K 0500

4) D 2500 K 0500

5) hammasi to'g'ri.

11. D 0100 K 9900 yozuvi qanday xo‘jalik muomalalari mazmunini aks ettiradi?

- 1) asosiy vositani hisobdan chiqarishni;
- 2) asosiy vositani sotishdan olingan foydani;
- 3) inventarizatsiya natijasida oshiqcha chiqqan asosiy vositani qabul qilish;
- 4) asosiy vositani sotishdan ko‘rilgan zarar summasini;

12. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning jadal-lashtirilgan usuliga quyidagilardan qaysi birlari kiradi?

- 1) ishlab chiqarish usuli, teng ulushda hisoblash usuli;
- 2) kumulativ va ishlab chiqarish usullari;
- 3) kumulativ kamayuvchi qoldiq qiymatga me’yorni ikki karraga ko‘p hisoblash usullari;
- 4) teng ulush va kumulativ amortizatsiya, hisoblash usullari.

13. Asosiy vositalar qanday baholarda baholanadi?

- 1) boshlang‘ich, joriy, qoldiq, tugatish va qoplov qiymat-larida;
- 2) balans, tiklash, qoldiq, eskirish va bozor qiymatlarida;
- 3) boshlang‘ich, tiklash, tugatish, qoldiq, joriy va qoplov qiymatlarida;
- 4) balans, joriy, qoldiq, tiklash va joriy qiymatlarida.

14. Qo‘shma korxonalar ustav kapitaliga hissa tariqasida berilgan asosiy vositalar qanday baholarda baholanadi?

- 1) balans qiymati bo‘yicha
- 2) qoldiq qiymati bo‘yicha
- 3) joriy qiymati bo‘yicha
- 4) tugatish qiymati bo‘yicha

15. «Olg‘a» firmasi 6200 m. so‘mga mashina sotib oldi. Mashinaning xizmat muddati 5 yil, tugatishdagi qoldiq qiymati 9200 m. so‘m. Teng ulushda 1 yillik amortizatsiya summasi qanday bo‘ladi?

- 1) 106600;
- 2) 115600;
- 3) 105600;
- 4) 150600.

16. D 0100 K 6600 buxgalteriya yozuvi qanday ma‘noni anglatadi?

- 1) muassislar tomonidan pul mablag‘ining ustav kapitaliga qo‘yilishini;

2) muassislar tomonidan asosiy vositalarning Ustav kapitaliga qo'yilishini;

3) mol yetkazib beruvchilardan asosiy vosita qabul qilishni;

4) inventarizatsiya natijasida oshiqcha chiqqan asosiy vositani qabul qilishni.

17. «Keys» kombayni uzoq muddatli moliyaviy lizingga berilsa, lizingga beruvchi korxonada qanday buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi?

1) D 9410, 9130 K 0100 D 0920 K 9410,9430

2) D 0920 K 9220 D 0100 K 0920

3) D 5100 K 0920 D 9200 K 6950

4) D 9410, 9430 K 6230 D 0800 K 5100

18. «Keys» kombayni uchun asosiy to'lov va foizlar hisoblanganda lizingga beruvchi korxonalarda qanday schotlar o'zaro bog'lanadi?

1) D 7910 K 0990 D 5100 K 7910

2) D 5100 K 7910 D 0990 K 9900

3) D 0920 K 9900 D 7910 K 0920

4) D 5100 K 0920 D 6950 K 9900

19. «Keys» kombayni uzoq muddatli moliyaviy lizingga berilganda kombaynning balans qiymatiga lizingga oluvchi korxonada qanday provodkalar beriladi?

1) D 7910 K 5100

2) D 7910 K 5100

3) D 0300 K 7910

4) D 9900 K 7910

20. «Keys» kombayni uchun asosiy to'lov va foizlar hisoblanganda lizingga oluvchi korxonada schotlarida qanday o'zgarishlar yuz beradi?

1) D 0300 K 7910 D 7910 K 9600

2) D 7910 K 7910 D 9900 K 7910

3) D 7910 K 5100 D 0300 K 7910

4) D 0900 K 7900 D 0300 K 0100

21. Hisob siyosati nima?

1) hisob siyosati bu amaldagi qonunlardan foydalanib, korxonaning moliyaviy faoliyatini to'g'ri aniqlashtirish;

2) korxonada faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni to'g'ri olish;

3) ishlab chiqarish, sotish va ta'minot jarayonlari xarajatlarini hisobga olish tartibi;

4) korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi, qonuniy va normativ hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining alternativ shakllari hamda usullaridan tanlab olgan va e'lon qilgan shakl va usullarining yig'indisi.

22. Hisob siyosati nimalarni o'z ichiga oladi?

1) uslubiy, tashkiliy va texnik tomonlarni;

2) xarajatlarni taqsimlash va mahsulotlarni baholash usullarini;

3) tashkiliy va uslubiy tomonlarni, xarajatlarni taqsimlash usullarini;

4) uslubiy va texnik tomonlarni, mahsulotni va baholashni.

23. Moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarishga sarflashning FIFO usulining mazmuni quyidagilardan qaysilarida aks etgan?

1) moddiy qiymatliklar hisob baholarida sarflanadi;

2) moddiy qiymatliklar sotib olish baholarida sarflanadi;

3) moddiy qiymatliklar birinchi partiyalarda kelib tushgan bahoda baholanadi;

4) birinchi kelib tushgan partiyadagilar birinchi sarflanadi.

24. Hisob siyosati tashkiliy shakllari tomonidan nimalarni aks ettiradi?

1) xarajatlar hisobini tashkil qilishni;

2) buxgalterlar ishini tashkil qilishni;

3) buxgalteriya hisobini yuritish shakllarini tanlashni;

4) buxgalteriya xizmatining tashkiliy shakllarini, buxgalteriya xizmati tuzilishi va hisobni markazlashtirish, shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalarini alohida balansga ajratishni.

25. Bizda moddiy qiymatliklarni ishlab chiqarishga sarflashning qaysi usuli qo'llaniladi?

1) LIFO va o'rtacha qiymati bo'yicha baholash;

2) FIFO va o'rtacha qiymati bo'yicha baholash;

3) FIFO va LIFO usuli qo'llaniladi;

4) o'rtacha qiymati bo'yicha baholash;

26. Quyida keltirilgan balans moddalaridan qaysilari inventarizatsiya usulida tekshiriladi?

1) ustav kapitali;

- 2) asosiy vositalar;
- 3) pul mablag'lari;
- 4) foyda;
- 5) debetlar;
1. A, B, V;
2. A, B, G;
3. B, V, G;
4. V, G, D;
5. B, V, D.

Audit kursini tomomlagan talabalar uchun

1. Audit haqida tushuncha:

- 1) audit «eshitaman» degan ma'noni bildiradi;
- 2) audit — bu iqtisodiy tahlil yakuni;
- 3) audit — bu moliyaviy tahlil yakuni;
- 4) audit bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning barqarorligini bildiradigan foyda;
- 5) audit korxonada faoliyati sharoitida raqobatbardosh faoliyat ko'rsatishni yaratishga qaratilgan tadbirlar majmuidir.

2. Audit tekshiruvining mohiyatini belgilang:

- 1) korxonadagi mulk shakliga qarab raqamga tushadigan ma'lumotlarga asoslanadi, xulosa beradi;
- 2) faoliyati raqamlarda ifoda etilganligini tekshiradi, qonunga taqqoslaydi;
- 3) faoliyati raqamlarda ifoda qilinganligini tekshiradi;
- 4) faoliyatga raqamlar ifoda aks etganligini ko'radi, barcha hujjatlarga taqqoslaydi, xulosa beradi;
- 5) faoliyat mulk shakliga qarab, taqqoslab tekshiradi, xulosa beradi.

3. Audit obyektlari:

- 1) xo'jalik mablag' va faoliyati, yuridik shaxslar;
- 2) xo'jalik mablag'lari, manbalari, yuridik shaxslar;
- 3) yuridik va jismoniy shaxslar;
- 4) yuridik va xususiy korxonalar, jismoniy shaxslar, ularning faoliyati;
- 5) yuqoridagilarning faoliyati va tekshiruvlar.

4. Audit tekshiruvining obyektlari:

- 1) xo'jalik mablag'i va xo'jalik jarayonlari;
- 2) xo'jalik mablag' manbalari va xo'jalik jarayonlari;
- 3) moliyaviy natijalar xo'jalik mablag'lari va manbalari;
- 4) hisobotlar registrlari;
- 5) dastlabki va joriy buxgalteriya hisobi va hisobotlar.

5. Audit tekshiruvining obyektlari, manbalari:

- 1) dastlabki va buxgalteriya hisobi;
- 2) barcha xo'jalik hisobi turlari va hisobotlari;
- 3) moliyaviy va boshqaruv hisob ma'lumotlari;
- 4) statistik va operativ texnika hisobi ma'lumotlari;
- 5) moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari.

6. Audit fanining predmeti:

1) xo'jalikning barcha jarayonlarida hukumatning xo'jalik qurilishlari bo'yicha qonun va qarorlarning bajarilishini tekshirish;

2) xo'jalikning ta'minlash, realizatsiya va moliya natijalari bo'yicha hukumat qonunlari va qarorlarining bajarilishini tekshirish;

3) xo'jalikning ta'minot ishlab chiqarish, taqsimot va moliya yakunlarini qonun va qoidalar asosida bo'lishini tekshirish;

4) xo'jalikning barcha jarayoni va boshqaruvi bo'yicha faoliyatini qonun va qaror asosida tekshirish;

5) xo'jalikning barcha jarayonlarini tartibga soluvchi qonun va qarorlarning bajarilishini tekshirish.

7. Audit tekshiruvining mazmuni:

1) korxonalarining hisobotlarini va buxgalteriya hisobini tekshiradi;

2) buxgalteriya joriy hisobi va moliya hisobotlarini tekshiradi;

3) yuqoridagilarni tekshiradi va xulosa beradi;

4) yuqoridagilarni tekshiradi va taklif beradi;

5) yuqoridagilarni tekshiruvdan o'tkazadi va xulosa hamda taklif qiladi.

8. Audit fanining metodlari (umumiy bilish metodlarini qo'llash bo'yicha):

- 1) ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning bog'liqligi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy voqealarning bog'liqligi rivojlantirilishi;

3) ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarning bog'liqligini hisobga olib fikrlash;

4) yuqoridagilarning oddiylikdan murakkablikka qarab borishi;

5) dialog va abstraksiya.

9. Audit fanining o'ziga xos metodlari:

1) tahlil va xulosa qilish;

2) milliy, xalqaro hisobotlarda kompyuterlardan foydalanish;

3) milliy hisob tizimi, hisobotlar, kompyuterlar, buxgalteriya hisobidan foydalanish;

4) buxgalteriya hisobi, inventarizatsiya va mutaxassislar fikridan foydalanib me'yorlarga taqqoslab o'rganish;

5) laboratoriya, buxgalteriya tahlilidan foydalanib o'rganish.

10. Audit fani qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?

1) buxgalteriya hisobi, tahlil, moliya;

2) buxgalteriya hisobi, moliya, yuridik fanlar;

3) buxgalteriya hisobi, yuridik va texnologik fanlar;

4) buxgalteriya hisobi, soliq, sug'urta, yuridik fanlar;

5) buxgalteriya hisobi mutaxassislikka taalluqli va o'rganilayotgan tarmoq texnologiyasi fanlari.

11. Ombor mudiri R.Abdullayev javobgarligidagi 5 tonna yoqilg'i 12 litr 30.00 so'mlik bajarganda kamomad yo'qlamasi o'tkazilganda aniqlandi. Auditor qanday qaror qabul qiladi?

1) kamomaddan undirishga yozadi;

2) korxonaning «foyda va zararlari hisobiga» yozadi;

3) tabiiy yo'qolishga yozadi;

4) hisobdan chiqarilib yuboriladi;

5) umumiy dalolatnoma yozadi.

12. Auditorlik qonuni necha bo'limdan iborat?

1) 5 bo'lim 16 moddadan;

2) 5 bo'lim 15 moddadan;

3) 5 bo'lim 18 moddadan;

4) 5 bo'lim 15 moddadan;

5) 5 bo'lim 17 moddadan.

13. Auditorlik qaysi xo‘jalik subyektlarida faoliyat ko‘rsatadi?

- 1) nodavlat xo‘jalik subyektlarida;
- 2) barcha xo‘jalik subyektlarida;
- 3) xususiy va kooperativ hamda aksioner xo‘jalik subyektlarida;
- 4) davlat va kooperativ xo‘jalik subyektlarida;
- 5) kooperativ davlat va aksionerlik korxonalarida.

14. Auditorlik faoliyatini yuritish bo‘yicha ijro organlari tomonidan qabul qilingan nizomlar nechta?

- 1) Vazirlar Mahkamasining 3/X/93- yil 198- son qarori va ilovalar;
- 2) Vazirlar Mahkamasining 3/X/93- yil 198- son qarori va 1,2 ilovalar;
- 3) yuqoridagilar va Vazirlar Mahkamasining 17/X/93- yil 239- son qarori, davlat qaydi haqidagi nizom;
- 4) yuqoridagilar va Moliya vazirligining 41- sonli qoidasi;
- 5) yuqoridagilar va Moliya vazirligining 41, 42- sonli qoidalari.

15. Audit tekshiruvining rivojlanishiga qarab audit turlari:

- 1) tasdiqlovchi, operatsion audit;
- 2) mos kelish yoki tizim audit;
- 3) mos kelmaslik yoki tavakkal audit;
- 4) operatsion yoki tizimga solingan audit;
- 5) tasdiqlovchi, mos kelish yoki kelmaslik hamda tizimli, tavakkal audit;

16. Audit tekshiruvining foydalanish manbalariga qarab audit turlari:

- 1) operatsion audit;
- 2) moliyaviy audit;
- 3) mos kelish yoki kelmaslik audit;
- 4) tizimli tavakkal audit;
- 5) operatsion, buxgalteriya hisobi va hisobotlari auditi.

17. Audit tekshiruvining shakllarini aniqlang:

- 1) korxonaning tashkil topishiga qarab bo‘linishini aytish mumkin;
- 2) xo‘jalik subyektlarining ish yuritish shakllariga qarab bo‘linishi;

- 3) nodavlat va davlat, aralash auditi;
- 4) nodavlat, xususiy, jamoa, aralash auditi;
- 5) shaxsiy, nodavlat, paychilik aksionerlik korxonalar auditi.

18. O'tkaziladigan manzillarga qarab, audit tekshiruvining turlarga bo'linishi va umumiy farqlanishi nimalardan iborat?

- 1) tashqi va ichki audit maqsadi bilan farqlanadi;
- 2) tashqi va ichki audit maqsadi umumiy tavsifnomasi hisobotlari bilan farqlanadi;
- 3) tashqi va ichki audit boshqaruvi bilan farqlanadi;
- 4) tashqi va ichki audit moliyalashtirilishi hisoboti, xulosasi bilan farqlanadi;
- 5) tashqi va ichki audit materiallarini realizatsiya qilish bilan farqlanadi.

19. Audit tekshiruvining umumiy prinsiplari nimalardan iborat?

- 1) auditorlik tekshiruvining sifatli bo'lishi;
- 2) ilmiy-tadqiqot natijalarini joriy qilish va tushunarli bo'lishi;
- 3) auditorlik kasbini almashtirish malakasi bo'lishi;
- 4) auditorlik boshqaruvi jarayonlarining bog'liqligi va xalqaro andozalar;
- 5) obyektivlik, malakali va yuqoridagilarning barchasi.

20. Auditorlikning xalqaro guruhi va andozalari nechta?

- 1) 4 guruh va 35 ta standart;
- 2) 3 guruh va 30 ta standart;
- 3) 5 guruh va 32 ta standart;
- 4) 6 guruh va 31 ta standart;
- 5) 3 guruh va 31 ta standart.

21. Nima sababdan auditorlik faoliyati hudud va mamlakat xo'jalik subyektlarida rejalashtiriladi?

- 1) bozor iqtisodiyotining raqobatli kurashida korxonalar g'alabasi uchun barcha xo'jalik subyektlarini qamrab olish va auditorlar budjet vaqtidan samarali foydalanish uchun;
- 2) barcha xo'jalik subyektlarini qamrab olish, barqaror rivojlanishini ta'minlash va auditorlardan yil davomida samarali foydalanish uchun;
- 3) xo'jaliklar barqaror rivojlanishida takliflar berish uchun;

4) xo'jaliklarning iqtisodiy tahlil va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun.

22. Audit tekshiruvining maqsadi va dasturi o'rtasida qanday farqlar bor?

1) dasturdan maqsad aniqlanib olinadi, muammolarni qamrab olish bo'yicha maqsad katta;

2) maqsad belgilanib, undan bajariladigan ishlar ro'yxati dasturda ko'rsatiladi, dastur katta;

3) maqsad aniqlanib, dasturning tarkibiy qismlarida aks ettiriladi;

4) dastur bo'laklarga bo'lingan bo'lib, maqsad bittadir;

5) dastur va maqsadlar bo'laklarga bo'linadi.

23. Audit tekshiruvining faoliyatini dasturlashda va uni o'tkazishda segmentlar tushunchasi nima, uning ahamiyati nimalardan iborat?

1) audit tekshiruvining segmentlari moliya hisobot yoki dasturlarni ayrim muhim elementlarga ajratib, o'zaro bog'liqligini umumlashtiruvchi vosita rolini o'ynaydi;

2) segmentlar dastur va audit tekshiruvining qismlari;

3) segmentlar dasturni tashkil qiluvchi bo'laklar;

4) audit tekshiruvining ayrim muhim elementlari;

5) dastur va tekshirishning bo'limlari xulosa uchun zarurdir.

24. Audit tekshiruvining bosqichlarini belgilang:

1) audit tekshiruvining to'rtta bosqichi bor;

2) audit tekshiruvining sakkizta bosqichi bor;

3) audit tekshiruvining uchta bosqichi bor;

4) audit tekshiruvining ikkita bosqichi bor;

5) audit tekshiruvining oltita bosqichi bor.

25. Audit tekshiruvini yakunlash va rasmiylashtirish:

1) dalolatnoma, buyruq va boshqalar;

2) buyruq dastur segmentlar;

3) buyruq, «dosye», xulosa va hisobot;

4) buyruq, dalolatnomalar va xulosa;

5) xulosa va hisobotlar.

26. Tashqi va ichki audit tekshiruvining farqlari

1) qamrab olgan obyekt va malakasi jihatidan;

2) obyekt, malakasi, maqsadi, uslubi;

3) obyekt, malakasi, maqsadi, uslubi, hisobot;

4) obykti, obyektivligi, chegarasi, rasmiylashtirilishi;

5) obykti, maqsadi, hisoboti, xulosasi.

27. Audit tekshiruvining farqlari nimalardan iborat?

1) maqsadi, huquqi, bilish malakasi, obyektivligi, boshqaruv;

2) vazifasi, mehnat haqi, amaliy topshiriqlar, xarajat va natijalar;

3) maqsadi, huquqiy malakasi, boshqaruv funksiyasi, hisoboti;

4) obyektivligi, huquqi, malakasi, haq to'lash prinsipi;

5) obyektivligi, huquqi obyektleri, rasmiylashtirish darajasi;

6) obyektivligi, huquqiy obyektleri, dalolatnoma, xulosa.

28. Qoplash koeffitsiyenti nima?

1) joriy aktivlarning joriy mablag'larga nisbati;

2) pul mablag'lar va tovar moddiy boyliklarining nisbati;

3) debitorlar va pul mablag'larining nisbati;

4) debitorlarning kreditorlarga nisbati;

5) barcha aktivlarning passivlarga nisbati.

29. Audit fanining zarurligini qanday isbotlaysiz?

1) bozorli iqtisodiyotda mulk shaklining ko'pligi;

2) raqobatli bozor bo'lishi sababli;

3) tayyor mahsulotlar bozorida raqobatlar borligi;

4) turlicha mulk va xo'jalik subyektlar mavjudligi;

5) mulk va xo'jalik shakllarining raqobatda bo'lishi.

30. Moddiy-tovar boyliklarning o'rtacha aylanish koeffitsiyenti nimaga teng?

1) sotilgan mahsulot qiymatining o'rtacha moddiy tovar qiymatlarining o'rtacha darajasiga;

2) sotilgan mahsulotlar qiymatining aylanma mablag'lar nisbatiga;

3) sotilgan mahsulotlar qiymatining debitor qiymati nisbatiga;

4) sotilgan mahsulotlar qiymatining kreditor qarzlari nisbatiga;

5) sotilgan mahsulotlar qiymatining asosiy vositalar qiymatining nisbatiga.

31. O'rtacha mahsulot (yuk) jo'natish kunlar soni qanday aniqlanadi?

1) sotilgan mahsulotlar qiymatini moddiy tovar boyliklari zaxiralariga bo'linadi;

2) moddiy tovar boyliklari zaxiralari sotilgan mahsulot qiymatiga bo'linadi;

3) sotilgan mahsulotlar qiymatini aylanma mablag'lar qiymati nisbatiga bo'linadi;

4) sotilgan mahsulotlar qiymatini o'rtacha asosiy vositalar nisbatiga bo'linadi;

5) sotilgan mahsulotlar qiymatini kredit summasiga bo'linadi.

32. Audit tekshiruvining turlarini turkumlang va belgilang:

1) tasdiqlovchi, isbotlovchi, mos keluvchi va tavakkal audit;

2) tasdiqlovchi, tizimga solingan, mos keluvchi audit;

3) tasdiqlovchi, mos keluvchi, tavakkal audit;

4) taqqoslovchi, mos va tasdiqlovchi, oldindan faoliyat belgilovchi;

5) tasdiqlovchi, mos kelishini va tizimga solingan audit.

33. Audit tekshiruvining vazifalari:

1) faoliyat, mablag' va manbani tekshiradi va xulosa beradi;

2) faoliyat jarayonlarini tekshiradi, xulosa beradi;

3) ishlab chiqarish realizatsiya va moliyaviy tekshiruvini o'tkazadi;

4) xo'jalik jarayonlarini, buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tekshirib, xulosa beradi;

5) yuqoridagi masalalarni tekshiradi, natijasini muloqotga beradi.

34. Audit tekshiruvining mohiyati:

1) korxonadagi mulk shakliga qarab raqamga tushadigan ma'lumotlarga asoslanadi, xulosa beradi;

2) faoliyatini raqamlar ifoda etganligini tekshiradi, qonunga taqqoslaydi;

3) faoliyatini raqamlar ifoda qilganligini tekshiradi;

4) faoliyatida raqamlar ifoda etganligini ko'radi, barcha hujjatlarga taqqoslaydi, xulosa beradi;

5) faoliyat, mulk shakliga qarab, taqqoslab tekshiradi, xulosa beradi.

35. Audit tekshiruvining o'tkazish mazmunlari bo'yicha turlari:

1) tashqi va ichki audit;

- 2) moliyaviy hisobot, operatsion mos kelmaslik auditi;
- 3) operatsion, moliyaviy hisobot, soliq auditi;
- 4) operatsion, moliya hisobot, joriy buxgalteriya hisobi auditi;
- 5) budjet, budjetsiz to'lovlar, operatsion va moliyaviy hisobot auditi.

36. Audit hozirgi kunda nechta mamlakatda faoliyat ko'rsatadi?

- 1) 147 mamlakatda 4,2 ming firma;
- 2) 147 mamlakatda 4,2 ming firma bor;
- 3) 100 dan ortiq mamlakatda 4,2 ming firma mavjud, ular 100 dan ortiq mamlakatda faoliyat ko'rsatadi;
- 4) 147 mamlakatda tashkil bo'lgan;
- 5) 147 mamlakatda faoliyat ko'rsatadi.

37. Xazinadan chiqim qaydnomasiga muvofiq 350 so'm oshiq chiqimga chiqarilgan, rasmiylashtirishni belgilang:

- 1) chiqim orderi bilan egasiga berildi;
- 2) kamomad qilib yozildi;
- 3) kamomad dalolatnomada ko'rsatildi;
- 4) xazina kiritim orderi bilan xazinaga kiritim qilindi;
- 5) bank muassasasiga topshirildi.

38. Hisob-kitob schotidan kassaga 30000 so'mlik pul o'tkazildi va xizmatchilar shaxsiy schotiga o'tkazilmagan

- 1) dalolatnoma;
- 2) chek karishogi;
- 3) hisob to'lov vedomosti;
- 4) e'lon qog'ozi;
- 5) xazina chiqim orderi.

39. Oddiy aksiyalar to'lov koeffitsiyenti qanday topiladi?

- 1) pul daromadi aksiya kapitaliga bo'linadi;
- 2) pul daromadi barcha aksiyalar soniga bo'linadi;
- 3) xo'jalik operatsiyalaridan olingan daromadni oddiy aksiyalar uchun dividendlar summasiga bo'linadi;
- 4) xo'jalik operatsiyalaridan olingan daromadni oddiy aksiyalar soniga bo'linadi;
- 5) xo'jalik operatsiyalaridan olingan daromad aylanma kapital aksiyalariga bo'linadi.

40. Oddiy va imtiyozli aksiyalarning to'lov koeffitsiyenti qanday topiladi?

1) suratda xo'jalik operatsiyalaridan daromadni va maxrajda oddiy aksiya dividendiga imtiyozli aksiyalar dividendi qo'shiladi, summasini ikkinchi maxrajda bir minus soliq stavkasiga bo'lib topiladi;

2) xo'jalik daromadi oddiy va imtiyozli aksiyalar dividendiga bo'linadi;

3) xo'jalik daromadi aksiyalar summasiga bo'linadi;

4) xo'jalik daromadi oddiy aksiya dividendiga bo'linadi;

5) xo'jalik daromadi imtiyozli aksiya dividendiga bo'linadi.

41. Xo'jalikning samaradorlik koeffitsiyenti qanday topiladi?

1) sotilgan mahsulot hajmi aylanma moddiy aktivlar qiymatiga bo'linadi;

2) sotilgan mahsulot qiymati barcha dividend summasiga bo'linadi;

3) sotilgan mahsulot qiymati aksiyalar qiymatiga bo'linadi;

4) sotilgan mahsulot qiymati fondlar hajmiga bo'linadi.

42. Mahsulot sotish rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?

1) xo'jalik operatsiyalari daromadi sotilgan mahsulot qiymatiga bo'linadi;

2) xo'jalik operatsiyalari daromadi fondlar qiymatiga bo'linadi;

3) xo'jalik operatsiyalari daromadi aylanma fondlarga bo'linadi;

4) xo'jalik operatsiyalari daromadi asosiy fondlarga bo'linadi;

5) xo'jalik operatsiyalari daromadi sotish xarajatlariga bo'linadi.

43. Moddiy aktivlarning rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?

1) xo'jalik operatsiyalari daromadi balansning umumiy summasiga bo'linadi;

2) xo'jalik operatsiyalari daromadi aylanma material aktivlarga nisbati;

3) xo'jalik operatsiyalari daromadining asosiy moddiy aktivlarga nisbati;

4) xo'jalik operatsiyalari daromadining qarzlar summasiga nisbati;

5) xo'jalik opratsiyalari daromadining debitor qarzlar summasiga nisbati.

44. Barcha mulklarning rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?

1) barcha daromadlardan dividend to'laguncha miqdori barcha mulklar qiymatiga bo'linadi;

2) barcha daromadlardan dividend to'laguncha miqdori asosiy va qarz summalariga nisbati;

3) barcha daromadlardan dividend to'laguncha summasiga plus soliq summolari qo'shilib, barcha mulklar qiymatiga bo'linadi;

4) barcha daromadlardan dividend to'laguncha summasiga plus soliq summasi qarzlar summasiga nisbati;

5) barcha daromadlardan dividend to'laguncha summaning debitor qarzlariga nisbati.

45. Barcha aksiya kapitalining daromadlilik darajasi qanday aniqlanadi?

1) soliq olinguncha daromad summasi minus kasr imtiyozli dividend birinchi maxrajda bir minus soliq stavkasi taqsim qilinadi umumiy aksiya kapitaliga;

2) soliq to'laguncha daromadlar aksiya kapitaliga bo'linadi;

3) soliq to'laguncha daromad imtiyozli aksiya kapitaliga bo'linadi;

4) soliq to'laguncha daromad oddiy aksiya kapitaliga bo'linadi;

5) soliq to'laguncha daromad dividendlar summasiga bo'linadi.

46. Auditorlik faoliyati qonuni bilan auditorlik faoliyati nizomining mazmunini belgilang:

1) auditorlik qonunini tartibga soluvchi va nizom ko'rsatib yo'riq beruvchi;

2) qonunni tartibga soluvchi, yo'riq beruvchi, nizom yo'riq beruvchi;

3) qonunni tartibga solib, yo'lni belgilaydi, nizom esa amaliyotda qo'llashda foydalaniladi;

4) nizom yo'riqnoma amaliyotda qo'llaniladi, qonun o'rganiladi;

5) nizom o'rganilib, yo'riqnoma, qonun esa o'rganilishi majburiy.

47. Auditorlik qonuni kim tomonidan qabul qilinadi va audit qilinadi?

- 1) Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi;
- 2) Moliya vazirligi;
- 3) Vazirlar Mahkamasi;
- 4) Yustitsiya vazirligi;
- 5) Prokuratura va sud organlari.

48. Auditorlik faoliyati bo'yicha Nizom qachon, kim tomonidan qabul qilingan va necha banddan iborat?

- 1) 20 band, 10 bo'limdan iborat, 1993- yil 10- iyun;
- 2) 10 band, Moliya vazirligi, 1993- yil, 41- son;
- 3) 10 band, Moliya vazirligi va Yustitsiya vazirligi, 1993- yil, 41- son;
- 4) 10 band, Vazirlar Mahkamasi, 1993- yil, 41- son;
- 5) 10 band, Soliq qo'mitasi, 1993- yil, 41- son.

49. Auditorlik firmalarini qayerlarda tekshiruv o'tkazish haqidagi qaror qachon, kim tomonidan qabul qilingan?

- 1) Oliy Majlis, 1992- yil 9- dekabr;
- 2) Yustitsiya vazirligi;
- 3) Vazirlar Mahkamasi, 1993- yil 3- may, 198- son;
- 4) Vazirlar Mahkamasi va Yustitsiya Vazirligi, 1993- yil 3- may, 198- son;
- 5) Oliy Majlis, 1993- yil 3- may.

50. Auditorlik faoliyatini yurgizish va tartibga solish bo'yicha respublikamizda nechta normativ hujjatlar qabul qilingan?

- 1) 8 ta; 2) 10 ta; 3) 9 ta; 4) 11 ta; 5) 12 ta.

51. Mazkur normativ hujjatlarda takrorlashlar bormi?

- 1) bor;
- 2) yo'q;
- 3) asosan 8 band va moddalarda takrorlanadi;
- 4) 10 ta bandda takrorlanadi;
- 5) 4 bo'lim va 8 moddada takrorlanadi.

52. Auditorlik faoliyati haqidagi qonun necha bo'limdan iborat?

- 1) 7; 2) 5; 3) 8; 4) 6; 5) 4.

53. Auditorlik faoliyati haqidagi qonun necha moddadan iborat?

1) 20; 2) 19; 3) 18; 4) 17; 5) 15.

54. Iqtisodiy nazariyaning umumiy tushunchasi:

1) taftish, nazorat, audit, tekshirish;

2) taftish, nazorat, audit, tekshirish, xo'jalik tortishuvi;

3) taftish, nazorat, audit, tekshirish, xo'jalik tortishuvi;

4) taftish, nazorat, audit, tekshirish, xo'jalik tortishuvi, surishtiruv;

5) tekshirish, audit, audit, xo'jalik tortishuvi, surishtiruv.

55. Audit organining vazifalari nimalardan iborat?

1) mulkning saqlanishi va samarali foydalanilishini ta'minlash;

2) mulkning saqlanishi va ulardan samarali foydalanish, davlat qonunlarining bajarilishini tekshirish;

3) mulkning saqlanishi va ulardan samarali foydalanish, xo'jalik masalalari bo'yicha davlat qonunlarining bajarilishini tekshirish;

4) mulkning saqlanishi va resurslardan samarali foydalanish, davlat qonunlarining bajarilishini ta'minlash;

5) mulkning saqlanishi, resurslardan unumli foydalanish, xo'jalik qurilishi, qonunlarning bajarilishini ta'minlash.

56. Auditni amalga oshiruvchi organlar kimlar?

1) soliq inspeksiyasi, markaziy bank, statistika-istiqbol organlari saylagan va boshqa jamoalar;

2) soliq inspeksiyasi, moliyaviy rahbar organlari, jamoat tashkilotlari, Ichki ishlar vazirligi;

3) soliq inspeksiyasi, davlat yustitsiya organlari, moliya organlari, jamoat tashkilotlari, bank;

4) soliq inspeksiyasi, davlat yustitsiya organlari, saylangan jamoat organlari, moliya, bank, statistika-istiqbol organlari;

5) soliq inspeksiyasi, moliya, bank, statistika, tuman agrosanoat uyushmalari, davlat yustitsiya organlari.

57. Auditning nomlariga qarab turkumlanishi:

1) taftish, tekshirish va inventarizatsiya;

2) taftish, xo'jalik tortishuvi, tekshirish va inventarizatsiya;

3) taftish, audit, tekshirish va inventarizatsiya;

4) taftish, xo'jalik tortishuvi, audit va tekshirish;

5) taftish, tergov, audit va tekshirish, tahlil bozoriga bog'liq.

58. Kreditdan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

1) kasr suratida mulklar rentabellik darajasiga ko'paytiriladi, manbalar hajmi minus manbalarni jalb qilish xarajatlari barcha aksiya kapitaliga bo'linadi;

2) kasr suratida mulklar rentabellik darajasiga ko'paytiriladi, kreditlar summasi aksiya kapitaliga bo'linadi;

3) kasr suratida mulklar rentabellik darajasiga ko'paytiriladi, aksiya kapitali fondlar qiymatiga bo'linadi;

4) kasr suratida mulklar rentabellik darajasiga ko'paytiriladi, dividend summasiga mulklar qiymatiga bo'linadi;

5) kasr suratda foyda mahrajda ssuda miqdori.

59. Auditor tavakkalchilik modeli bo'yicha qaysi formula to'g'ri?

1) $DAR=IR \cdot CR \cdot DR$;

2) $DAR=CR+IR-DR$;

3) $DAR=CR \cdot IR+DR$;

4) $DAR=IR-CR=DR$;

5) $DAR=CR+(IR=DR)$.

60. Auditor tavakkalchiligining samaradorlik koeffitsiyenti formulasini aniqlang:

1) $DR=(IR=CR)/DAR$;

2) $DR=(IR \cdot CR)/DAR$;

3) $DR=DAR/CR$;

4) $DR=DAR/IR$;

5) $DR=DAR/(IR \cdot CR)$.

61. Qaysi korxonaga to'lov koeffitsiyentining aniqlash formulasi to'g'ri?

1) $KPS=(Sd+G-Dz-OpUp)/(Zd-K3+Un)$;

2) $KPS=(Sd+Gp-Dz+Op+Up)/(ZPk+KzUn)$;

3) $KPS=(Sd+Dz+Gp)/(ZPk+K3)$;

4) $KPS=(Sd+un+Gp)/(ZPk+Un)$;

5) $KPS=(Sl+Op+Gp)/(ZP+Kz)$.

62. Korxonaga ishlab chiqarish samaradorlik koeffitsiyentini aniqlash formulasining qaysi biri to'g'ri?

1) $Ke=Rk \cdot Kps$;

2) $Ke=Kps+(1-0,5) \cdot Rk$;

3) $Ke=Rk+(0,5 \cdot 1,5) \cdot Kps$;

4) $K_e = R_k - (1 - 0,25) \cdot K_{ps}$;

5) $K_e = R_k - (2 - 0,5) \cdot K_{ps}$.

63. O'tkazish tarkibiga ko'ra inventarizatsiya turlari:

1) rejali inventarizatsiya, rejasiz inventarizatsiya;

2) navbatdagi audit, navbatdan tashqari audit;

3) yuqori tashkilotning topshirig'i bilan o'tkaziladigan audit rejali audit;

4) rahbarlarning topshirig'i bilan o'tkaziladigan audit rejasiz audit;

5) moliya organlari o'tkazadigan audit bank bo'limi o'tkazadigan audit.

64. Obyektni qamrab olishiga ko'ra inventarizatsiya turlari:

1) to'liq inventarizatsiya, qoplama inventarizatsiya;

2) to'liq inventarizatsiya, navbatdan tashqari inventarizatsiya;

3) tanlanma inventarizatsiya, rejali inventarizatsiya;

4) resurslar inventarizatsiyasi, rejasiz inventarizatsiya;

5) jarayonlar inventarizatsiyasi, navbatli inventarizatsiya.

65. Mazmuniga ko'ra inventarizatsiya turlari

1) resurslar inventarizatsiyasi, jarayonlar inventarizatsiyasi;

2) resurslar inventarizatsiyasi, to'liq inventarizatsiya;

3) jarayonlar inventarizatsiyasi, qoplanma inventarizatsiya;

4) rejali inventarizatsiya, to'liq inventarizatsiya;

5) rejasiz inventarizatsiya, qoplanma inventarizatsiya.

66. Audit ishlari qanday rejalar asosida amalga oshiriladi?

1) istiqbol rejalar, joriy rejalar, individual rejalar;

2) istiqbol rejalar, individual rejalar;

3) kvartallik rejalar, joriy rejalar;

4) besh yillik rejalar, istiqbol rejalar;

5) ish rejalar, oylik rejalar.

67. Audit ishlarini tashkil qilish shakllari:

1) markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan;

2) rejalashtirilgan, rejalashtirilmagan jamoa individual, aralash, aralash bo'lmagan;

3) markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan navbatdagi, navbatdan tashqari, aralash, aralash bo'lmagan;

4) markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan jamoa, individual, xususiy umumiy;

5) hujjatli, haqiqiy rejalashtirilgan, rejalashtirilmagan, aralash bo'lmagan, aralash.

68. Audit tekshiruvini o'tkazish tartibi qanday bo'ladi?

1) aloqa o'rnatish, audit qilish, dalolatnoma tuzish, qaror qabul qilishga tayyorlash;

2) inventarizatsiya, audit qilish, dalolatnoma tuzish, hisobotda aks ettirish;

3) aloqa o'rnatish, mulkni ko'rib chiqish, bayonnoma tuzish, jurnal-orderda aks ettirish;

4) obyektlar bilan tanishish, inventarizatsiya qaror qabul qilish, raport yozish;

5) aloqa o'rnatish, dalolatnoma tuzish, qaror qabul qilish, buxgalteriya registrlarida, aks ettirish.

69. Audit dalolatnomasi qaysi bo'limlardan iborat bo'ladi?

1) kirish, asosiy qism, xulosa;

2) umumiy qism, xulosa, taklif;

3) boshlang'ich qism, asosiy qism, yakuniy qism;

4) boshlang'ich qism, umumiy qism, taklif;

5) kirish, umumiy qism, taklif.

70. Audit dalolatnoma necha kun ichida imzolanishi kerak?

1) 3 kun ichida;

2) 5 kun ichida;

3) 1 oy ichida;

4) darhol imzolanishi kerak;

5) 1 hafta ichida.

71. Xazina operatsiyalarini audit qilish davrida moliya va xazina intizomining buzilishlari qanday rasmiylashtiriladi?

1) barcha moliya va xazina operatsiyalarining buzilishi o'rganilib, guruhlashtirib umumlashtiriladi, oraliq dalolatnomasi va ma'lumotlarida ko'rsatiladi;

2) barcha yuqoridagi buzilish guruhlashi umumlashtiriladi, yuqori organlarga yuboriladi;

3) xazinabonni ishdan olish haqida bildirish yoziladi;

4) xazinabon faoliyati bo'yicha tuzilgan dalolatnoma sud-tergov organlariga yuboriladi;

5) «g» punktida qo'shimcha xazinabonni ishdan bo'shatish to'g'risida qarz loyihasi tayyorlanadi.

72. Xazinadan audit natijasida 1500 m. so'm kam chiqsa qanday rasmiylashtiriladi?

1) inventarizatsiya va audit dalolatnomasi tuziladi;

2) «a» punktga qo'shimcha chiqim orderi yoziladi;
3) «a» va «b» punktga qo'shimcha ma'muriyatga bildirgi yoziladi;

4) «a», «b» va «v» punktlarga qo'shimcha materiallar tergov organlariga o'tkaziladi, jamoaga havola qilinadi.

73. Qisqa muddatli qarzlarni tugatish koeffitsiyenti qanday belgilanadi?

1) qimmatbaho qog'ozlar va real debetorlarning joriy majburiyatlarga nisbati;

2) qimmatbaho qog'ozlar va barcha debetorlarning kreditorlarga nisbati;

3) qimmatbaho qog'ozlar, pul mablag'lari, asosiy vositalar qiymatining barcha kreditorlarga nisbati.

74. Absolut tugatish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

1) pul mablag'lari va qimmatbaho qog'ozlarning joriy majburiyatlarga nisbati;

2) pul mablag'larining debetor qarzlarga nisbati;

3) pul mablag'lari, kreditorlarning debetorlarga nisbati;

4) pul mablag'lari, aylanma mablag'larni kreditor qarzlarga nisbati;

5) asosiy vosita va aylanma mablag'lari nisbati.

75. Xazinada soxta hujjat aniqlandi, summasi 2000 so'm, natija qanday chiqariladi?

1) hujjat olinadi;

2) dalolatnoma tuziladi;

3) audit yakuniga qo'shib dalolatnoma tuziladi;

4) hujjat tergov organlariga yuboriladi;

5) dalolatnoma, hujjatlar olinib jamoaga havola qilinadi.

76. Xazina operatsiyalarining summasi bir kunda 5000 so'mgacha bo'lgan holda, xazina necha kunda hisobot topshiradi?

1) 3—5 kunda;

2) 10—15 kunda;

3) 1 haftada;

4) 20—30 kunda.

77. Xazinadagi kirim hujjatlarini audit qilish:

1) xazina kirim orderi, chek koreshoklari, bank ko'chirmasi;

2) hisob to'lov vedomostlari, to'lov topshiriqlari;

- 3) e'lon qog'ozi, chek koreshoklari, bank ko'chirmalari;
- 4) xazina chiqim orderi, to'lov talabnomasi;
- 5) chek, hisob to'lov vedomostlari, bank ko'chirmalari.

78. Xazinadagi chiqim hujjatlarini audit qilish:

- 1) hisobot to'lov vedomostlari, xazina chiqim orderlari;
- 2) xazina kirim orderi, chek koreshoklari, xazina chiqim orderi;

3) e'lon qog'ozi, chek koreshoklari, hisob-to'lov vedomosti;

4) avans hisoboti, xazina kirim orderi;

5) kartochkalar, hisob-to'lov vedomostlari.

79. Hisob-kitob operatsiyalarini iqtisodiy tahlil usulidan foydalanib tahlil qilganda qanday hujjatdan foydalaniladi?

- 1) jadval, ma'lumotnoma;
- 2) ma'lumotnoma, bayonnomalar;
- 3) bayonnoma, tilxat;
- 4) tilxat, invensiya, dalolatnoma;
- 5) dalolatnoma, so'rov xati.

80. Moddiy boyliklarni audit qilish tartibi nimalardan iborat?

1) omborda ishlarni, dastlabki hisob, invensiya va uning natijalarini schotlarga taqqoslash, kirim va chiqim hujjatlarini o'rganib, dalolatnoma tuziladi;

2) ombordagi ishlar dastlabki va buxgalteriya hisobi ma'lumotlari invensiya va harakati o'rganilib, dalolatnoma tuziladi;

3) «a», «b» punktlarga qo'shimcha moddiy zararlar aniqlanadi;

4) «a», «b», «v» punktlardagi ishlarga dalolatnoma tuziladi;

5) «a», «b», «v», va «g» punktlarga zarar undirilgan.

81. Moddiy boyliklar auditi qanday hujjatlar bilan yakunlanadi?

1) buyruq, invensiya ro'yxati, solishtirma qaydnoma;

2) buyruq tilxat, invensiya ro'yxati, solishtirma qaydnoma, dalolatnoma;

3) buyruq, solishtirma vedomost, oraliq dalolatnoma;

4) buyruq, invensiya ro'yxati, oraliq dalolatnoma, tushuntirish xati;

5) «g» punktga undirilganligi haqida dalolatnoma tuziladi.

82. Chorva mollari bosh sonining kam yoki ortiqcha chiqqanligini qaysi hujjat orqali aniqlash mumkin?

- 1) solishtirma qaydnoma;
- 2) yillik hisobot;
- 3) ishlab chiqarish moliya rejasi;
- 4) 9- jurnal-order;
- 5) moddiy javobgar shaxs hisoboti.

83. Texnologiya jarayonini audit qilishda qaysi hujjatlardan foydalaniladi?

- 1) normativlar, haqiqiy bajarilgan ishni ko'rsatuvchi hujjatlar;
- 2) normativ va bajarilgan ishlar, hisob varaqasi;
- 3) texnologik xarita va statistik hisobotlar;
- 4) texnologik xarita, statistik operativ hisoblar;
- 5) texnologik xarita va buxgalteriya hamda dastlabki hisob ma'lumotlari.

84. Realizatsiya jarayonini audit qilishda qanday tartibga amal qilinadi?

- 1) shartnoma, davlat buyurtma shartnomasi, kvitansiya;
- 2) davlat shartnomasi, shartnoma kvitansiya, tovar transport hujjatlar o'rganiladi;
- 3) «a», «b» punkt va zarar aniqlanadi;
- 4) davlat shartnomasi, shartnoma kvitansiya, transport hujjatlari hisoboti o'rganiladi;
- 5) «g» punkt va mahsulot daromadi.

85. Foyda va zararni audit qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

- 1) mahsulot sotishdan foyda o'rganiladi;
- 2) mahsulot sotishdan zarar o'rganiladi;
- 3) har bir foyda va zarar operatsiyasi o'rganiladi;
- 4) xizmat ko'rsatish, ish bajarishdan foyda va zararlar o'rganiladi;
- 5) jarima, penalar tekshirilib o'rganiladi.

86. Audit davrida korxonada samaradorligining umumiy ko'rsatkichining ahamiyati:

- 1) rentabellik darajasi;
- 2) foyda me'yor;
- 3) moliyaviy ahvol;
- 4) to'lov qobiliyati;

5) samaradorlik umumiy ko'rsatkichi, bozor munosabatlari.

87. Kapital qo'yimlarni audit qilishda foydalaniladigan usullar:

- 1) shartnomalarni o'rganish;
- 2) ishlarni qabul qilish va smeta;
- 3) ishlar loyihasi, bajariladigan smeta;
- 4) ishlar loyihasi, nazorat o'lchov smeta;
- 5) ishlarni qabul qilish dalolatnomasi, loyiha, smeta.

88. Moddiy zarar aniqlangan holatda javobgar shaxsning ishdan bo'shash to'g'risidagi arizasi qanday holda hisobotga olinadi?

- 1) moddiy zarar undirilgan holda;
- 2) kam miqdorda bo'lsa;
- 3) korxonah rahbarlarining roziligi bilan;
- 4) korxonah ma'muriyatining roziligi bilan;
- 5) yuqori tashkilot roziligi bilan.

89. Ustav fondi qanday audit qilinadi?

- 1) kiritim qismi ko'riladi;
- 2) fondga ehtiyoj kiritim qismi o'rganiladi;
- 3) chiqim qismi koriladi;
- 4) ehtiyojga kiritim taqqoslanadi;
- 5) ehtiyojga kiritim va chiqim taqqoslanadi.

90. «EKST-ZID» va «PRAYS USTERXAUZ», Arbur Anderson auditorlik firmalari nechta mamlakatda faoliyat ko'rsatadi?

- 1) mutanosib ravishda 179, 110, 100;
- 2) mutanosib ravishda 110, 175, 80;
- 3) mutanosib ravishda 179, 100, 110;
- 4) mutanosib ravishda 100, 120, 178;
- 5) mutanosib ravishda 179, 96, 85.

91. Audit haqida qonun va nizomlarning qabul qilingan vaqti:

- 1) hamdo'stlik mamlakatlari ichida birinchi, 1992- yil;
- 2) hamdo'stlik mamlakatlari ichida oldinda, 1992, 1993- yillar;
- 3) hamdo'stlik mamlakatlari ichida eng avval, 1992, 1994- yillar;
- 4) hamdo'stlik mamlakatlarida birinchi qabul qilingan, 1993- yil;
- 5) hamdo'stlik mamlakatlarida birinchi, 1994- yil.

92. Aylanma mablag'larning o'rtacha aylanish koeffitsiyenti:

- 1) mahsulot sotish hajmining o'rtacha debetor qarzlarga nisbati;
- 2) aylanma mablag'larning debetorlarga nisbati;
- 3) aylanma mablag'larning mahsulot hajmiga nisbati;
- 4) aylanma mablag'larning kreditor qarzlarga nisbati;
- 5) aylanma va pul mablag'larning kreditor qarzlarga nisbati.

93. O'rtacha tovar zaxiralarning naqd pulga aylanishi kunlar soni qanday topiladi?

- 1) yuk jo'natish kunlarini sotilgan mahsulot qiymatiga bo'lish asosida;
- 2) yuk jo'natish kunlari kredit olingan kunlarga qo'shiladi;
- 3) o'rtacha sotilgan mahsulot qiymati to'lash kunlariga, o'rtacha yuk jo'natish kunlariga qo'shiladi;
- 4) o'rtacha to'lash kunlariga kredit olingan kunlar qo'shiladi;
- 5) o'rtacha to'lash kunlariga mahsulot qiymati qo'shiladi.

94. Aksionerlar hissasining qarzlarga nisbati qanday topiladi?

- 1) barcha kreditorlik majburiyatlari aksiya kapitaliga bo'linadi;
- 2) aksiya kapitali barcha kreditorlik qarzlarga bo'linadi;
- 3) aksiya kapitali debetorlik qarzlarga bo'linadi;
- 4) aksiya kapitali ssuda miqdoriga bo'linadi;
- 5) aksiya kapitali aylanma mablag'larga bo'linadi.

95. Mavjud material aktivlarning aksionerlar hissasiga nisbati qanday topiladi?

- 1) nomoddiy aktivlar aksiyalari qiymatining aksiya kapitaliga nisbati;
- 2) nomoddiy aktivlar va aylanma mablag'lar qiymatining aksiya kapitaliga nisbati;
- 3) nomoddiy aktivlarning ssuda kapitaliga nisbati;
- 4) nomoddiy aktivlarning kredit qarzlarga nisbati;
- 5) aksiya kapitali+nomoddiy aktivlarning aksiya kapitaliga nisbati.

96. Audit turlari va ular natijalarining rasmiylashtirilishi

- 1) taftish-ma'lumotnoma, tekshiruv-dalolatnoma, tekshiruv-ma'lumotnoma, surishtiruv-bayonnoma;

2) taftish-dalolatnoma, tekshirish-ma'lumotnoma, surishtiruv-bayonnoma;

3) taftish-dalolatnoma, ma'lumotnoma, tekshirish ma'lumotnoma, tergov bayonnoma, xo'jalik tortishuvi, bayonnoma, ma'lumotnoma;

4) taftish-dalolatnoma, tekshirish ma'lumotnoma, surishtiruv bayonnoma;

5) taftish-dalolatnoma, ma'lumotnoma, tekshirish ma'lumotnomasi, xo'jalik tortishuvi, ma'lumotnoma, tahlil jadvali.

97. Auditni o'tkazishda foydalanilayotgan manbalarga qarab uning turkumlanishi:

1) haqiqiy, tekshiruv audit, surishtiruv;

2) haqiqiy, tekshiruv audit, hujjatli audit;

3) haqiqiy, surishtiruv auditi va hujjatli audit;

4) haqiqiy va hujjatli audit;

5) haqiqiy va hujjatli auditlar va inventarizatsiya.

98. Auditni o'tkazish usuliga qarab turkumlanishi:

1) tergov auditi, tekshirish auditi, surishtiruv, iqtisodiy tahlil;

2) tergov auditi, audit, inventarizatsiya;

3) xo'jalik tortishuvi, iqtisodiy tahlil;

4) tergov auditi, audit, audit, xo'jalik tortishuvi, tekshirish, iqtisodiy tahlil;

5) tergov auditi, audit, iqtisodiy tahlil.

99. Muddatlarga qarab auditning turkumlanishi:

1) yillik, oylik, yarim yillik auditlar;

2) haftalik, oylik, kunlik, yarim yillik va kvartallik auditlar;

3) kunlik, haftalik, oylik, kvartallik, yarim yillik va yillik auditlar;

4) kunlik, haftalik, dekadalik, oylik, kvartallik, yarim yillik va yillik doimiy auditlar;

5) kunlik, oylik va kvartallik, dekadalik, yarim yillik va yillik auditlar.

100. Auditni o'tkazuvchi organlarga qarab auditning turkumlanishi:

1) tashqi va ichki audit;

2) tashqi yustitsiya organlari, bank muassasalari, statistika organlari va ichki audit;

3) tashqi hamda ichki audit, buxgalteriya va audit hay'ati auditi;

4) tashqi hamda ichki audit, ma'muriyat va audit hay'ati kasaba uyushmalari auditi;

5) tashqi audit, moliyaviy qaram bo'lgan yuqori tashkilotlar va ichki audit.

101. Iqtisodiy auditda foydalaniladigan hujjatli manbalar:

1) hujjatlar, registrlar va hisobotlar, oldingi o'tkaziladigan audit yakuniy hujjatlari;

2) hujjatlar, buxgalteriya daftari, hisobot taftish dalolatnomalari;

3) hujjatlar, hisobdor shaxs, hisob-kitob daftarlari, hisobotlar, buxgalteriya registrlari, tekshiruv ma'lumotnomalari, taftish dalolatnomalari;

4) hujjatlar, jurnal-orderlar, hisobotlar, oldingi o'tkazilgan audit yakunlari;

5) hujjatlar, hisobdor shaxslar daftarlari, jurnal-orderlari, oldingi audit yakunlari.

102. Jamoa korxonalari audit hay'atining faoliyat ko'rsatish muddatlarini aniqlang:

1) ustavda belgilangan muddatga;

2) uch yilga;

3) ikki yilga;

4) bir yilga;

5) besh yilga.

103. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

1) 2000- yil 28- mayda;

2) 2000- yil 25- mayda;

3) 2000- yil 26- mayda;

4) 2000- yil 24- mayda;

5) 2000- yil 23- mayda.

104. Yangi qonun nechta moddadan iborat?

1) 30 moddadan;

2) 31 moddadan;

3) 29 moddadan;

4) 25 moddadan;

5) 32 moddadan.

105. Auditorlik faoliyati haqida nechta nizom qabul qilingan?

- 1) 4 ta;
- 2) 5 ta;
- 3) 3 ta;
- 4) 6 ta;
- 5) 2 ta.

106. Yangi qonunga muvofiq yordamchi auditor moddasi nima uchun kiritilgan?

- 1) auditorlik tekshiruvlari kompleksligi uchun;
- 2) takomillashtirish uchun;
- 3) to'liq bo'lish uchun;
- 4) barcha faoliyatlarni qamrab olish uchun;
- 5) zarur mutaxassislarni jalb qilish uchun.

107. Auditorlik firmasiga huquqni qaysi hujjat beradi?

- 1) sertifikat;
- 2) litsenziya;
- 3) sertifikat va litsenziya;
- 4) litsenziya va sertifikat;
- 5) guvohnoma.

108. Auditorlik firmasi ustav jamg'armasining miqdori qancha?

- 1) 1000 — eng kam ish haqi;
- 2) 2250 so'm;
- 3) 1050 — eng kam ish haqi;
- 4) 1200 — eng kam ish haqi;
- 5) 1250 — eng kam ish haqi.

109. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish tartiblari:

- 1) tashabbus bilan;
- 2) majburiy ravishda;
- 3) majburiy va tashabbus asosida;
- 4) ma'lum so'roq xati bilan;
- 5) soliq organlari xati bilan.

110. Auditorga tekshirish uchun huquq beradigan hujjat?

- 1) sertifikat;
- 2) litsenziya;
- 3) diplom;
- 4) diplom va sertifikat;
- 5) guvohnoma va sertifikat.

Me'yoriy hujjatning mazmuni

t/r	Me'yoriy hujjatning nomi	Me'yoriy hujjatning mazmuni
1	2	3
1.	Audit maqsadi va asosiy tamoyillari	Mustaqil auditor tomonidan qamrab olinadigan soha (doira) va vazifalar yoziladi.
2.	Auditorning mijoz oldidagi yozma majburiyati	Auditor tomonidan majburiyat yozma xatda, auditorlik ishining hajmi belgilanadi, uning javobgarligi ko'rsatiladi va hisobot formasi (kelishiladi shakli).
3.	Auditni tartibga soluvchi asosiy prinsiplar	Unda audit tekshiruvining asosiy prinsiplari belgilab olinadi: butunlik, obyektivlik (xolislik), ish va xulosada mustaqillik, bilim-malaka, hujjat bilan rasmiylashtirish, rejalashtirish, auditorlik isbot-dalillarini olish, korxonada hisob tizimini tekshirish, ichki audit tizimini tekshirish, ichki audit tizimini, olingan axborot va xulosalarni tahlil qilish, nihoyat hisobot tuzish kabilar.
4.	Rejalashtirish	Bunda rejalashtirish jarayonlarining elementlari, amaliy bajariladigan ishlar ro'yxati ko'rsatiladi.
5.	Boshqa auditorlar xulosalaridan, materiallaridan foydalanish	Moliyaviy hisobot bo'yicha oldingi mustaqil auditorning fikrlarini bayon qiladi va xulosalarida mulohazalarini bildiradi.
6.	Ichki auditning tavakkalchiligini va ish natijasini baholash	Ichki audit tizimi, hisob sistemasi elementlari, auditorlik tekshiruv jarayonlari keng yoritilishi lozim.
7.	Auditorlik faoliyat (ish) sifati auditi	Har bir auditor, auditorlik firmasi tekshiruv jarayoni operatsiyalarining mazmuni sifat jihatidan o'rganiladi.
8.	Auditorlik isbot dalillari	Dalillarni olish tartibi, dalillarni xarakterlash (izohlash).
9.	Qo'shimchalar	Haqiqiy, qonuniy, ishonchli auditorlik dalillarini olish tartibi, ularni auditorlik tekshiruv jarayonlarida qo'llash.
10.	Hujjatlashtirish	Auditor tomonidan tuziladigan zarur yorituvchi forma (jadval) shakli va mazmuni bayon qilinadi.
11.	Ichki audit tekshiruv natijalaridan foydalanish	Ichki auditorlik tekshiruv jarayonlari, uning ishini baholashni mustaqil auditor amalga oshirishi ko'rsatilgan.

1	2	3
12.	Analitik jarayonlar	Analitik tahlil jarayonlarining mohiyatini yoritish ko'rsatilgan.
13.	Auditorning tekshirgan moliyaviy hisobotlari haqidagi hisoboti	Auditor tomonidan tekshirilgan moliyaviy hisobotning shakli, mazmuni keng yoritilgan, hisoboti mos yoki chetlanishlari yoritilgan.
14.	Tekshirilgan moliyaviy hisobot haqida boshqa axborotlar	Moliyaviy hisobot jadvallariga ta'sir ko'rsatuvchi moliyaviy bo'lmagan, ammo auditorning rasmiylashtirgan hujjatlariga kiritilgan hujjatli axborotlar.
15.	Auditorlik tekshiruv jarayonida axborotlarni elektron mashinalarda ishlash	Bugungi kun talabi, auditor tomonidan olingan materiallar, axborotlar hisoblanadigan koeffitsiyentlardir
16.	Auditorlik tekshiruvini texnik vosita, kompyuterlardan foydalanib tekshirish	Auditorlik tekshiruvda tayyor dasturlardan foydalanish (SAAT kabilar).
17.	Bog'liq tomonlar	Auditorlik isbot dalillarini olishda, ularga tegishli tomonlardan zarur ma'lumotlarni olish.
18.	Auditorlik tekshiruv jarayonida eksperiment hisob-kitoblardan foydalanish	Tekshiruv jarayonida eksperiment hisob-kitob sifatida mutaxassislarning baholash fikr va mulohazalaridan foydalanish.
19.	Auditorlik talabi	Tekshiruvni amalga oshirishda ish hajmi, turi, mazmunidan kelib chiqib, obyekt va audit tekshiruv turlarini tanlash yoritilgan.
20.	Hisob ishlarini va ichki audit tizimlarini baholashda elektron ishlovlarning ta'sirini bilish	Hisob va ichki audit tizimida elektron holda ma'lumotlarni ishlash qanday rol o'ynaganligini o'rganish ko'rsatilgan.
21.	Auditorlik hisobotining sanasi; Moliyaviy hisobot e'lon qilingandan keyingi holatlar	Auditor hisobot sanasi, auditor javobgarligi, majburiyatlar va balansning tuzilgan vaqti.
22.	Auditorlik firma rahbariga auditor tomonidan axborotnoma	Auditor tekshiruv yakunlari bo'yicha axborot, isbotlovchi dalillar ko'rsatiladi.

1	2	3
23.	Korxonaning doimiy faoliyat ko'rsatishi jihatidan baholanishi	Turli vaziyatlarda auditor tomonidan korxonada moliyaviy hisobotning ma'lumotlariga qarab turgan muammolarga javobi ko'rsatiladi.
24.	Auditorning maxsus tayinlangan xulosasi	Auditor tekshiruv maqsadidan kelib chiqqan hisobotni tuzishi, unda yozma majburiyat va shartnomada ko'rsatilgan masalalarning o'z aksini topishi.
25.	Auditorlik tavakkalchiligi va javobgarligi	Bunda auditorning javobgarligi, auditorlik tavakkalchiligi, ularning rejalashtirilishi, qo'llanilishi, audit tekshiruvda foydalanish tekshiruv jarayonlarining o'tishi va baholanishi.
26.	Audit hisobining baholanishi	Auditorlar tekshiruv jarayonlarida o'ziga ishonchli bo'lishi uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni mazmunlariga qarab baholashi lozim.
27.	Korxonaning istiqbolli rivojlanish moliyaviy axborot ko'rsatkichlari	Auditorlik tekshiruv jarayonida istiqbolli moliyaviy ko'rsatkichlar haqida o'rganiladi.
28.	Auditorning birinchi tekshiruv moliyaviy hisobotlardagi boshlang'ich qoldiqlar bo'yicha javobgarligi	Auditor birinchi tekshiruv jarayonida moliyaviy hisobotlardagi qoldiqlarga moddiy javobgarligi ko'rsatiladi.
29.	Mustaqil auditorlik tekshiruv jarayonida auditor tanlagan tavakkalchilikni baholash	Auditor malakasida foydalanilayotgan tavakkalchilik, ularning mohiyatini qo'llash hajmi, vaqti va boshqalar haqida yoziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O'zbekiston», 1992- yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni. «O'zbekiston», 1992- yil.
3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonuni. «O'zbekiston», 1992- yil.
4. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonuni. «O'zbekiston», 1992- yil.
5. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. «Adolat», 1994, 42—49- betlar.
6. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi (yangi tahrirdagisi) Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 22- sentabrdagi «Auditorlik faoliyatini tartibga solish haqida»gi 365-sonli qarori (4 ta ilova bilan).
8. «O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun. «Xalq so'zi», 1996- yil, 12- sentabr.
9. «O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida»gi Nizom. Vazirlar Mahkamasining 1994- yil, 26- mart, 164- sonli qaroriga ilova.
10. «O'zbekiston Respublikasi Milliy audit standartlari». 2000- y. № 3, 4, 5, 16.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibiy hamda moliyaviy natijalari shakllanishi tartiblari to'g'risida» Nizom. 1995- yil.
12. Karimov I. A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». Toshkent: «O'zbekiston», 1995- yil. 29- bet.
13. Karimov I.A. «O'zbekiston Respublikasi XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». 1997- yil.

14. Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz». 7- jild, «O‘zbekiston», 1999- yil.
15. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz». 8- jild. «O‘zbekiston», 2000- yil.
16. Андреев В.Д. «Практический аудит» (справочное пособие). М. «Экономика», 1994 г.
17. Арнэс Э. А. Лоббек Дж. К. Аудит. М: «Финансы и статистика», 1995 г.
18. Abdugarimov T. «Buxgalteriya hisobotlarini o‘qish va tahlil qilish». Т. 1999- у.
19. Актуальные проблемы учета, аудита и совершенствования финансово-кредитной системы в условиях рыночных отношений (14-16 декабря, 1993 г). Самарканд, СКИ-1993.
20. «Банковский надзор и аудит». «Инфа-1995 г.
21. Белов Н. Г. Контроль и ревизия в сельском хозяйстве. М. ВО «Агропромиздат», 1988 г.
22. Бутинец Ф. Р. и др. Контрольно-ревизионная служба на селе. Вопросы и ответы. М. «Агропромиздат», 1986 г.
23. Додж Р. Краткое руководство по стандартам и нормам аудита. Пер, С англ. предисл. Стукова С. А. М., «Финансы и статистика», 1992 г.
24. Данилевский Ю. А. Аудит: Вопросы и отчеты. М., Библиотека журналы «Бухгалтерский учет». 1993. С. 110.
25. Ван Хори Дж К. «Значение финансового менеджмента». «Финансы и статистика». 2000 г. С 788.
26. Додж Р. Краткое руководство по стандартам и нормам аудита. «Финансы и статистика». ЮНИТИ, 1992. С.192, 240.
27. Дюри К. «Введение в управленческий учет» М.: Аудит 1998 г. С. 582.
28. Иткин Ю. М. Проблемы становления аудита. М.: «Финансы и статистика», 1991 г.
29. Ibrohimov A. «Ijara va kichik korxonalarda buxgalteriya hisobi hamda iqtisodiy auditni tashkil etish». Т., 1992.
30. Ibragimov A., Karimov. «Xorij sarmoyalari — buxgalteriya hisobi». Т. 1999- у. 142- bet.
31. Камышанов П. М. Знакомьтесь: Аудит (организация и методика проверок). М., Информационно-внедреческий центр «Маркетинг», 1994 г.

32. Karimov N. «Suhbatga chorlaymiz», SBX 15-son, 29- yanvar 2001- yil.

33. Qurbonov Z.N., Turdiyev M.K. «Auditorlik faoliyatini tashkil qilish». Samarqand: «Matbuot uyi». 1994- yil.

34. Mamatov Z., Norbekov D. va boshqalar. «Audit», Toshkent, 2002- yil.

35. Musayev X.N. «Islohotlar va muammolar» (yoki bozor munosabatlari sharoitida mutaxassislar tayyorlash). Iqtisod va hisobot jurnali, 1995. 1—2- sonlar. 6—8- betlar.

36. Мусаев Х.Н., Мусаева М.У. Проблемы организации учета и аудита в условиях перехода к международным стандартам. Материалы международной науч-прак. Конференции: «Актуальные проблемы учета аудита и совершенствования финансово-кредитной системы в условиях рыночных отношений». Самарканд, 1994 г.

37. Musayev X.N. Audit uslubiyoti va tashkil qilinishi muammolari. «Bozor munosabatlari sharoitida hisob, audit va tahlil muammolari». Samarqand, 1995- yil.

38. Musayev X.N. «Audit». Samarqand, 2002- yil.

39. Тулахужаева М.М. Аудит финансового состояния предприятия. Ташкент, 1994 г.

40. Гадоев Ф.Э., Югай Д.П. «Рекомендации по применению плана счетов с типовыми бухгалтерскими проводками». Т. 1997 г. «Мир экономики и права». С. 294.

41. Иткин Ю. М., Сотиболдиев А., Гадоев Э. Ф., Пулатходжаева М. «Бухгалтерский учет в условиях рыночной экономики Узбекистана». Т. 1999 г. I-II часть.

42. Егоров В. С, Санников А. А. Практикум по контролю и ревизии в сельском хозяйстве, 1985 г.

43. Национальный стандарт бухгалтерского учета Республики Узбекистан НСБУ — 21. План счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов и инструкция по его применению. Т. Ассоциация бухгалтеров и аудитов Узбекистана. С. 216.

44. Rizaqulov A., Ibragimov A., Hasanov B., Usanov, Mamatov Z. G. «Buxgalteriya hisobotlarining xalqaro standartlari». Т. 1994- у.

45. Ризакулов А, Нарзиев Р. «Аудит». Т. 1999. г. С. 211.

46. Гатаулин Ш. К, Гадоев Э. Ф, Югай Л. П. «Рекомендации по применению журнально-ордерной формы бухгалтерской отчетности». 1999 г.
47. Sanayev N.S. «Audit». N.: «Fan». 1996- y.
48. Radjabov R., Do'stmurodov R.D. «Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobi». Nukus: «Bilim», 1995- y.
49. Спец выпуск 2. «Национальные стандарты бухгалтерского учета Республика Узбекистан». Т, 2000 г.
50. Ассоциация бухгалтеров и аудиторов Узбекистана. С. 194.
51. O'rozov N.B., Toshnazarov S.N. Xalqaro hisob asoslari. Samarqand SKI, 1995- yil.
52. Hamdamov B. «Moliyaviy nazorat va audit». Iqtisod va hisobot jurnali. 1993- yil. 4- son.
53. Халимов А. Х. Современная методика проведения аудита на предприятиях Республики Узбекистан. 1995 г.
54. Шеремет А. Д. «Аудит» М., 1994 г.
55. Loyiha: «O'zbekiston Auditorlarining kasbiy etikasi kodeksi». BSX № 5, 29- yanvar 2001- yil.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1- mavzu: O'zbekistonda auditorlik faoliyati, rivojlantirishning muammolari, audit fanining maqsad va vazifalari	13
2- mavzu: Auditning umumiy qoidalari	26
3- mavzu: Auditorning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi	35
4- mavzu: Auditorlik xizmatini tashkil qilish	45
5- mavzu: Auditor xulq-atvori, axloq-odob tamoyillari	73
6- mavzu: Korxonalarda ichki va tashqi audit xizmatlari	92
7- mavzu: Korxonalarda moddiy boyliklar va pul mablag'larining audit xizmatlari	101
8- mavzu: Korxonalarda inventarizatsia o'tkazish tartib va qoidalari	114
9- mavzu: Xazina va xazina operatsiyalari auditi	140
10- mavzu: Korxonada hisob varag'i va boshqa hisob varaqlarini yuritilish auditi	151
11- mavzu: Hisob-kitob va kredit operatsiyalari	154
12- mavzu: Asosiy vositalarning butun saqlanishi va ulardan foydalanish auditi	167
13- mavzu: Nomoddiy aktivlarning audit tekshiruvi	177
14- mavzu: Moliyaviy qo'yilmalar sarflanishining tekshiruvi	179
15- mavzu: Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxining tekshiruvi	188
16- mavzu: Dehqonchilikda audit tekshiruvini tashkil qilish	189
17- mavzu: Chorvachilikda audit tekshiruvini tashkil qilish	191
18- mavzu: Yordamchi ishlab chiqarish va transport xizmati auditi	201
19- mavzu: «Davriy xarajatlarda» auditi	210
20- mavzu: Korxonaning moliyaviy natijalarini tekshirish	212
21- mavzu: Korxonaning soliqlari va ularni hisoblashni tekshirish	218
22- mavzu: Qo'shma korxonada, kichik korxonada, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda audit tekshiruvini o'tkazish	220
23- mavzu: Budjet muassasalarida buxgalteriya hisobini yuritish va audit tekshiruvini o'tkazish	238
24- mavzu: Korxonada moliyaviy ahvoli auditi	242
25- mavzu: Korxonada hisobotlarini tekshirish va tahlil qilish	247
26- mavzu: Auditorlik xizmatining hisoboti va tekshirish yakunlarini rasmiylashtirish	249
Ilovalar	260
Audit o'quv konsalting markazi yakuniy testlari	267
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	299

N. Sanayev

AUDIT

Muharrir *A. Ziyodov*

Musavvir *J. Gurova*

Texnik muharrir *T. Smirnova*

Musahhih *M. Akromova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Ye. Gilmutdinova*

Bosishga 03.06.04 da ruxsat etildi. Bichimi 84×108^{1/32}.

«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 15,96.

Nashr b.t. 17,22. Jami 5000 nusxa. 83-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ bosmaxonasida bosildi.

Toshkent, H.Boyqaro ko'chasi, 51.